

**O'ZBEK MILLIY FOLKLOR
SAN'ATI VA ETNOMADANIY
QADRIYATLAR**



+2
DVD



162.3
Ö.26

Kitob shu erda ko'rsatilgan muddatdan
kuchiktirmagan holda topshirilishi sart

Ilgarigi berilmalar miqdori _____

51 kv. qo. 24.09.17
53 kv. / 28.01.18
18 kv. qo. 05.02.18

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MADANIYAT VA SPORT ISHLARI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT SAN'AT VA
MADANIYAT INSTITUTI

O'ZBEK MILLIY FOLKLOR SAN'ATI
VA ETNOMADANIY QADRIYATLAR

O'QUV QO'LLANMA

1640 (y44)

«NAVRO'Z» nashriyoti
Toshkent – 2014

KBK: 80.12(SO'zb) 8
M 85
UO'K: 162(55+2) 3.7

ISBN 978-9943-381-47-6

Mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish markazining A-1-035 amaliy tadqiqotlar doirasida bajarildi. Ma'lumki, xalqimizning eng qadimiy, hayotbaxsh milliy qadriyatlaridan biri - folklor san'atidir. Bu san'at badiiy an'analarni tizim sifatida xalqimizning ilg'or umuminsoniy g'oyalarni takomillashtirib, kelajakka umid, ezigulik, mehr-saxovat, insoniylik, vatanparvarlik bilan bog'liq milliy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanmada o'zbek milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlarini o'rganilish tarixi, an'anaviy tomosha san'ati va ommaviy bayramlar, mustaqillik davri folklorshunosligi va san'atining taraqqiyot bosqichlari haqida ma'lumot beriladi. Shuningdek, o'zbeklarning etnomadaniy qadriyatlarini o'ziga xos xususiyatlari, noyob musiqiy cholg'ular, mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik ansambllarning dasturidagi badiiy matnlar, folklor san'atining ma'naviy-madaniy, tarbiyaviy-axloqiy tomonlari batafsil yoritilgan. Ayni paytda, shu soha mutaxassislarining folklor janrlarini tashkil etish, rivojlantirish borasidagi bilimlarini nazariy va amaliy jihatdan boyitish ham ko'zda tutilgan. O'quv qo'llanma madaniyat xodimlari, folklor-etnografik ansambllari rahbarlari, xalq ijodiyoti va san'at yo'nalishida ta'lim olayotgan oliy o'quv yurti talabalari, kasb-hunar kolleji o'quvchilari va keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir: O'zbekiston Davlat San'at va madaniyat instituti professori,
filologiya fanlari nomzodi **Saodatxon Yo'ldosheva**

Taqrizchilar: filologiya fanlari doktori, professor **To'ra Mirzayev**
tarix fanlari doktori, professor **Ulug'bek Abdullayev**
pedagogika fanlari nomzodi, professor **Adiba Nosirova**

© «NAVRO'Z» nashriyoti 2014
© M.Jo'rayev, B.Sayfullayev, S.Yo'ldosheva,
A.Ashirov, N.Qosimov, O'.Toshmatov, G.Ro'ziyeva

SO'ZBOSHI

Ma'lumki, ma'naviy komillikning ilk sarchashmasi hisoblangan xalq og'zaki badiiy ijodiyoti an'analari ajdodlarimizning yaratuvchilik, buriyodkorlik va insonni ulug'lash bilan bog'liq ezu g'oyalari o'z ifodasini topgan. Shuning uchun ham Sharq xalqlari tafakkuri rivojida muhim rol o'ynagan ma'naviy qadriyatlar tizimining yaratilishida jahondagi eng qadimgi sug'orma dehqonchilik madaniyati va shaharsozlik an'analari yaratgan zukko xalqimizning hissi katta bo'lgan.

O'zining qadimiy va boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimiz xilma-xil janrlardan iborat boy folklor an'analarni yaratishgan. Asrlar davomida ezigulikni tarannum etib kelgan bu tafakkur durdonalarida xalqimizning eng oliyanob, ulug'vor maqsadlarga yo'naltirilgan qarashlari o'z ifodasini topgan. Ajdodlarimiz poetik iqtidorini o'zida mujassamlashtirgan folklor san'ati an'analari va xalq og'zaki badiiy ijodiyoti durdonalari asrlar davomida yosh avlodni yuksak g'oyalar ruhida tarbiyalashning asosi bo'lgan. Xalqimizning folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlarini bunyodkorlik g'oyalari kuch olib taraqqiy etib kelmoqda.

Xalq hayotini, uning orzu-umidlarini, kurash va intilishini, mehnat, quvonch va tashvishlarini badiiy ifodalash an'anasi ko'p ming yillik tarixga ega. Asrlar davomida yaratilib, har bir avlod badiiy-estetik an'analari asosida boyib, sayqal topib kelgan bu ma'naviy xazinani ko'z qorachig'iday saqlash uri yanada rivojlantirish va zamondoshlarimiz tafakkuri darajasida taraqqiy ettirish, folklor san'atining mohiyatini yosh avlod qalb shuuriga chuqur singdirish, shu sohada kadrlar tayyorlash mohiyatini yosh yanada oshirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Xalqimizning ulkan ma'naviy xazinalaridan sanalmish folklor san'ati bilan yosh avlodni tanishtirish, ularni milliy an'analarga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalash, jahon andozalariga mos o'quv adabiyotlari, dasturlari va zamonaviy texnik vositalar asosida ko'zda tutilgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda folklor san'atining tarixi, shakllanish jarayoni va o'ziga xos xususiyatlarini o'rgatish lozim bo'ladi. Bugungi kunda mamlakatimiz istiqbolini yaratuvchi yuqori malakali, jahon standartlari darajasidagi iqtidorli kadrlarni tayyorlash va yurtimizni olamga tanitish borasida keng ko'lami izchil islohotlar olib borilmoqda. Bu ulug'vor o'zgarishlar zamirida ajdodlarimizning boy madaniy merosini tadqiq va targ'ib etish asosida milliy istiqbol mafurasini yaratishdek ezu maqsad mujassamlashtirgan.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin ma'naviy qadriyatlarni tiklash va milliy mentalitetimizni belgilaydigan noyob ma'naviy merosimizni, xususan, milliy qadriyatlarimiz, folklor an'analarni saqlash, targ'ib etish va rivojlantirishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Xalq ijodiyotining unutilish arafasiga kelib qolgan tur va janrlarini tiklab, keng ommalashtirish, o'zbek xalq ijodi durdonalarini jahonda targ'ib etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Natijada, dunyo ma'naviy tamaddumiga o'zining benazir ijodiy qudrati bilan munosib hissa qo'shgan qadimiy qo'shiqlar, marosim va an'alar barkamol avlodni ezu an'analari ruhida kamol topirishning muhim vositalaridan biriga aylantirildi.

Barkamol avlod tarbiyasida milliy an'analarni, jahon xalqlarining eng sara ma'naviy qadriyatlarini tizimidan bahramand bo'lish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki, yurtimizning milliy qiyofasini namoyish etuvchi asriy tafakkur durdonalarini dunyo hozirgi zamon talablariga moslashgan yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tarbiyaviy ahamiyatga ega.

O'zbek xalq folklor san'ati - ajdodlarimiz badiiy salohiyatining asrlar mobaynida taraqqiyoti davomida shakllangan qadrati ma'naviyat xazinasidir. Zukko ajdodlarimizning voqelikka bo'lgan dastlabki mifologik qarashlari tafakkur taraqqiyoti davomida badiiy-estetik hodisaga aylanishi hamda so'z vositasida poetik ifodalinishi natijasida xilma-xil janrlardan tarkib topgan folklor san'ati an'analari shakllanib, asrlar bo'yi xalq badiiy salohiyati sarchashmasidan oziqlanib, rivojlanib kelgan. Folklor xalqimizni yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi ma'naviyat sarchashmasi hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodiyotida mujassamlashgan egzu g'oyalari yosh avlodni ma'naviy komil insonlar qilib tarbiyalashda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Xalqimiz yaratgan bebaho tafakkur durdonalari o'zbek madaniyati, xususan, yozma adabiy an'analarning shakllanishi va takomillashishini ta'minlagan manba bo'lib hisoblanadi.

Xalqimiz tomonidan yaratilgan boy milliy madaniyatimizni rivojlantirish va yanada kamol topirishda, ayniqsa, folklor san'atini jahonga tanitishda o'zbek etnologlari, folklorshunoslari, san'atshunoslari tomonidan ulkan ishlar amalga oshirilmoqda.

Zero o'ziga xos milliy taraqqiyotimizning ma'naviy asoslarini yanada mustahkamlash hamda ajdodlarimizning boy madaniy merosini keng ko'lamda tadqiq va targ'ib etish asosida xalqimizning boy madaniyati, urf-odat va marosimlari, qadimiy madaniy qadriyatlarimizning milliy-etnik asoslarini chuqur biladigan va etnomadaniy qadriyatlarimizning rivojlanishiga xizmat qiladigan yetuk mutaxassis kadrlarni tayyorlash maqsadida O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida ham katta ilmiy-nazariy va amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, xalqimiz yaratgan badiiy madaniyatning ajraamas qismini tashkil etuvchi folklor san'ati an'alarini ilmiy o'rganish va shu asosda yangi tipdagi o'quv adabiyotlari yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki ma'naviy qadriyatlar tizimining ajralmas qismi bo'lgan xalq og'zaki badiiy ijod namunalari yaratuvchi va bunyodkor xalqimizning uzoq asrlik o'rinish tarixi, yashash tarzi, urf-odatlari, qadriyatlari, tafakkur olamini ma'naviy idrok etishi, axloqiy qarashlari aks etilgan bo'lib, xalqimizning dunyo miqyosida o'zini ko'rsatishga imkon beradi.

Folklor san'ati bo'yicha amaliy ahamiyatga molik tadqiqotlar olib borish va uning natijalarini o'quv-pedagogik amaliyotga joriy etishning ahamiyati jihatidan shundaki, ming yillar davomida so'z sehrini o'zida mujassamlashtirish, folklor san'atining namunalari namoyon bo'lgan. Bu noyob namunalarda xalqimiz diliga el-yurt birligi, yuksak vatanparvarlik, qahramonlik, sevgi, sadoqat madani tarannum etuvchi folklor san'ati milliy badiiy tafakkurning ulkan qomusidir. O'zbekning o'zligini nanoyon etadigan, beg'ri keng va maroq bobolarimizning qalb to'ridan qaynab chiqqan dostonlarning avlodidan-avlodga o'tishi va bizgacha yetib kelishida ham ijro'hi, ham ijodkor, ham bastakor vazifasini o'zida mujassamlashtirgan Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Po'likan shoir, Islom shoir Nazar o'g'li kabi ulkan xalq baxshilarining bemihoya katta ulushi bor.

Istiqlol sharoitini bilan xalqimizning milliy qadriyatlarini, xususan, ko'hna va hamisha ezgulikka, diyonatga, imonga undaydigan, el-yurt manfaati va birligini tarannum etadigan folklor san'atini yanada keng rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar vujudga keldi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Alpomish" dostonining 1000 yillik yubileyini o'tkazish to'g'risida"gi 1998-yil 13-yanvardagi tarixiy qarori va yubileyning YUNESKO tadbirlari doirasida keng nishonlanishi o'zbek xalq dostonchiligi an'analari va folklor san'atini rivojlantirishda beqiyos ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbek xalqining azaliy tarixiy va milliy qadriyatlarini folklor san'ati va etnografik materiallar asosida tadqiq etish hamda ularni rivojlantirishni ilmiy-uslubiy asoslarini yaratish maqsadida amalga oshirilgan ushbu tadqiqotda o'zbek xalq milliy folklor

san'atining shakllanish tarixi va tadrijiy rivoji, taraqqiyot bosqichlarini o'rganish, xalq ijodiyotini saqlash va taraqqiy ettirishning ma'naviy-madaniy taraqqiyotdagi o'rni ko'rsatib berishga alohida e'tibor qaratildi. Milliy folklor san'ati janrlari va etnomadaniy qadriyatlarini tasniflandi. Ularni xalqimizning kundalik hamda jamoaviy turmush tarzida tutgan o'rni belgilandi. Xalq og'zaki badiiy ijodiyoti an'analari va folklor san'atidagi xos o'ziga xoslik va lokal xususiyatlari o'rganildi. O'zbek xalqining etnomadaniyati, urf-odatlari, marosimlari an'analarning bugungi holatini ilmiy asosda tarixiy, etnografik va folklorshunoslik nuqtai nazaridan o'rganish asosida tomosha san'ati, xalq raqsi va an'anaviy musiqa madaniyati, xalq sayllari va bayramlarining ma'naviy qadriyat namunasini sifatidagi ahamiyati yoritildi. Ayniqsa, folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlarining mamlekatomiz mustaqilligi yillarida milliy mafkuramiz hamda ma'naviyatini yuksaltirishdagi o'rni yoritishga alohida e'tibor qaratildi.

Ushbu tadqiqot talabalariga o'zbek folklor san'atining tarixiy asoslari, asosiy tur va janrlari, taraqqiyot qonuniyatlari, xalq ijodiyoti va an'analari to'g'risida keng ko'lamda bilim berish, shuningdek, o'zbek xalqining eng yaxshi qadimiy udumlari, marosimlari hamda badiiy ijodiyoti va qadriyatlaridan bahramand bo'lish uchun muhim manba bo'la oladi.

S. Yo'ldosheva
B. Sayfullayev

O'ZBEK FOLKLOR SAN'ATI VA FOLKLORSHUNOSLIGI TARIXI

Folklor san'ati asarlarini to'plash, sistemalashtirish, ommaviy va akademik nashrlarni amalga oshirish hamda keng ko'lami fundamental tadqiqotlarni yaratish borasida bugungi kunda yirik ishlarni amalga oshirib kelayotgan o'zbek folklorshunosligi fanining shakllanishi tarixi XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Folklor asarlarini to'plash va o'rganish ishlari 1918-20 yillarda Turkiston Maorif xalq komissariatining Turkiy sekiyasi, 1921-24 yillarda esa Davlat ilmiy kengashining O'zbek bilim hay'ati tomonidan amalga oshirilgan. O'zbek bilim hay'atining Toshkent viloyati Bo'stonliq tumaniga (1921), Samarqand va Sirdaryo viloyatlariga (1922), Farg'ona vodiysiga (1922) uyushtirilgan folklor ekspedititsiyalari, ayniqsa, samarali bo'lgan. Bu ilmiy safarlarda qatnashgan G'ozzi Olim Yunusov va G'ulom Zafary lapar, o'lan, bolalar qo'shiqlari, og'zaki drama, ertak va afsona, marosim folkloriga oid materiallarni yozib olishgan.

O'zbek bilim hay'ati tomonidan tashkil etilgan folklor-etnografik ekspedititsiyalarga boshchilik qilgan G'.O. Yunusov xalq og'zaki hadiyi ijodi namunalarini to'plash va ommalashtirishning tashabbuskorlaridan biri bo'lgan. Fozil Yo'ldosh o'g'li, Ergash Jumanbulbul o'g'li kabi xalq baxshilarini aniqlagan G'.O. Yunusov o'zbek eposshunosligi tarixida birinchi bo'lib 1922 yilning yozida Fozil Yo'ldosh o'g'li va Hamroqul baxshilardan "Alpomish" dostonidan parchalar yozib olgan. U o'zining "O'zbeklarda el tanishi ishi" nomli maqolasida («Turkiston», 1922, 18 dekabr) folklorshunoslikda birinchi bo'lib "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Yusuf va Ahmad" dostonlari haqida fikr yuritgan. "Alpomish" dostonini jahon adabiyotining "Odiseya", "Iliada" kabi ajoyib durdonalariga qiyoslagan.² G'.O. Yunusov Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida bo'lib, ko'plab qo'shiq, ertak, afsona, maqol, topshimoq va rivoyatlarni yozib olgan, o'zbek marosim folkloriga doir kuzatishlar olib borish bilan bir qatorda boy etnografik materiallarni ham to'plagan. Olim o'zbek folklori namunalarini to'plovchilar uchun metodik qo'llanma ham yaratgan.⁴

G'.O. Yunusovning "Alfa" to'g'risida bir-ikkita («Maorif va o'qitg'uvchi», 1926, №6), «El adabiyotidan namunalar» («Alang», 1928, №6-7, 3-bet), «Og'iz adabiyotida sinfiy tuyg'ular» («Alang», 1930, №5-6) kabi maqolalari xalq og'zaki ijodini ilmiy o'rganish borasidagi ilk tajribalar sifatida folklorshunoslik tarixida muhim o'rinni tutadi.

1925-28 yillarda folkloristik ishlar O'zbekiston Maorif komissariatiga ilmiy shoxrosining O'zbeklarni o'rganish komitetida markazlashtirilgan. Bu davrda G'ozzi Olim Yunusov, Hodi Zarif, Abdulla Alaviy kabi milliy qadriyatlarimiz fidoyilari xalq baxshilarini, ertakchi va qo'shiqchilarni aniqlash, ularning repertuaridagi asarlarni yozib olishni tashkil etib, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'ltan shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Nurmon Abduyov o'g'li, Berdi baxshi, Abdulla shoir va boshqa ko'plab baxshilardan xalq dostonlarini yozib olishgan. Bu sharaflari ishga Mahmud Zarifiy, Iso Ernazar o'g'li, Fotima (hozirgacha to'la ismi-sharifi aniqlanmagan), Tovfiq Mustafoev, Bahrom Ibrohimov, Muqim Hamzabekov, Nazarqosim

¹ *Qizilg'acha*. Yunusov G'.O. El adabiyoti. Ergash Jumanbulbul o'g'li // Alang. 1928. 11-son. 11-bet.

² *Qizilg'acha*. Yunusov G'.O. "Alpomish" dostoni // Bilim o'choqi. 1923. 2-3-sonlar. 37-39-betlar; Yana o'sha. "Alpomish" // O'zbek adabiyoti namunalari. I-jild. - Toshkent, 1928. 33-43-betlar.

³ *Qizilg'acha*. Yunusov G'.O. O'zbek materialov po etnografii uzbekov, sobranie v Samarqandskoy oblasti i uezdax Tashkentom i Golodnoyepeskan Sirdarinskoy oblasti // Nauka i progress. 1922. №2.

⁴ Yunusov G'.O. O'zbek el adabiyotiga tegishli materiallarni to'plovchilarga qo'llanma // Maorif va o'qitg'uvchi. 1926. 7-8-sonlar. 63-65-betlar.

Mirzayev, Husayn Karimiy kabi havaskor folklor to'plovchilar ham jalb qilingan. O'sha davrda to'plangan materiallar bugungi kunda o'zbek xalq og'zaki hadiyi ijodi durdonalari saqlanayotgan O'zR FA TII va adabiyot instituti Folklor arxivining yuzaga kelishiga zamin hozirlagan.

XX asrning 20-30-yillarida V.A. Uspenskiy, N.N. Mironov, Ye. Ye. Romanovskaya, Yunus Rajabiy o'zbek musiqa folklori asarlarini yozib olgan bo'lishsa, G'ulom Zafary, A.K. Borovkov, K.K. Yudaxin, M.F. Gavrilov o'zbek xalq og'zaki teatri an'alarini o'rganadilar. G'ozzi Olim Yunusov, Elbek, Ye. D. Politvanov, L. Potapov, Bekjon Rahmonov, H.Zarifov, A.K. Borovkov, Ye. M. Peshchereva, V. Drujinnin, V. G. Andreyev, Q. Ramazonov, A. Alaviy, Sh. Rizo, Sh. Ro'zi, Sh. Abdullayeva, B. Karimiy, M. Alaviy va boshqalar o'zbek folklorining eng nodir asarlarini yozib olish maqsadida tashkil etilgan dastlabki folklor ekspedititsiyalarida faol qatnashdilar.

O'zbek folklorshunosligining filologik yo'nalishdagi fan sifatida shakllanishi H.Zarifov ilmiy faoliyati bilan bevosita bog'liqdir. U folklor asarlarini yozib olish, to'plash, nashr etish va o'rganishga ulkan hissa qo'shgan alloma, o'zbek folklorshunosligining asoschisidir. 1928 yilda uning tashabbusi bilan tashkil etilgan «Etnografiya folklor va arxeologiya bo'yicha ilmiy-tekshirish kabinet» negizida keyinchalik TII va adabiyot institutining Folklor bo'limi yuzaga kelgan. H.T. Zarifov ana shu bo'limning rahbari sifatida butun umri o'zbek xalq og'zaki ijodiyotini to'plash va ilmiy o'rganishga bag'ishlagan.

Atoqli olim H.Zarifov o'zining 20-yillarda o'tkazgan ekspedititsiyalari chog'ida Jizzax viloyatidan «yo ramazon» qo'shiqlarining mukammal namunasi yozib olishga, shuningdek, xalqimizning irim-sirimlari va e'tiqodlariga oid boy faktik materiallar to'plashga muvaffaq bo'lgan.⁵

H.T. Zarifovning yirik fan tashkilotchisi sifatidagi faoliyati havaskor folklor to'plovchilar ishini markazlashira olganligi va bu ezu ishga ko'pgina ziyolilarni jalb eta bilganligida yaqqol ko'zga tashlanadi. Uning topshirig'i va bevosita rahbarligi ostida havaskor folklor to'plovchi, xalq ijodiyotining haqiqiy fidoyilari biri bo'lgan Iso Ernazar o'g'li 1927 yilda Jizzax va Samarqand viloyatlaridagi qishloqlarni kezib chiqib, o'zbeklarning yaylovga ko'chish, o't sotib olish, qamchi saqlash, cho'pon tayog'i, pichoq berish, niko'n to'yi, bolaga ism qo'yish, chechakni davolash bilan bog'liq materiallarni, dafn marosimi folklori, irim-sirim va ta'qilarni to'plagan. U folklorshunoslik amaliyotida birinchi bo'lib qo'qumchi, azayimxon va baxshilarning davolash amallariga doir etnofolkloristik materiallarni - qaytarma, qo'qim, badik namunalarini yozib olgan.⁶

H.T. Zarifovning bevosita ishtiroki va rahbarligida institutda Folklor arxivi yuzaga kelgan va shu zaminadagi eng yaxshi materiallar asosida "O'zbek xalq ijodi" ko'p tomliqli nashr etila boshlagan.

O'zbek folklorshunosligi maktabining asosiy ilmiy yo'nalishi xalq ijodiyoti yuzasidan fundamental ilmiy tadqiqotlar yaratishdan iborat bo'lib, H.Zarifovning ilk tadqiqotlari bilan o'zbek folklorini ilmiy o'rganish ishiga asos solingan. Ayniqsa, uning yirik eposshunos V.M. Jirmonskiy bilan hamkorlikda yaratilib, rus tilida nashr etirilgan «O'zbek xalq qahramonlik eposi» monografiyasi, shuningdek, o'zbek xalq dostonlarining epik tabiati va tarixiy asoslarini tekshirishga oid qator maqolalari xalq eposini fundamental tadqiq etishning mumtoz namunasi bo'lishi bilan birga o'zbek folklorshunosligi maktabining ilmiy-nazariy asosi ham hisoblanadi.

⁵ *Qizilg'acha*. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi TII va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv. №1648.

⁶ *Qizilg'acha*. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi TII va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv. № 922.

O'zbek marosim folklori janrlari etnograf M.Gavrilovning kichik bir risolasini⁷ hisobga olmaganda, o'tgan asrning 30-yillariga qadar deyarli tadqiq etilmay kelindi. Ana shu badiiy qadriyatlar to'planishi va o'rganilishi folklorshunos olim Muzayyana Alaviya nomi bilan bog'liqdir.

Folklor san'atining o'ziga xos janrlaridan biri xalq qo'shiqlarini to'plash va o'rganishga katta hissa qo'shgan Muzayyana Qashqadaryo, Surxondaryo, Xorazm, Samarqand, Buxoro, Andijon, Farg'ona, Toshkent viloyatlarida folklor ekspedititsiyalarida bo'lib, xalq qo'shiqlari, afsona, rivoyat, ertaklarni to'plagan.

M.Alaviya o'zbek xalq marosim qo'shiqlarining mavzu qamrovi, g'oyaviy mazmuni, badiiy xususiyatlari, ijtimoiy mohiyati, qo'shiqlarning ijrochilik san'ati, qo'shiqlarning tarixiy asoslariga doir ko'plab ilmiy tadqiqotlar muallifidir. M.Alaviya O'zR FA Til va adabiyot institutining folklor ekspedititsiyalari ishrookchisi sifatida oilaviy-maishiy marosimlar bilan aloqador o'lan, yor-yor, kelin salom, lapar kabi janrlarga oid matnlarni to'plagan. 1969 yilda Sayram, Turkiston, Iqon, Qorabuloq bo'ylab o'tkazilgan folklor ekspedititsiyasi chog'ida shamol to'xtatish marosimi bilan bog'liq «Choymomom» qo'shig'ining ko'plab variantlarini aniqlagan.⁸

Marosim folklori namunalarini izchil to'plab, tadqiq etgan M.Alaviya 1957 yilda Qashqadaryo viloyatining Chiroqchi tumanidagi Do'sbergan qishlog'ida yashovchi Qirmiz momo hamda Ashroy Ro'ziyevadan boqimchilik va baxshichilik amaliyotining to'liq tavsifini yozib olgan.⁹ Olima baxshi chorlovi, xudo va aviyolarni yodga olishi, pir va parilarni chaqirishi, pirlardan yo'l so'rashi, momolarni chorlashi, qirg' chilton, pari, devlar, lashkarga o'z boshidan o'tganini aytib berishi va lashkarni yo'lga solishi, shuningdek, gulafshonni davolash bilan bog'liq aytimni yozib olgan bo'lib, bu materiallar o'zbek shomon folklorini tadqiq etishda muhim manba hisoblanadi. M.Alaviyaning o'zbek marosim folklorini ilmiy tadqiq etish borasidagi izlanishlari 1974 yilda chop ettirilgan «O'zbek xalq marosim qo'shiqlari» nomli monografiyasida umumlashtirildi.

O'z ilmiy faoliyatini 1932 yilda Toshkentdagi Madaniy qurilish institutida boshlagan Mansur Afzalov o'zbek xalq nasri asarlarini to'plash, nashr etish va ilmiy o'rganishga katta hissa qo'shgan.

O'zbek xalq nasrining janrlar tarkibi, xalq baxshilarining hayoti va ijodi, folklor va ijtimoiy hayot, folklorshunoslik tarixi masalalari bilan shug'ullangan olimning «O'zbek xalq ertaklari haqida» (1964) asari o'zbek ertaklari haqidagi birinchi yirik tadqiqotdir. Bu kitobda o'zbek xalq ertaklari tasnif qilingan, ertaklarning o'rganilish tarixi, obrazlar tizimi, motivlarning tarixiy asoslari, ertaklarning yuzaga kelish tarixi va badiiy xususiyatlari, ertak ijrochiligi tadqiq etilgan.

O'zbek folklorini to'plash, nashr etish, tadqiq etishga katta hissa qo'shgan olim Z.Husainova 1951 yildan buyon O'zR FA Til va adabiyot institutining folklor ekspedititsiyasi safida Respublikamizning barcha viloyatlarida, Janubiy Tojikiston va O'shda bo'lib, xalq og'zaki ijodiyotining qo'shiq, maqol, topishmoq, ertak, latifa kabi janrlariga doir matnlarni to'plagan.

O'zbek folklor san'atining rivojlanishida ham salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xalq teatrini o'rganishni an'anaviy og'zaki dramalarni yozib olishdan boshlagan M.Qodirov 1958 yildan boshlab Hamza nomidagi San'atshunoslik institutining folklor ekspedititsiyasi tarkibida Surxondaryo, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo, Farg'ona, Namangan, Andijon, O'sh, Xorazm viloyatlarida bo'lib, 300 ga yaqin xalq teatri ijrochilarining ijodiy faoliyatini

o'rganan, ellikdan oshiq professional va havaskor masxarabozlar bilan ijodiy suhbatlar o'tkazgan, yuzga yaqin xalq dramasi, kulgi-hikoya va qiziqchilik namunalarini yozib olgan, ko'plab pantomima, xalq qo'shiqlari va tomosha san'atiga doir materiallari to'plagan. M.Qodirov tomonidan yig'ilgan materiallar o'zbek xalq tomosha san'atini o'rganishda yangi yo'nalishlarni ochib berdi. Chunki ilgari «o'zbek xalq teatri» deganda faqat Farg'ona vodiysi qiziqchilik san'ati nazarda tutilardi, xolos. M.Qodirov esa Respublikamizda o'zbek xalq teatrlarining Buxoro, Qo'qon va Xorazm maktabi mavjudligi hamda har bir an'ananing umumiy va o'ziga xos tomonlarini aniqlagan. U o'zbek xalq og'zaki dramasi folklor asari sifatidagi o'ziga xos badiiy xususiyatlari, obrazlar tizimi, xalq san'atlarining ijrochilik mahoratini chuqur tadqiq etib, folklor san'ati, ya'ni teatr folklorshunosligi yo'nalishiga asos solgan.

M.Qodirov o'zbek folklorshunosligi tarixida birinchi bo'lib xotin-qizlar folklor teatri mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. U 1958-yilda Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi G'o's qishlog'ida yashovchi ayollardan o'ttizta og'zaki drama va kulgi-hikoyalarni yozib oldi va ayollar xalq teatrlarining tarixiy asoslari, asosiy yo'nalishlari, ustoz-shogird munosabatlari, ijro usullari, og'zaki dramalarning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini o'rganan. O'zbek xalq san'atining muqallid, tanqid, kulgi-hikoya, masxarabozlik, qiziqchilik, qo'g'irchoqbozlik, ot o'yini, askiya, qarsak o'yini, muallaqchilik-dorbozlik, nayrangbozlik kabi qadimiy turlariga doir boy materiallarni to'plab, tadqiq etgan. O'zbek xalq teatrlarini jonli aktyor teatri va qo'g'irchoq teatri ga bo'lib tasniflagan M.Qodirov «Laylak ionni ovladi», «Yumronqozilq», «Kichkinajon», «Kadi badbax», «Buva qovoq», «Jevarak o'yin», «Ajdaho o'yin», «Mavrigi» kabi xalq o'yinlari hamda Yusufjon qiziq, Usta Olim, Mulla To'ychi, Toshkanboy darbez, Karim chavandoz, Aka Buxor, Komil qori singari xalq san'atlarining ijodiy merosini o'rganan.

O'zbek xalqining musiqa merosini to'plash bilan izchil shug'ullangan Y.Rajabiy 1955-59 yillarda o'zi to'plagan materiallar asosida mingdan oshiq xalq qo'shiqlari va cholg'u kuylarini o'z ichiga olgan «O'zbek xalq musiqasi» majmuasining besh jildini nashr ettirgan. U Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari, Buxoro «Shashmaqom» i va uning tarkibiy qismlarini to'plab, mukammallashtirib nashrga tayyorlagan hamda 1966-75 yillar davomida olti jildlik kitob holida chop ettirgan.

Folklorshunos olim R.Muhammadiyevning tashabbusi va ishtirokida askiya san'ati materiallarini to'plash, o'rganish va ommalashtirish maqsadida maxsus folklor ekspedititsiyalari o'tkazilgan. 1961-yilda Farg'ona vodiysida ish olib borgan birinchi ekspedititsiyada askiya janrlarining tarqalish doirasi va tarixiy taraqqiyotini o'rganishga doir materiallar to'plangan, askiya payrovlarni yozib olingan. 1963 yilda o'tkazilgan ikkinchi ekspedititsiya chog'ida mashhur askiyabozlarning repertuari tadqiq etilgan. Ustoz so'z san'atkorlari haqidagi xotiralar, rivoyatlar, lafzalar va o'zbek askiyachilarining ijodiy merosi to'plangan. 1965-yilning yozida esa Farg'ona vodiysining shimoliy tumanlarida, Sirdaryo va Toshkent viloyatlaridagi yosh askiyachilar ijodiyoti o'rganilgan.

K.Imomovning 1974-yilda besilab chiqqan «O'zbek satirik ertaklari» nomli ilk monografiyasida xalq ertaklarining alohida turi hisoblangan satirik va yumoristik ertaklar tadqiq etilgan. Olimning «O'zbek xalq prozasi»¹⁰ nomli monografik tadqiqoti folklorimizdagi og'zaki nasriy asarlarining janrlar tarkibini keng ko'lamda tadqiq etishga bag'ishlangan. Unda ertak janri va uning poetikasi, o'zbek ertaklarining ichki turlariga xos xarakterli belgilari, ayrim epik syujetlar va an'anaviy motivlarning genezisi ochib berilganligi e'tiborlidir. Afsona, rivoyat va matal (naql) kabi janrlar epik turga mansub

¹⁰ Imomov K. O'zbek xalq prozasi. - Toshkent: Fan, 1981.

⁷ Gavrilov M.F. O'staki yasi i yusuna uzbekov. - Toshkent, 1925. S.3-9.

⁸ Qizung. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv.No. 1628.

⁹ Qizung. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv.No. 1315/1. 79-99-betlar.

alohida janrlar silsilasi sifatida o'rganilib, har bir janrning o'ziga xos xususiyatlari va funksiyalari yoritilgan.

Marosim folklori tipologik aspektida o'rganilgan B.Sarimsoqov o'zining bu yo'nalishdagi tadqiqotlarini "O'zbek marosim folklori" (1986) nomli monografiyasida umumlashtirgan. Mazkur asarning ilmiy qimmatidan shundan iboratki, unda «marosim» va «marosim folklori» tushunchalarining mohiyati oydinlashtirilgan, o'zbek marosim folklorining janrlar tarkibi bir necha mezonlar asosida izchil tasniflangan. «Yas-yusun», «Oblo baraka», «Shox moylar», «Lola sayli», «Loy tutish», shamol chaqirish va yomg'ir yog'dirish bilan bog'liq marosim folklor namunalari, so'z mag'iyasiga asoslangan badik va kinna janrlari tadqiq etilgan.

Bizning 1981-yilda Buxoro viloyatining Qorako'l tumani bo'yab o'tkazgan folklor ekspeditsiyamiz davomida o'zbeklarning yomg'ir yog'dirish maqsadida o'tkazib kelingan marosimlari tizimining muhim halqasi – «Chala xotin» marosimi qo'shiqlari, shuningdek, navro'z bayrami bilan aloqador an'anaviy «Sumalak bevti» udumiga oid materiallar yozib olindi.

XX asming 70-80-yillarida Qashqadaryo (A.Qahhorov, K.Ochilov, CH.Hamro, A.Ergashev), Buxoro (O.Safarov, Y.Nurmurodov, D.O'rayeva), Xorazm (S.Ro'zimboyev, H.Abdullayev, N.Saburov), Namangan (T.G'oziboyev), Andijon (H.Razzoqov), Surxondaryo (Q.Mamashukurov), Qo'qon (G'.Akramov, I.Bekmurodov)da o'z ilmiy faoliyatlarini olib borgan folklorshunoslar o'zbek xalq dostonlarining poetikasi, variantlari va lokal xususiyatlari, dostonchilik an'analarning saqlanishi va yetakchi baxshilarning badiiy mahorati, dostonlarga turkumlilik, bolalar folklorining o'ziga xos tabiati va janrlar tarkibi, mehnat qo'shiqlarining badiiyati, mifologiya va boshqa mavzularda yirik tadqiqotlarni yaratdilar.

Bu davrda uch jildlik «O'zbek folklori ocherklari»ning ikki tomi nashr etilganligi, epik repertuarining o'ziga xosligi, xalq baxshilarining badiiy mahorati, xalq dostonchiligining hududiy-lokal tabiati (T.Mirzayev, M.Murodov, M.Qo'shimov, S.Ro'zimboyev, H.Abdullayev, O.Madayev), xalq dostonchiligida turkumlilik (M.Mirzayeva, M.O'bidova, Q.Mamashukurov), dostonlar poetikasi (M.Saidov, S.Yo'ldosheva, T.Zufarova, T.Ashurov), mifologiya va uning o'zbek folklori epik janrlarida tutgan o'rni (G'.Akramov, B.Sarimsoqov, M.Jo'rayev), o'zbek marosim folklorining janrlar silsilasi, genetik asoslari va poetikasi (M.Alaviya, B.Sarimsoqov), ertak badiiyati va epik syujetlar tipologiyasi (G'.Jalolov, X.Egamov, K.Imomov, M.Jo'rayev), o'zbek bolalar folklori (G'.Jahongirov, O.Safarov), yozma adabiyot va folklor munosabati (O.Sobirov, G'.Mo'minov, B.Sarimsoqov, I.Yormatov), o'zbek folklori va tarixiy voqealik (M.Boboyev, U.Jumanazarov, S.Umarov)ning tadqiq etilganligi, terma (A.Musaqulov, A.Tursunqulov), topishmoq (Z.Husainova), lirik qo'shiqlar (SH.Turdimov), musiqa folklori (F.Karomatov, R.Abdullayev), o'zbek xalq og'zaki dramasi (M.Qodirov, R.Muhammadiyev) chuqur o'rganilganligi o'zbek folklorshunosligini yangi bosqichga ko'tardi.

XX asming 80-yillariga kelib O'zR FA Til va adabiyot institutining Folklor bo'limida markazlashgan o'zbek folklorshunosligi maktabi xalq og'zaki badiiy ijodiyotini o'rganish borasida eng yetakchi ilmiy maktablardan biri darajasiga ko'tarildi. Bo'lim rahbari T.Mirzayev dunyo folklorshunosligida ilk bor o'zbek xalq qahramonlik eposining klassik namunasi hisoblangan "Alpomish" dostonini to'la o'rganib, bu epik asarning o'zbek baxshilari repertuarida qayd qilingan barcha variantlarini qiyosiy tadqiq etish asnosida dostonning o'zbek xalqi epik tafakkuri taraqqiyotida tushunilgan muhim o'rni belgilab berdi. Olim doston syujetining tarixiy asoslari, shakllanish bosqichlari va badiiy rivoji, syujet tizimidagi yetakchi motivlar poetikasini izchil o'rganib, "Alpomish" dostoni yaratilgan

davri aniqlab berdi. Juda boy tarixiy, etnografik va fitologik dalillarga asoslangan T.Mirzayev "Alpomish" dostonining mukammal epik asar sifatidagi shakllanish davri X-XI asrlarga oid deb belgilashi jahonning ko'plab nufuzli ilmiy markazlari tomonidan e'tirof etilgan. T.Mirzayevning "Alpomish" dostoni haqidagi monografik tadqiqotlari Germaniya, Turkiya, Rossiya kabi mamlakatlarda chop etirilganligi ham buning yorqin dalilidir.¹¹

O'zbek xalq baxshilari va dostonchilik maktablarining epik an'analari uzoq yillar mobaynida o'rganilgan T.Mirzayev "Dostonchilik maktablari" (1973), "Baxshilar" (1975), "Po'likan shoir haqida so'z" (1976), "O'zbek xalq dostonchiligi va Islom shoir" (1978) kabi maqolalarida dostonchilik maktablari va ular o'rtasidagi ijodiy aloqalar, xalq baxshilari epik repertuarining shakllanishi va boyib borish qonuniyatlari, baxshi ijrochiligining badiiy hodisa sifatidagi xossalari keng yoritib berdi. Bu tadqiqotlar yaratilgunga qadar folklorshunoslikda Bulung'ur, Qo'rg'on, Shahrisabz, Xorazm dostonchilik maktablari ma'lum edi, xolos. Folklor ekspeditsiyalarida to'plangan yangi materiallarga asoslangan T.Mirzayev bu dostonchilik maktablardan tashqari Nurota, Narpay, Sherobod, Qamay, Piskent, Janubiy Tojikiston kabi boshqa baxshichilik maktablari va bir necha xil ustulbiy yo'naltishlar mavjudligini aniqlab, har bir maktabga mansub baxshilar repertuari, ijro usuli, shogird tayyorlash an'analari va ijro etadigan o'ziga xos epik asarlar xususida mufassal ma'lumot berganligi o'zbek folklorshunosligi uchun muhim yangilik bo'ldi.

T.Mirzayev o'zbek folklorining janrlar tarkibi, folklor ijodkorlari va ijrochilari, tarixiy-folkloriy jarayonning hozirgi holati, ertak, maqol, qo'shiq, lapar kabi folklor janrlarining poetik tabiati, folklor va yozma adabiyot munosabati masalalariga doir ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

T.Mirzayev o'zbek folklorshunosligida birinchi bo'lib har bir folklor ijrochisining ijodiy merosini to'la nashr etishning ilmiy prinsiplarini ishlab chiqqdi.

Milliy mustaqillikka erishganimizdan keyin folklor san'ati asarlarini to'plash, sistemalashirish, ommaviy va akademik nashrlarni amalga oshirish hamda keng ko'lamli fundamental tadqiqotlarni yaratish borasida bugungi kunda yirik ishlarini amalga oshirib kelayotgan O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot institutining Folklor arxiviga mamlakatimizning boy madaniy merosini o'zida mujassamlashtirgan noyob ilmiy obyektlaridan biri maqomi berildi. Folklor arxivi mamlakatimizning yetakchi ilmiy fondlaridan biri bo'lib, unda saqlanayotgan materiallar o'zbek filologiyasining taraqqiyotini belgilovchi yirik ilmiy ishlarining yaratilishi uchun manba bo'ladi.

O'zbek folklorshunoslari, afsona va rivoyatlardan tuzilgan folklor to'plamlarni chop ettirdilar. Xususan, «El desa Navoiyni. Hazrat Mir Alisher Navoiy haqidagi rivoyatlar» (to'plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev, 1991 yil), «Ipak yo'li afsonalari» (to'plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev, 1993 yil), «Predaniye glasib» (nashrga tayyorlovchi: M.Abdurahimov, 1994 yil), «Bobolardan qolgan naqlar» (to'plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev, 1998 yil), «Buxoro afsonalari» (to'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Jo'rayev va R.Saidova, 2002 yil) kabi to'plamlar mustaqillik davri o'zbek folklorshunosligi tarixida muhim o'rinni tutadi.

Istiqol tufayli marosim folklorining ilgari nashr etilmagan yoki qisman ommalashtirilgan namunalarini chop ettirdi. Xususan, o'zbek folklorshunosligi tarixida

¹¹ Mirzayev T. O'zbek xalq qahramonlik eposi "Alpomish" // Turkologiya materiallari. - Buxum, 1984 (nemis tilida); Yana o'sha. Voprosi savetnitskogo izucheniya "Alpomish" i "Alip-Manash" // Folklornoye nasledie narodov Sibiri i Dainego Vostoka. - Gorno-Altaysk, 1986. S.110-112. Yana o'sha. "Alpomish" desani uzerinde arastirmalar // Uslular arasi turk dunyasi halk edebiyati kurullari. - Ankara, 2000. S.58-59. Yana o'sha. "Alpomish" dostonining o'zbek variantlari // Karl Rayx. O'zbek qahramonlik eposi "Alpomish". - Vaygaden, 2001. 77-107-beتلar (nemis tilida); Yana o'sha. "Alpomish" dostonining ogrenilmesi // Uluslari turk dunyasi halk edebiyati bildiriklan. Ankara, 2002. S.545-547.

birinchi marta navro'z bayrami bilan bog'liq o'zbek folklori asarlaridan tuzilgan «Navro'z» kitobi (tuzuvchilar: T.Mirzayev va M.Jo'rayev, 1992 yil), yilboshi bayrami va bahoriy udunlar bilan aloqador urf-odat hamda marosimlar, unda ijro etiladigan qo'shiqlar tahliliga bag'ishlangan «Navro'z qo'shiqlari» (M.Jo'rayev, 2007 yil), xalqimizning tabiat hodisalarini bilan aloqador inonch va ta'birlari jamlangan «Ob-havo darakchilari» to'plami (to'plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev, 1996 yil), «Ulug' oy umidlari. «Yo ramazon» qo'shiqlari» (to'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Jo'rayev va Sh.Shomusarov, 2001 yil), o'zbek dafni va ta'ziya marosimlari folklori namunalaridan tarkib topgan «Bo'zlardan uchgan g'azal-yey» (nashrga tayyorlovchilar: O.Safarov, D.O'rayeva, 2005 yil) singari kitoblari xalqimizning marosim folklorini to'la nashr etish yo'lidagi muhim qadamlardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, folkloristik izlanishlar samarasi o'laroq «Ostonasi tilloidan. To'y marosim qo'shiqlari» (to'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Mirzayeva, A.Musaqulov, 1993 yil), «Qizil gulning g'unchasi. «Kelin salom»lar» (to'plab, nashrga tayyorlovchilar: M.Jo'rayev va O.Ismonova, 1999 yil), «Oy oldida bir yulduz. O'zbek xalq marosim qo'shiqlari» (to'plab, nashrga tayyorlovchi: M.Jo'rayev, 2000 yil), «To'y muborak yor-yon» (nashrga tayyorlovchi: O.Safarov, 2003 yil), «Sarchashmadan tomgan injular. Surxon vohasi o'zbek to'y marosim qo'shiqlari» (to'plab, nashrga tayyorlovchi: L.Xudoyqulova, 2007 yil) kabi folklor to'plamlari nashrdan chiqdi.

1999 yilda Termiz shahrida «Alpomish» dostoni va uning jahon xalqlari epik ijodiyotida turgan o'rnini mavzuidagi xalqaro ilmiy anjuman o'tkazildi. Ilmiy konferensiya materiallari o'zbek, rus va ingliz tillarida bosmadan chiqarildi. O'sha yili «Alpomish» dostoniga bag'ishlangan eng yaxshi tadqiqotlarining natijalari «Fan» nashriyotida chop etirilgan «Alpomish» - o'zbek xalq qahramonik eposi nomli ilmiy to'plamda o'z aksini topdi.

Har bir xalqning milliy o'zligi avvalo, uning urf-odatlari va marosimlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun mustaqillik yillarida o'zbek folklorshunosligida marosim folklorining janrlar tarkibi, genezisi va badiiy xususiyatlari, ayniqsa, ilgari kam o'rganilgan janrlarni tadqiq etish tamoyili kuchaydi. Professor T.Mirzayevning «Lapan» janrining o'ziga xos badiiy tabiatiga doir maqolasi (1998), O.Ismonovning O'sh viloyati o'zbek nikoh to'y marosimi folklorining janrlar tarkibi va unda «kelin salom» janrining tuzilishi to'g'risida doir tadqiqoti (1999), S.Davlatovning Qashqadaryo vohasi o'zbek to'y marosim folkloriga bag'ishlangan ilmiy ishi (1996), N.Quromboyevaning Xorazm to'y marosim qo'shiqlarini o'rganish borasida olib borgan tadqiqotlari (1994), R.Abdullayevning marosim folklori janrlarining Markaziy Osiyo xalqlari musiqa folklori tizimida tuzilishi to'g'risida tadqiqoti (2007), O.Safarov, M.Jo'rayev, SH.Shomusarov, Z.Jumayev, M.Pirmatovlarning «yo ramazon» janriga oid tadqiqotlari; L.Xudoyqulovning Surxon vohasi aholisi to'y marosim folklorining lokal xususiyatlari va o'ziga xosligini ochib berishga qaratilgan izlanishlari (2005-07), M.Jo'rayev, M.Pirmatovlarning o'zbek xalq taqvimini va mavsumiy marosimlar folklori janrlarini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlari (1997-2007), O.Qayumovning o'zbek shomon marosimlari folklorini yozib olish va ilmiy o'rganish borasidagi ishlari (2006), buxorolik olimi D.O'rayevaning o'zbek motam marosimi folklorining genezisi, janrlar tarkibi va poetikasiga bag'ishlangan monografik tadqiqoti (2005), F.Eshboyevaning o'zbek xalq qarq'ishlariga doir dissertatsiya ishi (2008) muhim ilmiy qiimmatga ega.

O'zbek folklorshunosligi maktabining kelgusidagi rejatalari o'zbek folklori materiallarini izchil to'plash maqsadida atqoli altoma H.Zarif asos solgan ilmiy ekspeditsiya ishini yanada kengroq qamrovda o'tkazish va uning muntazamligini ta'minlash; H.Zarifov nomli O'zbek folklori arxivi materiallarini to'la ilmiy tavsif qilish va kataloglashirishini

amalgah oshirish; folklorshunos olimlar tomonidan qariyb 80 yil mobaynida to'plangan arxiv materiallari va kelgusidagi ilmiy ekspeditsiyalar davomida yozib olinadigan folklor namunalari asosida «O'zbek folklori yodgorliklari» 100 jildlik akademik nashrini tayyorlash; folklor asarlarining ilmiy, ilmiy-ommabop va ommabop nashrlarini tayyorlab, lotin yozuvida chop ettirish; o'zbek folklori janrlarining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasini dunyo folkloristikasining ustuvor ilmiy metodlari asosida tadqiq etish; oliy o'quv yurtlari talabalarini uchin xalq og'zaki badiiy ijodiyoti bo'yicha yangi darslik va qo'llanmalar yaratishdan iboratdir.

O'zbek folklor san'at va folklorshunosligi tarixi XXI asrda yanada rivojlanitirilmog'ada. Bu bebaho merosni o'rganish, tahlil etish, bugungi kun yoshlarini yangi ma'naviy kamolot bosqichiga ko'tarish ishlarida dasturur amal bo'ladi degan umiddamiz.

B. Sayfullayev,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi,
Qorvqalpog'istonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi,
pedagogika fanlari nomzodi, professor, O'zDSMI rektori

AN'ANAVIY TOMOSHA SAN'ATI VA OMMAVIY BAYRAMLAR

Milliy istiqlol tufayli qadriyatlarimiz tiklanib, qadimiy va ezgu an'analar rivoj topayotgan bugungi kunda teatriashgan ommaviy tomoshalar g'oyat muhim amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi teatriashgan tomosha san'ati xalq ommasining ijodiy imkoniyatlarini erkin namoyish etmoqda. Unda san'atning turli soha va yo'nalishlari tadbir senariyosining bosh g'oyasiga bo'yundiriladi hamda tabiiy hayotiy sahna asari sifatida sahnalashtiriladi.

Xususan, asrlar bo'yi shakllanib, ajdodlarimiz badiiy-estetik tafakkurining eng mukammal jihatlari o'zida singirdigan holda muttasil taraqqiy etib kelgan Navro'z bayrami ana shunday ulug'vor bayramlarimizdan biridir. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, «Milliy ma'naviyatimiz azaldan qanday omil va mezonlar negizida shakllanib kelayotgani xalqimiz uchun aziz va eng milliy bayram - sharqona yangi yil bel'mish Navro'z ayyomi misolida ayniqsa yorqin namoyon bo'ladi. Barchamiz doimo orziqib kutadigan va katta xursandchilik, shodiyona bilan o'tkazadigan Navro'z bayrami biz uchun hayot abadiyiligi, tabiatning ustuvor qudrati va cheksiz saxovatining, ko'p ming yillik milliy qiyofamiz, olijanob urf-odatlarimizning bitakror ifodasi bo'lib kelmoqda»¹².

Istiqlol yillarida erkin va obod yurtimizdagi farovon hayot, yurdoshlarimizning ma'naviy kamoloti va badiiy-estetik zakovatini o'zida mujassamlashtirgan yangi bayramlar va tomoshalar silsilasi yuzaga keldi. Ajdodlarimiz yaratgan boy madaniy meros zamirida shakllangan ana shunday ezgu qadriyatlar orasida xalqimizning o'ziga xos rivojlanishiga zamin bo'lgan istiqlol tantarasi - «Mustaqillik bayrami» tantarasi alohida ahamiyatga ega. An'anaga ko'ra, har yili mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy islohotlar mohiyatini o'zida aks ettiradigan g'oya asosida o'tkazilayotgan «Mustaqillik bayrami» tantanalari hozirgi zamon teatriashgan maydon tomoshasi san'atning mukammal namunasi darajasiga ko'tarildi. Milliy istiqlol baxsh etgan surur, mamlakatimizda amalga oshirilgan ulug'vor o'zgarishlar, jahon hamjamiyatida o'zining munosib o'rnini topayotgan ona O'zbekistonimizdagi o'ziga xos taraqqiyot mohiyatini aks ettiruvchi lavhalar, kuy-cho'shiqlar, teatriashirilgan chiqishlar va adabiy-mustiqiy

¹² Karimov I. Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent: Ma'naviyat, 2008. - B.14

kompozitsiyalar bunday bayramlar negizini tashkil etadi. Ana shunday muhtasham milliy qadriyatimiz rejissurasining o'ziga xos jihatlari o'rganish asosida hozirgi zamon meydori tomoshalari san'ati mohiyatini yanada chuqurroq idrok etish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, necha-necha avlodlar orzusi bo'lgan mustaqillik bizga inilay qadriyatlarimizni tiklash huquqini berishi bilan bir qatorda, yurtimizning farovonligi, tinchligi, daxsizligi, ilmiy-ma'rifiy, adabiy-tarixiy va ma'naviy kamoloti yo'lida fidoyilik tomonidan yaratilgan bebaho asarlar nashr etildi, buyuk tarixiy siymolar xotirasini e'zozladilar. Binobarin, "Har qaysi xalq milliy qadriyatlarini o'z maqsad-muddolari, shu bilan birga, umumbashariy taraqqiyot yutuqlari asosida rivojlanirib, ma'naviy dunyosini yuksaltirib borishga intilar ekan, bu borada tarixiy xotira masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. YA'ni tarixiy xotira tuyg'usi to'laqonli ravishda tiklangan, xalq bosib o'tgan yo'l o'zining barcha muvaffaqiyat va zafarlari, yo'qotish va qurbonlari, quvonch va iztiroblari bilan xolis va haqqoniy o'rganilgan taqdiridagina chinakam tarix bo'ladi. Biz bu masalaga ana shunday ilmiy asosda yondashib, qadimiy tariximizni o'rganish va baho berishda uning biror-bir davri yoki jabhasini e'tibordan chetda qoldirmaslikka harakat qildik. Jumladan, mustamlakachilik va sovet davridagi ommaviy qatag'onlar paytida zulm va zo'ravonlik qurboni bo'lgan, istiqlol yo'lida jon fido etgan ajdodlarimizning hurmati va xotirasini joyiga qo'yish, ularning el-yurt ozodligi yo'lidagi ishlari, qoldirgan merosini izlash va o'rganishni aynan ana shunday ma'naviy negizda yo'lga qo'yganimizni qayd etish zarur"¹³

Vatanimiz hududida ulkan madaniyatning buniyod etilishiga beqiyos hissa qo'shgan ulug' bobokalonimiz Amir Temur, o'z asarlari bilan jahon badiiy tafakkuri taraqqiyotida o'chmas iz qoldirgan Alisher Navoiy, ona diyorimiz daxsizligi va hurligi yo'lida jon fido etgan ulug' sarkarda Jaloliddin Manguberd, shuningdek, ulug' alloma Alimad al-Farg'oniy, buyuk muhaddis Imom al-Buxoriy, fiqh ilmi sohiblari Burhonuddin Marg'inoniy va Moturidiy singari buyuk tarixiy shaxslarning yubiley tantanalariga bag'ishlab Moturidiy singari buyuk tarixiy shaxslarning yubiley tantanalariga bag'ishlab tarixiy, ilmiy va adabiy-ma'naviy ulug'lash hamda jahon taraqqiyotidagi o'rinni ko'rsatib berishga qaratilganligi bilan xarakterlanadi. Ana shu tipdagi bayram tadbirlari materiallari teatrlashgan maydon tomoshalarining mazmunan rang-barangligi va funksional talqinlari xilma-xilligini ko'rsatuvchi muhim manbadir.

Mamlakatimiz hududida bundan bir necha ming yillar muqaddam ulkan madaniy meros yaratib, dunyodagi eng qadimiy shaharozlik an'analarga asos solgan xalqimiz dahosining ulug'ligi Xiva, Buxoro Toshkent, Samarqand, Qarshi, Marg'ilon kabi qadimiy shaharlarimizning yuzaga kelish tarixi bilan bog'liq sanalarga bag'ishlangan bayram tadbirlarida yaqqol aksini topdi. Sanasi nostonlanayotgan shaharlar tarixi va o'sha joyda bo'lib o'tgan shonli voqea-hodisalarni badiiy talqin qilish asosida yaratilgan bayram sanalari.

Shuningdek, mamlakatimizda yaratilgan "Avesto", "Alpomishi" kabi olamshumul adabiy yodgorliklarning yubiley tantanalari, shuningdek, "Umid nihollari", "Barkamol avlod", "Universida" uch bosqichli sport o'yinlarining asosida ham teatrlashgan maydon tomoshasi yotadi. Bu esa mamlakatimizda o'tkaziladigan barcha umumxalq tantanalarining sanariysi va rejissurasi teatrlashgan tomosha san'ati an'analari asosiga qurilishini, binobarin, bunday tadbirlarni tashkil qilish, tayyorlash va o'tkazishda faol ishtirok etadigan malakali mutaxassislar tayyorlash lozimligi bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri sanaladi.

¹³ Каримов И. Юсуб МАЪНАВИЙ – БИГУЛИМАС КУЧ. – Тошкент: Маънавий, 2008. – Б.45-46.

Xalqimiz tomonidan yaratilgan ulkan badiiy qadriyatlar jahon miqyosida e'tirof etilayotganligi, xususan, "Boysun madaniy muhiti", "Shashmaqom", "Navro'z" va "Katta ashula" YUNESKOning dunyo xalqlari nomoddiy madaniy merosi representativ ro'yxatiga kiritilganligi ham o'zbek xalqi ma'naviy merosi sharq xalqlari madaniy rivojida katta rol o'ynaganligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda muntazam ravishda o'tkazib kelinyotgan turi xil folklor festivallari, ko'rik-tanlovlar va bayram tadbirlari xalq ijodiyotini keng ko'lamda rivojlantirish, ayniqsa, bu tadbirlarni teatrlashgan tomosha tarzida o'tkazish orqali an'anaviy qadriyatlarini yangicha badiiy-estetik tamoyillar asosida takomillashtirishning katta imkoniyatlarini ochdi. Eng muhimi, mazkur festivallar teatrlashgan tomosha tarzida o'tkazilib, xalq ijodiyotini dunyo miqyosida keng ko'lamda ommalashtirishdek ezuq ishga munosib hissa qo'shib kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010-yil 7-oktabrdagi 222-sonli qarori bilan tasdiqlangan «2010-2020 yillarga mo'ljallangan nomoddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, asrash, targ'ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturi» xalq ijodiyotining turli sohalari singari, teatrlashgan tomosha tarzida o'tkaziladigan an'anaviy bayramlar, sayillar, to'y va boshqa tadbirlarni muhofaza qilish chora-tadbirlarini belgilash hamda keng ko'lamda muhofazani amalga oshirishning qonuniy bazasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Teatrlashgan tomosha san'ati elementlarining bayram va sayillarimizda muvaffaqiyat qozonishining sababi, birinchidan, qamrovning g'oyat kengligi, ikkinchidan, sahna-maydonda ko'rsatilayotgan voqealarning ko'lamdorlik kasb etishi, uchinchidan, ijrochilik va ijodkorlik bilan professional san'at, sport o'yinlari, original dekoratsiya va ommaviylikning uyg'unlashib ketishi bilan belgilanadi. O'ziga xos tabiiy dekoratsiya, an'anaviy xalqona senariy va ishtirokchilar tarkibiga ega bo'lgan bunday "hayotiy sahna asarlari", ya'ni an'anaviy tomoshalarining asosiy vazifasi xalq ommasining madaniy hordiq chiqarishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, ommaviy sayillar, bayramlar yoki to'y-tomoshalarining ko'tarinki ruhida o'tishini ta'minlashdan iborat bo'lgan.

An'anaviylik va ezuq qadriyatlarining tarixiy-voresiy jihatidan uzviy bog'langanligi bu tipdagi ommaviy tomoshalar va bayramlarning asosiy xususiyatini tashkil etgan. Xalq tomoshalari avloddan-avlodga o'tib, asrlar davomida sayqallanib, boyitilib, takomillashib boravergan. Teatrlashgan tabiiy-hayotiy sahna asari sifatida ommalashgan bunday tomoshalarining o'ziga xos an'anaviy obrazlari, badiiy timsollari va mavzulari mavjud bo'lgan. Xalq tomoshasining hayotiyligi va tabiiyigi shunda bo'lganki, bunday tomoshalar avvaldan qurilgan maxsus bino yoki sahna emas, balki maydonlarda, sayilgohlarda, qir-adirlarda, shaharning odamlar gavjum joylarida, qishloq va mahalla guzarlarida odamlar-tomoshabinlar ishtirokida o'tkazilgan.

An'anga ko'ra, teatrlashgan tomosha tarzida o'tkazilgan bayram-sayillarda xalqqa tomosha ko'rsatuvchi har bir san'at sohasining o'z mahorati ustalari hamda bu sohaga endigina qadam qo'yib kelayotgan yosh ishtirokchilari - shogirdlari qatnashganlar. Har bir san'at turi bilan shug'ullanuvchi ijodkor va ijrochilar muayyan kasbiy-guruhlarga uyushganlar va doimiy ravishda o'z saflarini yosh ijodkorlar bilan to'ldirib turishgan. O'zlarining yillar mobaynida shakllangan boy tajribalarini va mahoratlarni yosh shogirdlariga mutasil o'rgatib borishgan. Qiziqchilarga rahbarlik qiluvchi kishilarni korfarmov deysishgan. Ularning o'z risolasi bo'lib, risolada san'at an'analari, tarixi, san'atkorning odobi, axloqiy qadriyatlari bayon etilgan. Qiziqchilarning xalq bayramlari va sayillaridagi o'tiqishlarini korfarmonlar nazorat qilib, ularning faoliyatiga bosh-qosh bo'lib turganlar.

An'anaviy bayram tomoshalar va xalq sayillari qo'g'irchoqboz tomoshalar ham mashhur bo'lib, qo'g'irchoqboz bozorlarda dam olish kunlarida, sayilgohlarda chodir tikib, uning ortida yog'och qo'g'irchoqlar yordamida tomosha ko'rsatganlar. Ular qo'g'irchoqlar yordamida turli kasb egalari, xalq qahramonlari va hayvonlar obrazlarini yaratganlar. Ular "Kachal polvon", "Ofiobxon va Mohtobxon", "Podachi", "Cho'pon bola", "Tabiihik" singari qiziqarli tomoshalar ko'rsatishgan. Qo'g'irchoqbozlar tomonidan ko'rsatilgan tomoshalarda o'zbek xalq e'taklari syujetlari asosida tayyorlangan lavhalar bilan bir qatorda, ba'zi bir hayotiy voqealar va turli hajviy mavzudagi kulg'ili tomoshalar ham namoyish etilgan.

Xalqimizning bayram va sayillari qo'g'irchoqboz tomoshalar ham mashhur bo'lib, qo'g'irchoqboz bozorlarda dam olish kunlarida, sayilgohlarda chodir tikib, uning ortida yog'och qo'g'irchoqlar yordamida tomosha ko'rsatganlar. Ular qo'g'irchoqlar yordamida turli kasb egalari, xalq qahramonlari va hayvonlar obrazlarini yaratganlar. Ular "Kachal polvon", "Ofiobxon va Mohtobxon", "Podachi", "Cho'pon bola", "Tabiihik" singari qiziqarli tomoshalar ko'rsatishgan. Qo'g'irchoqbozlar tomonidan ko'rsatilgan tomoshalarda o'zbek xalq e'taklari syujetlari asosida tayyorlangan lavhalar bilan bir qatorda, ba'zi bir hayotiy voqealar va turli hajviy mavzudagi kulg'ili tomoshalar ham namoyish etilgan.

Xalqimizning bayram va sayillari qo'g'irchoqboz tomoshalar ham mashhur bo'lib, qo'g'irchoqboz bozorlarda dam olish kunlarida, sayilgohlarda chodir tikib, uning ortida yog'och qo'g'irchoqlar yordamida tomosha ko'rsatganlar. Ular qo'g'irchoqlar yordamida turli kasb egalari, xalq qahramonlari va hayvonlar obrazlarini yaratganlar. Ular "Kachal polvon", "Ofiobxon va Mohtobxon", "Podachi", "Cho'pon bola", "Tabiihik" singari qiziqarli tomoshalar ko'rsatishgan. Qo'g'irchoqbozlar tomonidan ko'rsatilgan tomoshalarda o'zbek xalq e'taklari syujetlari asosida tayyorlangan lavhalar bilan bir qatorda, ba'zi bir hayotiy voqealar va turli hajviy mavzudagi kulg'ili tomoshalar ham namoyish etilgan.

An'anaviy bayram tomoshalar va xalq sayillari qo'g'irchoqboz tomoshalar ham mashhur bo'lib, qo'g'irchoqboz bozorlarda dam olish kunlarida, sayilgohlarda chodir tikib, uning ortida yog'och qo'g'irchoqlar yordamida tomosha ko'rsatganlar. Ular qo'g'irchoqlar yordamida turli kasb egalari, xalq qahramonlari va hayvonlar obrazlarini yaratganlar. Ular "Kachal polvon", "Ofiobxon va Mohtobxon", "Podachi", "Cho'pon bola", "Tabiihik" singari qiziqarli tomoshalar ko'rsatishgan. Qo'g'irchoqbozlar tomonidan ko'rsatilgan tomoshalarda o'zbek xalq e'taklari syujetlari asosida tayyorlangan lavhalar bilan bir qatorda, ba'zi bir hayotiy voqealar va turli hajviy mavzudagi kulg'ili tomoshalar ham namoyish etilgan.

An'anaviy bayram tomoshalar va xalq sayillari qo'g'irchoqboz tomoshalar ham mashhur bo'lib, qo'g'irchoqboz bozorlarda dam olish kunlarida, sayilgohlarda chodir tikib, uning ortida yog'och qo'g'irchoqlar yordamida tomosha ko'rsatganlar. Ular qo'g'irchoqlar yordamida turli kasb egalari, xalq qahramonlari va hayvonlar obrazlarini yaratganlar. Ular "Kachal polvon", "Ofiobxon va Mohtobxon", "Podachi", "Cho'pon bola", "Tabiihik" singari qiziqarli tomoshalar ko'rsatishgan. Qo'g'irchoqbozlar tomonidan ko'rsatilgan tomoshalarda o'zbek xalq e'taklari syujetlari asosida tayyorlangan lavhalar bilan bir qatorda, ba'zi bir hayotiy voqealar va turli hajviy mavzudagi kulg'ili tomoshalar ham namoyish etilgan.

Kishilarda katta qiziqish uyg'otgan va zavq baxsh etgan. Xalq sayillari va bayramlarida, oilaviy tantanalarda-to'yalarda "Qozibozlik", "Qoribozlik", "Qassoblik", "Qassoblik" kabi hajviy sahna asarlarini ijro etgan masxarabozlar tomonidan yaratilgan obrazlar muhim ijtimoiy mohiyat kasb etishi bilan ajralib turgan. Hosil bayramlari, Navro'z - yilboshi sayillarida esa "Maktab", "Mirob", "Hundibozlik", "Polvonbozlik", "Eshak savdosi", "Kema o'yini", "Sartaroshlik", "Tegirmonchi" kabi hajviy mavzudagi masxarabozlik va muqallidlik chiqishlari tomoshabinlar e'tiboriga havola etilgan.

XX asr boshida Xiva xonligida an'anaviy xalq tomoshalar tizimida qo'g'irchoqbozlik va masxarabozlik alohida o'rin tutgan bo'lib, ayniqsa, «Chodir jamol» va «Chodir xayol» deb nomlangan qo'g'irchoq teatr asarlarining Kachal polvon, yasovul, jarchi kabi obrazlari xalq orasida mashhur bo'lgan. Xorazm masxarabozligi maktabining o'ziga xos xususiyatlari shundan iborat bo'lganki, ular asosan qo'shiqchi, mustaqil, dorboz va muallaqchilar bilan birga turli xil sayil va bayramlar, to'y-tomoshalarda qatnashib, o'z mahoratlarini ko'rsatganlar. Ularning repertuari «Kosa o'yini», «Tayoq o'yini», «Pichoq o'yini», «Tog'ora o'yini», «Likob o'yini» singari murakkab akrobatik harakatlar asosida bajariladigan raqsalar, «Ot o'yini», «Qum pishiq», «Pishak», «Uloq», «Xo'roz», «Foz», «Qir'ovul», «Makiyon», «Go'sfand», «Xo'roz urishtirish», «Kaptar o'yini» kabi raqs-pantomimalar, shuningdek, kishilarning kundalik mehnat faoliyati va maishiy turmush lavhalarini aks ettirilgan pantomimik o'yinlar - «Supsa (supurt) o'yini», «Cho'girma tikish»dan iborat bo'lgan edi.

Kishilarning mehnat turlari takomillashishi va turmush tarzining o'sib borishi jarayonida marosim va rituallar tarkibi, ma'no-mohiyati va ularning tomosha san'ati sifatidagi ahamiyati ham muttasil o'zgarib, yangilab boravergan. Natijada dehqonchilik va chorvachilik bilan bog'liq ko'plab marosimlar, bayramlar va sayillar yuzaga kelganki, ularning barchasida u yoki bu darajada kishilarga badiiy-estetik zavq beradigan teatrlashtirilgan tomosha san'ati elementlari faol qo'llangan.

Teatrlashtirilgan tomosha san'atining qadimiy asoslari ajdodlarimizning borliq olam haqidagi samoviy qarashlarini o'zida mujassamlashtirgan kosmogonik miflar, jonli va jonsiz tabiat bilan odamlar o'rtasida muayyan aloqadorlik mavjudligiga ishonishga asoslangan totemistik tasavvurlar, jonning tanadan tashqarida mavjud bo'lishi to'g'risidagi animatik e'tiqodlar va magik-shomonistik dunyoqarashni o'zida ifoda etgan turli xil marosimlar va ritualarga borib taqaladi. Bunda milliy madaniyatimizning serqirra ko'rinishlaridan hisoblangan xalq o'yinlari va tomoshalar alohida ahamiyat kasb etgan. O'zining qadimiylik va serqirraligi bilan ajralib turuvchi ana shu bebaho milliy qadriyatlar tizimi ajdodlarimizning ijodiy salohiyati naqadar boyligi va ma'naviy olami beqiyosligidan dalolat beradi.

Xalq o'yinlari va tomoshalar an'anaviy va ommaviy ijod mahsulidir. Bu ijodiy jarayonning uzoq asrlar davomida uzluksiz rivojlanishi natijasida xalqimizning ijtimoiy-maishiy hayoti, o'ziga xos milliy xususiyatlari, mentaliteti va o'zu-istaklarini tarannum etuvchi milliy o'yinlar yuzaga kelgan. Davrlar o'tishi bilan jamiyatda sodir bo'lgan o'zgarishlar hamda xalqimiz ma'naviyatining rivojlanishi natijasida bunday o'yinlar ham o'zgarib, yangicha tus va shakllarda takomillashib boravergan. Ko'pchilik hollarda o'zining birlamchi funksiyalari va xususiyatlarini saqlagan bo'lsa, ba'zan o'zgarib, ayrim uzvlari hatto unutilib boravergan. Biroq aksariyat an'anaviy o'yinlar xalqimizning urf-odatlari, marosimlari va bayramlari tarkibiga singib ketganligi bois, ijtimoiy hayot bilan hamnafas bo'lib, bugungi kunga qadar xalqimizning ma'naviy kamolotida muhim rol o'ynab yashab kelmoqda. Xalq o'yinlari va tomoshalar, marosim hamda bayramlari uzoq davrlar davomida avlodlardan-avlodga o'tib kelayotgan bebaho meros bo'lib, ularning zamirida

xalqimizning ijrochilik mahorati, badiiy iste'dodi, teatrlashgan, tomosha san'atining shakllanish jarayoni o'z ifodasini topgan.

Xalqimizning ommaviy o'yinlari va tomoshalari mohiyatan bir-biriga bog'langan yagona badiiy faoliyat mahsulati sanaladi. Chunki bu madaniy hodisalar teatrlashgan tomosha san'atining o'ziga xos shakllari bo'lib, ularda ijrochi, tomoshabin, tabiiy sahna - sayilgoh va maydon bor, shu bilan birga, muayyan hayotiy senariy, xalqona rejissura va tabiiy dekoratsiya ham mavjuddir. Bunday milliy o'yinlar va tomoshalar o'zining ijro etilishi bo'yicha yakka va ommaviy (guruh) ko'rinishida namoyish etilishi mumkin. Masalan, yakka ijrochilar - bakovullar, qiziqchilar, baxshilar, muqallidlar, ayiq, maymun va ilon o'yinuvchilar, so'z ustalari, shoirlar o'zlarining ijodiy mahsulini yakka holda ijro etadilar. Bu ijodkor ijrochilar yakka holda shahar va qishloq mahallalarda bo'lib, xalq to'planadigan gavgum joylar: bozor, guzar, mahalla va katta ochiq maydonlarda o'z san'atlarini namoyish etishgan. Muayyan guruhlariga birlashgan holda ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi san'atkorlar: ashulachilar, sozandalar, qiziqchilar, maxarabozlar, dorbozlar, tosh ko'taruvchi polvonlar, qo'g'irchoqbozlar va boshqa shu kabi san'at turi bilan mashg'ul bo'lgan ijrochilar esa o'z mahoratlarini asosan katta sayilgohlarda, bozor maydonlarida, chorsularda, shuningdek, teatrlashgan tomosha ko'rsatishga mo'ljallangan maxsus sahnalarda namoyish etishgan.

Xalq o'yinlari va teatrlashgan tomoshalar tarixiy asoslariga ko'ra qadimiydir. Ularning aksariyati g'oyatda qadimiy bo'lib, kishilarning mehnat turlari, diniy-e'tiqodiy qarashlari, marosim hamda bayramlari bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Xalqimizning o'yinlari va tomosha san'atida ajdodlarimizning hayotiy kechinmalari, falsafiy dunyoqarashi, ichki tuyg'ulari, elga va vatanga bo'lgan mehru muhabbati, ulkan ma'naviy qadriyatlarini yaratgan bobolarimizning milliy badiiy tafakkuri, orzu-istaklari va turmush tarzi o'z ifodasini topgan. Shu bois, xalqimizning qadimiy analari asosida kelib chiqqan teatrlashgan tomosha san'ati ajdodlarimizdan bizga qolgan bebaho badiiy qadriyatlardan biri bo'lib, bugungi kunda madaniy-ma'naviy faoliyat bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarimizning dolzarb vazifalaridan biri - xalq o'yinlari va tomoshalarini yanada takomillashtirish, teatrlashgan ommaviy tomoshalarni yangicha uslub va shakllarda, ya'ni milliy ruhda rivojlantirishdan iboratdir.

Teatrlashgan tomosha xalq ommaviy san'atining keng ko'lamli qamrovga ega bo'lgan va tarkibiy jihatdan ko'p qirrali turlardan biri bo'lib, badiiy adabiyot, folklor, musiqa, teatr san'ati, dekoratsiya, xoreografiya, kino va pirotexnika, shuningdek, ba'zi bir sport turlari: badiiy gimnastika, an'anaviy o'yin madaniyati, ommaviy gimnastik o'yinlar va boshqa badiiy chiqish shakllarini o'z ichiga qamrab olishi bilan xarakterlanadi.

Bugungi kunda bayram, sayil va ommaviy tadbirlar asosan teatrlashgan maydon tomoshalari tarzida o'tkazilishi an'anaga aylangan bo'lib, bu san'at turining sinkretik shakli hozirga qadar uzoq va murakkab taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan. Maydon tomoshalarining ayrim tiplari asrlar sinovidan o'tgan milliy qadriyatlar zamiriga asoslansa, ba'zi bir ko'rinishlari zamondoshlarimizning badiiy-estetik qarashlari va hayotiy ehtiyoji natijasida shakllanib, o'zining janniy belgilarini namoyon etmoqda.

Shu bois, bugungi kunga kelib, teatrlashgan maydon tomoshalarini ommaviy san'atning alohida bir turi sifatida differentsiatsiyalash va uning o'ziga xos xususiyatlarini oydinlashtirish zarurati yuzaga keldi. Chunki istiqbol davri bayramlari va sayillarining kompozitsion qurilishi va talqini asosan teatrlashgan maydon tomoshasi tarzida o'tayotganligi bu san'atning o'ziga xos xususiyatlarini, funksional xossalari, belgilarini, vazifalari va badiiy obrazlilikni ifodalash usullarini aniqlashga imkon beradi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, hozirgi zamon rejissurasida "teatrlashgan maydon tomoshasi"

ushunchasi bayram tadbirlarining mohiyatini belgilovchi atama sifatida amaliyotdan muqim o'rin oldi. Bu tushuncha bir tomondan, keng ma'noda "teatr"ni anglatasa, ikkinchi jihatdan, sahnaviy tomosha an'anasining badiiy evolutsiyasi natijasida yuzaga kelgan va san'atning turlari janrlari va turlarini o'z ichiga yaxlit holda qamrab ola biladigan sinkretik madaniy hodisaning atamasi ham hisoblanadi. Tarixiy asoslariga ko'ra juda qadimiy negizga ega bo'lgan va ayni paytda, hamisha navqiron bo'lib, yangilanib boraveradigan bu san'at turi xalq badiiy ijodiyotining professional san'at bilan birlashadigan nuqtasidir.

Dunyo xalqlari orasida teatrlashgan maydon tomoshalarining "targ'ibot xarakteriga ega bo'lgan badiiy tantanalar", "adabiy-musiqiy kompozitsiyalar", "ommaviy bayramlar", "xalq sayillari", "sport o'yinlari bilan bog'liq teatrlashirilgan tadbirlar" kabi turlari keng ommalashgan.

Teatrlashgan maydon tomoshalarining targ'ibot maqsadida o'tkaziladigan turlari asosan muayyan g'oyalar, qarashlar, nazariyalar, bilimlar va konsepsiyalarni targ'ib qilish, aholining turli qatlamlari orasida keng ommalashtirishni ko'zda tutadi. Bunday tadbirlarda mamlakat miqyosida amalga oshirilgan ulkan yangilanishlar, yaratuvchilik va bunyodkorlik borasida amalga oshirilgan ishlar, iqtisodiy va ma'naviy hayotda qo'lga kiritilgan yutuqlar targ'ib etiladi. Mustaqillik tufayli amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarini keng targ'ib qilish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi Xalq ijodiyoti va madaniy-ma'rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi tomonidan tashkil etilgan «Xalq ijodiyoti» tomonidan o'tkazilgan tadbirlar teatrlashgan maydon tomoshalarining ana shu tipiga mansub deyish mumkin. Mazkur "Xalq ijodiy poyezdi" tarkibidagi san'atkorlar, ijodkorlar, jurnalistlar Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Navoiy va Buxoro viloyatlari (2005), Farg'ona vodiysi (2007), Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari (2008), Xorazm viloyati va Qoraqalpog'istonga ijodiy safar qilib (2009), shahar va qishloqlardagi o'yingohlarda, sayilgohlarda badiiy-musiqiy tadbirlarda ishtirok etishdi.

Targ'ibot maqsadidagi teatrlashgan tomoshalarda muayyan g'oyani badiiy chiqishlar orqali ommalashtirish bilan bir qatorda musiqa va so'z san'ati, qo'shiqchilik, raqs, zamonaviy texnika vositalari, dekoratsiya (plakattlar, panoramalar, pannolar, stendlar, ko'rgazmalar)dan ham foydalanildi.

Teatrlashgan maydon tomoshalarining ilk shakllari qadimdan xalqimiz ma'naviy taraqqiyotiga yo'l dosh bo'lib, madaniy hayotdan mustahkam o'rin olgan ko'plab bayramlar, sayillar va marosimlarda o'z ifodasini topgan edi. Asrlar mobaynida yaratilib, avloddan avlodga o'tishi jarayonida sayqallanib, takomillashtirib kelgan ko'pgina bayramlarni, marosimlarni, namoyishlarni, tomoshalarni o'z xotirasi va qalbida saqlab kelgan xalqimiz bugungi kunga kelib naqadar boy va serqatlam bayramlar tizimini shakllantirdi. Xalqimizning qadimda yaratilgan boy badiiy madaniyati va milliy qadriyatlarini istiqbol davri teatrlashgan maydon tomoshalarining shakllanishiga asos bo'lgan manbalardan biri sanaladi.

Ana shu bayramlar va an'analar o'tkazish munosabati bilan ko'pincha teatrlashgan maydon tomoshalarini tashkil etilishi an'anaga aylandi. San'atning turli yo'nalishlariga mansub mutaxassislarining ijodiy qarashlaridagi uyg'unlik maydon tomoshalarini sahnalashtirishning bosh omili bo'ldi va bayram tadbirlarimizdagi dramatik tizimning badiiy yaxlitligini ta'minladi. Badiiy asarlarni sahnalashtirishda qotib qolgan an'anaviy yechimlardan dadil voz kechib, yangi badiiy shakl va konsepsiyalarni taqdim eta bilishi bilan xarakterlanuvchi rejissyorlar, o'zbek milliy raqs san'atining an'anaviy va zamonaviy talqinlarini ko'pqatlamli tizimda ifodalay olgan taniqli baletmeysterlar, shuningdek, teatrlashgan tomosha o'tadigan maydonning umumiy manzarasi-yu, sahna naqshlaridan tortib har bir ijrochining libosi va pardozida o'ziga xos rang-tasvir olamini yaratgan

musavvirlarning o'ziga xos ijodiy uslubi va o'zbek milliy san'ati taraqqiyotiga qo'shgan hisssati tufayli ta'riflashgan maydon tomoshalari san'atning o'ziga xos turiga aylandi.

Ayniqsa milliy dorbozlik va polvonlik san'ati yanada rivoj topmoqda. Bu san'atga ijrochilarning ham tomshabinlarning ham ishtiyogi baland.

Qadim zamonlarda Vodiyi "dovon" yurti deb atashgan.

Dovon yurti atrofi tog'lar bilan o'ralgan. Hozirgi Farg'ona Vodiyi xududi chegarasi tog'lar bilan belgilangan va yurt himoyasi janglari ham shu tog'larda kechgan.

Daradan daraga o'tish uchun arqon tortib undan ko'priki sifatida foydalanilgan. Tez xarakatlanish uchun esa askarlar nayzalarini birlashtirib, "langar" qilib uning yordamida muvozanatni saqlab, jar ustidan o'tishgan. Har bir askar langar yordamida jardan o'tish xadisini olgan. Ustaroqlari janglardan bo'sh maxallari tortilgan arqon ustida o'z xunarlarini namoyish qilishgan. Shu tariqa dorbozlik mashqlari san'at darajasiga ko'tarildi. Asta-sekin bu san'atni bayramlarda va g'alaba shodiyonalarda namoyish etishib, xalqning olqishiga sazovor bo'lganlar. Shu sababli Osiyoda Farg'ona vodiyisini dorbozlik san'atining markazi deyiladi.

Yaqin-yaqinlarga Quva shahri, aniqrog'i Qalimpo'stin qishlog'i dorbozlar qishlog'i deyilgan. Taniqli dorboz Toshkanboy otaning otasi ham Asakadan Quvaga kelib Madolim dorbozga shogird tushib shu hunarni egallagan va Toshkent shaxrida safardaigida o'g'il ko'rganligi xaqida xabar keladi va o'g'liga Toshkanboy deb ism qo'yadi.

Toshkanboy ota o'zbek dorbozlari orastida revolyusiyadan keyin birinchi bo'lib dorbozlikni professional sirt arenasiga olib kirdi va shu bilan tarixda qoldi. Hozir ham Toshkent-oyevlar sulolasi dunyo bo'ylab ijodiy safarlarda. Lekin sirtk ichiga kirgan dor ixchamlashib, shakli -shamoyilini yo'qotdi. Biz bilgan Madolim dorboz, Mirzaolim, Usmor, Qurbon, Madamin va Qosim dorbozlar milliy dorimizni shaklini yo'qotmay, xozirgi kungacha yetkazib kelishgan, shuningdek ular dorbozlik san'ati rivojiga o'zlarining katta xissalarini qo'shganlar.

Oldingi- yog'och, uch xarilik, 20, 25 metr balandlikdagi dorlar hozirgi kunda 12, 13 metrik bo'lib, qarish va yig'ish osonlashgan, chig'irliq va paranglari bilan, xari-gumbazi va xavozalari bilan shakllanib qoldi.

"Dunyoda dorbozlik va dorlar juda ko'p, lekin o'zbekning baland, katta dorlarining o'xshashi hech qayerda yo'q. Sobiq SHO'rolar davrida dorning atrofini o'rab tomosha ko'rsatilsin, deb bo'yruq chiqqanida xam, ochiq maydonlarda tomosha ko'rsatish ta'qiqlanganda xam, biz o'z an'amimizga sodiq qoldik va barcha sayil - bayramlarda ochiq maydonlarda hunarimizni namoyish etdik" - deydi vodiylik polvon Tursunali Mamajonov. Katta dordan tashqari Yurtimizda simdor xam bor. Simdorlar o'ziga xos go'zal xarakter bilan ko'pchilikni lol qoldirgan. Qadimiy o'yinlardan dorda oyoqqa qilich, pichoq boylab sakrash, temir qalqonning ichiga tushib sakrab yurishlar shular jumlasidandir.

"Dorbozlik san'ati" eng qadimiy milliy san'at turlaridan biridir. Betakror va o'lmas urf-odatlarini yanada jonlantiruvchi, yurtimiz yoshlarining dorbozlik san'atiga bo'lgan e'tibori va qiziqishlarini oshiruvchi keng ko'lamdagi madaniy san'at turlaridandir. Milliy o'yinlardan xalq dorbozlari namoyishi e'tiborini tortadi.

Hududlardagi tabiat ko'rkidan zavq va ilhom olib, sahnaga chiqqan dorbozlar guruhlari o'ziga xos sahna ko'rinmalarini, qiziqari o'yinlarini barcha havas bilan tomosha qiladi. Ayniqsa Farg'onalik Tursunali Polvon tosh ko'tarishi, shogirdlarining dorda raqs tushish o'yinlarini ko'rgan xalq hayrat bilan ma'naviy zavq oladi.

"Bolaligidan tosh ko'tarish va dor o'yinlariga qiziqishim kuchli bo'lgan. Uni yoshligimdan puxta o'rganib olganman. O'z tashabbusim bilan o'z oilaviy guruh tuzganman" - deydi polvon Tursunali Mamajonov. U bir necha yildan buyon milliy

o'yinlari bilan xalq orasida shuxrat qozonib kelmoqda. Ayniqsa xorijlik mehmonlar ham dordagi o'yinlariga hayrat bilan qarashmoqda. Uning o'g'illari dor o'yinlarini juda yaxshi o'rganib olishgan. Yuzdan ziyod shogirdlari bor. Ular bilan yillar davomida polvonlar, dorbozlar sulolasini shakllantirib kelmoqda. Tursunali polvon boshchiligida ijro etilgan qiziqarli tomoshalar akrobatik, yog, kurash o'yinlarini, yog'ochda, shisha ustida, dor ustida yugurish, sakrash, masxarabozlik tomoshalarini, ko'z boylab dorda yugurish singari o'yinlarini guruh azolari mahorat bilan namoyish etadi.

Chundan ham xalqimiz azaldan madaniyat, san'at, xususan, xalq og'zaki ijodi va milliy xalq o'yinlariga katta qiziqish bilan qaraydi, uni tinglab, ko'rib zavq oladi, yoshlar esa o'rganishga harakat qiladi. Ushbu tomoshalarda qatnashgan olis va yaqindan kelgan melmonlaru mezbonlarning yuzlaridagi cheksiz hayajonni, ko'zlaridagi quvonchini his qilish mumkin.

Hozirgi kunda ular o'z ijro dasturlarining yangi va yangi ko'rinmalarini tayyorlab tomshabinlarni hayratga solmoqdalar.

Mustaqilligimiz sharoifati bilan milliy qadriyatlarimizdan bo'lgan dorbozlik va polvonlik tomosholariga keng yo'l ochilib, bu san'at turi yanada rivojlanib ketdi. Xozirgi kunga kelib, O'zbekistonda 36 ta oilaviy dorbozlik guruxlari faoliyat ko'rsatmoqda.

Respublika Madaniyat va sport ishlari vazirligi tomonidan xar ikki yilda Respublika dorbozlar va polvonlar milliy an'anaviy ko'rik tantovalari o'tkazilib, yurtimizning eng yaxshi dorbozlar va polvonlari aniqlanib, taqdirlanadilar.

Yurtboshimizning milliy qadriyatlarimizga bo'lgan e'tiborlari o'zbek dorbozlari va polvonlarini rag'bartirlarib O'zbekistonimizning takrorlanmas milliy san'atining bir debohasi bo'lgan dorbozlikni yanada yuksaklarga ko'tarishga xarakter qilishmoqda.

Saodatxon Yo'ldosheva,
filologiya fanlari nomzodi, professor

MUSTAQILLIK DAVRI FOLKLOR SAN'ATINING TARAQQIYOT BOSQICHLARI

Jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lgan O'zbekistonda xilma-xil janrlardan iborat boy folklor an'analari yuzaga kelgan. Badiiy salohiyati g'oyat yuksak bo'lgan ajdodlarimiz postik iqtidorini o'zida mujassamlashtirgan xalq og'zaki ijodiyoti durdonalari asrlar davomida bitmas-tuganmas ruhiy quvvat manbai bo'lib kelgan. Zero, folklor san'ati bunyodkorlik va yaratuvchilik g'oyalariidan kuch olib, xalqimizga juda katta ma'naviy quvvat beruvchi qadriyatlar tizimi bo'lib kelgan.

Milliy mustaqillikka erishganimizdan kevin ma'naviy qadriyatlarini tiklash va milliy mentalitetimizni belgilaydigan folklor an'analarini tiklash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Mamlakatimizda kechayotgan ma'naviy-ruhiy tiklanish jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan bu jarayon, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi qayta tashkil etilganidan so'ng keng ko'lamda davom etirildi. Vazirlikning yangi tarkibi milliy qadriyatlarimizni yanada rivojlantirish, xalq ijodiyotining unutilish arafasiga kefib qolgan tur va janrlarini tiklab, keng ommalashtirish, ayniqsa, o'zbek xalq ijodi durdonalarini jahonda keng targ'ib etishga alohida e'tibor qaratmoqda. Natijada dunyo ma'naviy tamadduniga o'zining benazir ijodiy qudrati bilan munosib hissa qo'shgan xalqimiz yaratgan qadimiy qo'shiqlar, marosim va an'analari bugungi kunda yosh avlodni ezgu an'analar ruhida kamol toptirishning muhim vositalaridan biriga aylandi.

O'zbek xalq og'zaki ijodi – ajdodlarimiz badiiy salohiyatining asrlar mobaynida taraqqiyoti davomida shakllangan qudrati ma'naviyat xazinasi. Zukko ajdodlarimizning hadisiga voqelik bo'lgan mifologik qarashlari tafakkur taraqqiyoti davomida badiiy-estetik hodisaga aylanib, so'z vositasida poetik ifodalashlari natijasida xilma-xil janrlardan tarkib topgan folklor an'analari shakllanib, asrlar davomida xalq badiiy sarchashmasidan oziqlanib, rivojlanib kelgan. Folklor – xalqimizni yuksak qadriyatlar ruhida tarbiyalovchi ma'naviyat sarchashmasidir. Xalq og'zaki ijodiyotida mujassamlashgan xalqona g'oyalar yosh avlodni ma'naviy komil insonlar qilib tarbiyalashda muhim amaliy ahamiyat kasb etgan. Xalq yaratgan bebaho tafakkur durdonalari o'zbek madaniyati, xususan, yozma adabiy an'analarning shakllanishi va takomillashishini ta'minlagan manba bo'lib hisoblanadi.

Xalqimiz tomonidan yaratilgan folklor san'ati an'analarni rivojlantirish va yanada kamol toptirishda, ayniqsa, folklor qadriyatlarini jahonga tanitishda o'zbek folklorshunoslari, san'atshunoslar qatori folklor-etnografik jamoalar, askiyachi va qiziqchilar, dorbozlar, xalq hunarmandlari, baxshi-shoirilar, xalfa va jirovlar ulkan ishlarni amalga oshirmoqdalar.

O'lkamiz mustaqillikka erishganidan keyin ajdodlarimiz ma'naviy merosiga, ayniqsa, xalq og'zaki ijodiyotiga bo'lgan qiziqish kuchaydi va bu narsa folklor san'ati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar oldiga ham yanada dolzarb vazifalarni qo'ydi. Ayniqsa, an'anaviy folklor ijrochiligining qadimiy uzvlarini qayta tiklash, viloyatlarda saqlanib qolgan nodir jiro yo'llari, folklor janrlari va ularning matnlarini keng ommalashirish orqali saqlab qolishga alohida e'tibor berilmoqda.

Milliy mustaqillik xalqimizning o'z bobolari zakovati tufayli yaratilgan ulkan madaniy merosga bo'lgan munosabatini tubdan yangilab, ajdodlarimiz tarixi, madaniyati, ma'naviy qadriyatlarini tizimini keng ko'lamda targ'ib etishning misli ko'rilmagani, imkoniyatlarini ochib berdi. Istiqol sharofati bilan dunyoqarashimizda, ongimizda ro'y bergan yangilanish, ruhiy poklanish va ma'naviy tiklanish jarayoni folklor san'atining taraqqiyotida ham yaqqol aks etmoqda. Zero, folklor san'ati an'analari "mustaqil dunyoqarashga ega, ajdodlarimizning bebaho merosi va zamonaviy tafakkurga tayyanib yashaydigan barkamol shaxs – komil insonni tarbiyalash"dek ulug'vor maqsadlarga xizmat qiladi.¹⁴

Bugungi tarixiy-folkloriy jarayon o'ziga xos taraqqiyot tamoyillariga egaligi bilan ajralib turadi. Mamlakatimiz istiqolga erishgandan keyin boshlangan keng ko'lamdagi ma'naviy tiklanish jarayoni bilan uzviy bog'liq holda ajdodlarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilib, badiiy sayqal berib kelingan muhtasham folklor yodgorliklarini jahonshumul ahamiyati xususida so'z yuritish, xalq ijodiyotining unutilish arafasiga kelib qolgan ko'plab janrlarini qayta tiklash, ijrochilik an'analarni rivojlantirishning misli ko'rilmagani imkoniyatlari yuzaga keldi.

Har bir xalqning milliy o'zligi, avvalo, uning urf-odatlari va marosimlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun mustaqillik yillarida o'zbek folklorshunosligida marosim folklorining janrlar tarkibi, genezisi va badiiy xususiyatlarini tadqiq etish tamoyili kuchaydi. Ayniqsa, professor T.Mirzayev «Ilapar» janrining o'ziga xos badiiy tabiatiga doir maqolasi (1998), O.Ismonovning O'sh viloyati o'zbek nikoh to'yi marosimi folklorining janrlar tarkibi va unda «kelin salom» janrining tutgan o'rni maqolasi (1999), S.Davlatovning Qashqadaryo vohasi o'zbek to'y marosim folkloriga bag'ishlangan ilmiy ishi (1996), N.Quronboevaning Xorazm to'y marosim qo'shiqlarini o'rganish borasida olib borgan

tadqiqotlari (1994), L.Xudoyqulovning Surxon vohasi aholisi to'y marosim folklorining lokal xususiyatlari va o'ziga xosligini ochib berishga qaratilgan izlanishlari (2005-2007), M.Jo'rayev, M.Pirmatovlarning o'zbek xalq taqvimi va mavsumiy marosimlar folklori janrlarini o'rganishga oid ilmiy tadqiqotlari (1997-2007), O.Qayumovning o'zbek shomon marosimlari folklorini yozib olish va ilmiy o'rganish borasidagi ishlari (2006), buxorolik olimi D.O'rayevning o'zbek motam marosimi folklorining genezisi, janrlar tarkibi va poetikasiga bag'ishlangan monografik tadqiqoti (2005) muhim ilmiy qiymatga ega bo'ldi.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin xalqimizning milliy an'analarni tiklash va qadriyatlarimizni keng ko'lamda targ'ib etish borasida katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, mamlakatimiz prezidenti I.A.Karimovning Navro'zi olamni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash to'g'risidagi farmoni asrlar davomida insoniyatni ezuq manzillar sari chortlab kelgan bu benazir an'ana qayta hayot baxsh etdi. Folklorshunoslikda ham ana shu qadimiy va navqiron bayramning tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari, folklorini to'plash va o'rganish borasida samarali ishlar qilindi. Jumladan, T.Mirzayev va M.Jo'rayevlar tomonidan tayyorlangan «Navro'z» majmuasi (1992), M.Jo'rayevning «O'zbek xalq taqvimi va mifologik afsonalar» (1994), «Navro'z qo'shiqlari» (2007) kitoblari nashr etildi.

Hammanizga ma'lumki, folklor, bu – xalq ijodi. Xalqimiz tabiati, uning ruhiyatini folklor asarlaridek teran badiiy ifoda etuvchi namunalarni topish qiyin. Shunday ekan, o'zligimizni, dunyo madaniyati va sivilizatsiyasi tarixi, bugungi kundagi munosib o'rnimizni ko'rsatish folklori o'rganish, targ'ib etish bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbek folklorshunosligi maktabi vakillarining bugungi kunda olib borayotgan yirik ilmiy tadqiqotlari ham ana shu ezuq maqsadga xizmat qiladi.

An'analar xalqimizning o'zi kabi umrboqiy, qalbi misol mehridaryo va jonbaxshidir. Yurtimizning har bir go'shasida o'ziga xos marosimlar, oilaviy-maishiy va mehnat bilan bog'liq an'analari momolarning mehr bulog'idan qaynab chiqqan orombaxsh alla-yu, olqishlar mavjud. Xalq an'ana va marosimlari jo bo'lgan asriy qadriyatlar, ma'naviy ko'zgusiga aylangan qanotli orzular, folklor san'atining ko'p asrlar davomidagi ijodiy faoliyati natijasida poetik jihatdan sayqallanib, barkamollashib kelgan. Kamalak jilosidek dillarga ezgulik baxsh etuvchi qadimiy marosimlar hamda xalq an'analarni chuqur o'rganish, milliy qadriyatlarimiz mohiyatini yanada teranroq anglash va tushunish imkonini beradi.

O'zbekistonning istiqolga erishishi esa benazir iste'dod sohibi bo'lgan ajdodlarimizning og'zaki badiiy ijodi an'analarni tiklash, folklor asarlarini keng ommalashirish, ularning tarixiy kelib chiqishi, janr xususiyatlari, badiiyati va ma'naviy hayotimiz takomilida turgan muhim o'rni keng ko'lamda o'rganish uchun yetarli imkoniyatlar yaratadi.

Mustaqillik tufayli yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yangilanish jarayoni natijasida folklor asarlari keng targ'ib qilina boshladi. Ayniqsa, marosim folklori, dostonchilik, xalq marosimlari va udumlarini tiklash, shuningdek, xalqning havaskorlik ijodiyotini taraqqiy ettirishga keng yo'l ochildi. Folklor-etnografik jamoalari hozirgi kunda o'z yo'nalishi, tarixiy taraqqiyot jihatlariga ega bo'ldi. Istiqol sharoitidan ruhlangan soha mutaxassislari unutilgan qadriyatlarini tiklashga, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etishga kirishdilar.

Ayniqsa, tarixiy jihatdan shakllanib kelgan folklor-etnografik jamoalari dasturidan zamon ruhiga mos udum, marosimlarda Navro'zni ona yurtini madh etuvchi qo'shiqlar bamiqli daryoday jo'shib kuyilmoqda. Bu esa chechan ijrochilarning ona-yurtiga uning qadriyatlariga bo'lgan cheksiz hurmat va ehtiromining namunasidir.

¹⁴ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. - Toshkent: O'zbekiston, 2000. - B.25.

Ajdodlar tomonidan yaratilib, xalqimiz turmush tarziga singib ketgan an'ana va urf odatlar ham bevosita folklor san'atida o'z ifodasini topgan. Bu san'at ma'naviyat bo'stoning chamanlarida turfa xil jiv'alanmoqda.

Folklor-etnografik jamoalari bugungi kunda folklor san'atining serjilo chamanlari rivojlanishga, milliy mustaqilligimiz tufayli xalqimizning tolibu talabali milliy ongi, milliy g'ururi, milliy iftixori, milliy-ma'naviy dunyosini kundun-kunga boyib borishga xizmat qiladi. Ular folklor san'atining rivojlanish bilan bog'liq bo'lgan tabiiy jarayonda ishtirokchilari. Milliy folklor san'ati an'analarni rivojlantirib, ularni yosh avlod turmush tarziga singdirish ana shu jarayonning turfa xil qirralarida namoyon bo'lmoqda.

Folklor-etnografik jamoalarining say-harakatlari tufayli unutilish arafasiga kelib qolgan milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda. Masalan, «Boysum» folklor jamoasi «Oblo barak» (ya'ni oxirgi tutam bug'doyni o'rib olish va xirmon ko'tarish marosimi), «Don sepdisi», «Navro'zi olam», «Lola sayli», «Shox moylar» (dalaga birinchi qush chiqarish marosimi), «Xo'p mayda» (g'allani yanchish bilan bog'liq udum), «Tuma keldi», «Hosil bayrami», «Boysuncha yor-yor», «O'tin yorish», «Ota sinov» (nikoh to'yi bilan bog'liq udum), Navoiy viloyatidagi «Yor-yor», «Kokil to'yi» (bolani birinchi sochini olish bilan bog'liq dasturi), Andijon viloyatidagi «Bedana», Samarqanddagi «Bestqarsak» folklor-etnografik jamoasining tayyorlagan sunnat to'yi, O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti qoshidagi «Chashma» folklor jamoasi tayyorlagan «Chaqaloqni poklik suviga olish», «Qulog'iga azon aytish», «Avlodlar shajarasi», «Guldur-guplar», «Sanamalar», «Barhayot an'analar», «Baxt sinovi» dasturi, Jizzax viloyatidagi «Gashtak» jamoasi tayyorlagan nikoh to'yi bilan bog'liq «To'qqiz toboq» an'anaviy udumi, Toshkent viloyatidagi «To'rg'ay» jamoasi tayyorlagan nikoh to'yi bilan bog'liq «To'sh qaytarar», «Xorazm» folklor jamoasining nikoh to'yi bilan bog'liq «Non yopdi», «Lachak to'yi» kabi dasturlarda milliy qadriyatlarimiz tarannum etuvi an'ana va marosimlarni, uslubiy xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan o'rganilmoqda.

O'zbekiston xalqlarining tarix sinovidan o'tgan bayram va marosimlari kishilarning o'zaro munosabatlaridagi yaxshi fazilatlarini, chinakam xalqchil, umuminsoniy qadriyatlarini aks ettiradi. Bunday an'ana va marosimlarda mamlakatimiz xalqlarining milliy ruhiyati, ma'naviyatining qadimiy ildizlari ham namoyon bo'ladi. Asrlar davomida shakllantirib va rivojlantirib kelingan an'ana va marosimlarda Vatanga sadoqat, kattalarga hurmat, ota-onaga, yetimlar va qariyalarga g'amxo'rlik, mehmondo'stlik, qon-qarindoshlik va o'zaro yordam, oila sharafini va ayollar sha'ni saqlash, hayotdan ko'z yumgan uzoq-yaqin kishilar xotirasini yodga olish kabi ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan qadriyatlar mujassamlashgan. Zero milliy axloq va milliy ruhi o'zida asrlar osha ortmoqlab kelayotgan folklor san'ati namunalarini benihoya ardoqlaydi. U bugungi kunda o'z ortidan millionlab yoshlarni ergashtirib, har tomonlama ibrat maktabi bo'lmoqda. Folklor-etnografik ansambllari omma mehri qozonib, yoshlar turmush tarziga asta-sekin singib bo'rmoqda. Ularning dasturida mujassamlangan xalq og'zaki ijodiy namunalarini folklorizatsiya uslubiy ko'rinishi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Milliy qadriyatlariga asoslangan urf-odatlarimizning mohiyatini yoshlarga o'rgatishda, ular qalbida mehr va muruvvat chechaklarini undirib-o'stirishda folklor-etnografik ansambllari dasturidan foydalanish ijobiy samara beradi.

Bugungi kunda folklor-etnografik jamoalarining say-harakatlari tufayli unutilish arafasiga kelib qolgan milliy qadriyatlarimiz tiklanmoqda. Masalan, «Boysum» folklor jamoasi «Oblo barak» (ya'ni oxirgi tutam bug'doyni o'rib olish va xirmon ko'tarish marosimi), «Don sepdisi», «Navro'zi olam», «Lola sayli», «Shox moylar» (dalaga birinchi qush chiqarish marosimi), «Xo'p mayda» (g'allani yanchish bilan bog'liq udum), «Tuma

keldi», «Hosil bayrami», «Boysuncha yor-yor», «O'tin yorish», «Ota sinov» (nikoh to'yi bilan bog'liq udum), Navoiy viloyatidagi «Yor-yor», «Kokil to'yi» (bolani birinchi sochini olish bilan bog'liq dasturi), Andijon viloyatidagi «Bedana», Samarqanddagi «Bestqarsak» folklor-etnografik jamoasining tayyorlagan sunnat to'yi, O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti qoshidagi «Chashma» folklor jamoasi tayyorlagan chaqaloqni poklik suviga olish, kulg'iga azon aytish, avlodlar shajarasi, guldur-guplar, sanamalar, barhayot an'analar, baxt sinovi dasturi, Jizzax viloyatidagi «Gashtak» jamoasi tayyorlagan nikoh to'yi bilan bog'liq «To'qqiz toboq» an'anaviy udumi, Toshkent viloyatidagi «To'rg'ay» jamoasi tayyorlagan nikoh to'yi bilan bog'liq «To'sh qaytarar», «Xorazm» folklor jamoasining nikoh to'yi bilan bog'liq «Non yopdi», «Lachak to'yi» kabi dasturlarda qadimiy ma'naviy qadriyatlar silsilasi bo'lmish milliy qadriyatlarini tarannum etuvi an'ana va marosimlarimizni saqlab qolish, ularni uslubiy xususiyatlari «Folklor-etnografik jamoalari uslubiyoti» faminida nazariy va amaliy jihatdan o'rganiladi.

So'nggi yillarda folklor-etnografik ansambllar repertuarida milliy qadriyatlar va an'anaviy marosimlarning vositasi bo'lmish mehr-muruvvat, saxovat va insoniy fazilatlarini aks ettiruvchi sahna ko'rinishlari shakllandi. Folklor-etnografik ansambllarining say-harakatlari tufayli unutilayotgan ko'plab milliy qadriyatlarimiz tiklandi.

Yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yangilanish folklor asarlarini hayotga yanada keng targ'ib qilish jarayonini boshlab berdi. Masalan, xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalarini o'zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi — Navro'zi olam bilan bog'liq qo'shiqlar, udumlar va marosimlar qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarining badiiy xususiyatlari, bayramni o'tkazish bilan bog'liq lokal belgilar ro'yobga chiqdi. Bu sohada amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar asosida Navro'z bayramida qadimdan mavjud bo'lgan ko'pgina asriy udumlar, xususatan, «Yilboshi», «Qozon to'ldi», «Navro'z go'ja tayyorlash», «Sumalak pishirish», «Hashar uyushtirish», «Arg'imchoq uchish», «Lola sayli» kabi o'zligimizni tarannum etuvi qadimiy udumlarimiz yana hayotga qaytdi. Zero, Navro'z marosimlari, udumlari va qo'shiqlarida mehr va muruvvat, oqibat va insoniylik, qut-barakaga bo'lgan buyuk ishonch, mo'l hosil olish g'oyasi, el-yurt xotirjamligining turfa tononlari badiiy talqin etilmoqda.

Mustaqillik tufayli yuzaga kelgan ijodiy erkinlik, ruhiy yangilanish folklor asarlarini hayotga keng targ'ib qilish jarayonini boshladi. Unutilgan qadriyatlariga e'tibor berilmoqda. Masalan, xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalarini o'zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi — Navro'zi olam bilan bog'liq qo'shiqlar, udumlar va marosimlar qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarining badiiy xususiyatlari, bayramni o'tkazilishi bilan bog'liq lokal belgilar yuzaga chiqdi. Har bir hududda o'tkaziladigan Navro'z sayli bilan bog'liq yilboshi tantanalari muhim ahamiyatga ega. Bu haqda yaratilgan ilmiy tadqiqotlar asosida Navro'z bayramida qadimdan mavjud bo'lgan ko'pgina asriy udumlar, xususatan, «Yil boshisi», «Qozon to'ldi», «Navro'z go'ja tayyorlash», «Sumalak pishirish», «Hashar uyushtirish», «Arg'imchoq uchish», «Boychechak sayli» «Lola sayli» kabi qadimiy udumlarimiz yana hayotga qaytdi.

Bahoriy bayram — Navro'zda aytib kelingan qadimiy qo'shiqlar to'planib, ommalashirilmoqda. Chunki, u qo'shiqlarda mehr-oqibat, qut-barakaga bo'lgan buyuk ishonch, mo'l hosil olish g'oyasi, el-yurt xotirjamligi badiiy talqin qilinadi. Bulung'ur tumanida tashkil qilingan «Chavqir» folklor-etnografik ansambli ijrosida aytilgan «Yilboshi» qo'shig'i ham istiqol tufayli hayotga qaytgan qadimiy taronalardan biridir.

Odamlar, hoy odamlar,
Bog'da bitgan bodomlar,
Eshitmadi demanglar,
Bugun bayram yilboshi,
Sayilga, ho sayilga!
Dehqon dala aylandi,
Ho'kiz shoxi moylandi,
Omoch, mola, cho'nka tish,
Dehqonbobo shaylandi.

Qadimda ushbu misralarni bahor kelishi bilan, kuzda hosil mo'l bo'lishini umid qilib, ezgu niyatda dalaga don sepkan bobodhqonlarimiz el-u yurtga omonlik, tinchlik, farovonlik tilab kuylaganlar. Bu qo'shiqlar Navro'z — yilboshi tantanalarining eng nafis qo'shiqlaridan biri bo'lgan. Qo'shiq misralarida el dasturxoniga baraka yog'ilishi, halol mehnatni ulug'lash, ezgu umidlarning amalga oshishi, to'kin-sochinlik, oilalar xotirjamligi, yurt boyligi kabi g'oyalarni yetakchilik qiladi.

Bulung'urliklar folklorida Navro'zi olam bilan bog'liq qadimiy qo'shiqlarning terma-aytim ko'rinishidagi shakllari hamon saqlangan bo'lib, u "Chavqi" ansambli ijrosida tarannum etilmoqda.

Navro'z keldi, yoz keldi,
Turna keldi, g'oz keldi.
Yam-yashil chorbog'lardan,
Bulbulday ovoz keldi.
Navro'z keldi bu kecha,
Pishiring navro'z go'ja.
Go'jasi shirin momoga,
Beraylik bir juft jo'ja.

Xalq ijodiyotining yorqin namunasi bo'lgan folklor-etnografik ansambllari ishtirokchilari va soha mutaxassislarining ijodiy izlanishlari natijasida juda ko'p marosim qo'shiqlari tiklandi. Natijada ma'naviyatimiz xazinasini qayta boyitishda Navro'z va sumalak sayli bilan bog'liq xalq qo'shiqlarining turfa xil namunalaridan bahramand bo'lmoqdamiz.

Ma'lumki, Navro'z keng omma tomonidan nishonlanadigan umumxalq bayramidir. Shu bois bu bayramning ko'p qo'shiqlari ommaviy ijrochilikka mo'ljallangan. Navro'z bilan bog'liq qo'shiqlarda yurt ozodligi, ma'naviy qadriyatlarimizning elga qaytish g'oyasi tarannum etilmoqda:

Navro'z keldi, qut keldi, doshqozonlar osildi,
Navro'z go'ja, ko'k somsa, sumalaklar suzildi.
Boshlarida oq ro'mol, elga tilab omonlik,
Momolar dili shodon - murodi hosil bo'ldi.

Milliy istiqloq xalq badiiy ijodiyotining barcha tur va janrlari qatori marosim folklori san'ati, xususan, Navro'z turkumidagi qo'shiqlarning tiklanishi uchun katta imkoniyat yaratdi. Bu imkoniyatlar tufayli asriy qadriyatlar tizimi bosqichma-bosqich tiklanib, hayotga qaytmoqda. Bu mustaqil diyorimizda kechayotgan hozirgi tarixiy-folklor jarayonining muhim qiralaridan biridir.

O'zbek folklor san'atini yoshlar shuuriga singdirishda faol mehnat qilayotgan ansambllar dasturini o'rganish, uni takomillashtirish bo'limg talabalarida oldinda turgan muhim vazifalardan biridir. Folklor-etnografik jamoalari o'z ijodlarida ajdodlar merosining nodir namunalarini turfa xil ko'rinishlarda namoyon etib, folklor san'atini rivojlantirishga hissa

qo'shmocdalar. "Folklor-etnografik jamoalari rahbari" bo'limg talabalarini milliy qadriyat va san'atlarini rivojlantirishda nazariy va amaliy jihattan malakaviy bilimga ega bo'lib ajdodlar merosining nodir namunalarini turfa xil ko'rinishlarda ijro etib, folklor san'atini taraqqiyotga o'z hissalarini qo'shadilar.

Folklor-etnografik ansambllari qayerda tashkil qilingan bo'lsa, o'sha yerlik xalqning milliy san'atlarini, og'zaki ijodning noyob namunalarini saqlashda, unga savqal berib, xalqning o'ziga qaytarishida jonbozlik ko'rsatmoqdalar. Masalan, Toshkent shahridagi "Gavhar" folklor-etnografik ansambli dasturidan joy olgan "Bolangizga alla ayting, onalar" mavzuidagi dasturda mehri-muruvvat tushunchasi ona allasi orqali tarannum etilgan.

Ona avlod-ajdodlarimizning buyuk davom ettiruvchisidir. "Alla" ona mehri bilan yo'g'rilgan mayin yurak sadosidir. Bu sado shu qadar sezilmo va sezilmamunki, uning ta'rifi u til o'z. Allada iltijo-yu sehir, hazinligu mehri, qolaversa, bu dunyoda eng nozik his-tuyg'ular, ezgu tilaklar mujassam. Chunki ona allasigina jajji chaqaloqlarning qalbiga mehri-muruvvat, muhabbat, oqibat, ymon va insof tuyg'ularini singdira oladi.

Tol ichtida tanlab olgan,

Toli chovqirim bolam.

Gul ichtidan hidlab olgan,

Guli rayhonim, bolam, alla yo' alla.

Ona allasidan bahramand bo'lgan yurtimiz yoshlari momolari, ota-bobolari yaratgan qadriyatlariga mehri qo'yib, ular an'anasini davom ettiradilar.

Istiqlol yillarida folklor san'atiga kirib kelgan yangi janrlarda milliy istiqloqni madh etish, fidoyi yurtodshlarimizning farovon istiqbol uchun olib borilayotgan ezgu ishlarni kuylash asosiy o'rin egallaydi.

Surxondaryo viloyatining Boysun tumanida faoliyat olib borayotgan "Boysun" folklor-etnografik ansambli repertuaridagi "Vatan" qo'shig'ida har qatru tuprog'ini muqaddas bo'lgan ona yurt mehri jo'shib kuyilmadi. Xalqimizda "Yordan ayrilgan yomon, ammo Vatandan ayrilgan hammasidan yomon", degan naql bor. Quyida Vatan sog'inchi, yurtdan ayrilgan tuyg'usi o'rninga boshqacha qanday tuyg'u malham bo'la olmasligi, uning o'rnini hech narsa bosa olmasligi shəriy misralarda o'z ifodasini topgan.

Biz uchun o'ziga Vatan yo'q,

Sen bizga jonsan Vatan.

Bu keng olam uzra tanho,

O'zbekistonsan, Vatan.

Yordan ayrilgan yomondir,

Bordan ayrilgan yomondir.

O'g'ljisan ozod yurtning

Barhasidan eng yomon,

Yurtdan ayrilgan yomon.

Mazkur qo'shiq aslida professional qo'shiqchilarni, mashhur hozirlarimiz tomonidan ijro etilgan va elga manzur bo'lgan. Binobarin, shu qo'shiqning folklor-etnografik ansambli repertuariga o'tishi, birinchidan, mazkur qo'shiqning xalq orasida g'oyat keng yoyilganligini, vatan mehri xalq diliga, har bir yurakka chuqur o'rnatilib olganligini ko'rsata, ikkinchidan, folklor-etnografik ansambllarining repertuari an'anaviy xalq qo'shiqlari hisobiga emas, balki muallifi ma'lum bo'lgan, keyinchalik xalq orasida mashhur bo'lib kelgan asarlar hisobiga ham boyib bormoqda. Masalan:

Amu — Sirming quchog'ida erkalgan bolasi,

Qadim Turon — Turkistonning kola bo'lgan dalasi.

Turkiy tilda suhbat qurgan barcha ellar onasi.
Daastii Qipchoq, Sug'diyona, turkiy Turonim mening,
Qo'sh qanotim, kamolotim, O'zbekistonim mening!
Sirdaryoning yerida qut-baraka dur bo'lsin.
Dehqonlarning yuzida sevinch to'la nur bo'lsin.

Toshkent viloyatining Oqqo'rg'on tumanida tashkil etilgan "To'rg'ay" folklor-etnografik ansambli o'zining "Bo'zto'rg'ay" qo'shig'ida istiqlolni zo'r ko'tarimlilik bilan madh etadi:

Bo'zto'rg'ayjon, bo'zto'rg'ay,
Bo'zlamasang ne bo'lg'ay.
Shunday baxtli zamonada,
O'ynganasang ne bo'lg'ay.
Alpomish o'g'lonlaring,
Barotimoydek qizlaring,
Yurtim baxting kuylaydi,
Xushovoz bulbullaring.
Qozon to'la moy bo'lsin,
O'zbekiston boy bo'lsin,
Mustaqil zamon bergan,
Yurtbooshim omon bo'lsin!

Keyingi yillarda mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan folklor-etnografik ansambllari faoliyatida yuksak insoniy fazilat bo'lishi mehr-muruvvatni aks ettiruvchi folklor sahna ko'rinishlari ko'payib bormoqda.

"XALQ" VA "NAMUNALI" UNVONGA EGA FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOALARI

№	Jamoaning nomi	Tashkil topgan yili	Unvon olgan vaqti	Qatnash chilar soni	Shtat birligi	Rahbari	Manzill va telefon raqami
1.	"Bes perde" folklor - etnografik xalq ansambli	1985	1993	42	2	Alimberov Davlat	Chimboy tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
2.	"Oq mang'it Tongi" folklor etnografik ansambli	1993	2008	10	3	Tolegenov Shamurat	Nukus tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
3.	"O'larin" folklor-etnografik xalq	2005	2008	14	-	Saparbayev	Amudaryo tuman

ansambli	1989	2000	12	3	Rinal	Madaniyat va aholi dam olish markazi
4.	"Meros" estrada - folklor xalq ansambli	1989	2000	12	3	Madaniyat va aholi dam olish markazi
5.	"Ming tuman" folklor-etnografik xalq ansambli	1990	2006	22	-	Karauzak tuman Qorako'l qishloq Madaniyat va aholi dam olish markazi
Andijon viloyati						
1.	"Zilol" folklor - etnografik xalq ansambli	1992	2000	29	3	Baliqchi tuman madaniyat uyi tel:3231063
Buxoro viloyati						
1.	"Mohi-sitora" folklor-etnografik xalq ansambli	1985	1988	8	3	Buxoro sh. Madaniyat va aholi dam olish markazi
2.	"Nozanin" folklor - etnografik xalq ansambli	1984	1988	15	2	Buxoro sh. Madaniyat va aholi dam olish markazi (90) 514-32-00 (8-365) 223-79-91
3.	"Mardona" folklor - etnografik xalq ansambli	1989	1994	20	2	Vobkent t. Madaniyat va aholi dam olish markazi (93) 963-32-01(8-365) 33-21-363
4.	"Afshona" folklor - etnografik xalq ansambli	1986	1989	20	3	Peshko' t. Madaniyat va aholi dam olish markazi

									(8-365) 35-31-586
5.	"Mirishkor" folklor-etnografik xalq ansambli	1997	2000	19	2	Avezova Shahlo	Peshko' t. Madaniyat va aholi dam olish markazi (8-365)35-31-586		
6.	"Qasri-Orifon" folklor-etnografik xalq ansambli	2000	2003	26	3	Jumayev Faxullo	Kogon t. Madaniyat va aholi dam olish markazi (93) 624-74-05. (8-365) 52-76-229		
7.	"Mavji Buxoro" folklor-etnografik xalq ansambli	1986	2010	27	2	Otamurodov Rustam	Buxoro t. Madaniyat va aholi dam olish markazi (90) 711-99-47-98-365) 54-25-452		
Jizzax viloyati									
1.	"Bog'don gullari" folklor-etnografik xalq ansambli	1978	1996	25	3	Mavlonov Baxtiyor	Forish tumani Sayyod qishloq Madaniyat va aholi dam olish markazi +99872-452-15-98		
2.	"Gashtak" folklor-etnografik xalq ansambli	1991	1997	60	4	Juna-nazarov Ahmad	G'allaorol tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi		
3.	"Zebomxon" folklor-etnografik xalq ansambli	1985	2000	35	3	Tursunboyeva Shahzoda	Jizzax shahri Madaniyat va aholi dam olish markazi		
4.	"Zomin sayqali" folklor-etnografik xalq ansambli	2001	2008	22	3	Jiyannurotov Shamsiddin	Zomin tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi Mustaqillik		

									k.29
Navoiy viloyati									
1.	"Nurjahon" folklor-etnografik xalq ansambli	1991	1996	22	2	R. Jumayev	Nurota tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi tel:+91339-4557		
2.	"Xushon-zamon" folklor-etnografik xalq ansambli	1987	2007	217	-	Mirzayeva Gulnora	Navbahor tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi tel:+93438-63-98		
3.	"Yor-yor" folklor-etnografik xalq ansambli	1986	2013	18	-	G. Eshpo'latov	Xatirchi tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi		
Namangan viloyati									
1.	"Yor-yor" folklor-etnografik xalq ansambli	1973	2008	40	-	Raxmatullayeva Yoqutxon	Namangan shahar Madaniyat va aholi dam olish markazi		
Samarqand viloyati									
1.	"Beshqarsak" folklor-etnografik xalq ansambli	1954	1957	40	2	Qodirov Bayon	Urgut tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi		
2.	"Sarbozi" folklor-etnografik xalq ansambli	1985	1991	40	2	Shodmonov Nurullo	Kattaqo'rg'on tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi		
3.	"Chavqi" folklor-etnografik xalq ansambli	1986	1988	25	2	Norov Baxodir	Bulung'ur tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi		
Sirdaryo viloyati									
1.	"Sayxun yigitlari" folklor-etnografik xalq ansambli	1991	1999	8	2	Haqnarov Mamram	Guliston tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi		

2.	“Jan-janay” qirg‘iz folklor-etnografik xalq ansambli	1994	2008	20	3	Dushayeva Oysapar	Sardoba tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
3.	“Bodom gullari” folklor-etnografik xalq ansambli	2005	2014	10	-	S. Turkmanova	Sirdaryo tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
Surxondaryo viloyati							
1.	“Zevari” folklor-etnografik xalq ansambli	1974	1994	24	2	Bahrom Hamidov	Sariosiyo tuman S.Nosirov nom. Madaniyat va aholi dam olish markazi tel:4831985
2.	“Boysun” folklor-etnografik xalq ansambli	1986	1988	41	2	Qodirov Abdunabi	Boysun tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi tel:905210707
3.	“Bulbuligo‘yo” folklor-etnografik xalq ansambli	1985	2000	32	2	Usmonov Rustam	Sho‘rchi tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
4.	“Qo‘ng‘iro‘l” folklor-etnografik xalq ansambli	1988	2002	24	2	S.Eshqobilov a	Qiziriq tuman «Metnabod» qishloq Madaniyat va aholi dam olish markazi
5.	“Quralay” namunali bolalar folklor-etnografik ansambli	1994	1994	46	2	Yo‘ldoshev Usmon	Boysun tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi tel: 91634950
6.	“Mabliyo” namunali bolalar folklor-etnografik ansambli	1997	2002	21	2	Xudoyberdiyeva M.	Qumqo‘rg‘on tuman «Jaloir» qishloq Madaniyat va aholi dam olish markazi tel:4651796

7.	“Jayxun” folklor-etnografik xalq ansambli	2008	2012	40	-	Qurbonov Sattor	Sariosiyo tuman Dashnabod qishloq Madaniyat va aholi dam olish markazi
8.	“Dasinobod anori” folklor-etnografik xalq ansambli	2009	2013	20	-	Abdurahmon Jo‘rayev	Oltinsoy tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
9.	“Sharshara” folklor-etnografik xalq ansambli	2008	2014	20	-	B. Aliov	Oltinsoy tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
Toshkent shahri							
1.	“Nodirabegim” folklor-etnografik xalq ansambli	1989	2003	12	2	Avazova Mamura	Y unusobod tuman T.Sodiqov nomli Madaniyat va aholi dam olish markazi
2.	“Gavhar” folklor-etnografik xalq ansambli	1994	2000	20	3	Akbarova Durdona	Bektemir tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi
3.	“Zeb ichra ziyinat” folklor-etnografik xalq ansambli	2010	2010	20	-	Temur Mahmudov	Toshkent shahri Xalqaro hamkorlik markazi
Toshkent viloyati							
1.	“Gulyor” folklor-etnografik xalq ansambli	1977	1988	24	2	Nurimova Lazokat	Bo‘stonliq tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
2.	“Sudarushka” folklor-etnografik xalq ansambli	1985	1990	11	2	Didenkov Aliksey	Olmaliq shahar Madaniyat va aholi dam olish markazi
3.	“Munozir” folklor-etnografik xalq ansambli	1980	1994	16	2	Shertayev Ulug‘bek	Yuqori Chirchiq tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi

								markazi
4.	"Gryadushiy" folklor-etnografik xalq ansambli	1964	1973	10	2	Davronov Abduvoxid		Olmaliq shahar Madaniyat va aholi dam olish markazi
5.	"Zarir yaproqlari" folklor-etnografik xalq ansambli	1984	1989	17	2	Tojiboyeva Toshilla		Yangiyo'l shahar Madaniyat va aholi dam olish markazi
Farg'ona viloyati								
1.	"Chodir jamol" folklor-etnografik xalq ansambli	1989	1991	38	2	Axmedov Inom		Marg'ilon shahar Madaniyat va aholi dam olish markazi
2.	"Kabutar" folklor-etnografik xalq ansambli	1989	1998	32	2	Sultonov Murodjon		Qo'shepa tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
3.	"Qo'qon yor-yori" folklor-etnografik ansambli	2003	2007	13	2	Qodirova Xursanoy		Qo'qon shahar Madaniyat va aholi dam olish markazi
4.	"So'x chashmasi" folklor-etnografik ansambli	1998	2012	25	-	B. Abdullayeva		So'x tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi
Xorazm viloyati								
1.	"Orazibon" folklor-etnografik xalq ansambli	1985	1987	13	2	O'razboyeva Tozagul		Viloyat ilmiy - metodik markaz
2.	"Doston" folklor-etnografik xalq ansambli	1986	1996	14	3	Madraimova Zumrad		Xiva tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
3.	"Avaxon" folklor-etnografik xalq ansambli	1983	2004	9	2	Normatov Ro'zimboy		Shovot tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi

4.	"Xiva" folklor-etnografik ansambli	1992	2008	17	-	Allabergano v M.		Xiva tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
5.	"Xorazm" folklor-etnografik xalq ansambli	1993	2013	25	-	D. Ibragimova		Urganch shahar I-son Madaniyat va aholi dam olish markazi
6.	"Sayqal" oilaviy folklor-etnografik xalq ansambli	2008	2013	10	-	Zulfiya Ortiqova		Xiva tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
Qashqadaryo viloyati								
1.	"Momogul" folklor-etnografik xalq ansambli	1986	1996	12	2	Ahmedova Momogul		Qarshi tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
2.	"Chiroqchi chiroqlari" folklor-etnografik xalq ansambli	1973	1980	14	2	Qayumova Mahkamtosh		Chiroqchi tuman Madaniyat va aholi dam olish markazi
3.	"Zanjirsaroy" folklor-etnografik xalq ansambli	1995	2007	18	-	Madiyev Fozil		Muborak tumani Madaniyat va aholi dam olish markazi

Hozirgi kunda mustahkam bilimni, milliy qadriyat, ma'naviy barkumollik, umrboqiy an'analar va ajdodlar ta'lumoti yoshlar ongiga, turmush tarziga singdirishda folklor san'atidan foydalanish, shuningdek, maxsus dastur, darslik va qo'llanmalar tayyorlash muhimdir. Folklor san'atini maxsus ta'lim tarzida kollejar, musiqa maktablari, san'at oliy o'quv yurtlarida o'qitilishi yoshlarning milliy g'ururini shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan udum va marosimlarni sahnaga olib chiqib, yana ularni xalqqa qaytarishda folklor san'ati va uning tuganmas merosidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki:

1. Folklor-etnografik ansambllari xalqimizning urf-odatlari, e'tiqodi va umuminsoniy qadriyatlarini namoyon etmoqda. Ular dasturida mujassamlashtirilgan xalq ijodi namunalari folklorning sahnaviy ko'rinishi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

2. Folklor-etnografik ansambllari xalq og'zaki ijodiyoti an'analarini tiklash va takomillashtirishda yosh avlodni umuminsoniy qadriyatlar, milliy marosimlarga hurmat bilan qarash, ularni saqlab qolish, e'zozlashga o'z hissasini qo'shmoqda.

3. Har bir folklor-etnografik ansambllari mustaqil respublikamizning turli viloyatlarida faoliyat ko'rsatib, shu xalqning takrorlanmas ma'naviy-madaniy merosi

bo'lmish udumlarini, marosim va rasm-rusumlarining o'ziga xos xususiyatlarini turfa xil ko'rinishlarda namoyon etmoqdalar.

4. Folklor-etnografik ansambllari istiqloq tufayli an'ana va marosimlarimizni bugungi avlodga qadimda ular qanday bo'lsa, shundayligicha yetkazish, ijrochilik mahoratini ko'rsatish imkoniga ega bo'ldilar.

5. Folklor-etnografik ansambllari o'z dasturidagi marosimlar, qo'shiqlar, rasm-rusumlar, xalq ijodiyotining turli xil namunalari o'z muxlislariga tamshirish orqali ona diyorumizning muqaddas an'analarga sodiq qolish, uni e'zozlashni ibrat qilib ko'rsatishlari ahamiyatlidir.

6. Folklor-etnografik ansambllari dasturining yana bir ibratli tomoni Vatanimizning boy ma'naviyatini ko'z qorachig'iday saqlash - eng yuksak axloqiy fazilatlar, umuminsoniy sifatlar ekanligini uqitmoqdalar.

Hozir mavjud folklor-etnografik ansambllari xalq qalbining oynasi sanalmish xalq ijodiyoti namunalarini, turfa xil marosim, an'analari orqali milliy qadriyatlarimiz, qadimiy an'ana va marosimlarimizni tiklab, rasm-rusum va udumlarimizni o'z dasturlarida namoyish etish, kelajak avlodga qoldirish uchun harakat qilmoqdalar.

Shu bois folklor-etnografik ansambllari ota-bobolarimiz asrlar bo'yi asrab-avaylab kelgan qadriyatlar orqali istiqloq mafurasini yaratishga, uni yoshlar turmush tarziga singdirishga yordam berib, kelajagi buyuk o'zbek yurtining haqiqiy egalari bo'lgan har tomonlama yetuk komil insonni tarbiyalashga xizmat qiladi va yuqori taraqqiyot bosqichiga ko'tariladi degan umiddamiz.

Folklor san'atini bevosita udum va marosimlar bilan uyg'unlashgan holda rivojlantirishning o'z o'rni va ahamiyati katta. Zero yetilib kelayotgan barkamol avlod O'zbekistonni jahonga tanitishi, yurtimizning milliy qiyofasini namoyish etuvchi asriy tafakkur durdonalarini dunyo xalqlari orasida keng ommalashtirishda bugungi kun yoshlarining iqtidori, bilimi, intiluvchanligi yetarli. Shunday iqtidorli yoshlarimizni jahon andozasiga mos mutaxassislar qilib yetishtirishda, milliy istiqloq ruhida tarbiyalashda folklor san'atining o'rni beqiyosdir. Chunki san'atga oshufta bo'lgan qalblardan hech qachon yomonlik, xiyonat chiqmaydi.

*A. Ashirov,
tarix fanlari doktori, professor*

O'ZBEKLARNING ETNOMADANIY QADRIYATLARI VA AN'ANALARI

Tarixan tarkib topgan milliy qadriyat, an'ana, urf-odat, rasm-rusm, taomil, marosimlarning vujudga kelishi va rivojlanishiga bir qator omillar bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, milliy qadriyatlar taraqqiyotida moddiy va ma'naviy madaniyat, tabiiy muhit, xo'jalik munosabatlari ta'siri beqiyos bo'lib, vaqtlar o'tgan sari ular tobora mustahkamlanib ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tib kelgan va shu tariqa ularning barqarorligini ta'minlangan.

Avvalo, qadriyat, urf-odat, an'ana, marosim kabi ushunchalarga oydinlik kiritish va so'ngra milliy, ma'naviy va unume'trof etilgan qadriyatlarining o'zbeklar kundalik turmush-tarzidagi o'rni to'xtalib o'tish maqsadiga muvofiqdir. Qadriyatlar - inson va insoniyat uchun o'tmishda va hozirda katta ahamiyat va qadrga ega bo'lgan barcha moddiy

va ma'naviy omillarni anglatadi.¹⁵ Urf-odat ko'pincha moddiy va ma'naviy hayotning turli xil jihatlarga, oila va turmush tarziga taalluqli bo'ladi. An'ana deganda biz insonlar moddiy va ma'naviy hayot faoliyat turi shakllarining avloddan avlodga o'tib turadigan, oldingi avlod turmush tarzi, faoliyat yo'llari, usullari va mazmunining to'la yoki qisman takrorlanishini anglatadigan tushunchadir. O'zbek xalqining an'analari o'ziga xos va takrorlanmasdir. Unda umuminsoniy, baynalmilliy va etnomadaniy qadriyatlar kabi xususiyatlarining mavjudligidan iborat. Marosim, bu - shartli, an'anaviy xarakterli, bevosita amaliy maqsadli muvofiqlikdan xoli bo'lgan, biroq muayyan ijtimoiy munosabatlarning ramzi bo'lib xizmat qiladigan, ularni amaliy ifoda etadigan shaklidir.

O'zbekistonda barcha hayotiy ishlar bilan shaharda mahalla, qishloqda qishloq va ovul jamoalari shug'ullangan. Mahalla va qishloq jamoasini jamoa yig'inda saylangan oqsoqol (Xorazmda-yoshulli) boshqargan. Ijtimoiy hayot masjid, choyxona va bozorlarda mujassamlashgan, ularda asosan erkaklar ishtirok etgan, jamoaga ma'lum bir mahallada, qishloqda yashovchilar birlashganlar. Kishining e'tiqodi, millati va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, u yoki bu jamoa hududida yashashi uning o'sha jamoaga mansubligining yagona belgisi hisoblangan. Jamoadagi kishilar, kasb-hunari va mavqeidan qat'i nazar jamoa ishlari (hashtar) va marosimlarga qatnashishlari zarur bo'lgan, aks holda bunday shaxs xalq nazariidan qolgan. O'zbek xalqi oila qurish an'analarga rioya qilishda, qiz uzatish yoki kuyov tanlashda ham quda bo'lmish tomon xususida ma'lumotga ega bo'lib, ularning ijtimoiy kelib chiqishini, jamoada tutgan o'rini va obro'-e'tiborini hisobga oladi. Agar kuyov yoki kelin bo'lmish tomonning aqli, odobi, husni-malohati bir hissa bo'lsa, ularning qarindosh-urug'lari, avlodning jamoadagi mavqei va bu xususdagi jamoatchilik fikri ikkinchi, aksariyat hollarda hal qiluvchi omil vazifasini o'taydi. Farzandlarni yaxshiga qo'shish, bu borada xato qilib qo'yimaslikda jamoa, jamiyat rayi, ko'pchilikning kengashli fikri muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan ham, jamoatchilik fikrining shaxs turmush tarzi, taqdirini belgilashdagi ustuvorlik mavqei beqiyosdir. Shu bois xalq orasida «G'arb qonunlar, Sharq urf-odatlar bilan boshqariladi» degan naql keng tarqalgan. Darhaqiqat, Sharqda, shu jumladan, o'zbeklarning turmush tarzida ham ko'plab urf-odatlar qonunlar darajasida yuqori turadi. Jumladan, oila davrasida yonki keng jamoatchilik o'rta orasida o'tkaziladigan barcha marosimlarimizda mahallaning bosh-qosh bo'lishi, qo'ni-qo'shnichilik an'analimiz, oila-turmush marosimlarimizdagi ko'plab urf-odatlar qonun darajasida amal qilinadi va jamoaga asosiy e'tibor beriladi. O'zbeklar orasida keng tarqalgan jamoatchilik an'analari chuqur tarixiy ildizlarga ega. Bu tartibning ibtidosi mintaqaxalqlarining eng qadimiy yozma manbasi hisoblangan «Avesto» kitobida bayon etilgan. Yozma va arxeologik manbalarda mintaqaning qadimiy shaharlari aholisi orasida jamoalar faoliyat ko'rsatganligi, faqat turmushdagina emas, balki ishlab chiqarishda ham jamoa asoslari mavjudligi qayd etilgan. O'rta asrlarda jamoa faqat jamoaviy asoslaridagina sug'orish tizimini tashkil etish va qo'llab-quvvatlash, binobarin, dehqonchilik bilan shug'ullanish mumkin bo'lgan qishloq aholisi uchun ham, shuningdek, shahar aholisi uchun ham o'zining ilgirigi ahamiyatini saqlab qolgan va barcha udumlar, marosimlar qishloq va shaharda mahalla jamoalarining tashabbusi bilan o'tkazilgan.

Qadimdan an'ana bo'lib kelgan *hashtar*, mehmondo'stlik, kattalarni hurmat qilish va bir qancha odatlar, marosimlar jamoaning qatnashuvida o'tgan. Hasharning bir necha turi mavjud: jamoa ishlarni bajarishda, qo'ni-qo'shnichilik va qavm-qarindoshlik doirasida o'tkaziladigan hashtar va boshqalar. Hasharning bu turlari ixtiyoriy o'zaro yordam bo'lgan. Hasharning yana bir turi davlat miqyosida o'tkazilgan. Unda oldinlari xon va mulkdor

¹⁵ To'ychiyeva T.T. O'zbek ma'naviy qadriyatlarini tizimda urf-odat, an'analarning o'rni. Falsafa fan. nomz. diss. O'ZMU. Toshkent. 2000. 144-bet 27-bet

yerlariga suv chiqarish uchun ariq qazilgan, qo'riq ochilgan, hosilni yig'ishtirish va qurilishlar amalga oshirilgan bo'lsa, keyingi yillarda bahorda Navro'z arafasida o'tkaziladigan hasharda jamoat joylarini tozalash, yangi ko'chatlar ekish va daraxtlarni qirib, shaki berib oqlash kabi yumushlar ommaviy ravishda bajarish an'anaga aylangan. Kichik ko'lamdagi hasharni hasharboishi (ariq qazilsa mirob yoki qishloq oqsoqoli) boshqargan. Katta va uzoq muddatda bajariladigan hasharlar maxsus ishboishilar (kanal qazilganda ariq oqsoqoli) nazoratida o'tkazilgan. Jamoa ishlari bajariladigan hashar O'zbekistonning barcha qishloq va shaharlarida keng qo'llangan. Jamoa hashari bilan ko'prik qurish va ta'mirlash, ariq-zovurlar, qazish, ularni tozalab turish, masjid qurish va ta'mirlash, mozorlarni tozalash va sh.k. ishlar bajarilgan. Katta hasharlar tantanalar bilan boshlanib, tugallanishi ham ko'tarinki ruhda yakunlangan. Umumxaq hashar udumi o'tgan asrning 30-40 yillari Katta Farg'ona, Shimoliy Farg'ona, Shimoliy Toshkent kanallarini, Bekobod GES, Kattaqo'rg'on suv ombori, Toshkent shahrining Beshyog'och dahasidagi ko'l (hozirgi O'zbekiston Milliy bog'i hududida joylashgan ko'l) bunyod etishda namoyon bo'ldi.

Qo'shmlarning o'zaro hashari qadimiy qadriyatidir. Bunday hashar ko'pincha dala ishlari, ekinchilik, uy qurish, hovli devorini ko'tarishda, to'y-hashamlarda keng qo'llanilgan. Hasharga aylangan kishilarning kelishi shart bo'lgan. Uzri sabab bilan kela olmay qolgan kishi hashar bo'layotgan qo'shminikiga hasharchilar uchun taom pishirib chiqargan. Agar hashar ko'larni katta va u jamoa manfaati uchun bo'lsa (masalan, masjid qurish, va h.q.), u holda jamoa oqsoqoli bilan maslahatlashilgan. Oilaviy hashar ko'pincha inorami tiklash ishlarida qavm-qarindoshlar ishtirokida bajarilgan. Hashar mahalla va qishloq jamoa fuqorolarini birlashtiradi, ularni yelkadoshlikka, uyushqoqlikka da'vat etadi.

Kattalarni hurmat qilish o'zbeklar va boshqa Sharq xalqlarining umuminsoniy qadriyatlardan bo'lgan va bolaga juda yoshligidan boshlab o'rgatilgan. Yoshi katta kishini ishiga yordamlashish odat va odob hisoblangan. Jamoa yetakchisining yoki oila boshlig'ining qarori oila va jamoa manfaatlariga mos kelganligi uchun uni bajarish amri vojib bo'lgan. Qariyalar ayni vaqtda o'tmishdan meros bo'lib kelayotgan va kundalik hayot uchun zarur bilimlarni, xususlan, o'tmishdan meros bo'lib qolgan taomil(urf-odat)larni yoshlarga o'rgatganlar. Bolalar nafaqat ota-onaning, balki qishloq yoki mahalla jamoasi kattalarning ham diqqat e'tiborida bo'lgan. Yoshlar aynan jamoada milliy marosim va urf-odatlarni o'rganib boradi.

O'zbek xalqining hayotida mavjud bo'lgan tartib va qoidalar xalq an'analari hamda islom dini va shariat qoidalari asosida yuzaga kelgan, albatta. Odob qo'llariga rioya qilish oiladan boshlangan. Yoz paytlarida, ayniqsa, barvaqt turilgan. Bolalar bet-qo'llarini yuvib kattalarga salom bergan. Kattalarning, ayniqsa, mehmonlar qo'lga suv quyib sochiq tutish yoshlikdan bolalikdan o'rgatilgan.

Dasturxon oilaning ko'rki, to'kinlik ramzi hisoblangan. Uning atrofida yig'ilib o'tirish ham ma'lum odob doirasida bo'lgan. Dasturga hurmat bajora kelirish odatga aylangan. U «Bismilloh» bilan ochiladi va so'ngida o'lganlar haqqiga duoi fотиha qilib tiriklarga sog'-salomatlik, dasturxoniga qut-baraka tilab yig'ishtirilgan.

Ma'lumki, **nonni e'zozlash** o'zbek xalqining qadimiy odatlaridan. Asosiy xo'jalik mashg'ulotlaridan biri dehqonchilik bo'lgan o'zbek xalqida non azaldan asosiy va tansiq is'temol mahsulotlaridan bo'lish bilan birga unga ilohiy ne'mat darajasida qaraigan. Nonga hurmat bilan munosabatda bo'lish bolalarga juda yoshlikdan o'rgatilgan. O'z navbatida non bilan bog'liq qator urf-odatlar shakllangan. Jumladan, non hech qachon oyoq ostiga tashlanmagan. Nonni bosish og'ir gunoh hisoblangan. Non o'ziga xos risq-nasiba ramzi bo'lganligi uchun ham uzoq safarga yoki harbiy xizmatga ketayotganlarni non tishlatib

kuzatish udumi bo'lgan. Bundan tashqari kelimni kuyovnikiga kuzatishda boshiga non qo'yish odati bo'lgan. O'zbeklar orasida qadimiy odatga ko'ra g'alla somonini hech qachon o'choqqa va tandirga yoqishmagan. Chunki donni-nonni yoqish og'ir gunoh deyiladi. Qolaversa, xalq orasida non bor joyga turli ins-jinslar va yovuz kuchlar yaqinlashmaydi degan tasavvur bo'lganligi bois yomon ko'zdan, yovuz kuchlardan astrovchi vosita sifatida, yangi tug'ilgan chaqaloqni yoki xatna qilingan bolaning yostig'i ostiga boshqa qator magik xususiyatiga ega buyumlar bilan birga non qo'yilgan. Xorazmda non bo'laklari tumor qilib taqilgan.

Xonadonga kelgan mehmonni, qavm-qarindoshni kattalar bilan bolalar ham birgalikda chiqib kutib olganlar. Agar mehmon ot yoki ot-arava minib kelgan bo'lsa ot-uloyni bola (o'spirin) otxonaga kiritib, beda-pichan bergan. Mehmon ketar vaqtda uning oti yoki ot-aravasi yo'lga hozirlangan va otga minishiga yordam berilgan; bolalar mehmon bilan kattalar qatorida xayriyashganlar.

Yuqorida keltirilgan barcha tartib-qoidalar, odatlar yoshlarga oilada o'rgatilgan. Bolalarning odobligi, axloqiy darajasi oiladagi tartib-intizom va an'analarning qat'iyligiga bog'liq bo'lgan.

Yoshlarni odob-axloq ruhida tarbiyalashda jamoaning o'rni ham katta bo'lgan. Jamoaning har bir a'zosi mehmondorchilik, ma'raka va sh.k. jamoat joylarida yoshi va mavjeiga qarab joy egallagan. Kattalar va hurmatli kishilar oldinda borgan va davra to'riga taklif qilingan.

O'zbek xalqi hayotidagi marosimlar asosan ikki katta turkumga: mavsumiy va oilaviy-maishiy marosimlarga bo'linadi. O'z navbatida struktural xossalari, funktsiyalari bilan ushbu guruh marosimlari ham mayda guruhlarga bo'linadi. Chunonchi mavsumiy marosimlarga qishgi marosimlar (yas-yusun va gap-gashtaklar, birinchi qor yoqanda «qor xat» yozish), bahorgi marosimlar (shox moylar, qo'sh chiqarish, loy tutish, Navro'z bayrami, sumalak sayli, gul sayllari, lola sayli, sunbula sayli, «sust xotma»), yozgi marosimlar («choy momo», suv sayli, tut sayli, qum sayli) va kuzgi marosimlar («oblo baraka», mehrijon, hosil bayrami, qovun sayli, uzum sayli, anor va anjir sayli) kiradi. Ikkinchi turkumga kiruvchi oilaviy marosimlar ham bir nechta guruhga bo'linadi. Bularni bola tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar va nikoh hamda motam marosimlari tashkil etadi. Shuningdek, o'zbeklarning an'anaviy turmush tarzida dimiy Ro'za hayiti (Iyd al-Fitr), Qurbon hayiti (Iyd al-Adho) kabi bayramlar, mavludlik, ashuro, laylat-ul qadr kechasini kutish bilan bog'liq tarzda o'tkaziladigan marosimlar ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Navro'z Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq xalqlarining qadimiy, an'anaviy yangi yil bayrami. Navro'zni bayram qilish Markaziy Osiyo va O'rta Sharq mamlakatlarida ancha qadim davrlardan tarkib topgan an'ana bo'lib, o'zining uch ming yillik tarixiga egadir. Navro'zning paydo bo'lishi to'g'risida ko'plab rivoyatlar va mitlar mavjud. Jumladan, zardushtiylik dinida egulik ilohi Axuramazda (Xormuz) bahor, yozda, yovuzlik xudosi Axuramayn(Axriman) kuzda va qishda hukmronlik qiladi, degan qarash bo'lgan. Bahorning birinchi kuni egulik ilohi yovuzlik xudosi ustidan g'alaba qilgan muqaddas sana, deb bayram qilingan. Bu kun aynan Navro'z kuniiga aynan to'g'ri kelgan.

Yana bir qadimiy afsonaga ko'ra, Odam Ato va Momo Havo ilk bora uchrashgan kun Navro'z bayrami deb tan olingan emish.

Firdavsiyning «Shohnoma»sida esa yangi yil (Navro'z)ning paydo bo'lishi shoh Jamshid nomi bilan bog'lanadi. Alisher Navoiy ham o'zining «Tarixi mulki ajam» nomli asarida Navro'zning buyuk kashfiyotlari so'ngida ulug' Navro'zni ixtiro qilganligini bayon qiladi. Navro'z haqida turfa xil afsona va rivoyatlar mavjudligiga qaramay qadim

ajdodlarimiz ko'not va inson, tabiat va odam hayoti o'rtasida o'zaro bog'liqlik mavjudligini tasdiqlovchi, zamon va makonga oid falsafiy tushunchalarni o'zida jamllovchi, tabiatning qaytadan jonlanishi, poklik va shodlik hamda o'zaro birdamlik tushunchalarini o'zida mujassamlashtirgan tantana hisoblashgan. Bu go'zal va ulug' bayramning qadimiy an'ana ekanligini isbotlovchi qator tarixiy yozma manbalar va tarixiy asarlar mavjud. Jumladan, Abu Rayhon Beruniy, Abu Mansur Solibiy, Johiz Basriy, Umar Xayyomlarning tarixiy, ilmiy va adabiy asarlarida Navro'zning kelib chiqishi, uning o'ziga xos qadimiy rasm-rusumlari va marosimlari to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar mavjud.

Qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy Navro'zning ko'not, olam bilan bog'liqligini ta'riflab shunday yozadi, «Navro'z – olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan. Shu kuni xudo falaklar harakatsiz turgandan keyin, ularni sayr ettirib yuborgan. U quyoshni yaratgan, nihoyat u tufayli muddatning yillar, oylar, kunlar va boshqalardan iborat bo'laklari yashirilmagan keyin ma'lumlikka aylangan va hisob boshi ularidan boshlangan». Navro'z kelishi bilan butun tabiat uyg'ona boshlaydi, yer bag'ridagi barcha maxluqot va mavjudotlarning, qurt-qumursqalar, o'simlik va o't-o'lanlarning jonlanishi ro'y beradi. Bunday yangilanish jareyonining boshlanishi shamsiy (Quyosh) yili hisobida 21 martga to'g'ri kelgan birinchi yangi kuni Navro'z deb ataganlar. Boshqa o'rinda mashhur ensiklopedist alloma Navro'z, «bahor yong'irining birinchi tomchisi tushishidan gullar ochilgunicha, daraxtlar gullashidan mevalari yetilgunicha, hayvonlarda (shayvat) qo'zg'olishidan to nasl vujudga kelgunicha va o'simliklar unib chiqqa boshlashidan takomillashgunicha davom etgan vaqtida keladi. Shuning uchun Navro'z olamning boshlanishi va yaratilishiga dalil qilingan», deb yozadi. So'z mukining sultoni Alisher Navoiyning «Xazoyinul-ma'oniy» asarida Navro'zda tun-kun tengligi ajoyib o'xshatish bilan izhor etilgan:

Vasit aro, ko'rdum, teng emish bo'yi-yu, sochi,

Tun-kun teng ekan zahir o'lur bo'ldi Navro'z

Demak, yuqoridagi fikr-mulohazalardan Navro'zning paydo bo'lishi har tomonlama asoslangan bo'lib u ko'not va tabiat qonunlaridan quyoshning hamal burjiga kirishi, kecha va kunduzning vaqt jihatidan barobar bo'lishi, kunduzning uzaya borishi tabiatda jonlanishning boshlanishi, bahorning kelishi bilan bevosita bog'liq bo'lgan deb aytish mumkin.

Qadimdan O'rta Osiyoda va Eronda Navro'z nafaqat xalq, balki davlat bayrami sifatida ham nishonlangan. Umar Xayyomning «Navro'znomasida ta'kidlanishicha, ilk bahor bayramida ajam podshohlari barcha zamonlarda iloji boricha dasturxonni yaxshiroq bezatishni odat qilganlar. Turti sho'rvalar, qovurmalar, har xil halvo, ichimlik va mevalar bayram qatnashchilariga tortiq qilingan.

Navro'z kuni podshoh dasturxoniga turlicha dondan bug'doy, arpa, tariq, makka, no'xat, yasmiq, guruch, kunjut yoki loviya unidan pishirilgan non qo'yilgan. Dasturxon o'rtasiga turli ciarext (tol, behi, anor va h.k.)lardan yetti novda, yetti oq kosa va oq dirham, yangi dinor ham qo'yilgan. Podshoga qand va kokos yong'og'i bilan maxsus taom berganlar. u taomni yangi sog'ilgan sutga xurmo solib iste'mol qilgan. Beruniyning ta'rificha, Navro'z kuni tong otganda biroq gap gapirishdan oldin uch qoshiq asal yekash udumi bo'lgan. Navro'z kuni odamlar bir-birlariga shakar va shirinliklar hadya qilishgan, («hayotingiz shirin bo'lsin» degan ma'noda), gullar taqdim qilishgan («go'zal bo'ling» ma'nosida), bir-birlariga suv sepishgan («bu yil suv ko'p bo'lsin, mo'i hosil bo'lsin» ma'nosida), shuningdek, Navro'z kuni shirinliklar yeyish ham eng muhim udumlardan biri bo'lgan.

Xalqimizda Navro'z kunlari hamma erta tongdan yaxshi niyatlar bilan o'rindan turgan. Odamlar eski kiyimlarini tashlab, yangi ozoda kiyimlarini, qizlar esa bahorga mos kiyimlarini kiyishgan. Yost-yalanglar yangi kiyimlar, poyabzallar tayyorlab, bayram kunlari kechasi bilan uxlamasdan ertak, hikoya, dostonlar aytishib, she'rxonlik qilishadi. Navro'z bayramini ashulalar aytib, turli o'yinlar o'ynab, xursandchilik bilan kutib olishgan. Yost yigit qizlar bir-birlariga guldastalar taqdim etishgan. Navro'z kunlari o'zaro davom etayotgan urushlar to'xtatilgan, gina-kuduratlar unutilgan, odamlar tinch va yaxshi qo'shniqlik aloqalariga intilganlar, ota-onalar, qarindoshlar, qo'ni-qo'shnilar, bir-birlarini yo'qlashgan, betob kishilarning holidan xabar olinib, nochorlarga yordam beriladi, marhumlar qabri ziyorat qilinib, tartibga kiritilgan. Agar bayram kunlari biror kishi vafot etsa, dafn etish kechiktirilgan, motam marosimlari ham o'tkazilmagan. Navro'z bayrami kunlari matbuslarni ozod qilib, gunohkorlarning gunohidan kechish odati ham bo'lgan. Uylar, ko'chalar tozalani, ularga suv sepilgan. Dehqonlar Yaratgandan yil bo'yi namgarchilik yetarli bo'lishini tilab bayram kuni ko'pchilik turgan yerga qalin qilib suv sepish udumlari bajarilgan. Navro'z bayramining birinchi kuni uluq, otda poyga musobaqalari, kurash, qo'chqor, xo'roz urishtirish kabi o'yinlar uyushtirilganlar. Navro'z kunlari bozorlarda katta savdo-sotiq tashkil qilingan va o'sha kuni eng shirin taomlar tayyorlangan.

Navro'z tantalarining shohona taomi sumalak hisoblangan. Sumalakni asosan ayollar tayyorlashgan. Sumalak tayyorlash jarayonida o'ziga xos marosim - tadbir vujudga kelgan. Hozirgi vaqtda bu marosim korxon va muassasalarda ham tashkil etilgan. Navro'z kuni tayyorlangan sumalak «Navro'z sumalak» deb atalgan. «Navro'z sumalak»ni qariyalar o'zlariga va bola-chaqalariga uzooq-umr, kelinchak va qizlar o'zlariga baxt tilab qo'zg'ashadi. Chunki kekxa yoshli qariyalarning ta'kidlashlaricha, sumalakni qo'zg'ayotganda kishi nima yaxshi niyatlar tilasa Oллоh yetkazar emish. Sumalak pishib yetilguncha qadar ayollar, qiz-juvonlar davra qurib o'yin-kulgi qiladilar, subhatlashadilar, hayot ikit-chikirlari haqida fikr almashadilar. Bu kun turli-tuman o'tlardan somsa, chuchvara kabi shirin-shirin taomlar pishirilgan.

O'zbekistonda ilgari keng tarqalgan va Navro'z bilan bog'liq marosimlardan yana biri «Go'ja oshi» yoki «Yiliboshi go'ja oshi» deb atalgan. Go'ja oshi Navro'z bayrami arafasi kuni tayyorlangan. Bu taom xonadonlardan itiyoriy ravishda yig'ilgan har-xil masalliq: don (guruch, jo'xori, mosh, loviya, no'xat, va bosh), yog', go'stadan (bo'lmasa usiz ham) tayyorlangan. Keltirilgan masalliq aralashirilib katta qozonga solib pishirilgan. Kechqurun (Navro'z arafasi) qishloq aholisi maydonga (ko'pincha masjid oldiga) yig'ilganlar, har kim o'z qoshiq-tavog'ini olib kelgan. Taom o'sha yerning o'zida yeyilgan. Maydonda katta gulxan yoqilgan, davra tutib, kurash, o'yin-kulgi qilingan. Yangi yil quvonch bilan olingan. «Go'ja oshi» hozirda ham Samarqand, Toshkent viloyatlarining ayrim qishloqlarida o'zgarigan holda saqlanib qolgan. Endilikda «go'ja oshi» har xil (aralash) donli mahsulotlardan tayyorlanmaydi. Dasturxoniga palov yoki sho'rva tortiladi. Taomdan so'ng fотиha qilingach, dehqonlar ekin maydonlarida bahorgi ekin ekish ishlarini boshlab yuboradilar.

O'rta asrlarda Buxoroda bu bayram «Navro'zi kishavorzon» – dehqonlar bayrami deyilgan. Zahmatkash dehqonlar aynan ushbu kun dalaga qo'sh chiqarib dastlabki urug'ni yerga qadanganlar. Yerni haydashdan oldin yerni haydash uchun olib chiqilgan ho'kizlarni shoxlari va bo'yinturigi yerga bilan moylaganlar. Qeksa otaxonlarning ta'kidlashlaricha, mazkur odat zaminida uning shoxlari moyli, baquvvat bo'lib, ho'kiz yil bo'yi holmay-tolmay ishlasin degan magik niyat mujassamlashgan ekan.

Biroq 1990-yil 2-maydagi Farmon bilan Navro'z an'anaviy bayrami qayta tiklanishi natijasida tarixiy haqiqat va adolat qaror topdi.

Mustaqillik tufayli respublikamizda xalq an'analari va qadriyatlarini tiklash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarildi va natijada xalqimiz nafaqat Navro'zi olam, balki Mehrijon, Hosil bayrami, Ramazon va Qurbon hayitlari kabi azaliy bayramlarimizni shod-xurramlik bilan nishonlaydigan bo'ldi.

O'zbeklarda bahor faslida yana bir qancha boshqa sayillar (boychechak, gunafsha, gulbargi, qizil gul, lola va sunbula sayillari)ni ham o'tkazganlar.

O'zbeklarda ham boshqa xalqlar singari inson hayoti ibtidoisidan intihosigacha turli-tuman marosimlar bilan burkangan. Insoniyat hayotining muhim burilish nuqtalari bilan bog'liq tarzda o'tkaziladigan tadbirlar *o'tlaviy marosimlar* deb yuritiladi. Oila va oilaviy marosimlar etnosga xos madaniy va maishiy an'analari uzatuvchisi hamda davomchisi hisoblanadi. Oilada farzand tug'ilgan kun, unga ism qo'yish, bolani ilk marotaba beshikka belash va dastlabki qorin sochini olish, ilk qadamni bosishi, o'g'il va qizlarni birinchi bor maktabga borishi, muhal yoshiga to'lishi, maktabni bitirishi, nikoh to'yi, kumush, oltin va olmos to'ylari, nafaqaga kuzatish kabilarni tantanali tarzda nishonlash inson hayotidagi unutilmas voqealardir.

Beshik to'yi O'zbekistonda keng tarqalgan qadimiy odatlardan. Bola tug'ilganda yetti, to'qqiz, o'n birinchi kunlari yoki kelin-kuyovning ota-onalarining o'zaro kelishuvlari bilan belgilangan kunda asosan qarindosh-urug', qo'ni-qo'shmlar ishtirokida o'tkaziladigan tantanali marosimdir.

Beshik chaqaloqning ona qarindoshlari: bobosi, buvisi, tog'a va xolalari tomonidan qilingan. Beshik materiali asosan qattiq yog'ochlardan, uning egma qismlari (poyalari) esa qora toldan yasalib, bola uchun maxsus qo'l va oyoq bog'ichlari (tortqilar) bilan bog'lab qo'yiladi. Beshikning ko'plab foydali jihatlari mavjud bo'lib, bu xususiyatlar hatto tibbiyot tomonidan ham isbotlangan. Shu bois o'zbeklarda chaqaloqni ilk marotaba beshikka belash maxsus marosim-beshik to'yi sifatida nishonlanib kelingan. Odatda, beshik to'yi oiladagi birinchi (to'ng'ich) farzand uchun o'tkaziladi va u tantanali kechadi. Beshik udumi bilan bog'liq chaqaloqqa kerakli barcha buyumlar tayyorlangan. Dasturxonga non, patir va anvoyi shirinliklar tugilgan, shuningdek yana unga o'yinchoqlar (qiz bola bo'lsa qo'g'irchoq) qo'shilgan. Ko'p yerlarda (xususan Toshkentda) chaqaloqqa atab (agar o'g'il bola bo'lsa) toy ham yasatilgan. Chaqaloqning ota-onasi, buva va buvisiga sarpo ham qo'yilgan. Bezatilgan beshik, sovg'alar va dasturxonlar arava (hozirda mashinalarda yoki avtobus)ga yuklab, ko'cha-ko'ya ko'z-ko'z qilib, karnay-surnay va childirimalar jo'rligida olib borilgan. Mehmonlar kutib olingach, niyatlarini oq bo'lishi, bolaga baxt tilash ramzi sifatida ularning yuzlariga un sepib kutib olingan. Kelgan mehmonlar dasturxon tuzab bezatilgan xonaga taklif etilgan. Shu vaqt boshqa xonada boshqa rasm-rusmlar jiro etilib, chaqaloqni beshikka belash marosimi o'tkazilgan. Xalqimizda bolani beshikka belash uchun qarindosh-urug'lar va mahallada hurmatli, e'tiborli, uvali-juvvali ayollar tanlangan. Bulardan biri doya momo (enaga) yoki o'zining katta buvisi bo'lishi lozim bo'lgan. Bolani beshikka belashda "qo'rqmas botir bo'lg'in, sog'lom o'sgin, uzoq yashagin!" deb turilgan. Shu tarzda bolani beshikka belashib, qo'l-oyoq'i bog'langandan keyin beshik atrofida to'planganlar beshik ustidan turib sochqilar sochganlar. Beshikka belashda chaqaloq o'g'il bola bo'lsa, ulg'ayib abjir chavandoz bo'lsin, degan niyatda beshikning ustiga qanchi, qiz bola bo'lsa, chevar bo'lsin, deb qurama kashтали yosti, nina, ip qo'yib qo'yiladi. So'ngra isiriq solinadi va beshikka belayotgan kampirlardan biri: "Egasi keldi beshikka, shayton chiqsin beshikka", deb aytib turgan. Odatda, belayotgan ayol og'ziga non tishlab olib, to belab bo'lgunicha gapirmagan. Bola belab bo'lingandan so'ng kayvoni og'zidagi non yosh bola tomonidan

"umri uzoq, rizqi baland bo'lsin" degan niyatda uzoqroq joyga olib qochilgan. Farg'ona vodiysida an'angaga ko'ra, bolani beshikka belashda yostig'i ostiga kulicha, tuz, pichoq, oyna. Surxondaryoda oyna, taroq, Toshkentda esa oyna, pichoq, qalampir kabi narsalar qo'yilgan. Bu narsalarning o'z ramziy ma'nosi bo'lgan. Non rizq-nasiba bo'lish bilan birga insonning doimiy yo'ldoshi ham bo'lgan. Pichoq va oyna qo'yishda go'dak hayoti oynadek tiniq, pichoqday o'tkir bo'lsin degan niyat mujassamlashgan. Taomlar tortib bo'lingach, mehmonlar birin-кетин kuzatiladi. Shu bilan marosim yakunlanadi.

O'zbek xalqida qadimdan saqlanib kelayotgan yana bir marosim *xatna qilish (o'g'il to'yi)*dir. Xalq o'rtasida xatna («sunnat to'yi», «chukrom», «qo'lini halolash (poklash)» kabi nomlar bilan yuritiladi.

Bu marosim ham uzoq tarixiy davrlar bilan bog'liq bo'lib, insoniyat tarixining ilk davrlaridagi o'g'il bolalarni bir yosh bosqichdan ikkinchisiga o'tishini maxsus marosim, initsiatsiya tarzida nishonlash bilan bog'liqdir. Bunday odatlar keyinroq yahudiyalarda, islom dini tarqalgan mamlakatlarda udumga aylangan. Musulmonlarda sunnat to'yni o'tkazishdan maqsad «islomning sunnatini bajarish»dir. Bu marosim o'g'il bolalarda 3-5-10 yoshda, ayrim hollarda 11-12 yoshgacha o'tkazilgan. Qo'ni-qo'shmlar hamda qarindosh-urug'lar ishtirokida to'y tayyorgarligi bilan bog'liq bir necha udumlar (ko'rupa tikish, to'y sarpolarni bichish va tikish, qishloq va mahalla)ning kekasa va o'rta yoshdagi serfarzand ayollariga topshirilgan. To'ygacha bo'lgan davrda tandir qurdi (yoki nonvoy soldi), so'qim so'ydi, maslahat oshi kabi marosimlar ham o'tkazilgan. Bu marosimlardan keyin to'y oldidan xatni qur'on marosimi o'tkazilgan. Bunga qishloq (mahalla) keksalari, masjid imomi yoki qori va qarindoshlar taklif etilgan. Dasturxon yozilib, oxirida fотиha qilingan. Shundan keyin katta to'y tantanalari boshlangan. To'y arafasida to'y bolaga qavm-qarindoshlar va hamqishloqlar oqsoqollar davrasida sarpo kiydirish marosimi o'tkazilgan. So'ngra to'ybolani mubarakbod etib, ustiga tanga, shirinliklar sochadilar.

Ajdodlarimizning rasm-rusumlari, dunyoqarashi, ishonch-e'tiqodlari, turmush-tarzi va hayot haqidagi falsafiy qarashlari, asrlar bo'y jamlangan hayotiy tajribalari va turmush ko'nikmalarini o'zida mujassamlashtirgan eng jozibali marosimlarimizdan biri ikki yoshni birlashtiruvchi *nikoh to'yi*dir. Bundan maqsad nikohni jamoatchilikka ma'lum qilish va ota-ona, qarindosh-urug'larlarning jamoa bilan baham ko'rishidir. Nikoh to'yi Respublikamizning turli joylarida «nikoh to'yi», «ijob to'yi», «uy tushirar to'yi», «katta yaloq qizarirar to'yi» deb nomlangan. Nikoh to'yi tizimida bir qancha marosimlar mavjud: uy ko'rar (qiz ko'rar), sovchilik, sep taxlar, to'qqiz berish (to'qqiz tovoq), qiz oshi (qizlar majlisi), kelin tushirish, baqon tutish, yuz ochdi, kelin salom, chorlar kabi marosimlar va ular bilan bog'liq rasm-rusumlari. Ular hozirgacha saqlanib, amal qilimb kelinadi.

Kelin tushirish dastlab uy ko'rdi (qiz ko'rdi) marosimidan boshlanadi. Ma'lumki, o'tmishda, nikoh to'yi faqat ota-ona tavsiyasi va ravjiga ko'ra o'tkazilgan. Bu odat ayrim yerlarda hozirgacha saqlangan. O'g'il balog'atga yetgach munosib qiz axtaradi. Yigitning onasi, ammasi yoki xolalaridan biri mo'ljallangan qizlarni xonadomiga tashrif buyurib, «mehmonga keldik» bahonasi bilan qiz ko'radilar, hovlisining tozaligi, uylarining tartibligiga razm soladilar; qaysi qiz ma'qul kelsa, unikiga sovchi yuboranganlar. O'zbeklarda sovchilar kichik, katta sovchilarga bo'linadi. «Kichik sovchi»lar (ko'pincha ayollar) ishini bitirib qaytganlaridan so'ng «katta sovchi»lar to'y harajatlarini va ayrim joylarda qalin miqdorini belgilaganlar. Ko'p yerlarda sovchilikka kuyovning tog'asi va elning so'zamol hurmatli «oqsoqoli» borgan. Qiz tomon sovchilarga turli ramziy ishoralarda norozilik belgisi ifodalangan bo'lsa (kovushi ichiga suv solib qo'yish, kovushini o'nglab quyish), rozilik alomatini sovchilar oldiga qo'yilgan yog'li, tansiq taomlar orqali bildirgan.

Nikoh to'yi tizimidagi ko'rimli marosimlardan fотиha to'yi (kichik to'y, ba'zi yerlarda muborokbod to'yi) bo'lgan. Sovchilarning so'ngi bori shida fотиha kuni belgilangan. Bo'lajak keliming uyida o'tkaziladigan fотиha to'yi davrasiga jamoaning e'tibori qariyalari, oqsoqoli ham taklif etilgan va bu kunda «non sindirish» marosimi o'tkaziladi. Davradagilar orasidan kelssa yoshli, ko'p farzandli, bir nikohli kishi yigit va qizning taqdirining mustahkam bog'lanishi haqida duoi-fотиha o'qib, qo'lga qiz tomonidan olib kelingan va yigit tomonidan dasturxonga qo'yilgan nonlardan bittadan olib juft qiladi va nonni yuza tarafiga qarab teng qilib sindiradi. Unashtrilayotgan yoshlarning nonday aziz bo'lib, o'z qad-qimmatlarini yo'qotmasin degan niyat ushbu udunda mujasamlashgan. Nonni juft sindirishda esa kelin-kuyovning, qo'sha qarishi haqidagi magik orzu-istak mujasamlashgan. Fотиha to'yi yakunida o'zaro ikki tomonning o'zaro keluviga ko'ra to'y va nikoh kuni belgilangan. Fотиha to'yidan katta to'yigacha bo'lgan vaqtda qudalar to'vov qaytarish, ko'rupa soldi, to'qqiz, qiz oshi (qiz majlisi) kabi marosimlar o'tkazilgan. Yigit tomon bayramlarda kelinga hayitlik sovg'alar yuborib turgan.

Nikoh to'yi kuni yoki bir kun oldin qiz tomonga to'yning oshi pishirib yoki xomligicha yuboriladi. Qiz xonadonida jamoaga osh tortiladi. O'sha kuni ko'pincha kuyovnikida ham osh beriladi.

To'y kuni yoki to'ydan bir kun oldin qizning otasining nikoh marosimi o'tkaziladi. Kuyov yaqin jo'rasi, tog'asi bilan bo'lajak kelin xonadoniga borgan. Imom bo'lajak kuyovga er-xotinlikning burch va huquqlarini tushuntirgach, qizning yangasi orqali ruxsatini olib, keyin «Xutbat nikoh» o'qigan.

Kelimi kuyovnikiga olib ketguncha o'tkazilgan «kelin yashirar», «to'sh talashar», «it irillar», «chiroq aylantirar», «kampir o'ldi», «kampir tush ko'rdi», «soch siypatar», «oyna ko'rsatar», «qo'l qisar», «to'shak to'ldirar» kabi qator udumlar o'tkazilgan va ularning ayrimlari hozir ham saqlanib qolgan. Kuyovnikida kelimi uch marta gulxandan aylantirib, ichkariga olib kirishda «bo'sag'adan tavob olish», «to'y ahliga salom berish» odatlari bajarilgan.

XX asrning 80-yillaridan boshlab, kuyovnikida kelin va kuyov shaniga bazm uyushtirilib, stol usti dasturxoniga turli noz-ne'matlar bilan birga spirtli ichimliklar qo'yilib, ishtirokchilar tomonidan ular shaniga samimiy istaklar bildirish an'anaga aylandi. Shuningdek, keyingi yillarda FHDYO bo'limalarida nikohdan o'tilgandan keyin bazm uyushtirish, yengil mashinalarda kelin va kuyovning sayr etishi, rasm va video tasmlarga tushishi, ulug'kishilar haykali poyiga gullar qo'yishi, nikoh kechasi bazmiga dongdor san'atkorlarni taklif etish kabi rasm-rusmlar kirib keldi. To'yning ertasi kuni «bet ochar», «kelin salom», Qashqadaryoda «eshik iluv», «tuynuk ochar» kabi udumlar bajarilgan. Ushbu udumlar orqali kelinning naqadar tarbiya ko'rganligiga, fe'li-atvoriga, uquvligiga baho berilgan hamda ishehanligi, epchilligi, urchuuq egirish, ovqat pishirishga nechog'lik tayyor ekanligi kabi fazilatlarini sinovdan o'tkazilgan. Bu esa qizlarni yoshihikdan mehnatga, to'zg'or tutishga, mehmon kutishga o'rgatishni ko'zda tutadi.

O'zbeklarda ham boshqa xalqlar singari *motam* - inson vafoti munosabati bilan o'tkaziladigan mungli marosimdir. Shu boisdan ushbu marosimda ijro etiluvchi follor janrlari, marosim ishtirokchilari va ularning kiyim-boshlari - hanuma-hammasi munglidir. Motam marosimlari juda ko'p rasm-rusum, odat va kichik marosimlar majmuidan tashkil topgan. Jumladan, marhumni «mehmon qilish», («qora osh» tortish), yig'i marosimi, marhumning gunohlarini ramziy sotib olish marosimi, dafn va marhumni xotirlash tashkil bog'liq o'tkaziladigan turli-tuman rasm-rusumlar va urf-odatlar.

Marhumlarni xotirlash marosimlari ramazon va qurbon hayitlari kunlarida ham o'tkazilgan. Hayit namozlari o'qilgandan so'ng, hayitliklar orasida vafot qilgan marhumlar

xonadonlarida hayitlik qilib, duoi fотиha qilgani borganlar. Marhumlarni va ota-bobolar arvoqlarini xotirlash tabiatdagi fasllar o'zgarishi bilan bog'liq kunlarda, jumladan, birinchi qor yoqqanda «qor yog'di», Navro'zda, laylak kelganda, qovun pishig'ida, gul ochilganda, daraxtlar (anor, jйда) gullaganda ham o'tkazilgan. Motam marosimlari bilan bog'liq marosimlar zamon va makonga oid falsafiy tushunchalar bilan koinot va insoniyat o'rtasidagi, tabiat va odam hayoti o'rtasidagi muayyan darajadagi bog'liqlikni bildiradi.

O'zbek xalqining ijtimoiy va oilaviy sharoitidagi mavjud marosimlarning har birida bir qancha urf-odatlar, irim-sirimlar va rasm-ruslar mujassamlashgan. Marosim va odatlarning ko'pchiligi, xalqimizning asrlar davomida amal qilib kelgan milliy qadriyatlaridir. Sovetlar davrida olib borilgan mustamlakachilik va aetistik siyosat natijasida ko'plab milliy, an'anaviy qadriyatlarimiz bilan bog'liq an'analar va urf-odatlar ta'qib ostiga olinishi ma'lum ma'naviy qashshoqlikka sabab bo'ldi.

O'zbekiston milliy mustaqillikka erishgach, xalqning qadimiy va azaliy qadriyatlarini asta-sekin tiklandi va ularning ko'pi xalqimiz turmush tarzidan o'zining munosib o'rni topdi. O'z navbatida sovetlar davrida kommunistik mafkura ostida olib kiritilgan ayrim marosimlar xalq turmushidan chiqib ketdi va yangi qator zamonaviy marosimlar ham kirib keldi.

N. Qosimov,
filologiya fanlari nomzodi, professor

LAPAR VA O'LAN IJROCHILIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Badiiy ijodda har bir janrning o'ziga xos mavzulari doirasi, o'ziga xos personajlari mavjud. Xalq og'zaki ijodi janrlarida bu narsa juda yorqin ko'zga tashlanadi. Chunki folklor janrlarining hayotiy-estetik vazifasi xalqning maishiy hayoti, turmush tarzi bilan chambarchas bog'liqlikda namoyon bo'ladi. Mana shu jihatdan xalq laparlariga nazar tashlansa, ularda tarannum etiladigan mavzularning rang-barangligini ko'rish mumkin. Laparlarda kuylangan mavzular qay darajada xilma-xil bo'lmasin, ularni muayyan guruhlarga, yirik mavzular atrofiga jamlash va bu mavzularning nisbiy chegaralarini aniqlash mumkin. Eng avvalo shuni aytish lozimki, xalq laparlarining barchasi yagona yirik mavzu doirasida yaratiladi. Bu mavzu esa og'zaki va yozma adabiyotdagi lirik janrlarning abadiy mavzusi - sevgi-muhabbat mavzuidan iboratdir. Mana shu yirik va abadiy mavzu bilan bog'liqlikda yaratilishi janrning to'y marosimi, sayil va turli xildagi bayramlar bilan aloqadorlikda ijro etilishidir. Bevosita mana shunday ijro o'rni va talabi esa ko'proq ishq-muhabbat mavzuni talab etadi.

Xalq laparlarida qizning mafunkor husni-tarovati, oshiqlik dardining azob-uqubati juda keng lirik talqin etiladigan motivdir. Quyidagi to'rtlikda ana shu holatning guvohi bo'lamiz:

Daryoning o'rtasidan yo'l solamiz,
Qizil gul novdasidan uy solamiz.
Qizil gul novdasi taram - taram,
Bizning yorning qoshlari kiygan qalam.¹

¹ Oq olma, qizil olma. Toshkent: 1972.-138 b. (Shu to'plamdan olingan misollar oxirida kitobning sahifasi qavs ichida ko'rsatib beriladi).

Xalq laparlari, ayniqsa, an'anaviy laparlarning aksariyati o'tmishda yaratilgan. Shu sababli ko'pgina xalq laparlari qizning mol-dunyoga uchib, boyning bolasiga ko'ngil qo'yishidan shikoyat qilish, lekin mol-dunyoning o'tkinchi ekanligi, eng muhimi, ko'ngil xohishiga qarab ish qilish lozimligini ta'kidlovchi lirik motivlar anchagina:

Ayrim laparlarda qizning sevgidan arazlash motivi kuylanadi. Bunday laparlarning ikki misrasi yigit tilidan aytilsa, ikki misrasi qiz tilidan ifodalanaadi:

Yuqoridan kelaman bilasanmi,

O'tim arpa tilasa berasanmi?

O'ting arpa tilasa, shivit yetsin,

Oq ko'yaging kir bo'lsa, onang yuvsin (140-bet)

Ma'lumki, lapar kechalarida lapar aytuvchi tomonlar hozirjavoblik bilan «raqib» tomonga javob qaytarishlari lozim. Agar qarshi tomonning lapariga o'z vaqtida javob aytilmasa, u tomon yutqizgan hisoblanadi va dashnom eshitadi. Quyidagi lapar bandida hozirjavoblik bilan lapar ayta olmagan tomonga dashnom berish motivi ifodalangan:

Charxinning qulog'idan g'il o'tadi.

Men senga lapar solsam, yil o'tadi.

Eski somon ustiga yangi somon.

Menga lapar topmagan og'zi yomon. (145-bet).

Xalq laparlari sevishtan yosh yigit-qizlar o'rtasidagi har xil munosabatlar haqqoniy o'z ifodasini topgan. Quyida keltiriladigan laparda uzoq safarga o'tlangan vaforoz yigitning, albatta, o'z mahabbati huzuriga qaytajakligi, shu bois sadoqat bilan kutish lozimligi, xullaski, sevishtanlar o'rtasidagi vafo-sadoqat motivi kuylangan:

Qip-qizil olma terdim tepa shoxidan egib,

Ikki qiz uydan chiqadi haydari yerga tegib.

Haydaridan ushlasam, ushlama yorim deydi-yo,

Jon omon bo'lsa kelarman, sarg'ayma yorim deydi-yo (145-bet)

Laparlarda qizlar tilidan sevgan yigitlar juda ham yuksak va samimiy ta'rifu tavsif etiladi. Chunki sevgi ma'lum darajada ko'zni ko'r, quloqni kar qilib qo'yadi. Shuning uchun ham ma'shuqa oshiqni bekamu-ko'st, har bir ishda xatti-harakatda nuqsonsiz inson sifatida vasf etadi:

Charxinning qulog'ida qu olasi,

Mening og'am quralayning bolasi.

Ovga chiqsa, ovchilarning sarasi,

Uyga kirsam, ulug'uyning to'rasini (146-bet).

O'z navbatida oshiq yigitlar ham o'zlarini sevgan qizlarni o'ta noziklik va yuksak did bilan ta'rifiydilar. Quyidagi lapar bandida tashbehu sifatlashlar shu darajada nozik va betakrorlik, har bir lirik tafsil bejargan vazifasi, tinglovchiga bag'ishlaydigan huzuri bilan yuksak obrazlilik namunasi samatishiga loyiqdir. Mana shu obrazlilik esa «Q» tovushining alliteratsiyasi bilan alohida ta'kidlanib turadi:

Qizlarjon, qiliqimang qil yoradi,

Lablarining shakari til yoradi.

Qoshlaring qozi bo'lib yurt so'rasa,

Kipriging jallod bo'lib bosh oladi (147-bet).

O'zbek xalq laparlari bunday misralar juda ko'p va ular tinglovchilarni yuksak axloqiy, ma'naviy tarbiyasi uchun xizmat qiladilar. Xulosa qilib aytganda, o'zbek xalq laparlari yagona bir mavzu yetakchilik qiladi. Bu – umrboqiy, hamisha navqiron ishq-muhabbat mavzusi. Chin sevgi, sadoqat, mehr-oqibat, bevafoqlik, hijron, armon, g'am-anduh, baxtsizlik kabi lirik motivlar bevosita sevgi mavzuining rang-barang qirralarini yoritishga xizmat qiladi.

Xalq laparlari ijtimoiy hayot bilan, kishilarning turmush tarzi, ularning odamlarga, oilaga, mehnatga, keng ma'noda hayotga bo'lgan munosabati bilan yaqindan aloqada. Shuning uchun ham xalq laparlari hayotdagi ijobiy voqea-hodisalarga xayrixohlik, ma'naviy-axloqiy jihatdan go'zal insonlarni tarannum etish yetakchilik qilsa, ijtimoiy hayotdagi aldatchilik, tovlamachilik, qalblilik, dangasalik kabi illatlar hajv ostiga olinadi. Bu narsa lapar janrining ijtimoiy-estetik jihatdan faol janr ekanligini ko'rsatib turadi.

Darhaqiqat, laparning ikki shaxs tomonidan ijro etilishi ham hajv mavzuni yaxshiroq ochishga keng imkoniyat beradi. Chunki ikki yoki uch shaxs o'rtasidagi dialog shaklida aytishuv salbiy xislatlarni ham ana shunday xislatlarga ega bo'lgan shaxslar tilidan, ham ularga muxolif bo'lgan shaxslar tomonidan fosh etishga imkon beradi.

Masalan, «Kelimlar qo'shig'i» laparlari bir nechta kelinlar ayrim erkaklarda uchraydigan nuqsonlarni hajv ostiga oladilar. Birinchi kelin o'z yorining qadriga yetmaydigan erlarni qoralab, aksincha, o'z yorini qadrlaydigan, uni sharaflaydigan vaforoz erlarni ulug'laydi:

Hayosi yo'q ba'zi er,

Yosh kelinni qari der.

O'zini bilgan yigit,

Suyganini pari der.²

Aytsam, ba'zi opamlar,

Puli ko'pni er deydi.

Agar kamroq keltirsa,

Javobimni ber, deydi.

Ikkinchi bandda esa erini faqat boyligi, mol-dunyosiga qarab baholaydigan xotinlar ustidan kulimadi:

Demak, o'zbek xalq laparlari keng tarqalgan mavzulardan biri hajv qilish bo'lib, u janrning hayotiyligini, ijtimoiy-estetik faolligini ta'minlashga xizmat qilgan.

O'zbek xalq laparlarning jonli yashash tarzi XX asrning 50-yillariga kelib keskin o'zgarishlarga uchradi. Bu davrga kelib hayotimizga radio, televideniye kabi omumaviy axborot vositalarining chuqur o'rin olishi xalq laparlarning jonli yashashiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Qiz uzatar to'ylarida qizlar bazmi yoki ilgari «lapar kechas» deb atalish marosim hozir ham saqlanib qolgan. Ammo bu marosim xalq laparlari ijro etuvchi yoshlar keskin kamayib, ularning o'rni professional san'atkorlar egallab ola boshladi. Natijada, xalq laparlarning jonli ijrosi asta-sekin so'nib, uning o'rni san'atkorlar tomonidan ijro etiladigan yallalar, qo'shiqlar hamda o'yin va tomoshalar egallab oldi. Mana shuning oqibatida xalq laparlarning ayrim namunalari, asosan, savol-javob tariqasida ijro etiladigan, muayyan darajada kuchli drammatizmga ega bo'lgan laparlar san'atkorlar repertuariga o'tib o'zlashdi.

Yuqoridagi hayotiy sabablarga ko'ra xalq laparlarning ijro shakllari ikkiga ajraldi.

² Gulyor. Farg'ona xalq qo'shiqlari. To'plovchi H. Razzoqov. T.: 1967, 188-bet (Qolgan misollar ham shu manbadan kelib, qavs ichida kitob sahifasi ko'rsatib boriladi. -N.K.)

1. Professional san'atkorlar repertuariga o'tgan xalq laparlari.

Bunday laparlarni matni ilgari ommaviy ijro etilgan bo'lsa ham, biroq keyinchalik muayyan san'atkor repertuariga o'tgach, barqarorlashdi. Ulardan badihago'ylik yo'qolib, muayyan matn musiqa jo'rigida qat'iy bir xilda ijro etila boshlandi.

San'atkor repertuariga o'tib o'tirishgan xalq laparlari asosan ikki ijrochi tomonidan ijro etilishga mo'ljallanganligi sababi ularni ba'zan bir erkak va bir ayol, ba'zan esa bir shaxsning o'zi tomonidan ikki kishi tilidan ijro etila boshlandi. O'zbekiston xalq artisti Rahima Mazohidova, Tursunoy Mamedova, Gulshod Otaboyeva kabi san'atkorlar xalq laparlari asosida o'zlariga xos repertuarlar yaratdilar, ular ijro etgan laparlarni sof xalqona laparlarga mustaqil variant sifatida baholaniishi lozim. Darhaqiqat, variantlikning yuzaga kelishi haqida professor T. Mirzayev quyidagilarni yozganida to'la haqlidir: «Variantlarning yuzaga kelishining obyektiv sababi, birinchidan, xalq og'zaki poetik ijodining tabiiati bilan belgilansa, ikkinchidan tarixiy voqe'lik bilan izohlanadi. Folklorida variantlarning yuzaga kelishidagi obyektiv sababi birinchi planda turadi, chunki variantlikning mohiyati ham ana shu orqali tushuntiriladi».⁴

Yuqorida ko'rsatilgan qonuniyatlar nuqtai nazaridan o'zbek xalq laparlari nazar tashlasak, ularning professional san'atkorlar repertuariga o'tib o'tirishgan shakllarida ham, ommaviy ijrodagi shakllarida ham keng variantlashish mavjudligini ko'ramiz. Masalan, «Qoshingni qaro deydilar»ning sof xalqona varianti bilan R. Mazohidova ijrosidagi varianti o'zaro qiyoslanganda asar matnida asosan bandlarning o'zini almashganligi, ya'ni kombinatsiya yuz berganligini ko'ramiz. Agar «Gulyor» to'plamida e'lon qilingan lapar variantini kuzatsak, unda dastlab qosh, keyin ko'z, keyin yuz ta'riflanganligini ko'ramiz.⁵ R. Mazohidova variantida esa dastlab yuz ta'riflangan:

Yigit: - Yuzingni qizil deydilar,

Yuzi qizil ukam, yor-yor.

Ko'rsat yuzingni, men bir ko'ray,

Jonim ukam-a, yor-yor.

Qiz: - Yuzimni ko'rib nima qilasiz,

Siz akajonim, yor-yor,

Yana akajonim, yor-yor,

Bozordagi shirmoy nonni-

Ko'rmabmidingiz, yor-yor.

Agar xalq variantlarida yorning qoshi birinchi bo'lib, tavsiflangan bo'lsa, san'atkor variantida u ikkinchi bandda tavsiflangan. Ammo qoshga xos asosiy xususiyatlar har ikki variantida ham aynan bir xil:

Yigit: - Qoshingni qaro deydilar,

Qora qosh ukam, yor-yor.

Ko'rsat qoshingni men bir ko'ray,

Zolim ukam, yor-yor.

Qiz: - Qoshimni ko'rib nima qilasiz,

Siz akajonim, yor-yor,

Yana akajonim, yor-yor,

Qaldirg'ochning qanotini-

Ko'rmabmidingiz, yor-yor?⁶

Ushbu banddagi variantlikka xos xususiyat shundaki, xalq variantida qizga «jonim ukam» deb murojaat etilgan bo'lsa, san'atkor variantida yorning noz-qarashmasini, jabr-zulmini bo'rtirish maqsadida «zolim ukam» deb murojaat etiladi.

Laparlarning xalq variantida uchinchi bo'lib yorning ko'zi ta'riflangan bo'lsa, san'atkor variantida yorning sochi tavsiflangan. Soch tavsifi esa xalq variantida uchramadi. Shu bo'is biz san'atkor ijrosidagi tavsifning o'zini keltiramiz, xolos:

Yigit: - Sochingni uzun deydilar,

Qora soch ukam yor-yor.

Ko'rsat sochingni men bir ko'ray,

Chivir soch ukam-a, yor-yor.

Qiz: - Sochimni ko'rib nima qilasiz,

Siz akajonim, yor-yor,

Yana akajonim, yor-yor,

Soy bo'yidagi majnun tolni -

Ko'rmabmidingiz, yor-yor?

Ko'rimib turibdiki, yorning uzun va quyiga osilib turgan sochi soy bo'yida silkinib turuvchi majnuntolga qiyoslangan.

San'atkor repertuaridagi laparda yorning ko'ziga berilgan ta'rif oxirgi bandda berilgan bo'lsa, ommaviy ijrodagi laparda uchinchi bandda, ya'ni qosh tavsifidan keyin kelgan. Lekin har ikki variantda ham yorning ko'ziga berilgan ta'rif bir xil:

Yigit:

- Ko'zingni shahlo deydilar,

Shahlo ko'z ukam, yor-yor.

Ko'rsat ko'zingni men bir ko'ray,

Zolim ukam-a, yor-yor

Qiz:

- Ko'zimni ko'rib nima qilasiz,

Siz akajonim, yor-yor,

Yana akajonim, yor-yor,

Tog'da ohu ko'zlarini,

Ko'rmabmidingiz, yor-yor?

Xullas, ommaviy ijrodagi xalq laparlari professional ijrochi repertuariga o'tgach, muayyan o'zgartirishlar yuz beradi va mana shu narsa ularni mustaqil variant sifatida baholashga asos bo'ladi.

O'zbek xalq laparlari sirasida shundaylari ham borki, ular faqat professional ijrochilar repertuari orqali turli joylarga tarqalgan va mustaqil mahalliy variant sifatida shakllangan. Masalan, «Suv bo'yida turgan yigit» misrasi bilan boshlanuvchi lapar 30-yillardan boshlab san'atkorlar repertuariga o'tib keng tarqalgan. Ushbu laparning xorazm san'atkorlari repertuariga o'tib, o'ziga xos mustaqil variant kasb etganligi ma'lum. Masalan, uning namunalaridan biri professor S. Ro'zimbayev tomonidan yozib olingan va quyidagichadir:

⁴ Mirzayev T. «Алломия» достояниянг Ўзбек эаркамлари. Т.: 1968, 27-бет.
⁵ Гулёр. Фарғона халқ кўшиклари. Т.: 1967, 180-бет.

⁶ Laparning matni R. Mazohidova ijrosidan yozib olindi. (N.K.)

Qiz:

- Suv bo'yida turgan yigit,
Suvga nazar solgan yigit,
Bilakuzugim olgan yigit,
Olibsan, ber bilakuzugim.⁹
- Suv bo'yiga borganim yo'q,
Bilakuzugimni ko'rganim yo'q,
Ko'rgan bersin bilakuzugim,
Olgan bersin bilakuzugim.

Yigit:

Diqqat qilinsa, ommaviy ijrodagilapar variantida yigit javobida mantiqiylik kuchli ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki qiz suv bo'yida turgan yigit deb murojaat etgan. Unga javoban yigit suv bo'yiga borganim yo'q desa, o'zaro moslik buziladi. Haqiqatan ham oshiq yigit suv bo'yiga borib, suvga boqib xayol surib turgan. Shu bois u qizga suv bo'yida turgan yo'q deb javob qaytarmoqda. Bu orqali qizga oshiqni shaydo bo'lib yurgan yigitlarning ko'pligiga va ayni paytda qizning o'zi bilakuzukni ulardan biriga oldirganligiga achchiq qilib ishora qilgan. Har holda laparning ommaviy ijro shaklida qiz va yigit o'rtasidagi aytishuvda mantiqiy izchillik kuchliroq saqlangan.

Qo'yidagi misralardagi laparda ikki sevishtgan yoshning taqdiri qo'shiltajakligiga ishora qilingan:

Qiz:

- Qator-qator nor beraman,
Norga qo'shib zar beraman,
Qo'shib-chopib pul beraman,
Olibsan, ber bilakuzugim.

Yigit:

- Bundan uyga borabering,
Choy-poylarni qilavering,
Qarib ko'nglim olabering,
Kissamdatur bilakuzuging.

Xullas, san'atkor repertuariga o'tgan lapar keng tarqalib, turli hududlarda ham mustaqil variantlashgan. Xorazm vohasida ijro etilib kelingan yuqoridagi lapar fikrimizning dalili bo'la oladi.

Xalq o'rtasida «Na qilg'aysan» deb aytiluvchi savol-javob shaklidagi lapar keng tarqalgan bo'lib, uning mustaqil bir varianti Xorazmda «Ne deysan» deb yuritiladi. Ushbu lapar yigit va qiz o'rtasida aytilib, yigitning har bir savoliga qiz topqirlik bilan javob aytadi. Masalan:

Yigit:

- Men bog'ingga bog'bon bo'lib,
Bog'ingga kirsam, ne deysan?
Tar ochilgan gullaringdan,
Bir dona uzsam, ne deysan?

Qiz:

- Sening o'zing bog'bon bo'lib,
Bog'chamga kirgan vaqtigda,
Men o'zim bir gul bo'lib,
Bog'da ochilsam ne deysan?

⁹ Laparning mazkur varianti O'zbekiston Respublikasi FA Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot instituti Folklor arxivida 1636-intervar raqami ostida saqlanadi. (N.K.)

Yigit:

- Sening o'zing bir gul bo'lib,
Bog'da ochilgan vaqtigda,
Mening o'zim bulbul bo'lib,
Shoxingga qo'nsam, ne deysan?

Yigit bulbul bo'lib gul bo'lib ochilgan qizning baxtiga erishmoqchi ekanligini «shoxingga qo'nsam, ne deysan» deb bəyon qiladi.

Laparning shunga o'xshash yana bir variantini folklorshunos O.Sobirov 1961-yilda Mardonqul Avliyovqul o'g'lidan, 1971-yilda esa Yusuf O'taganovdan yozib olgan. Bu variantdagi aytishuvda ham yigit va qiz turli qush, hayvon yoki o'simlik shakllaridagi obrazlarga aylanib, bir-birlarini ta'qib etadilar.¹¹

Laparning Xorazm variantida qizning kaptarga aylanib, uni quvajakligini bildiradi:

Yigit: - Sening o'zing kaptar bo'lib,

- Havoga uchgan vaqtigda,
Men bir olg'ir lochin bo'lib,
Izingdan quvsam, na deysan?

B.Sarimsoqov keltirgan variant ham lochin va kaptar obrazlarining ishtiroki bilan yuqoridagi bandga o'xshashlik kasb etadi. Ammo bu variantning farqi shundaki, lochin obrazi olg'ir lochin tarzida, kaptar esa tog' kaptarini shunchaki quvmaydi, balki unga changal soladi. Masalan:

- Sen tog' kaptari bo'lsang, yor,
Orqamdan quvib yursang
Men olg'ir lochin bo'lib,
Changalga olib qolsam,
Yor, unda na qilg'aysan?

Tinglovchi yigit va qiz o'rtasidagi aytishuvning shiddati, ular aylanmoqchi bo'lgan obrazlarning bir-biriga zidligi hamda bir-biriga kushanda ekanligidan hayron deb turganda, qiz o'zining hayratlanarli topqirliqligi bilan aytishuvni davom ettiradi:

Qiz:

- Sen qo'y'larga cho'pon bo'lib,
Axtarib topgan vaqtigda,
Men bir boyning qizi bo'lib,
To'rd a o'tirsam, ne deysan?

Sahroga yoyilib o'tlab yurgan qo'y'larning har qanday giyoh cho'pini topib yoyishi aniq narsa. Shunga qarab ma'shuqaning oshiq ta'qibidan qochib qutulishga imkoni qolmabdi, degan fikrga kelamiz. Ammo qizning boy qiziga aylanib, to'rd a o'tirishi, cho'ponning esa unga yetishga chorasi yo'qligini yana bir karra his etamiz. Shunda yigit ham qiz savoliga yarasha javob qaytaradi:

Yigit:

- Sen bir boyning qizi bo'lib,
To'rd a o'tirgan vaqtigda,
Men bir boyning o'g'li bo'lib,
Sovchi yuborsam, ne deysan?

¹¹ Sobirov O. Kelinoy qo'shiqlari. Yozib oluvchi va nashrga tayyorlovchi T.: 1981, 159-162 betlar.

Laparning Xorazm varianti to'la mustaqillikka erishgan variant hisoblanadi. Chunki g'iyohga aylangan ma'shuqani cho'ponga aylanib topish, bo'ying qiziga aylangan ma'shuqani bo'ying o'g'liga aylanib sovg'ini qo'ydirish, qattiq bemorga aylangan qizni katta tabibga aylanib davolash kabi motivlarni laparning boshqa mahalliy variantlarida uchrata olmaymiz. Shunga ko'ra laparning yechimi ham o'ziga xos va betakroridir. Ma'shuqaning ko'rpaga aylanishi, oshiqning shu ko'rpaga kirishi bilan lapar yechimi muvaffaqiyatli yakunlanadi. Ma'shuqa jevobsiz qoladi, oshiq esa uning vasliga erishadi:

Qiz: - Sen bir katta tabib bo'lib,

Dorini bergan vaqtinda,

O'z-o'zinga duo o'qib,

Ko'rpaga singsam, ne deysan?

Yigit: - Sen o'zinga duo o'qib,

Ko'rpaga singgan vaqtinda,

Mening o'zim kuyov bo'lib,

Ko'rpangga kirsam, ne deysan?

Ushbu laparning professor B.Sarimsoqov keltirgan namunasida qiz va yigitning metamorfotik shakllari boshqacha yo'nalishda davom etadi. Masalan, ma'shuqa o'g'ir lochin bo'lib, tog' kaptariga changal urmoqchi bo'lganda, oshiq mergan bo'lib, uni o'tib olmoqqa shaylanadi. Shunda ma'shuqa bog'da qizarib pishib turgan anorga aylanib qutulmoqchi bo'ladi. Oshiq esa bog'bonga aylanib, anorni uzib olmoqchi bo'ladi. Pishib turgan anorni bog'bon bo'lib uzib olish mohiyatan oshiqning ma'shuqa visoliga yetishganligidan dalolat beradi. Shunday yechim bilan lapar nihoyasiga yetadi. Chunki ma'shuqa yigitning savolligga javob topa olmaydi:

Xullas, savol-javob shaklidagi laparlar san'atkorlar repertuarida ijodiy rivojlanirilib to'ylar, sayil va bazmlarda jonli ijro etilib kelimmoqda. Bundan shunday xulosaga kelish mumkin. Xalq laparlarini to'ylarda ijro etish an'anasini so'ngach, uning ayrim namunalarini professional san'atkorlar yoki folklor ansambllari repertuariga o'tib o'zlashib yashamoqda. Demak, san'atkorlar yoki folklor ansambllari ayrim folklor asarlarining hozirgi paytda jonli ijrosini ta'minlash vositasiga aylanib qoldi.

Xalq laparlarining qizlar bazmida-lapar kechasida ijro etilmay qolishiga bir nechta sabablar bor.

Birinchi - maishiy hayotimizga, marosim va sayllarimizga professional san'atning keng kirib kelishi. Mana shu jarayonda to'y marosimlardagi yor-yor, o'lan kabi lapar janri ham ijro etilmay qoladi.

Ikkinchi - milliy marosimlarimiz va tantanalarimizdagi milliy an'analar, aytim, tomosha va o'yinlarimizning eskilik qoldiqlari deb tashviq qilish siyosati. Buning oqibatida ko'pchilik yosh avlod qadimiy qo'shiq va laparlarimizdan kechib, professional san'atga yuz tutdilar.

Uchinchi - xalq orasida lapar aytuvchi mohir ijrochilarning olamdan o'tishi va lapar aytish an'anasining sekin-asta unutila borishi.

Xulosa qilib aytganda, qizlar bazmida lapar aytish an'anasining so'nishi professional qo'shiqchilikning keng o'rin olishiga sabab bo'ldi. Bu jarayonda faqat professional san'atkorlar repertuariga o'tib o'zlashgan laparlarigina saqlanib qoldi va mazkur janrning jonli ijroda yashashini ta'minladi.

2. Ommaviy ijro shaklida saqlanib qolgan laparlar.

Laparning ommaviy ijro shakli so'ngach, ilgari qizlar bazmida jonli ijro etilib kelingan laparlar turli to'plamlarda, folklorshunoslar tomonidan to'plangan manbalarda, arxivlardagina saqlanib qolgan.

Endilikda istiqbol sharoifati bilan milliy qadriyatlarimizga keng yo'llar ochilayotgan bir paytda shoyadki to'yimizda lapar aytish an'anasini yana qaytadan tiklansa, chunki xalq laparlarini qizlar bazmida qizdirish, unga jo'shqinlik va quvonch bag'ishlash bilan birga katta tarbiyaviy vazifa ham bajaradi. Chunki lapar kuyulash yigit va qizlarni o'zaro halol so'zamollik qilish mahoratini egallashlariga imkon beradi. Qolaversa, yigit va qizlar o'rtasidagi intim munosabatlarni nozik ishoralar bilan ifodalashga imkon bergan. Demak, lapar aytish jonli an'anasini marosimga musiqiy-emosional ruh bag'ishlash bilan bir qatorda katta ma'naviy, axloqiy-tarbiyaviy vazifa ham ado etadi.

Xalq laparlarining mavzu doirasi va ijro shakllari yuzasidan yuqorida aytilgan fikr-mulohazalar umumlashtirilsa, quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Xalq laparlarini asosan yigit va qizlar tomonidan ijro etilganligi va nikoh to'ylarining qizlar bazmida aytilganligi sababli ularda ishq-muhabbat mavzui yetakchilik qiladi. Mana shu yetakchi va doimiy mavzu doirasida vafq-sadoqat, bevafofik, hijron, armon, visol quvonchilari, ayrilish tashvishlari, g'an-anduh kabi hayotiy mavzular kuyulanadi. Bu mavzular goh yigit tomonidan, goh qiz tomonidan tilga olinadi.

2. Xalq laparlarida hayviy mavzular ham keng ishlangan. Kishilardagi tabiiy nuqsonlardan torib, ularning xarakteriga xos ishyoqmaslik, dangasalik, andishasizlik, uyatsizlik va yulg'ichlik kabi illatlar ustidan kulinadi. Bunday hayviy mavzular xalq laparlarining ijtimoiy-g'oyaviy vazifasini, ularning faolligini oshiradi va katta tarbiyaviy vazifa ado etadi.

3. Xalq laparlarini uzoq tarixiy taraqqiyotni bosib o'tdi. Mana shu jarayonda uning ijro shaklida ham turlicha o'zgarishlar yuz berdi. Asrimizning 50-60-yillaridan boshlab xalq hayoti, to'y va boshqa marosimlariga, bayram hamda sayllariga professional san'at kirib keldi. Mana shuning oqibatida to'ylardagi, sayllardagi laparlar o'rnini professional qo'shiqchilik egalladi. Xalq o'rtasida keng ommaviy ijro etilib kelingan laparlarining ayrimlari professional artistlar hamda havaskor xonandalar ijrosiga o'tib o'zlashdi. Natijada, xalq laparlarining professional san'atkorlar ijrosidagi shakli vujudga keldi. Bunday ijrodagi laparlar musiqqa jo'rtligida ijro etilishidan tashqari nisbiy barqaror matmlarga asoslanadi va ijro jarayonida badhago'ylik uchramaydi. San'atkorlar ijrosidagi laparlar ommaviy namoyishlar tufayli keng variantlashgan. Masalan, laparlarining Xorazm mahalliy variantlari yuzaga kelib, ularning har biri ham san'atkor yoki havaskor xonandalar tomonidan kuyulanadi.

4. Xalq laparlarining ommaviy ijro etilgan shakllari ham mavjud bo'lib, ular hozir lapar kuyulash an'anasini so'ngach, ijro etilmay qoldi. Lekin laparlarining matmlari turli to'plamlarda, folklor arxivlari va to'plovchilarning daftarida saqlanib qolgan.

O'lan janri Toshkent viloyatining tog'li hududlarida, ayniqsa, Ohangaron tumanining qishloqlarida o'zgaricha joziba kash eigan holda g'oyat keng ko'lamda ommalashgan.

Ohangaron tumanida yashovchi aholi orasida keng tarqalgan qo'shiqning bir turi o'landir. O'lan odatda qizlar bir tomon, yigitlar bir tomon bo'lib dialog shaklida aytiladi. O'landa chorvachilik uchun muhim bo'lgan tog'-tosh, qir, soy, yaylov, yulqi, qo'y-qo'zi, turli o'simliklar, ov qushi va sayroqi qushlarning nomlari ko'p keladi. Bu xususiyat mazmunni boyishiga, obrazning yorqinligiga, qo'shiqning ta'sirchanligiga xizmat qiladi, chunki xalqning turmush, tirikchilik sharoiti, mehnati ko'z o'ngimizga kelib turadi. Shu bilan birga, xalq ommasidagi ishonch, e'tiqod, orzu-armon, qayg'u va shodlik o'langa xos

bir yo'sinda aks ettiriladi. Aholining turmushga, odamga, mehnatga bo'lgan munosabati har bir badiiy asaradigay ko'rinib turadi. Ammo o'lanning boshqa qo'shiqlardan mazmunini farqi shuki, o'hu fig'on, hasrat, hijron, alamlari, judolik, shaxsiy tutqunlik, dimiy tazyiq izitroblari oz bo'lib, nisbatan fikriy erkinlik bor. Ko'pchilik oldida ko'ngilda borini ochiq, to'g'ri dan-to'g'ri ifodalayveradi. Xotinlar erkinihgiga katta to'siqlardan biri bo'lgan paranjining bo'lmaganligi, dehqon va chorvador ayollar paranjisiz yurganligini o'lan ko'rsatib turadi. Ammo o'lan aytishning ma'lum rasm-rusmlari va tartibi bo'ladi. Masalan, Ohangaron daryosi bo'ylarida, Qurama tog'lar etaklaridagi qishloqlarda yashovchi aholida bir odat bor. To'y boshida qizning yangalaridan yoshrog'i sochiga sochpopuk, bo'yniga marjoj, tumor kabi turli taqinchoqlar taqib, boshiga jelak yopinib, yuzi ochiq holda yasatilgan otga minib, orqasiga 13-14 yoshlardagi bolani mingashtirib «o'langat» deb uyima-uy yurib xabar qiladi. Shunda «Falon kuni, kumbetkavdagi uyga o'langa boringlar!» deb deb aytsa, orqasidagi bola to'y qilayotgan kishining otini atab «Qozi to'pidan Bozorboy otaning uyiga!»—deb xabarni to'ldiradi.

Ma'lumki, har kim o'lanchi, qo'shiqchi bo'lavermaydi, ko'p qishloqlarda chechan o'lanchilar bo'ladi. Masalan, Toshkent viloyati Ohangaron tumanining Qorabog' qishlog'ida yashovchi Xoljuman Umar o'g'li juda usta o'lanchi bo'lgan. Umtoy (Umidoy) degan qiz uning harfdoshi (tarafi) bo'lib, ularni Obliq, Qorabog', Gulbog', Ochamayli kabi yon atrofdagi qishloq to'ylariga aytganlar. Ular qatnashgan to'ylar juda qizigan. Shu kabi Namangan viloyati Pop tumanining Uyg'ur, Chorkesar qishloqlarida yashovchi To'ychi, Yusuf kabi o'lanchilar ham bo'lgan. Har joyda mana shunday o'lanni ko'p biladigan chechanlar bo'lgan.

Ko'p joylarda o'lanni qizlar uy yoki o'tovning ichida, yigitlar dala (tashqari)da aytadi. Ochiqlikda, ma'lum joyda yuzlari ochiq aytalar ham, qizlarning o'rilgan sochlari, yuzlari ko'rinib tursa ham, jelak yoki to'mollari kulgi vaqtida og'izlarini berkitishga, boshlarining ochilib qolmasligiga yordam beradi. Ochiq cheharalari, lablaridagi tabassum ko'rinib turadi. O'lanchilar tomoshabinlarga nisbatan yana erkinroq, yana sho'xroq ko'rinadilar.

Odatda o'lanni yigitlar boshlaydi. O'lanchi ham aniq misralar bo'ladi. Butunlay yangi o'lan ham aytiladi. Ba'zi o'lanchilar borki, O'zbekistonning qaysi burchagiga bormang, shu o'lanni bilishadi. Masalan, quyidagi o'lanchi bir-biridan uzoq tumanlardan bir necha variantlarda yozib olingan.

Qayrag' ochni kesganda mo'ltiq bo'lar,
Bedananing quyruq'i cho'ltiq bo'lar.
Kishi yori birovga yor bo'lmaydi,
To'yxonadan ketganicha o'rtoq bo'lar.

Lekin keyingi baytda ba'zan o'zgarish bo'lib turadi. Boshqa bir so'z yoki ta'biri qo'llash bilan butunlay yangi mazmun kasb etadi:

Teng o'sganlar qoldi dema, harfdoshim,
Yaxshi bo'lsang, kuyoving ham o'rtoq bo'lar.

Dialog shaklida erlar bir tomon, qizlar bir tomon, ya'ni kuyov tomon yigitlar (kuyov navkarlar) qiz tomonning ayollari bilan aytiganda, «yor-yor» radifi qo'shilsa ham «yor-yor» aytdik demay, o'lan aytdik deyishadi, shuning uchun biz ham bunday namunalarini o'lan deb berdik. Zomin tumani Qarapchi qishloqlik Yorlaqab shoir Ermazar o'g'lidan Temur OCHILOY yozib olgan o'lanchilardan namunalar keltramiz:

Yigit:

Serkalarning boshida shoxi bordir, yor-yor,
Har bozorning o'zining narxi bordir, yor-yor.
Qiz bolaning barisin bi'day dema, yor-yor.
Qiz bola bilan qiz bola farqi bordir, yor-yor.

Qiz:

Saratonida tog'dagi qorday bo'lar, yor-yor,
Yarashliqi qatorida norday bo'lar, yor-yor.
Sincti bo'lsang aytib ber, oxun og'a, yor-yor,
Yaxshi, yomon farqlari qanday bo'lar, yor-yor.

Ohangaronda o'lan «yor-yor» bilan aytilsa, aksariyat hollarda qo'lga do'mbira yoki childirma olib jo'r bo'lib aytadilar. «Yor-yor»siz aytilsa, o'lanni cholg'usiz aytadilar. Xalq shoirilari o'lanni ham do'mbira chertib aytadilar, agar tarafma-taraf aytilsa, cholg'usiz bo'ladi. Savol-javobli yuqoridagi kabi o'lanchilarda ko'pchilikning didi, zavqi, o'ila qurishdagi qarashlari, muhabbat kechinmalari, yigit, qizning bir-biriga bo'lgan mayli va xohishlari ifodalalanadi.

O'z haddini bilmay, odobdan tashqari chiqib ketsa, o'lan bilan tergab, qarq'ab turadilar. Nomonosiblik ko'p vaqt yigitlar tomonidan sodir bo'ladi. Bo'za, musallas ichib o'lancha qo'shilib qolgan ba'zi birlari ham bo'lgan.

Uyat o'lan aytganning oti o'chsin,
O'tkir qaychi tilining uchin kessin.
Bizga yomon so'z aytgan o'ngmay o'lar,
Quruq yog' ochni quchoqlab umri o'tsin.

O'lan aytuvchi tomonlar bir-biriga harfdosh bo'ladi, har ikki tomon bir-biriga xabar qiltuvchidir. Ular bir-birlariga «harfdoshim» deb murojaat etadilar.

Qo'lindagi besh barmog' birovni toq,
Oxunlikdir ehning ko'nglimi xushlamoq.
Avvallari to'yda o'lan aytganim yo'q,
Endi aytib kelaman ne deydi xalq?

Odat bo'yicha to'y lab, qutlab kelishgani va o'lan eshitish uchun kelganliklari o'lancha qo'shiladi. Bunda ham ba'zi dasturlar aks ettiriladi:

To'y-to'y bugun, to'y bugun, to'y lab keldik,
Qo'sha ro'mol qo'lga olib o'ynay keldik.
To'yningizga kelarmidik, kelmasmidik,
Shirin-shirin o'lanchilar tinglay keldik.

To'yga atab tikilgan ro'molchalardan o'lan aytgan yigitga beradilar. O'lanchi bahonasi bilan yigit-qizlarning bir-birlariga munosabatlari va bu munosabatlardagi hurmat, muhabbatlari izhor etiladi. Qizning ham, yigitning ham bir necha talablari qo'yiladi. Qiz tomon tez o'lan bilan javob beravermasa, yigit tomon bir qancha o'lanni qator aytadi:

Ayt deganda o'lanni oxun aytar,
Aytganda ham oxun yigit ma'qul aytar.

NOYOB MUSIQIY CHOIG'ULARI

O'zbek milliy musiqa cholg'ulari rang-barangligi, turi-tumanligi, sadolanish xususiyatining o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda o'zbek milliy ijrochiligidagi qo'llanilayotgan cholg'ularning nihoyatda boyligi biz yashab turgan zaminimizda musiqa cholg'ulariga bo'lgan ijobiy munosabati ifodalaydi. Shu bilan bir qatorda, tariximizga, an'ana va urf-odatlarimizga xalqimizning chuqur hurmatini ham bildiradi.

O'zbek milliy musiqa cholg'ularining tasniflashida ularda tovush hosil qilish uslublari asos qilib olinadi. Milliy cholg'ularimizni ishlatish o'rinlari va ularda ijro etuvchilarning tarkibini cholg'ularning mohiyatiga ko'ra boshqacharoq tasniflash ham mumkin. Musiqiy ijrochilikda qo'llaniladigan aksariyat cholg'ularida ijro etish sozandadan katta uquv, malaka, tajriba va bilimni talab qilgani holda, xalq ichida juda keng tarqalgan va biz yuqorida aytib o'tgan professional malaka talab qilinmaydigan sodda musiqlik cholg'ular ham bor. Mana shu cholg'ularni biz *folklor musiqiy cholg'ulari* deb atasak, xato bo'lmas kerak. Zero, mazkur musiqlik cholg'ular eng xalqchil, ommabop bo'lish bilan bir qatorda xalq musiqiy ijodiyotining haqiqiy ruhiyatini, tarovatini ifodalovchi tovushlar sadosini yaratish xususiyatiga ham egadir. Musiqiy folklor ijrochiligining chuqur bilimdoni, amaliyotchisi va mazkur janrning fidoyisi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Xoliq Xursandov musiqlik cholg'ularni quyidagicha tasniflashni tavsiya etadi: *tuvg'u cholg'ulari* va *kuy cholg'ulari*. Tuvg'u cholg'ulari tarkibiga *changqo'biz*, *sibizg'a*, *sopoz nay*, *g'ajir nay*, *qamish nay*, *doyra*, *nog'ora* kabi cholg'ularni kiritishni tavsiya etiladi. Qolgan musiqlik cholg'ular esa kuy cholg'ulari qatoriga kiritiladi. Aslida o'lganda ham, tuvg'u cholg'ularida ma'lum bir kuy ijro etilmaydi va unda faqat lavha, usul, ohang ijro etish mumkin. Bu ijro har bir ijrochining o'ziga xos bo'lib, unda uchraydigan ma'lum bir element ushbu ohangning nomlanishini belgilaydi. Misol uchun changqo'bizda ijro etiladigan «biyov-biyov», «gij dov, dov» kabi bundan tashqari, tuvg'u cholg'ulari insonni tabiatga yaqinlashtiradi, ijro qanday darajada bo'lishidan qat'i nazar, ijrochi faqat o'ziga xos bo'lgan hissiyotni - o'zligini ifodalaydi va betakror bo'ladi. Tuvg'u cholg'ularining boshqa cholg'ulardan ustunlik tomoni shundaki, ular hamma uchun ochiq.

O'zligini ifodalashga bo'lgan harakati yosh bolalarda ham kuzatish mumkin. Ularning piyoz o'zagidan, tol novdasi va bargidan, qamish tanasidan yoki boshqa o'simliklardan yasalgan va tovush hosil qilish imkoniyatini beradigan turli moslamalar, shuningdek, tog'ora, lagan kabi uy-ro'zg'or anjomlaridan foydalanib o'zlarini ifodalaydilar va bundan zavqlanadilar. Shuning uchun ham ular o'z tuvg'ularini ifodalashiga imkoniyat yaratish maqsadida tovush hosil qilish mumkin bo'lgan doyra, hushtak, changqo'biz kabi o'yinchoq cholg'ulari hozirgacha tayyorlanib, attorlar tomonidan sotiladi.

Kuy cholg'ulari esa maxsus tayyorlanib, uquv, tajriba talab etadigan cholg'ular asboblari bo'lib, ularda ijro etiladigan kuy aksariyat holda oldindai boshqalarga ma'lum, tanish bo'ladi. Ushbu kuy'larni maromiga, qiyomiga yetkazib chalishgan tinglovchilarga ijobiy ta'sir qiladi va bu ancha murakkab ishdir.

Mazkur qo'llanmada biz kuy cholg'ularini - *an'anaviy cholg'ular*, tuvg'u cholg'ularini esa - *folklor cholg'ulari* deb atadik. Quyida folklor-etnografik jamoalar ijrochiligidagi keng qo'llanib kelayotgan ayrim folklor cholg'ulari haqida ma'lumot beramiz.

Changqo'biz. Changqo'biz juda qadimiy musiqlik cholg'u deb hisoblanadi, u to'g'risidagi ma'lumotlar tarixiy manbalarga juda kech kiritilgan. Bizning nazarinizda,

Bilayin oxunliging, Umidoymim,
O'langa bo'lsang oxun qarshi qaytar¹⁴.

Kun isisa, suv bo'yida salqinlayman,
Betim yuvsam, oyday bo'lib yarqillayman.
Ko'makayda o'lan degan ko'p bo'ladi,
Men o'lanchi siz chechanga yaqinlayman,

Quyidagi o'lanlarning yuqoridagi birinchi bayti o'zgaray, keyingi misralarning ba'zi so'zlari biror sabab bilan o'zgarishi mumkin. Toshkent viloyati Ohangaron tumani Nishboshi qishlog'ida aytilgan o'landa quyidagicha o'zgarish ko'zga tashlanadi:

Dalada qo'y boqaman, oqqina qo'y,
Chayqalغان quyruqlari choqqina qo'y,
Bizni yenggan Oysuluvim endi borib,
Chechanliging enangga maqtanib qo'y.

Shu tumanning Qorabog' qishlog'idan yozib olingan o'lanning keyingi bayti esa quyidagicha:

Bizlar bilan o'lan aytib, Umid oyim,
Olganingga o'zing borib maqtanib qo'y.

O'lanchilar o'lami ko'p bilish yoki bilimliklarini ham qo'shib keta beradilar. Harfdoshlar bir-biriga murojaat etib turganda, barcha diqqat-e'tibor va qiziqish bilan quloq soladi. YON atrofda bo'lgan, bo'layotgan voqealarni qo'shib, to'rtlikning keyingi baytida maqsadga ko'chiladi:

Chorkesar etagida shuvoq pitar,
Tepkilangan xirmondi tovuc titar,
Yengaman deb o'zingga bino qo'yma,
Bizning o'lan to'rt kechaga bazo'r yetar.

Shuvoq, *xirmon*, *tovuq* va boshqalar haqida ma'lumot beradi-da, harfdoshga yengaman deb g'ururlanma, mening o'lanim ko'p, ayt bersam, to'rt kechagacha yetadi, deb maqtanadi.

O'lan tugay deb, odamlar ketishga harakat qila boshlaganda, o'lanchilar to'ydagilar bilan, harfdoshlar bilan xayrlashish mazmunidagi o'landan aytadilar. Bunday xayrlashish o'lanini ayta boshlashlari bilan to'y tantanasi tugagan, fursat oz qolganiga afsuslanish ham qo'shiqlardan anglashiladi. O'lan yakka holda, yo'lda borganda, yolg'iz qolganda, ko'pchilik iltimosi bilan ham aytilaveradi. Ammo to'yga borib o'landa qatnashganda tarafma-taraf bo'lib aytilish o'lanning o'ziga xos xususiyatidir. Demak, o'lan ham qo'shiqning qadimiy turi bo'lib, asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi aholi orasida keng tarqalgan.

Lirik qo'shiqlar keng o'rin olgan joylarda o'lan kam aytiladi. O'lan rivojlangan joylarda lirik qo'shiqlar va yor-yorlar kam bo'ladi. Badiiy vositalardan o'xshatish, siqatlash, mubolag'a keng qo'llanadi. Ko'rgan-bilgan, atrofdagi narsalar, tabiat hodisa va manzaralari o'langa boy material beradi. Ko'p joylarda qiz uzatarca o'langa deb alohida chaqirib, maxsus tayyorlanib o'lanchilar yig'ilib tarafma-taraf bo'lib aytilmay, yor-yorga o'xshatib, lekin «yor-yor»ni ko'shimay o'lan qilib, bir kishi, ba'zan ko'pchilik bo'lib ijro etiladi. Bu o'landa uzatlayotgan qiz, uning yaqin qarindosh va o'rtloqlarining ruhiy kechumalari, hatto to'y jarayonining ba'zi bir tomonlari aks ettiriladi.

musiqiy cholg'ular haqida yozilgan risolalarda changqo'biz to'g'risidagi ma'lumotlar uchramasligining asosiy sababi mazkur musiqiy cholg'uda alohida holda «kuy» (bizning tasavvurimizdagi yakunlangan musiqiy lavha) ijro etish imkoniyatining yo'qligidan unga jiddiy e'tibor berilmagan bo'lsa kerak. Changqo'bizning juda qadimiy musiqiy cholg'u ekanligini isbotlash qiyin emas. Changqo'bizning metallardan va tuya suyagidan tayyorlangan turklarining mavjudligi ushbu cholg'u metall iste'moli boshlangan davrdan oldin ham mavjud bo'lganligiga ishora qilsa, changqo'bizga o'xshash cholg'ularning shariqiy turkiy xalqlar, shimol xalqlari, Markaziy Osiyo xalqlari, shu bilan birga latlar, boshqird xalqlari va hatto olmonlarda ham uchrashini uning juda qadimiy cholg'u ekanligidan dalolat bera di. Xitoyning janubida yashaydigan orollarida ham, yaponlarda ham bambukdan yasalgan changqo'bizlarni uchratish mumkin.

Cholg'uning ruscha nomlanishi - *vargan* bo'lib, eski slavyan tilida "vargi" so'z i og'iz ma'nosini beradi. Bu cholg'u Yakutiya - xomuc, Oltoida - qomuz, Norvegiyada - munharp, Boshqirdistonda - kubiz, Filippinda - kumbing, Ukraina va Belorussiyada - drshba, Germaniyada - maultrommel, Yaponiyada - mikkuri, Hindistonda - morechang, Xitoyda - kou ksiang deb nomlanadi.

Changqo'biz cholg'usi qadimdan O'zbekiston hududining hamma viloyat va shaharlarida keng tarqalgan. Hatto eng yirik shaharlarda yashovchi qariyalar ham changqovuzni yaxshi bilishlari va yoshlik davrlarida chalgib ko'rganliklarini e'tirof etishadi. Changqo'biz ijrochilari azaldan ayollar bo'lgan. Changqo'bizda yakka holda va birgalikda ijro etib kelingan. Ba'zan 10-15 tagacha ijrochilar qo'shilib chalgish holatlari ham uchraydi. Changqo'biz ayniqsa 2-jahon urushi davrida juda ommalashgan. Ushbu davrda ayollar birgalikda mehnat qilgan jamoalarda ayniqsa keng tarqalgan bo'lib, har bir ayol o'zi bilan doimo changqo'bizini olib yurgan va qisqa dam olish fursatlarida ham ayollar birgalikda changqo'biz chalgib dam olishgan ekan.

Hozirda changqo'biz cholg'usi ko'proq Qoraqalpog'istonda, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida uchraydi. Hozirda Surxondaryo viloyati SHo'rchi tumanida faoliyat ko'rsatayotgan «Bulbuligo'yo» folklor-etnografik ansamblining dastlabki nomi ham «Changqo'biz» bo'lgan. SHo'rchi tumanidan Bobxonova Jorjin momo, Nurmatova Sofiya momo, Muzrabod tumanidan Nazira momo Ramazonova kabi changqo'biz ijrochilarining changqo'bizda ijro etgan nag'malari o'ziga xos sadolari bilan ajralib turadi. Ular ijro etadigan nag'malar o'ziga xos bo'lib, inson ichki hissiyatini ifodalovchi «Yorga salom», «Sevgi», «Yor kelur» yoki tabiat hodisalarini ifodalovchi «Shabboda», «Toshqin soy» kabi nomlar bilan ataladi.

Yor qalbiga yo'l ochgan,

Do'st ko'ngliga nur sochgan,

Bog'da turfa gul ochgan,

Sayra, mening changqo'bizim,

Kuyla, mening changqo'bizim.

Ushbu sairialarning muallifi Boysunda tug'ilib o'sgan va Qumqo'rg'on tumanida istiqomat qilgan Juma Abruylulov changqo'bizning yangi imkoniyatlarini ochgan mohir erkak sozandalardan biri edi. Changqo'biz chalgish sirlarini mukammal egallagan Juma Abruylulovning qo'lida oddiygina changqo'biz goh daryolarning shovullashini, goh shamolning guvillashini, goh qushlarning sayrashini va ba'zan so'z bilan ifodalash mumkin bo'lmagan ichki hissiyotlarni ifodalaydi.

Changqo'biz o'tmishda suyakdan, yog'ochdan tayyorlangan bo'lsa, hozirda bizda faqat metallardan tayyorlanmoqda. Uni turli hududlarda turli ko'rinish va hajmlarda tayyorlashadi. Surxondaryoning Boysun tumanida tayyorlanayotgan changqo'bizning

umumiy uzunligi 10-15 sm., eni taxminan 2 sm. atrofida. Undagi asosiy tovush egiluvchan po'latdan tayyorlangan «tib» qismida hosil qilinadi. Metall plastinka tilni tutib turuvchi metall korpusga qotiriladi. Tilning korpusga qotirilmagan tomoni erkin holda tebranib turishi lozim. Tilning tovush hosil qilinadigan - tebranib turuvchi bo'lagining uzunligi taxminan 7sm. atrofida. Tilning uchi 1 sm. atrofida qayrilgan bo'lishi lozim. Qayrilgan qismning tig'i barmoq bilan chalgish qulay bo'lishi uchun dumaloq shaklida o'rab qo'yiladi. Tilning eni taxminan 1,5-2,5 mm. bo'lib, barmoq bilan chalginadigan tomonga qarab korayib boradi. Tilning qalinligi 0,2 - 0,3 mm. atrofida bo'ladi. Tilni ushlab tu ruvchi qo'zg'almas qism go'yo ikkiga buklangan qalin metall simni eslatadi. Korpus til qotirtadigan joyida 2 sm. atrofida kengaytirilgan bo'lib oraliq 0,5 sm. dan ortiq bo'lmaydi. Ana shu oraliqda joylashgan til bilan ushlab turuvchi qo'zg'almas qism tomonlari orasidagi masofa (tilning har ikki tomonidan) 1m m. dan ortmaydi. Tilning qo'zg'almas qism tomonlari orasidagi masofa (tilning qotirilgan joyidan narigi tomoni ijrochi ushlab turishi uchun xizmat qiladi.

Ma'lumki, tabiatdagi har qanday tovush biror jismining tebranishidan hosil bo'ladi. Tebranish qanchalik tez bo'lsa, tovush shumchalik yuqori va baland bo'ladi va aksincha. Changqo'bizning tilini tebratganda deyarli hech narsa eshitilmay di. Uning tovushi kuchaytirilishi va boshqalarga eshittirishi uchun og'iz bo'shlig'i rezonator vazifasini bajaradi.

Changqo'bizni ijro etishda uning qo'zg'almas qismining uch tomoni yuqori va pastki tishlar o'tasiga shunday joylashtiriladiki, changqo'bizning tili ana shu holatda erkin tebranishi uchun hech qanday to'siq bo'lmastligi lozim. Yuqori va pastki lab changqo'bizning qo'zg'almas qismiga tegib turishi mumkin. Lekin tilning harakatiga to'sqinlik qilmasligi shart. Changqo'biz ijrosida og'iz bo'shlig'ini tez kengaytirish va toraytira bilish asosiy shartdir. Til yordamida ana shu holatni yuzaga keltirish orqali changqo'biz «tili»da hosil bo'lgan yagona tovushni o'zgartirish, kuchaytirish va ohanglar tuzish imkoniyati yuzaga keladi. Bundan tashqari, ijrochining ijro davomida chuqur nafas olishi va nafas chiqarishi tovush kuchini orttiradi. Changqo'bizda ijro etilgan ohanglar o'ziga xos bo'lib, ularni boshqa cholg'ularla chalgib ko'rish imkoniyatidan va nota holda yozib olish imkoniyatidan mahrum deb hisoblanib kelingan. Changqo'bizda olib borilgan tajribalardan shunday xulosaga keldikki, unida bpr necha oktava oralig'idagi har qanday kuyni chalgish imkoniyati bor ekan. Buning uchun ijro mahorati va og'iz bo'shlig'i orqali ma'lum tezlikda tovushni hosil qilish imkoniyati mavjud bo'lsa bas. Shuni unutmastlik kerakki, har qanchalik mahorat bplan ijro etilgan taqdirda ham changqo'bizda hosil qilinadigan birinchi tovush albatta o'z sadosini beradi va keyin og'iz bo'shlig'ida o'zgartirilgan har qanday tovush ana shu birinchi hosil qilingan tovushning hosilasi bo'lib qoladi. Shuning uchun changqo'bizchilar ansambli uchun cholg'u tanlashda bir xil sozga ega yoki ularning orasidagi interval tersiya, kvarta yoki kvinta bo'lishiga e'tibor berish zarur.

Changqo'biz bilan gapirish ham mumkin. Bu ancha murakkab ish bo'lsa-da, uddalasa bo'ladi. Changqo'bizda unli tovushlar juda oson hosil qilinadi, biroq undosh tovushlarni (ayniqsa lablangan undoshlarni) hosil qilish biroz murakkab.

Changqo'biz cholg'usidan ansambli tarkibida foydalanish uncha yaxshi natija bermaydi. Chunki changqo'bizda hosil qilinadigan tovush kuchi anchagina past bo'lib, jarangdor musiqiy cholg'ular hamohangligida eshitilmay qoladi.

Changqo'bizda yakka holda, changqo'bizchilar ansambli holda ijro etish uning ijrosini to'liq va sifatli eshittish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan bir qatorda do'mbira bilan birga, sibzig'a yoki sopol nay bilan birga chalginganda ham uning sadosini yaxshi eshittish mumkin. Hozircha changqo'bizdan folklor cholg'u ansambllarida, estrada ijrochiligidan

«lavh»(epizod) ijro etishda foydalanib kelinmoqda. Changqo'biz cholg'usining imkoniyatlari hali to'liq o'rganilmagan va bu yo'nalishda izlanishlar davom etishi lozim. Masalan, alohida tayyorlangan changqo'bizlar beradigan asosiy tovushning balandligi qaysi tovushga mos kelishini ustalar o'ylab ham ko'rmaydi va bir xil tovush hosil qiluvchi changqo'bizlar yaratishga harakat ham qilinmaydi. Bu esa juda murakkab vazifa emas. Changqo'biz «tili»ning uzunligi, eni va qalinligi bir xil bo'lgan changqo'bizlar bir xil asosiy tovush hosil qilishi mumkin. Tilning eni, bo'yi yoki uzunligini qisqartirish yoki uzaytirish orqali esa musiqa foydalaniladigan tovushlarga bemaol moslashtirish (sozlash) imkoniyati bor. Changqo'bizning barcha o'lehamlari ishlab chiqilgan va ma'lum tovushlarga sozlangan xillari hozirda Germaniyada mavjud. U yerdan olib kelingan changqo'bizlarning *re, sol, si, do* tovushlariga sozlangan turlari uchratildi. Metallardan tayyorlangan changqo'bizni qozoqlar - shinqo'biz, qirg'izlar - temir qo'biz, yevropa xalqlari - vargan deyishadi. Yog'ochdan tayyorlangan changqo'bizni qirg'izlar - og'och ovuz qo'biz deyishadi. Oltoy xalqlarida ushbu cholg'uning juda mohir ijrochilari mavjud.

Sibizg'a. Har bir musiqa cholg'usining sadosi insonlarda muayyan hissiyotni uyg'otish xususiyatiga ega. Misol uchun, ud cholg'usi salobat, ulug'vorlik, bostiqlik kabi hissiyotlarni hosil qilsa, surmay - tantanavorlik, bayramona kayfiyatni, sato - mungillik, g'aminglik hislarini uyg'otadi. Sibizg'a cholg'usining sadosi esa eshituvchida albatta tabiat, borliq, kenglikii esga soladi. Uni eshitgan tinglovchi ko'z o'ngida tog' u toshlar, cho'lu sahrolar, quru dalalar gavdalanganday bo'ladi. Ana shunday sehrli sadolar hosil qilish xususiyatiga ega bo'lgan sibizg'a juda qadimiy musiqlik cholg'ular sirasiga kiradi. Inson tomonidan yaratilgan eng sodda va inson ovozig'a yaqin sado beradigan sibizg'a ming yillar davomida oddiy xalq tomonidan yasaltib va chalib kelingan. Bu musiqlik cholg'u dashtabki ko'rinishiga va tuzilishiga nisbatan juda kam o'zgarishga uchragan. Folklor musiqlik cholg'ularining saqlanib qolishi va juda kam o'zgarishga uchrashining asosiy sababi ham ularning sodda tuzilishiga ega ekanliklari va oddiy odamlar tomonidan yasaltishi mumkinligida bo'lsa kerak. Sibizg'a cholg'usi g'arob qamish deb ataluvchi qalin devorli qamishdan yasaldi. Unda hosil qilinadigan tovush balandligini o'zgartirish uchun 3 yoki 4 ta teshik ochiladi. Ana shunday sibizg'ada kvarta, kvinta ba'zan seksta diapazoni oraliq'dagi kuylarni chalish imkoniyati bor. Ma'lumki, folklor qo'shiqlari ham katta diapazon talab etmaydi va mazkur qo'shiqlar kuylarini sibizg'ada ijro etish imkoniyati bor.

Sibizga cholg'usida tovush nafas orqali (puflash orqali) hosil qilinadi. Og'iz bo'shlig'idan kuch bilan yo'naltirilgan havo sibizg'aning tanasida ochilgan «tilchax» bilan korpus oraliq'i orqali o'tadi va tebranib turish xususiyatiga ega bo'lgan «tilchax»ni tebratadi va tovush hosil qiladi. Sifatli tovush hosil qilinishi «tilchax» bilan korpus oraliq'idagi tebranish masofasi va namlik darajasiga bog'liq. Shuning uchun sibizg'ani chalishga tayyorlashda uning orqa tomonidan puflanadi va buning natijasida «tilchax» biroz ko'tarilib ijro uchun tayyor bo'ladi. Havo kuchining o'zgarishi sibizg'ada hosil qilinadigan tovush kuchining va balandligining o'zgarishiga olib keladi. Kuchsiz havo «tilchax»ni tebrata olmasa, o'ta kuchli havo «tilchax»ning erkin harakatiga ta'sir qilib, uni korpusga yopishtirib qo'yishi mumkin. Sifatli hosil qilingan tovush ham havo kuchi orqali yarim tongacha va ba'zan undan ham ortiqroq o'zgartirilishi mumkin. Bu amaliyot ijrochining mahoratiga bog'liq bo'lib, diatonik tovush qatoriga ega bo'lgan mazkur cholg'uda kerakli tovushlarni nafas kuchi orqali hosil qilish imkonini yaratadi.

Professional musiqa mutaxassislari tomonidan o'ta sodda, deyarli o'yinchoq holda qabul qilingan sibizg'a xalq ichida mohir ijrochilariga ega bo'lgan. Cupxondaryoning Boysun tumanida istiqomat qilib, ushbu sodda musiqlik cholg'uda ajoyib, o'ziga xos musiqlik ohanglar yaratgan Nodir bobo va uning o'g'li Abdurashid bobolarning cholg'uni

ommalashtirishdagi xizmatlari kattadir. Bu kishilarning ijrochilik mahorati musiqa mutaxassislarning e'tiborini tortishi natijasida ushbu musiqlik cholg'uga e'tibor o'zgardir va ular ijroisdagi musiqlik lavhalar respublikamizning eng katta shodiyonalari: Mustaqillik va Navro'z unumxalq bayramlarini nishonlash tadbirlarini ham bezab kelinmoqda. Hozirgi kunda sibizg'a cholg'usida ijrochilik an'analari surxondaryolik Sayxon Xidiraliyev davom ettirib kelinmoqda.

Hozirda professional musiqa ijrochiligida qo'llanilayotgan qo'shraq va bulaman cholg'ularining paydo bo'lishiga sibizg'a cholg'usi asos bo'lgan. Bulaman cholg'usining tovush hosil qiluvchi «til» deb ataladigan qismi xuddi sibizg'a cholg'usining puflanadigan qismi bilan bir xil. Farq shundaki, bulamanda nisbatan ingichkaroq qamishdan foydalaniladi va tovush kuchaytiruvchi surmayimon (yog'ochdan yasalgan) qismga uzatiladi. Qo'shraq cholg'usi esa diametri biroz katta, 7 ta teshik ochilgan va 2 donasi birga qo'shilib chalinadigan sibizg'aning xuddi o'zidir. Sibizg'aning turli joylarda turli kishilar tomonidan yasaltishi hamma joyda bir xil o'lehamga amal qilinmasligiga olib keladi. Nodir bobo tomonidan tayyorlangan sibizg'aning o'lehamlari quyidagicha: qamish sirtqi diametri 7 millimetr, ichki diametri 4 millimetr bo'lib, uzunligi 12.5 santimetr. Demak, qamishning qalinligi 1.4 millimetr atrofida bo'ladi. Puflanadigan tomonidan til ochilgan joyigacha oraliq 7 millimetr, tilning uzunligi 3 sm, eni esa 6 millimetr. Puflanadigan tomonidan 6 sm. dan keyin 0.5 sm. oraliqda taxminan 7 millimetr uzunlik va 3.5 millimetr kenglikda 4 dona teshik ochilgan. Ushbu cholg'uning eng pastki tovushi 2 oktava do bo'lib, unda 2-oktava sol tovushigacha hosil qilish mumkin. Keyinchalik ana shu cholg'uning diapazonini kengaytirishga harakat qilindi. Buning uchun 4-teshik va til oraliq'ida yana bitta teshik ochdik va tovush diapazonini 2- oktavasi tovushigacha yetkazdik. Bizningcha, yaxshi qamish novdasidan foydalanilgan va teshiklar sonini orttirgan holda tovush diapazonini bir oktavaga yetkazish va hatto orttirish ham mumkin ekan.

Sibizg'a cholg'usining diapazonini pastki tomon kengaytirish ham, yuqori tomon kengaytirish ham biz kutgan natijalarga olib kelmadi. Diapazoni pastki tovushlar hisobiga kengaytirilgan changqo'bizning ovozi qo'shraqning bir donasida chalinganday hissiyotni uyg'otsa, yuqori tomon kengaytirilgan tovushlar inson qulog'iga yoqimsiz tovushlarni hosil qiladigan bo'lib chiqdi. Shuning uchun sibizg'aning haqiqiy ovozi biz ta'kidlagan birinchi oktava si tovushidan ikkinchi oktava si, uchunchi oktava do notalarigacha bo'lgani ma'qul ekan.

Hozirda sibizg'a cholg'usidan estrada qo'shiqchiligida, hatto orkestr ijrochiligida foydalanilmoqda. Cholg'uning xususiyatidan kelib chiqib, undan cho'zib ijro etiladigan lavhalarda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shullovuk (sopol nay). Asosiy to'rt unsurdan biri bo'lgan tuproqqa ikkinchi unsur - suv aralashirilganda hosil bo'lgan loydan shakli yasaladigan, keyin esa yana bir unsur - ohovda pishirilgan sopol nay o'ziga 4-unsur havoni tortganida (qabul qilganida) go'yo ushbu qadimiy cholg'u bizga asrlar sasini berganday bo'ladi. O'z satsosi bilan bizlarni ushbu zaminda yashab o'tgan ota-bobolarimiz bilan ruhan bog'laydi. Boshqacha aytganda, biz yashab turgan zaminimizda o'sadigan dov-daraxtlaru, buta-o'simliklar bilan hamohang bo'lib zaminimiz tuprog'i ham kuylash xususiyatiga ega.

Shipillak, hushlak, sopol nay nomlari bilan ataladigan sodda musiqlik cholg'u bizning nazarimizda diamli cholg'ularning eng qadimiyysi bo'lsa kerak. Mantiqan olib qaraganda, inson yog'ochga yaxshi ishlov berishi uchun unga tosh yoki metall asbob kerak bo'lgan. Bu qurollar ixtiro etilmagan davrda ham sopol nay singari cholg'ularni yasash mumkin bo'lgan. Sopol nayga o'xshash cholg'ularning tasvirlari Surxondaryodagi Dalvarzintepa qazilmalarida uchraydi. Oddiy loydan yasaltib, o'ta toblanishi natijasida so'pol holiga

kelirilgan sodda asboblari qatorida o'sha davrlarda sopol nay ham bo'lgan bo'lsa kerak. Mazkur cholg'uning turlicha ko'rinishdagi turlari respublikamizning turli joylarida uchraydi. Bolalar (qishloq joylarda) o'yinchoq'i sifatida bittagina tovush hosil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan sopol naylar qadimda juda keng tarqalgan. Hozirda juda kam uchraydigan mazkur cholg'u ba'zi viloyatlarda saqlanib qolgan.

Sopol nayda tovush hosil qilish hech qanday qiyinchiliksiz amalga oshiriladi, ya'ni puflanadigan tomonidan havo yo'naltirilsa, bas. Sopol nayda hosil qilinadigan tovush yogoch yoki bambukdan yasalgan naydan keskin farq qilmasa-da, o'ziga xos sadosi bilan ajralib turadi. Professional ijrochilikda qo'llaniladigan nay cholg'usida chalish mashhaqqatli mehnat, uquv va tajriba talab qiladi. Sopol nayda esa nafas kuchidan to'liq foydalanish (nay ijrosida ma'lum qismdagi havo to'liqni puflanadigan teshikni chetlab o'tadi) hisobiga oz muddatda natija ko'rsatish imkoniyati bor.

Surxondaryoda tayyorlangan sopol nayning o'lchamlari quyidagicha. Tashqi diametri 2.3 sm., ichki diametri 1.3 sm., devor qalinligi 0.5 sm. bo'lib, cholg'uning uzunligi 17 sm. ni tashkil etadi. Uning puflanadigan tomoni devorlari siqib, zichlab bektirilgan va o'sha joyining eni 3.2 sm. dir. Havo puflanishi uchun zichlab yopishtirilgan joyi o'rtasidan eni 5 mm., qalinligi 1 mm. lik teshik ochilgan. Sopol nayning ustki qismida 4 ta va pastki qismida barmoq bilan ochib yopiladigan 1 ta teshik mavjud. Teshiklar diametri 5 mm. dai bo'lib, ular orasidagi masofa 1.5 dan 1.8 sm. gacha oraliqni tashkil qiladi. Puflanadigan tomondan hisoblanganda, ustki qismdagi 1-teshik 7.5 sm. dan keyin. pastki teshik esa 5.3 sm. dan keyin ochilgan. Agar sopol nay o'lchamlari o'zgartirilib ustki teshiklar soni 6 taga yetkazilsa, unda 2 oktava va undan ortiq oraliqdagi kuylarni chalish imkoniyati tug'iladi. Bundan tashqari, sopol nay diametrimini o'rtirish yoki kamaytirish orqali nisbatan past yoki yuqori registrlil cholg'u turlarini ham hosil qilish mumkin. Sopol nayning turli ko'riinishdagi, tuxumsimon. hayvon va qushlar shaklidagi turlari kulollar, tandirchilar tomonidan tayyorlanmoqda.

Mazkur cholg'udan foydalanish masalasida hozirda e'tiborsizlik mavjud. Undan faqat «Boysun» va «Bulbuligo'yo» folklor-etnografik jamoalaridagina foydalanilmoqda.

G'ajir nay. Bu cholg'u ba'zi manbalarda *cho'pon nay* deb ham ataladi. Aslida, cho'ponlar ishlatadigan naylar suyakdan yoki qamishdan yasalib, ularning har ikkisi

ham cho'pon nay deb ataladi. G'ajir nayning nomi parranda nomi bilan bog'liqdir. Chunki bu nay g'ajir deb nomlanadigan cho'l burgutining qanot suyagidan yasaladi.

G'ajir - yirtqich qushlar qatoriga kiradi va aksariyat hollarda o'laksa bilan ovqatlanadi. Uning go'shti harom hisoblanadi va iste'mol qilinmaydi. Ko'rinishi katta bu qushning qanotlari yozilganda 3 metrgacha yetadi. Qanotlarni ushlab turuvchi markaziy suyagining diametri 2-2.5 santimetr, uzunligi esa 30-35 santimetr gacha bo'ladi.

Go'shti harom hisoblangan qushning suyagi etidan ajratib olingandan keyin botqoq joyga 40 kun davomida ko'mib qo'yiladi. Buni oddiy xalq tilida «chilla qilish» deb ataladi. 40 kun davomida balchiq ichida turgan suyakka yopishgan go'sht bo'laklari chirib, suyakdai ajralishi osonroq kechadi. Suyakning ikki tomoni ochilib, ichki tomoni ham tozalanaadi. G'ajimning qanot suyagi tabiatan uchburchaksimon va biroz bukliganroq tuzilishga ega. Yuza qism sifatida nisbatan silliqroq va kengroq bo'lgan tomon tanlanadi va shu tomondan 3 yoki 4 ta, orqa tomondan 1 dona teshik ochiladi. Orqa tarafda ochiladigan teshik puflanadigan tomonga yaqinroq, yuza tarafdagi teshiklar esa uzoqroq masofada bo'ladi.

G'ajir nayni yuqori tishlarning orasiga tirab, nayning yuqori qismini lab bilan o'rab olgan holda ichiga puflab tovush hosil qilinadi. G'ajir nayda tovush hosil qilish juda

murakkab bo'lib, ancha mashhaqqatli mehnat talab qiladi. Unda sodda va kichik diapazonga ega kuylarni ijro etish mumkin.

Biz yuqoridagi cho'pon naylar qatoriga kiritgan qamish nay ham g'ajir suyagi yo'g'onligidagi qamishdan yasaladi va xuddi g'ajir nay singari teshiklar ochiladi. Unda tovush hosil qilish uslubini ham g'ajir naynikidan farq qilmaydi.

Bulaman (balabon) surmaydan ko'ra birmuncha kichikroq, qattiq yog'och tanasidan, aksariyat hollarda tut va o'rik yog'ochidan ishlangan cholg'u bo'lib, tovush hosil qilinadigan qismi surmaynikidan farq qiladi. Bulamanda "nay pachoq" o'rniida sibzrg'asimon til ochilgan qamish bo'lagidan foydalaniladi. Bulaman tanasi surmayniki singari kengayib borgan bilan uning ichki tomondagi teshik o'zgarib qoldiriladi. Tashqi kengayish faqat tashqi ko'rinishning yaxshi bo'lishi uchun qilinsa kerak. Bulaman tilhasi uning tanasiga kiritilishida tanaga kirishi lozim bo'lgan bo'lagi ip bilan o'raladi. Bu til va tana orasidan havo o'tmasligini ta'minlaydi. Bulamanda ham kerakli tovushlarni hosil qilish uchun teshiklar ochilib, ulariitig 7 tasi ustki tomonda va 1 tasi pastki tomonda bo'ladi. Bulamaning tovush tembri (kuchi) surmaynikidan ancha pastroq bo'ladi. Shuning uchun bu cholg'udan cholg'u ansambllari va qo'shiq ijrochilariga jo'r bo'lishda foydalanish mumkin. Bu cholg'u hozirda

Qoraqalpog'iston va Xorazmdan boshqa hududlarda deyarli uchramaydi.

Surnay cholg'usi ham qadimiy tarixga ega. Bu cholg'u asosan tantanalar, bayramlar, sayillar, to'yalarda doyra, nog'ora, karnay cholg'ulari bilan birgalikda ishlatiladi. Surnayning tovushi juda kuchli bo'lganligidan asosan ochiq maydonlarda foydalaniladi. Surnay cholg'usida ijro etiladigan kuy yo'llari va ishlatilish o'rni jihatidan boshqa musiqa cholg'ularidan farq qiladi. Surnayni qo'llash doirasini shartli ravishda quyidagi yo'nalishlarga ajratish mumkin:

1. Surnay maqom yo'llari va maqomlarga yaqin bo'lgan yirik shakldagi kuylar. Masalan. Xorazmda ushbu yo'nalishdagi Nadramiddin, To'rg'ay, Sho ko'chdi, Xonchiqar va boshqa surnay yo'llari mavjud.

2. Raqs kuylari.

3. Dorboz yo'llari.

4. Masxaraboz yo'llari.

5. To'y marosim yo'llari.

Surnay, odatda, tut, yong'oq yoki o'rik yog'ochidan tayyorlanadi. Surnayning tarkibiy qismlari - tana, bachka, miyl. miyl cho'p, sadaf, naypachoq (Xorazmda dudik) deb yuritiladi. Asosiy tana 450-500 mm uzunlikdagi kengayib boruvchi quvur shaklida bo'ladi. Surnayning asosiy havo aylanadigan tanasida 8 ta havo chiqaruvchi teshigi mavjud. Bulardan yettitasi yuza tarafda, bittasi esa orqa tomonda bo'ladi. Bachka - tojikcha "bacha", ya'ni "bola" so'zidan olingan bo'lib, asosiy tananing ichidagi kichik tanachani anglatadi. Bachkaning asosiy vazifasi surnayni sozlash bo'lib, surnayning puflanadigan tomondan surnay tanasiga kiritiladi va mahkamlanadi. Bachka ishlanadigan yog'och surnay tanasidan yog'ochidan farq qilishi lozim. Tana tutdan yasalgan bo'lsa, bachka o'rik yog'ochidan yasaladi yoki aksincha. Bachkaning ichki qismi biroz konussimon shaklida bo'ladi. Bu unga kiritiladigan miyl mustahkam joylashishi uchun zarur bo'ladi. Miyl-moyil (mos, moslashish) so'zidan olingan bo'lib, surnayning muayyan bo'laklarini moslash uchun xizmat qiladi. Miyl ko'pincha kumush, jez va shunga o'xshash yumshoq, yopuq, tunukasimon metallardan yasaladi. Uning uzunligi odatda 82-85 mm bo'ladi. Surnayda tovush tebranishini hosil qiluvchi asosiy jism - naypachoq (trost)dir. Naypachoq bir yillik qamishning qovjiragan qismidan tayyorlanadi. Buning uchun qamishning yerdan bir qarich balandlikdagi qismi kesib olinadi, qishda qor ostida yumshab, saratonda qovjirab pishgan

qamish naypachoch yasash uchun yaraydi. Uning yo'g'onligi har bir ijrochining nafas quvvatiga qarab tanlanadi. Qamish ivitilib, ichidagi har xil pardalar yaxshilab tozalanadi. So'ngra miyl cho'piga kiydiriladi va ip bilan bog'lab qo'yiladi. Naypachoch kerakli shaklni olgandan so'ng miyl cho'pidan chiqarib olinadi va quritiladi.

Karnay - o'zbek damli musiqiy cholg'ularining eng katta va eng kuchli tovush tembriga ega bo'lgan turidir. O'z nomi bilan karlar ham eshitishi mumkin bo'lgan nay desa ham bo'ladi. Uning hajmi juda kattaligi sababli og'ir bo'lmashligi uchun, yupqa mis tunukadan tayyorlanadi va alohida 3 ta bo'lakni bir-biriga kiydirish orqali yig'iladigan ko'rinshda tayyorlanadi. Bu cholg'udan surmay, doyra, nog'ora bilan birgalikda ochiq joylarda ijro etish mumkin bo'lgan ansambllarda foydalaniladi. Qadimda karnaylardan harbiy yurishlarda ham keng foydalanilgan. Karnaydan xalq cholg'ulari orkestrida ham muayyan asarning kerakli joylarida eizodlik bo'laklar ijrosi uchun foydalaniladi. I

Qadimda karnaylarning to'g'ri va tirsakli turlari mavjud bo'lgan. Hozirda karnaylar faqat to'g'ri qilib yasalmoqda. Unda tovush hosil qilish uchun mundshuk - karnayning puflanadigan maxsus qalaylanadigan moslama zarur bo'ladi yoki yevropa mis damli cholg'ulari - truba, bariton kabi cholg'ularning mundshuklaridan foydalaniladi.

Do'mbira cholg'usi professional cholg'u ijrochiligida qo'llanilmas-da, xalqimizga tanish musiqa asbobidir. Baxshilarning eng yaqin hamrohi, tinglovchi bilan muloqotda eng yaqin yordamchisi bo'lgan do'mbira juda qadimiy cholg'ulardan hisoblanadi. Uning zaminiyadagi eng qadimiy torli cholg'ulardan biri ekanligini tarixiy ma'lumotlar va qazilma boyliklardagi tasvirlar isbotlaydi. Hozirda bizda qo'llanilayotgan do'mbiralar juda kam o'zgarishga uchragan. Dastlabki davrlarda ichakdan, keyinchalik ipakdan eshingan torlar hozirda plastik iplar bilan almashirilgan, xolos.

Do'mbira cholg'usi hozirda juda keng tarqalgan dutor cholg'usi yaratilishiga sabab bo'lgan, degan taxminlar bor. Bundan tashqari, qozoq xalqida ham do'mbira cholg'usi eng asosiy musiqiy cholg'ulardan biri hisoblanadi. Qozoq do'mbirasi zamon ta'sirida o'zgartirilib, qovurg'ali kosaxona va bog'lama pardalarga ega bo'lgan cholg'udir. Bizdagi ko'rinshidagi cholg'ular ham ularda saqlanib qolgan. Faqat, uni qozoqlar «chertar» deb ataydilar.

Rus xalq cholg'usi "domra" ham nomlanishi bilan bizning do'mbiramizga qarindoshligini isbotlaydi. Tarixdan shu narsa ma'lumki, XV asrdan XIX asr o'rtalarigacha davrdagi rus hukmdorlari maxsus farmonlar bilan «skomoroxlar» nomini olgan sayoq sozandalar bilan kurashib kelganlar. Cherkov ayonlari «shayton cholg'u»lari deb atagan va ularning ta'birida insonlarni dindan chalg'itgan skomoroxlarning musiqiy cholg'ulari va o'zlar doimiy ta'qibda bo'lgan. Bir necha marta ularga nisbatan ochiq urush e'lon qilimb, maxsus tadbirlar uyushtirilgan. Rus musiqiy tadqiqotchilarining o'zlar e'tirof etishicha, hozirda eng ommabop bo'lgan balalayka cholg'usi ham ta'qibchilarni chalg'itish maqsadida ko'rinishi o'zgartirilgan domra cholg'usining turidir. XIX asr oxirida rus xalq cholg'ulariga qayta umr bag'ishlagan V. V. Andreyev avval balalayka cholg'usini takomillashtiradi. Unga yordam bergan ustalardan biri tasodifan chordoqda (tom ustida) ta'qiblardan yashirilgan eski do'mbira cholg'usini topib oladi va uni takomillashirib hozirgi ko'rinishga olib keladi. Ma'lum bo'lishicha, qadimiy rus do'mbrasida ham pardalar bo'lmagan va undagi ijro mizrob bilan emas, o'ng qo'l barmoqlarida bajarilgan. Hozirgacha xuddi shunday ijro uslubini saqlaytib qolgan qirg'izlarning do'mbrasimon cholg'usi - qo'miz deb ataladi. Uning kosxonasi noksimonroq shaklda tayyorlanib, torlarining soni 3 tani tashkil etadi.

Agar do'mbira dutor cholg'usining asosini tashkil etgan bo'lsa, dutor ta'sirida hozirgi kavkaz xalqlari va turklarda mashhur bo'lgai «soz» cholg'usi dunyoga kelgan, deb taxmin qilish mumkin. Chunki dutorning metall torlar tortilgan qoraqalpoch dutori va turkman

dutorlari keyinchalik g'arbga tomon siljib, metall torlarda mizrob vositasida tovush hosil qilish uslubidagi «soz»larning dunyoga kelishiga sabab bo'lgan, deyinshga asos bor. Qolaversa, kavkaz xalqlarida (Dog'istonda) foydalaniladigan «soz» o'z ko'rinishi bilan dutor cholg'usining kattalashirilgan nusxasiga o'xshab ketadi.

Do'mbira cholg'usining muhim xususiyatlaridan biri shundaki, qo'shiq ijrochisi usulni doimo sezib turishi uchun aksariyat hollarda talab etiladigan urma cholg'u (doyra) ishrokiyan xalos qila oladi. Boshqacha aytganda, do'mbirada kuyning o'zini chalish qatorida usulni ham qo'shib ijro etib ketaverish imkoniyati bor.

Do'mbira asosan o'rik (zardoli), pista, archa, tut, tol, olmur (nok) daraxtlarining yog'ochidan tayyorlanadi. Do'mbiraning aniq o'lchamlari yo'q. U aksariyat hollarda mahalliy ustalar tomonidan tayyorlanligi, bundan tashqari buyurtma beruvchining bo'yi-besbi, isragi inobatga olingani munosabati bilan turli kattalikda tayyorlanib kelinadi. Xalq baxshilari Shomurod Tog'ayev, Shoberdi Boltayev va Surxondaryolik do'mbira ustasi Shafoat boboning fikricha eng sadosi zo'r do'mbiralar olmur (nok) daraxtining yog'ochidan bo'lar ekan. Hozirda do'mbiraga tortiladigan plastik torlar o'mida avval eчки ichagidan eshingan tor ishlatilgan. Yoshi ulug' do'mbira ijrochilari va baxshilar bergan ma'lumotlarga ko'ra qadimda eng yaxshi tor sifatida «chumchuoq pay» torlar ishlatilgan va ular haqiqatan ham chumchuqning oyog'idagi pay qismidan eshingan. Hozirda bunday torlarni eshib tayyorlash texnologiyasi unutilgan.

Do'mbira cholg'usi boshqa folklor cholg'ulariga nisbatan ko'proq o'rganilgan. Musiqashunos olim F. Karomatovning 1962 yilda nashr etilgan «Do'mbira musiqasi» kitobi to'liq mazkur cholg'uga bag'ishlangan.

Dalvariztepada arxeologik qazilmalar natijasida topilgan terrakotta, friz va boshqa topilmalarda ud cholg'usining tasvirlari saqlanib qolganligi bu musi ijrochilarning qadimiy ekanligidan dalolat beradi. Ud cholg'usi ming yillar davomida musiqaning shohi va eng mukammali hisoblanib kelingan. Ud tovushining yoqimliligi va inson ovozigacha yaqinligi har doim eshituvchilarni lol qoldirgan. Taraqqiyot davomida ud eng kam o'zgarishga uchragan musiqiy cholg'ulardan biridir. O'z ko'rinishini saqlab qolish bilan birga ud boshqa musiqiy cholg'ularning duvyoga kelishiga ham sabab bo'lgan. Mandolina va gitara musiqiy cholg'ulari ud cholg'usidan kelib chiqqanligini tasdiqlovchi dalillar bor. XX asrning boshidan to 80-yillargacha bo'lgan davrda biroq unutila boshlagan ud cholg'usi hozirda cholg'u ijrochiligida yana qo'llana boshladi. Uning nomlanishiga kelsak, uning asli eski nomi *barbat* bo'lib, «o'rdak to'shi» ma'nosini beradi. Arab istilosidan keyin arablar tomonidan boshqa cholg'ular qatori o'zlashirilgan ud cholg'usi dunyoning boshqa hududlariga tarqalish qatorida o'z nomini ham o'zgartirgan va "ud" deb atala boshlagan. Arabiston yarim orolida o'sadigan va tutatilganda yoqimli hid taratadigan daraxt ham ud deb ataladi.

Nog'ora - ikkita sopol tuvakka teri tortilgan ko'rinshda bo'ladi. Biri jarangdor, ikkinchisi bo'g'iq tovush chiqaradigan tuvaklarning teri tortilgan qismiga maxsus cho'plar bilal urish natijasida musiqiy usul hosil qilinadi. Nog'ora sadosining juda kuchliiigi asosan ochiq havoda ijro etiladigan "Karnay-sumay" ansambllarida foydalanishni taqozo etadi. Keyingi vaqtda milliy cholg'u ansambllari va maqom ansambllarida ham nog'oradan foydalanish kuzatilmogda. O'zbek xalq cholg'u orkestrida ham nog'oradan urumli foydalanish mumkin.

Qayroq - eng qadimiy cholg'ulardan biri hisoblanadi. Chunki bu cholg'uning tabiatning o'zida mavjudligi, qolaversa, urma zarbli cholg'ularning insonlar hayotidagi eng birinchi sun'iy cholg'ulari ekanligi buni isbotlaydi. Insoniyatning ibtidoiy davrda tabiatdagi ne'matlarni pishirmasdan, qayday bo'lsa shunday iste'mol qilganligi va o'z navbatida qurol

sifatida ham qo'l ostidagi jismlardan foydalanilgimi bilamiz. Xuddi shu jarayonning tabiiy davomi sifatida musiqiy ritm hosil qilishda foydalanilgan ilk moslamalarning biri sifatida duyogacha kelgan qayroq toshlar haligacha milliy cholg'uchilikda foydalanib kelinyotgani ajablanarlidir. Qayroq odatda ikki juft silliq toshdan iborat bo'ladi va har ikki qo'lga ikkitadan ushlab ijro etiladi.

Qo'lning to'rt barmog'i (ko'rsatkich, o'rta, nomisiz va jinjiloq) bitta toshni tutsa, ikkinchi toshni bosh barmoq boshqaradi va toshlarning bir-biriga urilishi natijasida hosil qilinadigan ritmning tezligi va kuchi mazkur barmoqlarning naqadar samarali ishlashiga bog'liq bo'ladi. Qayroq toshlarni har ikki qo'lga bittadan tutib, ularning boshqalarining o'rnida taxminan qayroqtoshlar kattaligidagi yassi metallardan foydalanish ham kuzatiladi. Bu holatda metallni barmoqlar bilan ushlab turish va boshqarish biroz osonlik tug'diradi. Qayroq hozirda xorazmcha kuylarda ko'proq qo'llaniladi. Xorazmda raqs davomida erkak va ayol raqqoslar tomonidan ham qo'llaniladigan holatlar uchraydi.

Safoil ham urma zarbli cholg'ular guruhiga kiradi. U ikkita 35-40 santimetrli kaltakka qotirilgan aylana metall simga kiydirilgan shildiroqlardan iborat bo'ladi. Harakat davomida aylana metall simlar va ularga kiydirilgan shildiroqlar erkin harakat qila olishi va bir-biriga urilishi natijasida o'ziga xos tovush hosil qilishi lozim. Safoildagi ijro uni silkitish orqali va uni tananing ma'lum qismiga (aksariyat hollarda yelkaga) urish uslubida bajariladi. Bu cholg'u ham qayroq singari cholg'uchi tomonidan ham, raqqos tomonidan ham ishlatilishi mumkin. Hozirda juda kam ishlatilyotgan bu cholg'udan asosan uyg'urcha usuldagi asarlarda foydalanilgan.

Qoshiq – inson tomonidan ixtiro qilingan mehnat qurollari ichida albatta tayovqdan keyin turadi. Chunki ibtidoiy odamlar yerdagi ildizlarni qazib olish uchun avvalo tayovqni kashf etishi lozim edi. Tabiatdagi ne'matlarni pishirishni o'rgangan odam endi qo'li kuymasdan ovqatni og'ziga olib borishi uchun qoshiq ixtiro etilgan. Tayovq ham, qoshiq ham bir-biriga urilishi natijasida hosil qilinadigan tovushdan ritmlarni tuzishda foydalanilgani aniq. Qoshiqning shu sifatida foydalanilishi natijasida keyinchalik ushbu kastanyeti singari maxsus cholg'ular ixtiro etilganligi, qolaversa rus tilidagi "kovshik", "kovsh" (suv ichiladigan katta qoshiq, shuningdek, ekskavatorning tuproq oladigan moslamasi) atamasi qoshiq so'zining hostilasi ekanligi 1930 yilda V.Belyayev tomonidan yaratilgan "O'zbekiston musiqqa cholg'ulari" kitobida keltirilgan. Musiqiy ijroda yuqorida ko'rsatilgan maxsus qoshiqlardan va quyida tasvirlangan - ovqat yeyishda ishlatiladigan yog'och qoshiqlardan foydalaniladi. Qoshiq ijrosida ham qayroqdagi singari har ikki qo'lga bir juftidan qoshiq ushlanadi va ularning bir-biriga urilishi natijasida kerakli ritm hosil qilinadi.

Qo'biz – kamoni cholg'ularning eng qadimiysi yoki qadimiyaridan biri hisoblanadi. Qo'bizsimon cholg'ular xitoyliklarda ("xu kin"), mo'g'ullarda ("xu r") uchraydi. Qo'bizning kashf etilishi ba'zi manbalarda afsonaviy Qo'rqut nomi bilan bog'lanadi. Kim tomonidan kashf etilishidan qat'i nazar g'arb tadqiqotchilari skripka va unga o'xshash kamoni cholg'ularning ibtidosini sharhdon izlash kerakligini va bu cholg'u qo'biz bo'lishi haqiqatga yaqinligini e'tirof etishgan. Qo'biz hozirda qozoq va qirg'izlarda juda keng foydalaniladi. Qoraqalpog' jirovlari ham faqat shu cholg'u jo'rligida o'z dostonlarini ham, termalarini ham aytishadi. Qo'bizning ikkita tori ham, chertiladigan tori ham o'zining yotidan tayyorlanadi. Uning kosaxonasining faqat bir qismiga teri qoplanadi va shu joyga uning harragi o'rnatiladi. Kosaxonaning qolgan qismi ochiq qoladi. Ijroda uning har ikki tori birgalikda ishtirok etadi. Cholg'u ijrosida obertonlar ishtiroki juda faol bo'ladi va uning ijrosida birdaniga bir nechta tovush hosil bo'layotgandek taassurot tug'iladi. Qo'biz qirg'izlarda "qil qiyaq" deyiladi. Qozoq milliy cholg'ular orkestrining yetakchi kamoni cholg'usi bo'lgan qo'biz ijrochiligi qozoqlarda juda yuqori saviyaga yetgan. O'zbek milliy cholg'ularida ham

qo'bizning takomillashtirilgan, biroq violonchelga yaqin ko'rinishga keltirilgan "qo'biz bas" va kontrabas o'rnida ishlatiladigan "qo'biz kontrobass" lar ishlatiladi.

G. Ro'ziyeva,
tadqiqotchi

OMMAMVIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISHDA FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOALARI DASTURLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

Ommaviy tadbirlarni tashkil etishda madaniyat muassasalarining o'rni muhim ahamiyatga ega, chunki folklor san'ati aholi bo'sh vaqtini samarali tashkil etishda asosiy vositalardan biri. Negaki, folklor san'ati – nafosat chechaklarini o'zida jamlagan ma'naviy xazina sifatida saqlanib, avlodlardan avlodga o'tib kelmoqda.

Ommaviy bayramlar bugungi kun yoshlarining ma'naviy barkamollikka erishuvida muhimdir. Ommaviy tadbirlarni tashkil etishda folklor san'atining o'z o'rni bor. Ayniqsa, folklor-etnografik jamoalari dasturlaridagi milliy marosim, an'ana va qadriyatlar o'tkazilayotgan tadbirning mazmun-mohiyatini yoritib beradi. Ommaviy tadbirlarni o'tkazishning mavjud ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni mustahkamlashdagi o'rni bemihoya kattadir.

Milliy istiqlol g'oyalarni keng xalq ommasiga singdirish, ayniqsa yoshlarda yuksak milliy tushunchalarini tarbiyalashda ommaviy bayramlarning tug'an o'rni beqiyosdir. Xalq zakosi ilar yaratilgan bayramlar o'zida bir nechta nomoddiy madaniy meros namunalari aks ettiruvchi ma'naviy ko'zgudir. Chunki ommaviy tomoshalar ijtimoiy hayotda bo'layotgan turfa xil voqealarni badiiy tarzda aks ettiradi. Ommaviy tomoshalar insoniyat yaratgan eng yaxshi xalq an'analarni saqlaydi, rivojlantiradi, targ'ib qiladi. Nomoddiy madaniy meros yo'nalishlaridan biri bo'lmish folklor ijrochilik san'ati sahna bilan bog'liq bo'lgan barcha ijro namunalarni qamrab oladi. Folklor-etnografik jamoalari ijrochiligidan foydalanish ommaviy bayram va tomoshalarning nufuzini oshiradi. Bu ijrolar o'z o'rnida nomoddiy madaniy meros sifatida baholalanadi. Bayram va tomoshaning ta'sirchanligi, mavzu va g'oyaning keng hamda aniq yoritilishida asosan folklor-etnografik jamoalarning o'z o'rni bor.

Aynan xalq ommasining harakati tomoshalarining mazmun va mohiyati folklor-etnografik jamoalari dasturi va ijrosida talqin etiladi. Shuning uchun tadbirni tashkil etish jarayonida rejissyorning o'z o'rni bor. Chunki ommaviy tadbirlarni uyushtirishda bayramda qatnashayotgan tomoshabin uchun teatrlashtirilgan tadbirning xatti-harakatini, asosiy mavzusi va g'oyasini ochib berishi zarur. Rejissyor folklor-etnografik jamoalar ijrosidan to'g'ri va xolisona foydalanishi lozim. Bayramdagi ommaviy teatrlashtirilgan harakat tadbirning g'oyaviy salohiyatini oshiradi. Bayramning asosiy qismi bo'lgan teatrlashtirilgan tadbirida mavzu nuqtai nazaridan yondashish rejissyor bilim va iqtidoriga bog'liq.

Mustaqillik sharofati tufayli xalq ommaviy bayramlarida folklor-etnografik jamoalari ijrochiligining mavqei nihoyatda kengayib, xalqchilligi kuchaydi. Shuni aytish lozimki, ommaviy xalq bayramlarining folklor janrlari ijrochilik san'ati namunalari barcha turlarini qamrab oldi. Ommaviy bayramlar milliy dasturidan folklor san'atining barcha sara asarlari, ya'ni qadimiy qo'shiqlar, gulyoru-alyorlar, latifa va loflar, askiya va dostonlar ijrochiligi namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, professional san'atkorlar bilan bir sahnaida ijodiy bahslashish imkoniga ega bo'lgan ko'plab folklor-etnografik jamoalarning chiqishlari bayramning badiiy nufuzini oshirmoqda. Ommaviy tadbirlarda folklor-etnografik

jamoalaridagi qo'shiq, kuy, raqslarning ijrosi yangrab, tomoshabinlarga ma'naviy zavq bag'ishlamoqda.

Istiqloq sharoifati tufayli xalq ommaviy bayramlarining badiiy mazmuni va talqiniy darajasiga e'tibor kuchaytirilmoqda. Bu hol bo'lajak ommaviy xalq bayramlarini rang-barang yangi shakllarda namoyish qilish imkonini yaratadi.

Hozirda esa uning turfa xil zamonaviy usullari, texnika vositalari orqali ijro etish shakllari ham ommalashib bormoqda.

Hayot doimiy rivojlanishda bo'lganidek, folklor-etnografik jamoalari ijrochiligi ham rivojlanmoqda. Ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalarda xilma-xil dasturlar, hududiy ijro jihatlari namoyon bo'lib, tomoshabinlarda xalq merosiga bo'lgan qiziqishni orttirmoqda.

Folklor-etnografik jamoalari ommaviy tomoshalardagi ko'rinishlari tadbir qatnashchilarini g'oyaviy-ma'naviy jihatdan tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Ommaviy ko'rinishda ishtirok etadigan folklor-etnografik jamoalari tomoshalarda badiiy ijromi ishlatilishida o'ziga xos mahorat maktabini o'taydi. Chunki badiiy ijro tomoshabin tomonidan yengil qabul qilinib, ularning ongida chuqur iz qoldiradi.

Badiiy ijro inson tafakkurining rivojiga, ayniqsa, yoshlar ma'naviy tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ommaviy tadbirlarda folklor-etnografik jamoalarining badiiy ijrosi ma'naviy xususiyatlari bilan bugungi barkamol avlod tarbiyasida ahamiyatlidir.

Folklor san'ati arboblari, folklorshunos olimlar, folklor ijrochilari va to'plovchilari bilan uchrashuvlar uyushtirish soha mutaxassislarining bilimini oshiradi. Folklorshunos olimlar tomonidan mavzuga oid ma'ruzalar o'qilishi, ijodiy anjumanlar uyushtirilishi tadbir salohiyatini yanada oshiradi. Ayniqsa, xalq qo'shiqlari ijrochilari va folklor ish tajribalaridan foydalanish usuli sohani rivojlantirishda muhim manba bo'lib hisoblanadi.

Folklor jamoalarining o'zbek xalqi hayotidagi muhim tarixiy voqealarga, shonli sanalar, jumladan, Navro'z va Mustaqillik bayramlariga bag'ishlangan ommaviy-madaniy tadbirlardagi ishtiroki tomoshabinlarga badiiy zavq bag'ishlaydi. Chunonchi, qadimiy urf-odatlar, marosimlar, xalq ijodi namunalari, hosil bayramlari va boshqa ommaviy tadbirlarda folklor ansambllarning qatnashuvi muhim vositadir.

Folklor san'ati namunalaridan keng foydalangan holda ommaviy teatrlashtirilgan tomoshalarni uyushtirishdan asosiy maqsad unutilayotgan ajodlar merosini tiklash va yoshlar qalb-shuuriga singdirishdan iborat.

Ommaviy tadbirlarni tashkil etishda mavzuga oid senariy ishlab chiqish asosiy vazifalardan biridir. Ayniqsa, ochiq osmon ostidagi tarixiy me'morchilik, etnografik muzeylar, madaniyat va istirohat bog'lari sharoitida teatrlashtirilgan ommaviy tomoshalarning tashkil etilishi tadbir mohiyatini oshiradi. Yoshlarni milliy an'analarda tarbiyalashda folklor jamoalarining ommaviy bayramlardagi ishtiroki ahamiyatlidir. Shu sababli ularni tashkil etishning shakli va mezonlarini ishlab chiqish, o'tkazish ma'naviy-tarbiyaviy jihatdan muhimdir.

Ommaviy bayramlarda baynalminal xalq urf-odatlari va marosimlaridan foydalanishda ham folklor-etnografik ansambllar dasturining zamonaviy usullarini o'rganish va amaliy jihatdan tatbiq etish zarur. Tadbirlarni tashkil etishda, avvalo, ommaviy bayramlarning tashkiliy-ijodiy vazifalarini belgilash va tahlil etish maqsadga muvofiqdir.

Tadbirni tashkil etishda folklorning sof milliy janrlari namunalaridan, ijro etuvchi baxshi, oqinlar faoliyatidan folklor qo'shig'ini guruhli va yakka tartibda ijro etuvchilarning tajribasidan foydalanish ijobiy samara beradi. Ayniqsa, askiya, rivoyat, katta ashula, xalq e'taklari namunalaridan, folklor raqsi, tomosha san'ati, og'zaki dramalar namunalaridan foydalangan holda dastur yaratish muhimdir.

Folklor jamoalari va ayrim ijrochilarning san'atiga baho berishning qonuniyatlari va asosiy tamoyillarini, nizomlarini ishlab chiqib, ularni vaqtili matbuotda targ'ibetish masalalariga ham ahamiyat qaratish lozim.

Folklori targ'ib qilishning zamonaviy usullari quyidagicha:

- folklor san'atini targ'ib qilish bilan bog'liq amaliy ishlarining asosiy vositalarini belgilash;
- O'zbekistonda yashovchi xalqlarning badiiy ijodiyotini targ'ib qilishda madaniyat muassasalari, vaqtili matbuot, radio va televideniye faoliyatining mushtarakligini ta'minlash;
- televideniye va radioda folklor san'ati bo'yicha ko'rik-bellashuv, festivallar, badiiy jamoalarning chiqishlari, xalq ijrochilari haqida turkum eshittirish, ko'rsatuvlarni tashkil etish va o'tkazish;
- baynalminal markazlardagi tadbirlarda kasb-hunar kollejlari talabalari ishtirokini ta'minlash;
- oliy o'quv yurtlari va kasb-hunar kollejlarda mavjud bo'lgan folklor-etnografik jamoalarining "Barhayot an'analari" mavzuidagi ko'rik-bellashuvlarini tashkil etish;
- folklor-etnografik jamoalari rahbarlariga chuqur ta'lim berishning uslubiy tamoyillari va asosiy yo'nalishlarni ishlab chiqish;
- folklor jamoalari rahbarlari malakasini oshirishning asosiy shakllarini ko'rsatish;
- mavzuga oid kurs ishlari va seminarlar tashkil etish;
- ilg'or tajribali ansambllarning ijro jarayonini o'rganish;
- doimiy ishlaydigan ilmiy-ijodiy maslahatxonalar va ularning bo'limlarini tashkil etish;

- yetakchi havaskorlik jamoalaridan tajriba o'rganish;
- "xalq ansambli" unvoniga sazovor bo'lgan folklor jamoalarining ijro usullarini o'rganish;

ilmiy uslubiyot markazlaridagi folklor san'ati bilan bog'liq ijodiy ustaxonalarni tashkil etish usullari va ularning faoliyatini shakllantirish;

- folklor asarlari to'plovchilarni havaskorlik uyushmalari va jamoalarini tashkil etish mezonlari, ularning vazifalari, yo'nalishlari va ish uslublarini shakllantirish;
- ilmiy uslubiyot markazlari, madaniyat uylari, etnografiya va o'lkashunoslik muzeylari, madaniyat va istirohat bog'larida tayanch tajriba folklor jamoalarini tashkil etish;
- folklor teatri san'ati namoyandalarning xalq ijodiyoti merosini har tomonlama o'rganish va sahnada gavdalandirish vositalari.

Ommaviy tadbirlarni targ'ib etishda zamonaviy uslublardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. "Folklor-etnografik jamoalari uslubiyoti" fanini o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy uslublari, pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fanga oid ma'ruza, amaliy va seminar mashg'ulotlarida kompyuter texnologiyalari, DVD vositalari yordamida taqdimot etish texnik usullardan foydalanish darsning nufuzini oshirib, samarali natijalar beradi. Bizningcha, talabalarimiz malakaviy bilimni takomillashtirib, soha salohiyatini mustahkamlashda quyidagi uslublarga rioya qilish kerak:

- xalq og'zaki ijodini o'rganishga oid uslubiy tavsiyano'ma, qo'llanmalar yozish;
- folklor san'atini yanada chuqurroq o'rganish maqsadida joylarda folklor-etnografik ekspeditsiyalarni tuzish;
- ekspeditsiya chog'ida to'plangan matnlar va materiallarni tahlil etish va nashrga tayyorlash;

- an'ana, marosim va udumlarining avlodlar-avlodga o'tib kelishidagi merosiylik va ayrim boshqa muammolarni tadqiq qilish;
- joylarda xalq og'zaki ijodini o'rganishni kuchaytirish va folklor-etnografik ansambllarini tashkil etishni o'rganib chiqish;
- folklor-etnografik jamoalarni tuzishda tajribalarni muvofiqlashtirish;
- folklor asarlarini sahnalashtirishda qiyosiy yondashuv mezonlarini o'rganib chiqish;
- sahna bezaklari bilan bog'liq marosimlarni ijro etishda xalq amaliy san'ati va boy etnografik manbalardan keng foydalanish;
- sahna asarlarini yaratishda hunarmandchilik, kashtachilik, kandakorlik, zargarlik, zardo'zlik san'atidan foydalanish;
- folklor asarlarini sahnalashtirishda lokal, lingvistik xususiyatlarga e'tibor berish;
- madaniyat va isirohat bog'larida bo'lib o'tadigan xalq sayillarida folklor jamoalarining o'ziga xos chiqishlarini tashkil etish;
- milliy va ommaviy bayramlarda folklor san'atining sahnaviy ko'rinishlarini tashkil etish;
- mazkur bayramlarda folklor san'atining nodir namunalardan foydalanish.

Umuman olganda, ommaviy bayramlar avlodlar-avlodga o'tib, sayqallangan holda bizning kumimizgacha yetib keldi. Ayniqsa, folklor-etnografik jamoalari badiiy ijrochiligining ommaviy bayramlardagi ijrosi tadbir salohiyatini yanada oshiradi. Xalq ma'naviy merosi sanalmish ommaviy bayramlar folklor ijrochiligi bilan o'z salohiyatini yanada oshiradi. Ulardagi har bir ijro xalqimizni, ayniqsa, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim vositadir. Bugungi sharoitda bayramlarning nufuzini oshirish uchun qadimiy an'analarni, udum va marosimlarimizdan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Bu ma'naviy boylikni ko'z qorachig'idey saqlab, kelgusi avlodga to'laigicha yetkazish har bir mutaxassisning, ijrochining mas'uliyatli burchi hisoblanadi.

Surxondaryo viloyatining shimoliy-sharqiy hududidagi Boysun tog' tizmasining yonbag'rida joylashgan Boysun tumani respublikamizning qadimiy madaniyat o'choqlaridan biri ekanligi arxeologik va yozma tarixiy ma'lumotlar bilan tasdiqlangan. Boysun tumanida 94 000 nafardan ortiq aholi yashaydi. Tuman aholisining 58% o'zbek, 42% tojik millatiga mansub.

Boysun hududi qadimiy Ipak yo'lining strategik nuqtalaridan biri bo'lgan. Savdo yo'lida joylashgan va bo'xona xizmatini o'tagan. Tarixda «Temur darvoza» deb nom olgan Darband qishlog'i birgina Baqriya mamlakatini Movoraummahr bilan emas, balki shimoliy mamlakatlarni Hindiston bilan bog'lab turgan katta karvon yo'llaridan biri bo'lgan. Tabiiyki, madaniy aloqalarning chorrhasida joylashgani uchun bu hududda yashagan aholining madaniy va ma'naviy salohiyati baland bo'lgan.

Qadimiy Boysun yashagan xalqlarning dimiy e'tiqodlari har xil bo'lgan. Bu hududda otashparastlik, zardushtiylik, shomoniik aqidalari uyg'unlashgan holda yashagan. Bu aqidalarning qadimiy xalq og'zaki ijodiyotiga ta'siri juda katta bo'lgan. Tog'lik hududda joylashgan Boysun tumanida yashovchi aholi orasida qadimiy qo'shiqlar, raqsalar va hududga xos udumlar saqlanib qolishining asosiy sabablaridan biri shu desak xato qilmaymiz.

Boysun qadimdan o'zining san'ati bilan mashhur bo'lib kelgan. Tumanda san'atning ota merosligi, davomiyligi hozirgacha uzilmagan va «Boysun» folklor-etnografik xalq ansambli buning tirik misolidir. 1929 yilda Boysun tumanidagi san'atkorlar uyushib, respublikamizda birinchilar qatorida «Ko'k ko'yakchilar» nomli xalq teatri tashkil etganlar. Bu teatr ikkinchi jahon urushi boshlangunga qadar faoliyat ko'rsatgan. Ikkinchi jahon

urushi tugagandan keyin, teatrning urushdan omon qaytgan xodimlari Boysun tumani madaniyat uyi qoshida badiiy havaskorlik to'garagi tashkil qilganlar.

1961-yilda tuman madaniyat uyi qoshidagi badiiy havaskorlar to'garagi zamirida ashula va raqs ansambli tuzilib, O'zbekiston xalq yozuvchisi Shukur Xolmirzayev va mashhur kinorejissor Uchqun Nazarovning taklifi bilan unga «Shalola» deb nom berishgan.

«Shalola» ansambli juda tez shuhrat qozongan. Ansambli ko'pgina iste'dodli yoshlar bilan to'ldirilgan. Ansambliga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, g'ijjak va dutorning mohir ijrochisi Qayunjon Abdulxayrov badiiy rahbar etib tayinlangan. Sobiq Ittifoq davrida, 1975 yilda Polsha Respublikasining Zakopanye shahrida bo'lib o'tgan XII jahon «Tog'lik o'lkalari» folklor festivaliga ulkan Sobiq Ittifoq nomidan Boysunning «Shalola» ansambli o'zining folklor dasturi bilan ishtirok etib, faxrii ikkinchi o'rinni egallab, «Kumush bolta» sovriniga sozavor bo'lgan edi.

1986-yilda Boysun tuman markaziy madaniyat uyi qoshida O'zbekiston televideniyesi muharriri Tamara Toshboyeva va O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiysi, professor S.Yo'ldosheva tashabbusi bilan «Boysun» folklor-etnografik dastasi tuzildi. Dastaga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi Xoliq Xursandov badiiy rahbar, Habib Umarov musiqa rahbari etib tayinlandi.

1988-yil sentabr oyida Moskva shahrida «Oltin xo'roz» xalqaro folklor festivalida «Boysun» ansambli yuksak darajada qatnashib, festivalning 1-darajali diplomi bilan taqdirlanib, festival g'olibi sifatida Angliya qirolligining Billingham shahrida o'tadigan xalqaro musiqa festivaliga qatnashish huquqini qo'lga kiritgan.

«Boysun» ansamblining eng muvaffaqiyatli ijodiy safarlaridan biri 1990 yil avgust-sentabr oylaridagi Buyuk Britaniya bo'ylab o'tgan safari bo'ldi. Bu safarda «Boysun» dastasi Angliyaning 11 ta shahrida bo'lib, «Billingham xalqaro folklor festivali», «Milton Keynes xalqaro musiqa festivali» kabi Buyuk Britaniyaning oltita nufuzli festivallarida qatnashib, Vatanimizga festival tashkilotchilarining oltita rahmatnomasini olib qaytdi.

«Boysun» ansambli ko'plab chet ellarda ijodiy safarda bo'lib, o'z dasturlari bilan xalqaro nufuzga ega bo'ldi. Bu dastaning muvaffaqiyatlari xalqaro YUNESKO tashkilotining e'tiboridan chetga qolmadi.

1999-yil aprel oyida xalqaro YUNESKO tashkiloti Boysun tuman hududini «Jahon xalq ijodiyoti durdonasi» deb e'lon qildi. Bu yuksak unvonning berilishida «Boysun» folklor-etnografik ansamblining xizmati beqiyos edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 23-apreldagi № 253-F farmoyishi bilan Boysun tumanida 2002 yilning 23-28 may kunlari «Boysun bahori» ochiq folklor festivali o'tkazish belgilandi.

Birinchi «Boysun bahori» ochiq folklor festivali tashkilotchilari sifatida «Turg'un Alimatov» xayriya fondi, (Toshkent shahri); OOO «Boysuntog'» (Surxondaryo viloyati); ZAO «8M1 - Azla» (Toshkent shahri)

Festivalni tashkil etishda qo'llovchilar: O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, O'zbekiston Badiiy akademiyasi, Surxondaryo viloyat hokimligi, «Kamolot» ijtimoiy harakati, SYUG'G' (Folklor va xalq san'ati festivalari tashkiliy xalqaro kengashi) O'zbekiston sektori qatnashdilar.

2002-yil 23-may kuni festival mehmonlari kutib olindi va yotoqlarga joylashtirildi. 24-may kuni ishtirokchilar, baxshilar, viloyatlardan kelgan xalq dastalari bilan repetitsiyalar o'tkazildi. Boysun tumanining tarixiy qishloqlariga mehmonlar olib borildi.

2002-yil 25-may kuni Respublika hokimiyati vakillari ishtirokida festivalning tantanali ochilish marosimi Boysun tumanining «Alpomish» stadionida bo'lib o'tdi. Ochilish

marosimida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning festival ishtirokchilarini tabriklagan maktubi o'qib eshittirildi.

24-may kuni respublikamizdan kelgan baxshilarning ko'rik-tanlovi bo'lib o'tdi. 24-may kuni YUNESKO vakillari ishtirokida "Tarix-etnografiya markazi"ning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. 25-26-may kunlari OOO "Boysuntog"ga qarashi markaz va anfiatrad festival ishtirokchilari bo'lgan ansambllarning ko'rik-tanlovlari o'tkazildi. 25 may kunlari xalq amaliy san'ati va hunarmandchiligi yarmarkasi ochildi.

Festival jarayonida folklor-etnografik masalalari yuzasidan ilmiy konferensiya va seminar ishlab turdi. Ilmiy seminar respublika markazi va viloyatlardan kelgan olimlar ishtirok etdilar. Festival yo'nalishlari bo'yicha tanlova qatnashgan ansambllar va ijrochi g'olblar aniqlanib, turli mukofotlar va festival diplomlari bilan taqdirlandilar.

27-may kechki payt dastalarning yig'ma konserti tashkil etilib, festival yakunlangani e'lon qilindi. Festivalda Qoraqalpog'istoi Respublikasi va barcha viloyatlardan kelgan folklor-etnografik ansambllar ishtirok etdilar.

Festivalda chet ellik mehmonlar, YUNESKOning O'zbekistondagi vakili janob Barri Leyn janoblari, koreyalik mehmonlar va boshqa mamlakatlar vakillari ishtirok etdilar. Jami mehmonlar soni 450 kishini tashkil qildi. Festival kunlari barcha mehmonlar yotoqxona va uch mahal ovqat bilan ta'minlandilar. may kuni festival mehmonlari tantanali kuzatib qo'yildi.

Ikkinchi "Boysun bahori" ochiq folklor festivali 2003-yil 14-19 may kunlari "Alpomish" istirohat bog'idagi OOO "Boysuntog"ga tegishli amfiatrad joylashgan bog'da bo'lib o'tdi. Bog'da 12 ta o'tovlar o'rnatildi va bu o'tovlarda xalq hunarmandchiligi yarmarkasi o'tkazildi.

Festivalning ochilish marosimida O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari H.S. Karomatov, viloyat hokimi o'rinbosari, YUNESKO vakili Barri Leyn janoblari va YUNESKOning Parijdagi vakolatxonasi boshlig'i Jamet Shillirringuan, Yaponiya elchisi hamda Koreya Davlat Nonyan universiteti professori Xvon U Sung janoblari qatnashdilar.

Ochilish marosimi Surxondaryo viloyati tumanlari folklor-etnografik ansambllarining yig'ma gala konserti bilan yakunlandi. Ochilish marosimi respublika markaziy televideniyesidan namoyish etildi.

Festival ko'rik-tanlovida: Samarqand viloyatidan "Chavqi" ansambli, Xorazm viloyatidan Xivaning "Doston" ansambli, Jizzax viloyatidan "Gashtak" ansambli, Qashqadaryo viloyatidan "Chiroqchi chiroqlari" ansambli, Toshkent viloyatidan "Gavhar" ansambli, Vodiydan Marg'ilonning "Chodirjamol" ansambli, Boysundan "Quralay" bolalar folklor-etnografiya namunali xalq ansambllari qatnashdilar. Qirg'iziston Respublikasidan baxshilar Talant Bakchiyev va Urkash Mambetaliyev, Xorazmlik baxshilar Qurbomazarov Abdulla (Norbek baxshi) va Normatov Ro'zimboy (Qalandar baxshi) lar ishtirok etdilar.

Festival jarayonida 17-may kuni 20 nafar chet ellik mehmonlar va vaqtli matbuot vakillari Surxondaryoning markazi Termiz shahriga olib borilib, viloyat muzeyi va boshqa tarixiy obidalar bo'yab sayohat qildirildi.

17-may kuni kechda ko'rik-tanlovlar gala konsert va Boysun liboslari dizayni bo'yicha tanlovi hamda Surxondaryo viloyat teatrining "Kampir topaymi, dadajon" spektakli namoyishi bilan yakunlandi. 18 may kuni Boysun shahrida xalq sayli e'lon qilindi. Boysun aholisi milliy Boysuncha liboslar kiyib, kun bo'yi shahar markazidagi maydonlarda konsert va tomoshalarda qatnashib sayl qildilar. Shuningdek 25 nafar taklif qilingan olimlar ilmiy seminariga yakun yasadilar. Festivalda jami 400 nafar mehmonlar, shulardan 20 nafari chet ellik mehmonlar ishtirok etdilar. Shu kuni festival mehmonlari tantanali kuzatib qo'yildi.

Uchinchi "Boysun bahori" ochiq folklor festivali 2004-yil 17-aprel kuni tasdiqlangan 07-17-39-sonli dasturi asosida 2004-yil 16-20 may kunlari "Alpomish" istirohat bog'idagi OOO "Boysuntog"ga tegishli amfiatrad bo'lib o'tdi. Festivalda respublikamiz viloyatlaridan 450 nafar san'atkor ishtirokchilar qatnashdilar. 20 nafar chet ellik mehmonlar ishtirok etdi. Festivalga Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan 11 ta folklor badiiy jamoalar tashrif buyurib, jami 255 nafar ishtirokchi qatnashdi.

2004-yil 15-16-may kunlari badiiy jamoalar kutub olini va mehmonxonalariga joylashtirildi. 17-may kuni soat 9⁰⁰da "Boysun madaniy tarixiy maskani kelajakda" mavzuida ilmiy-amaliy anjuman bo'lib o'tdi. Anjumanda olimlar va chet ellik mehmonlar ishtirok etdilar. Kech soat 19⁰⁰da "Boysun bahori" folklor festivalining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Tadbiri O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vaziri B. Qurbonov kirish so'zi bilan ochildi. Shundan so'ng YUNESKO va chet el diplomatik korpus vakillari festival qatnashchilariga muvaffaqiyat tiladilar. Tantanalik kecha folklor jamoalar tomonidan tayyorlangan dasturlar va O'zbekiston Milliy akademik drama teatri artistlarining "Ayolig'u" spektakli tomoshasi bilan yakunlandi.

18 may kuni soat 9⁰⁰da "Boysunning sayyohlik salohiyatini rivojlantirish" mavzuidagi davra suhbat tashkil etildi. Soat 11⁰⁰ da Boysung tashrif buyurgan 15 ta baxshishoirilarning bellashuvi bo'lib o'tdi. Soat 16⁰⁰ da Qoraqalpog'iston Respublikasi va 7 ta viloyat badiiy jamoalari tayyorlab kelgan o'z dasturlarini tomoshabinlar hukmiga havola etdilar. Kech soat 19⁰⁰ dan 22⁰⁰ ga qadar Toshkent shahridan tashrif buyurgan milliy va zamonaviy libos dizaynerlarining yangi liboslari namoyish etildi.

19 may kuni soat 09.00 da "Omonxona" nomli ziyoratgoh yaqinidagi Otchoparda milliy musobaqalarimizdan bo'lgan "Uloq", ya'ni "Ko'pkari" bellashuvi tashkil etildi. G'olib chavandozlarga YUNESKOning maxsus mukofotlari topshirildi. Soat 16.00 da 5 ta viloyat badiiy jamoalarining tayyorlab kelganlik dasturlari tomoshabinlarga havola etildi. Soat 19⁰⁰da esa "Boysun bahori" festivalining tantanali yopilish tadbiri boshlandi va tadbir so'ngida g'olblarni taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi. Tashkiliy qo'mitaning qaroriga binoan, barcha badiiy jamoalar festivalning g'olibi deb topilib, ularga diplomlar hamda YUNESKO va mahalliy hokimiyatning maxsus sovrini va sovg'alari topshirildi.

Festivalning tashkiliy ishida ayrim kamchiliklar sodir bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil "Boysun bahori" uchinchi ochiq folklor festivalini o'tkazish to'g'risidagi 07-17-39 sonli qarori hamda YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi milliy komissiyasining 2004 yilda tasdiqlangan tadbirlar rejaning 7-bandiga muvofiq (№ 07-13-218 29.12.2003 yil) va "Boysun bahori" festivali Nizomiga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlardan festivalga safarbar qilinadigan barcha badiiy jamoalar transport, yotoq joy va ovqatlanirish ta'minotlari homiy tashkilot tomonidan amalga oshirish zarur edi. Ammo festivalga tashrif buyurgan barcha badiiy jamoalar transport xarajatlarini o'z hisoblaridan amalga oshirdilar.

Bunday moliyaviy imkoniyatga ega bo'lmagan Namangan va Jizzax viloyatlari o'z badiiy jamoalarini festivalga yubora olmagilar. Festivalning tashkiliy ishida sodir bo'lgan yana bir muammo shundan iboratki, festivalga yuborilayotgan har bir badiiy jamoa ishtirokchilarining soni 20 kishidan oshmasligi qat'iy belgilanganligidir. Bu boradagi muammoning asosiy tomoni shundaki, badiiy jamoalar o'zlarini tayyorlab kelgan badiiy kompozitsiyalar va sahna ko'rinishlarini ommaviy va tomoshabop qilib yaratish maqsadida xilma-xil va rang-barang obrazlar qo'shganlari natijasida ishtirokchilar soni ko'payib ketgan. O'z-o'zidan ma'lumki, ushbu festivalda baxshishoirilar, palakdo'z kashshachilar va hunarmandlar hisobiga ba'zi badiiy jamoalar vakillarining soni 30-35 tadan ham oshib ketdi. Bu esa, eng avvalo, yotoq joy ta'minoti, so'ngra oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun

anchar-muncha qiyinchiliklar tug'dirdi. Festival homiyi-rahbari A. Arapov esa faqat 20 kishi ta'minoti o'z zimmasiga oldi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar badiiy jamoalari quyidagi tarkibda ishtirok etishdi.

1. Qoraqalpog'iston Respublikasi – "Jirov" – 20 kishi
2. Andijon viloyati – "Zilol" – 17 kishi
3. Buxoro viloyati – "Nozanin" – 28 kishi
4. Navoiy viloyati – "Yor-yor" – 25 kishi
5. Samarqand viloyati – "Beshqarsak" – 28 kishi
6. Sirdaryo viloyati – "Sayxun yigitlari" – 20 kishi
7. Qashqadaryo viloyati – "Hilol" – 38 kishi
8. Farg'ona viloyati – "Kabutar" – 25 kishi
9. Toshkent viloyati – "To'rg'ay" – 24 kishi
10. Toshkent shahri – "Gavhar" – 24 kishi
11. Xorazm viloyati – "Folklor dastasi" – 26 kishi.

2005-yil 18-22 may kunlari Boysun tumanida xalqaro "Boysun bahori" to'rtinchi ochiq folklor festivali bo'lib o'tdi. Mazkur festival O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi, O'zbekistondagi YUNESKO vakolatxonasi, "Boysun" jamg'armasi hamda Surxondaryo viloyat hokimligi hamkorligida tashkil etilgan bo'lib, unda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda faoliyat ko'rsatayotgan folklor-etnografik jamoalari, baxshi-shoirilar, oqinlar, jirovlar, xalfalar, liboschi dizaynlar, xalq hunarmandlari, milliy o'ttopar sportchilar va kurashchilar ishtirok etdilar.

Tantanalı ochilish marosimining badiiy qismida xalqaro YUNESKO tashkiloti granti sovrindori, Boysun tuman madaniyat uyi qoshidagi "Boysun" xalq folklor-etnografik ansambli qatnashchilari va yosh estrada xonandalari ijrosidagi maxsus teatrlashtirilgan konsert dasturi namoyish etildi. Unda Amerika Qo'shma Shtatlari, Ispaniya, Italiya, Fransiya, Germaniyadan tashrif buyurgan mehmonlar ham qatnashdilar. Festivalda Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar hamda Toshkent shahridan kelgan 306 kishidan ortiq festival qatnashchilaridan iborat folklor jamoalari ishtirok etdi.

Festivalning ikkinchi kuni "Alpomish" sport o'yingohida milliy kurash musobaqalari va tog' yon bag'rida maxsus tayyorlangan maydonda "Ko'pkari" musobaqalari o'tkazilib, g'oliblarga maxsus sovrinlar va diplomlar taqdim etildi. 17-18 may kunlari Termiz shahrida o'tkazilgan baxshi-shoirilar va oqinlarning to'rtinchi an'anaviy xalqaro ko'rik-festivalda g'oliblikni qo'lga kiritgan baxshilar, oqinlar, jirovlar va xalfalar o'z dasturlarini namoyish etdilar.

Kunning ikkinchi yarmida folklor-etnografik jamoalarining namunali chiqishlari tanlov tarzida bo'lib o'tdi. Unda Chiroqchi tumanidan "Chiroqchi chiroqlari", Guliston tumanidan "Sayxun yigitlari", Kogon tumanidan "Qasri Orifon", Toshkent shahridan "Gavhar", Kattaqo'rg'on shahridan "Sarbozi", G'allaorol tumanidan "Gashtak", Ohangaron tumani Qoraxitoy qishloq madaniyat uyi qoshidagi "Chashma" folklor-etnografik ansambllari o'zlarining tomosha dasturlarini namoyish etdilar.

Festivalning uchinchi kuni viloyatlardan tashrif buyurgan oshpazlar tayyorlagan milliy taomlar tanlovi o'tkazildi. Unda Toshkent shahri va viloyati, Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo, Navoiy, Buxoro, Farg'ona, Namangan, Samarqand, Xorazm viloyatlari va Qoraqalpog'istondan kelgan oshpazlar o'z mahoratlarini namoyish etdilar. Oshpazlar tayyorlagan taomlar festivalning nufuzli hakamlar hay'ati a'zolari hamda ishtirokchilari tomonidan yuqori baholandi.

"Boysuntog'" jamg'armasining amfiteatr sahmasida milliy liboslar bo'yicha boysunlik dizaynchi qizlarning tayyorlagan liboslari namoyish etildi. Shundan keyin, Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi qoshida tashkil etilgan "Gulzor", Kosonsoy tumanidan "Xushnavo", Navbahor tumanidan "Xushanzamon", So'x tumanidan "YO, vaylo", Xiva tumanidan "Xiva", Sariosiyo tumanidan "Dashmabod anori" folklor-etnografik ansambllari, Boysun tumanidan "Quralay" va "Gulg'uncha" bolalar folklor jamoalari o'zlarining festival dasturlarini namoyish etdilar.

21-may kuni festivalning yakunlovchi gala konserti o'tkazildi va uning nihoyasida g'oliblarga sertifikat guvohtonmalari, diplomlar va esdalik sovg'alari topshirildi. Festival ishi O'zbekiston televidiyesining ijodiy guruhi a'zolari tomonidan yozib olindi hamda O'zbekiston Respublikasi ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritildi.

Bu festival yuqorida aytib o'tilgan tartibda davom etdi. Festivalning oldingilaridan farqi shuki, bu festivalda respublikamizning turli viloyatlari va Surxondaryo viloyatining mashhur chavandozlari ishtirokida "ko'pkari-uloq" poygasi o'tkazildi. Bundan tashqari, festivalga O'zbek Milliy akademik teatrlarining jamoasi ishtirok etib, forklor motividagi "Ayolg'u" spektaklini namoyish etdi. Mehmonlardan Germaniya elchisi oila a'zolari bilan festivalga tashrif buyurdi. Yaponiyadan o'zbek tarbut cholg'usida kuylar ijro etadigan musiqa shunos Xashimoto ishtirok etdi. Festival jarayonida mehmonlarga Boysun tumanining tarixiy va tabiiy obidalarini tomosha qilishga imkoniyat yaratib berildi.

Festivalga qatnashgan har bir viloyatning jamoalari orasida o'z mintaqalariga xos tansiq taomlar pishirish bo'yicha ko'rik-tanlov o'tkazildi. Ayniqsa liboslar dizayni tanlovi o'tkazilishi festival nufuzini yanada oshiradi. Boysun ilmiy ekspeditsiyasining ilmiy anjumani o'tkazildi. San'at g'unchalari "Yalla" ansamblining konserti qo'yildi. 20-may kuni barcha mehmonlar tantanalı kuzatib qo'yildi.

S.Yo'ldosheva
G.Ro'ziyeva,
tadqiqotchi
filologiya fanlari nomzodi, professor

FOLKLOR-ETNOGRAFIK JAMOALARI REPERTUARIDAGI ASARLARNING SENARIYSI, LIROCHILIK MAHORATI VA BADIYATI

"SURXON RAQSI DAVRAGA CHORLAR" MAVZUIDAGI SENARIY

San'atning professional darajada shakllanishida ijodiy maktablarning o'rni beqiyosdir. Aksariyat ijodiy maktablar rivojlangan shaharlar, mamlakatlarning poytaxtlarida paydo bo'lgan. Buning asosiy sababi mashhur san'at ustalarning markazga intilishi va bu markazlarda san'atga alohida e'tibor berilganligida bo'lsa kerak. "Xorazm maqomlarining" Xiva xonligi, "Shashmaqom"ning Buxoro amirligi, "Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari"ning Qo'qon xonligi markazi va ushbu davlatlarning eng rivojlangan madaniy markazlarida shakllanishi, Xorazm, Buxoro, Toshkent, Farg'ona raqs maktablarining ham xuddi shu joylarda paydo bo'lganligi buni isbotlaydi.

Professional musiqaning va professional raqsdan farqli ravishda xalq ijodiyotining xalqqa yaqin bo'lgan: milliy hunarmandchilik, baxshichilik, xalfachilik kabi janrlari

markazdan chetqoq joylarda ham o'ziga xos maktablarni dunyoga keltirgan. Xususan, Rishfon, G'jduvon kulolehlik maktablari, Chust va Andijon kandakorlik maktablari, Sherobod, Boysun, Nurota va boshqa dostonchilik maktablari shu yo'sinda paydo bo'lgan va rivojlangan.

Raqs san'ati yo'nalishidagi olingan uch yirik maktab: Toshkent-Farg'ona, Buxoro va Xorazm raqs maktablaridan tashqari o'ziga xos raqs harakatlari, liboslari va musiqasi bilan ajralib turuvchi Surxon raqs maktabi mavjud. Surxon raqs maktabining an'analari ham tarixiy, ham imiy jihatdan isbotlanmoqda.

Fanda ham, amaliyotda ham o'rganib qolingan andozalardan chetga chiqish, yangiliklarni joriy etish ancha mushkul ish. Shu bois "Surxon raqs maktabi" dunyoga keldi. Uning o'ziga xos tarixi va ijrochilari bo'lib, o'z hududiga mos raqs an'alarini ilmiy asoslash maqsadida Shoira Qurbonova tomonidan kitob yuzaga keldi. Bu kitob mutaxassislarni va oddiy havaskorlarni qiziqitirgan ancha-muncha savollarga javob berishi tayin. Kitobda o'ziga xos folklor raqslaridan o'n oltitasi jamlangan. Unda raqs harakatlarining tasviri ham matnda, ham fotosuratlarida berilganligi, raqs musiqalarining notalari bilan bir qatorda shu kuy va qo'shiqlarning audioyotida ilova etilishi quvonarli holdir. Bu holat Surxon raqs maktabi ijrochiligining qimmatini yanada oshiradi. Kitob Surxon raqs maktabining to'laqonli o'zbek raqs maktablari orasidan joy olishiga xizmat qiladi. Folklor raqslarining professional darajada sahnalashtirilishi uchun ham Surxon raqs maktabi an'analari yaqindan yordam beradi.

San'at janrlarining professionallashuvida ijodiy maktablarning o'rni beqiyosdir. Ushbu maktablarning paydo bo'lish o'rni va rivojlanish tarixiga nazar solsak, aksariyat maktablar bevosita rivojlangan shaharlarda, raamlakatlarning poytaxtlarida paydo bo'lganligining guvohi bo'lamiz. Buning asosiy sababi o'sha davrdagi hukmdorlarning san'atga munosabati, ya'ni g'amxo'rligi va qo'llab-quvvatlashidan iborat.

Og'zaki professional musiqa sifatida tan olingan maqomlarning shakllanishi va tizimga kelishida muhim rol o'ynagan maqom maktablari ham bundan istisno emas. "Xorazm maqomlari" ning Xiva xonligi, "Shashmaqom" ning Buxoro amirligi, "Toshkent-Farg'ona maqom yo'llari" ning Qo'qon xonligi markazi va ushbu davlatlarning eng rivojlangan madaniy markazlarida shakllanishi buni isbotlaydi. O'ziga xos an'alariga ega bo'lgan Xorazm, Buxoro, Toshkent-Farg'ona raqs maktablarining paydo bo'lishida ham bevosita Markaziy Osiyoda hukm surgan xonlik va amirliklarning ta'siri bor, albatta. Ijodiy maktablarning rivojlanishida faqat markazlardagi ijodiy kuchlar emas, balki boshqa hududlardan jalb etilgan sozanda-yu xonanda, raqqosa-yu hunarmandlarning ham o'rni bo'lgan. Bu jarayondagi ijodiy kuchlar va g'oyalarning o'zaro ta'sirini aniqlash, yangidan yangi izlanishlar va ilmiy tadqiqotlar Surxon raqs maktabining serjillo qirralarini namoyon qiladi.

San'atda, xalq ijodiyoti janrlarida o'ziga xos uslublarning shakllanishi, ushbu uslublarning an'anaviy ravishda kelgusi avlodga yetkazilishida ustozlarning o'rni juda katta bo'lgan.

Folklor-etnografik jamoalarning faoliyatida "Surxoncha" raqs harakatlari taqlidning ortib borishi, mashhur estrada qo'shiqlarimiz repertuarida juda bo'limas bitta "Surxoncha" qo'shiq va professional raqs jamoalari repertuarida "Surxoncha" raqslarning bo'lishiga intilish ushbu raqs uslubining hozirgi kundagi ahamiyatini belgilovchi omiddir.

Umuman olganda, amaliyotda ham o'rganib qolingan andozalardan chetga chiqish, yangiliklarni joriy etish ancha mushkul ish. Surxon vohasi raqslari folklor raqslarining professional darajada sahnalashtirilishi uchun ham yaqindan yordam beradi. Ularda qo'shiq bilan raqslarning uyg'unlashuvi natijasida mustaqil raqs janri yuzaga keldi. Raqs san'atining

tarraqqiyoti bevosita uni yaratgan xalqning tarixi bilan bog'liqdir. Shu bois raqs san'ati tarixida hududga xos an'alarining aks etganligi muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi o'zbek raqs san'atida o'ziga xos, o'z uslubiga ega bo'lgan Xorazm, Buxoro va Farg'ona raqs maktablari tan olingan. Biz mazkur ishimizda shu kungacha hali yaxshi o'rganilmagan, Surxondaryo viloyati hududida shakllangan Surxon raqs maktabi an'alarini yoritishga harakat qildik. Bu raqs maktabining tarixiy ildizlari, tarraqqiyoti, hozirgi kunda yanada mukammallashtirib o'z muxlislariga ega bo'lmoqda.

O'zbekistonning janubida joylashgan Surxon vohasi qadim-qadimdan insoniyatning beshigi bo'lgan hududlaridan biri ekanligi hammaga ma'lum. Boysun tumani Machay qishlog'ida tosh asriga mansub neandertal odamlarning qarorgohi topilgan. Teshiktosh qoyalardan topilgan neandertal bolaning bosh suyagi va Zarautsoy doirasidagi qoyalarga ibtidoiy odamlar tomonidan chizilgan suratlar guvohlik beradi.

Qorli tog'lar yon bag'rida sero't yaylovlari, hosildor yerlari, keng adirlari, sersuv daryo va soylari, hatto cho'llari bo'lgan bu o'lka odamlarning yashashi uchun juda qulay bo'lgan. Zamonlar o'tib davlatlar va dinlar paydo bo'lgach, bu jannatmakon o'lka juda gavjum hududga aylangan. Surxon vohasi hududi qadimiy Baqtriya davlatining, Kushon imperiyasining, Arab xalifaligining, Turk xoqonligining, sobiqqiron Amir Temur saltanatining tarkibida tarixiy jarayonlarni o'z boshidan kechirdi. Bu yerlik aholi totimistik e'tiqodlarni, zardushiylik, buddaviylik va islom dinlarini ko'rdi. Har bir tarixiy jarayon xalqning turmushi va madaniyatida o'z izini qoldirdi.

Surxon diyori qadimiy Buyuk Ipak yo'lining Shimolli Janub bilan, Sharqni G'arb bilan bog'lab turgan serqatnov bekati bo'lgan. Shuning uchun bu hududda yashagan xalqlar qo'shni davlatlar, qo'shni xalqlar bilan doimiy aloqada bo'lib keldi. Natijada, Surxon vohasida o'ziga xos madaniyat paydo bo'lidi.

Surxon raqs san'ati, raqslari haqida gapirishdan oldin, umuman, raqs san'ati haqida qisqacha mulohazalarni bayon etish lozim bo'ladi. Odamlar nima uchun raqsqa tushadilar? San'atshunos olim L.Avdयेeva o'zining «O'zbek milliy raqs tarixidan» nomli kitobida «Raqs - zamon va makonda mavjud san'at bo'lib, bunda badiiy obraz inson gavdasining ritmik uyushgan tasviriy va ifodali harakatlari bilan yaratildi», - deb yozadi.

To'g'ri, raqsni birgina shunday qisqa qoida bilan tushuntirib bo'lmaydi. Bu qoida raqsning tashqi ko'rinishini tasvirlaydi xolos. Raqs faqat bir millatga xos san'at emas, balki umuminsoniy badiiy ijodning mahsuli bo'lib, dunyoning barcha millatlariga xos san'at turidir.

Inson hayotining go'zalliklari, o'zining bu keng olamdagi o'rini, o'z tuyg'ullari, nozik hislari, falsafiy o'yalarini gavda harakatlari bilan ifoda etishga ehtiyoj sezgandagina to'laqonli raqs san'atini yaratgan. Bu esa inson ehtiyojini qondirib, hayotining bir bo'lakiga aylangan.

Xalq orasida shakllangan o'yinlarda ijrochi o'z bilganiday erkin taqlidiy harakatlarni qilsa, raqs ijrochisi ma'lum harakatlarni majmuasi chegasidan chiqmasdan, ma'lum qoidalar asosida muayyan harakatlarni o'zi jiro etayotgan raqsning falsafiy mazmunini ochib beradi. Ular raqs orqali inson ma'naviyatining bir qirrasini ochib beradi.

O'zbek milliy raqslari xalqning turmushi, tabiati, makoni, ramziy marosimlari, xalq hayotining o'zidan tug'ilgan va shu xalqning hayotini tasvirlab kelgan. Shuning uchun ham raqs san'ati xalqimiz hayotining, ma'naviyat va ma'rifatining bir bo'lak sifatida yashab kelmoqda.

Raqs san'atining mazmunidan kelib chiqib san'atshunoslar raqsni quyidagi turlarga bo'lib chiqqanlar.

Mazmunli-sujetli raqslar.

Lirik mumtoz raqslar.

Ornamental raqslar.

Lekin inson his-tuyg'ulari, hayot ko'rinishlari cheksiz bo'lganidek, raqs turlari, raqsdagi harakat turlari ham cheksizdir. Raqslarni turlarga bo'lishning o'zi ham nisbiy tushuncha.

San'atning barcha yo'nalishlari asosan ikkiga bo'linadi.

Xalq ijodiyoti.

Professional ijodiyot.

Xalq ijodiyoti o'zida raqslar odatda havaskorlar tomonidan ijro etiladi. Havaskorlar ijro etgan raqslar ko'rinishdan soddaga, raqsiy bezaklari kamroq, harakatlari oddiy bo'ladi. Professional ijrochilar tomonidan ijro etilgan raqslar esa shu hududda paydo bo'lgan raqs uslublari, holat va harakatlardan foydalanib, mazmunan qayta to'qilgan va shakllanib mukammallashtirilgan bo'ladi.

O'zbek raqs san'atida qadimdan professional ijrochilik bo'lganmi?

Olimlarning ta'kidlashicha, o'zbek raqs san'atida qadimdan professional san'atkorlar bo'lgan. Biz ilgariroq aytib o'tganimizdek, davlatlar va mistik dinlarning paydo bo'lishi, diniy va umumxalq bayramlar, sayllarning o'tkazilishi, sayillarda ma'rifiy turmush kechirish uchun shart-sharoit yaratilishi, barcha san'at turlarida, shuningdek, raqs san'atida ham professional san'atkorlarga ehtiyojni kuchaytirgan. Professional raqs ustalari yaratgan raqslar avloddan-avlodga o'tib, bizning davrimizgacha yetib kelgan.

Hozirgi kundagi o'zbek raqsining ahvoriga nazar solsak, o'zbek raqs san'atida asosan 3 ta:

1. Farg'ona raqs san'ati uslubi;
2. Buxoro raqs san'ati uslubi;
3. Xorazm raqs san'ati uslubi tan olinganligiga guvoh bo'lamiz.

Bu uchta raqs uslubi san'atshunoslar tomonidan yaxshi o'rganilgan va bu haqda Buxorodagi «Katta o'yin», «Maqom raqsi», Xorazmdagi «Maqom ufuri» kabi o'zbek xoreografiyasi klassikasi bo'lgan raqslar haqida batafsil ma'lumotlar berilgan. Lekin Surxon vohasi raqslari haqida, Surxon raqs uslubiyati haqida aytarliq hech narsa yozilmagan.

Surxon vohasi raqslari Boysun tumanidagi «Shalola» ashula va raqs ansambli 1975 yilda Polsha Respublikasining Zakopene shahrida bo'lib o'tgan VIII jahon tog'lik o'lkalari folklor festivalida qatnashib, «Kumush boltax» sovrindori bo'lganidan keyingina san'at ahlining e'tiborini tortgandek bo'ldi. Vaholanki, hozirgi kunga kelib «Surxoncha» harakatlari respublikamizdagi aksariyat folklor ansambllari harakatlari keragidan ortiq foydalanilmoqda, hatto vaziyat uning chegaralanishini ham taqozo etib qoldi.

Raqs san'ati o'z ijodkor ijrochilari bilan yashab keladi. Surxon vohasi qadimiy raqsining bilimdoni va ijrochisi bo'lgan qariyalar olamdan o'tdi. Lekin, baribir, Surxon raqs san'ati yo'qolib ketmadi.

Surxon raqs maktabi uslubi va bu maktabga mansub raqslar, raqsardagi turli harakatlari tasviri haqida yozayotganda Boysun tumani markaziy madaniyat uyi qoshidagi «Boysun» folklor-etnografik ansambli bilan ta'limlangan ijodiy foydalanishini ta'kidlash mumkin.

Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar, aziz mehmonlar! «Surxon raqs davraga chorlar» mavzuidagi ishimizning ijodiy chiqishiga xush kelibsizlar. Sizlarga xavola etilayotgan qo'shiq va raqsularimiz Surxondaryo hududining o'ziga xos raqs maktabiga ega ekanligini namoyish etadi. Marhamat, tomosha qiling!

Bugungi kunda Surxon raqs maktabining ijrochilik usullari keng miqyosda rivojlanmoqda. Surxoncha qo'shiq va raqsning e'tiboringizga havola etamiz. Debochasida «O'zbekiston» ashula va raqs guruhi «Qoshiq raqs» ni ijro etadi. Marhamat, tomosha qiling. Kutib oling! Respublika raqs san'ati ijrochiligi g'olibi Nilufar Yusupova Surxon navolari raqs bilan.

Endi sahnaga Surxon qo'shiqlarining mohir ijrochisi O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Sayyora Qoziyevani «Yacqu-yaq» qo'shiqini ijro etishga taklif etamiz. Marhamat!

«Yacqu-yaq» qo'shiq'i

Alpomish yigitlari ham Surxoncha qo'shiq va raqs larni maromiga yetkazib ijro etadi. Kutib oling! **Surxon guruhi:**

«Sizg'ali qiz» qo'shiq'i raqs bilan

Surxon qo'shiqlarining milliyligi, jozibadorligini saqlab, ijro etib kelayotgan san'atkorlardan biri Surxon raqs lari va qo'shiqlari dillarimizga xush yoqadi. Mahmud Nomozov.

«Hay-yor-yor» qo'shiq'i

Surxon kuy va qo'shiqlari chanqovuz kuyi orqali aytiladi. Momolarimiz «chanqovuzni go'zal kuy va qo'shiqlarni xalqqa yetkazadigan musiqa asbobi deb tushinishgan. Chanqovuz sadosida kuy taralsa beixtiyor ko'z o'ngimizda Surxondaryo momolari, go'zal Oybarchin qizlari chiqadi. Marhamat, chanqovuz kuyidagi raqsni tomosha qiling.

Maxmud Nomozov tomonidan «Oypari» qo'shiq'i raqs bilan ijro etiladi.

«Oypari» qo'shiq'i

Endi «Pichoq raqsini» ni ijro etish uchun sahnaga Kamol Rahmonovni taklif etamiz. «Boysun» ansambli va Abdulla Qodiriy nomidagi Toshkent Davlat Madaniyat instituti «Folklor-etnografik jamoalari tashkilotchisi» bo'limi qoshidagi «Chashma» folklor-etnografik ansamblining qatnashchilari.

Mahmud Nomozov deganda milliy libosdagi Surxondaryolik ustulok sadolari ostida kuylayotgan yigit ko'z oldimizga keladi. Uning har bir qo'shiq'ida Surxon hududining saxiyqalb yigitlari, Alpomishtek qahramonlari, vatanga va xalqqa mehr-muhabbatini jo'shgan pahlavon yigit ko'z o'ngimizda gavdalanadi. O'zbekiston xalq artisti Mahmud Nomozov.

«Jo'rajon» qo'shiq'i

Bugungi dasturimizga tashrif etgan barcha mehmonlarimizga xush kelibsizlar, - deymiz. Surxon raqs barchangizga xush kayfiyat ulashsin, omon bo'linglar!

«ALLA - MA'NAVY BARKAMOLLIK BELGISI»
MAVZUSIDAGI SENARIY

Alla xalq qo'shiqlarining qadimiy turi bo'lib, yosh bolalarni uxlatish, orom oldirish uchun beshikka belab, belanchakka solib, tebratib, onalarning allaab kuylaydigan dil izhoridir. Qo'shiqning bu turi ham cholg'usiz mayin orom beruvchi obang bilan kuylanadi. Alla alohida payt, maxsus ijrochi talab qilmay, bola tarbiyalovchi ona, buvi yoki boshqalar tomonidan iqtidoriga qarab aytila beradi.

Ona allasi shunday sehr-qudratga, shunday fayzu-barokatga ega bo'lgan qo'shiq. Shuning uchun ham ona altasinig mavzu qamrovi kengdir. Shuning uchun ham ona allasida farzardga sihat-salomatlik, portloq kelajak tilagidan tortib, bevafo dunyoning barcha nayrang-u nolalari jo bo'lgandir.

Allalari badiiyati jihatidan bilan go'zal bo'lib, onalar ichki tuyg'ularining beyoni sifatida xalq ijodining boshqa turlaridan ajralib turadi. Ular ona tomonidan o'ziga xos sado, kuylar bilan ijro etiladi. Qadimdan allalar ko'pincha, onalarning badago'ylik mahsuli sifatida ijro etib kelingan.

Ona allasi umumbashariy qimmatga ega, u chegara bilmaydi. Jamiki elat va mil-lat go'daklari Ona allasini bir xil tinglaydi, orom oladi. Ona allasini eshitgan notinch bola tinchiydi. Go'dakning ilk bora tinglaydigan qo'shig'i ona allasi bo'lsa, Vatan esa ostonadan boshlanadi. Ona allasi - bolaning beshigi tepasida birinchi bor yangrab, umr bo'yi eshitadigan dilrabo kuylarning debochasi. Shu sababli momolarning aytishicha alla ohanglari onaning butun vujudidan, uning yetmish ikki tomonidan oqib kelar emish.

Sahnra. Namangan viloyati udumli va marosimlariga mos ravishda bezatilgan. Palaklar, so'zana va turli shakldagi naqqoshlar osilgan. Sahnada ayollar o'tiribdi.

Alisherga alla aytib uxlagan Siz ora,

Og'ushida Bobur kamolga yetgan Siz ona,

Kim deysizmi birinchi kuychim,

Alla aytgan onajon, onam,

Kim deysizmi birinchi kuyim,

Yana o'sha mehribon onam,

Ko'zlarimning nuri ham undan,

Yuragimning ko'ri ham undan.

Onam umr bo'yi yo'ldoshim,

Huzurida egikdir doim boshim.

Allaning ahamiyati to'g'risida xalq ijodida shunday bir rivoyat bor. Bir oilaning qizchasi yo'qolib qoladi. Qizcha katta bo'lib, bo'yi yetib qolganda uni topishga muvaffaq bo'ladi. Biroq qizcha ota-onasidan yotirib oldingi yashash joyiga ketishni istaydi. Shunda onasi o'z qiziga bir kecha tunab ketishni iltimos qiladi. Qizi rozi bo'ladi. Yarim kechada ona uyqudan turib, beshikda yotgan ukasini uxlatish bahonasida alla aytadi. Yoshligida eshitgan allasining ohangi, mazmun va sehri qizning qalb torlarini jumbushga keltiradi. Alla orqali o'z onasining mehrini his etadi va siz mening onam ekansiz, deb onazorini quchoqlab oladi. Alla sehri orqali ular murod-maqsadlariga yetishadi. Ona allasi go'dakni voyaga yetkazuvchi vositagina bo'lib qolmasdan, balki zaminu zamoni tarbiyalovchi qudratli qo'shiq, mo'jizakor san'atdir.

Momo - Ilohi omin, ikki yosh baxtli bo'lsin, ko'p farzandli bo'lishsin!

Kelin salinaga chaqaloq olib kiradi.

Momo - Hozirgi kelinlarimiz alla aytishni ham bilmaydi. Men bir alla aytay, qizlarim, eshitinglar. Chunki sizlar bo'lg'usi onasizlar.

Osmondagi oyim bolam alla,

Boshimdagi tojim bolam alla,

Ko'rar ko'zim bolam alla,

Shirin so'zim bolam alla,

Kechalari chirog'imсан alla,

Ko'zim nuri, qarog'imсан alla,

Nur to'ldirding uyimga alla,

Shodlik berding dilimga alla,

Alla desam bor bo'lg'in alla,

Menga nomus or bo'lg'in alla.

Katta bo'lgan chog'laringda alla,
Xalqqa vafodor bo'lg'in alla.

Kelin uzatish marosimi. Sahnada kelin va qizlar o'tirishibdi.

- Qizlar, mana dugonamizni ham uzatayapmiz. Nimagadir kelin bolamiz xafa ko'rinadi.

- Nimaga unacha deysiz. Kelin bolamizning baxti bor ekan. Barkamol avlod yilida to'yi bo'layapti. Undan tashqari kuyovimiz ham mahallamizdan. Eskilarimizda bir gap bor. Yaxshi qiz mahalladan chiqmaydi.

- To'g'ri aytasiz, bir o'yin-kulgi qilaylik.

Qo'shiq aytib o'yin-kulgi qilishadi.

Laylo - laylola bo'lmang

Dadam sizga bermaydilar ovora bo'lmang.

Uyimizni oldida poyezd o'tadi,

Bormang, sirg'anib ketasiz

Orqasidan qaragam o'zimni yorim,

Mirza terak bargidan itraydi jonim.

Ko'chamizda turmang-ye, qayrilib ketasiz.

- Chumchuq so'ysa ham qassobi bo'ysin, deydilar. Kelinglar, Fotima opani chaqiraylik.

Sahnaga Fotima opa kirib keladi.

- Yoshligimda qora mayizni ko'b yebman, xo'p yebman.

Tilgimning shirinligi shundanmikan-o, voy shundanmikan.

Yoshligimda o'smalarni ko'p qo'yibman, xo'p qo'yibman,

Qoshginamning qoraligi shundanmikan-o shundanmikan.

Yoshligimda soch popukni ko'p taqibman, xo'p taqibman.

Sochginamning uzunligi shundanmikan, voy shundanmikan.

Sahnaga ayollar chiqib keladi. Yor-yor aytishadi. Kelin salom berib turadi.

- Qudajonlar, endi kelinni olib ketishga ruhsat berasizlarmi.

Kelinning ustidan shirinlik sochadi va kiyindiradi

- Hoy, xolajonlar, namuncha shoshasizlar, olib ketasizlar-da kelinimizni. Biz bir o'lan aytib beraylik.

O'lan aytung deganda o'lan aytung.

Namanganlik qizlar husnini qo'shib aytung.

Uylanayotgan kishiga o'lan ko'pdir,

O'lan aytmas qizlarni ko'rsangiz quvolsiz.

O'lan aytmas qizlarni suvga cho'kdir.

Yo'lingizda toshlar ko'pdir tepib qayting.

Shoshilmanglar, bitta lapar aytisangiz kelinimizga ruhsat beramiz.

Quda taraqqadaglar lapar aytishadi. Hamma raqs tushadi.

Uzoqdan orzulang keldim, jamoling ko'rgali keldim,

Biror bir vaqtig bo'lsa, suxbating olgani keldim.

Lapar. "Yalla jonim" qo'shig'i

Qudalar

- Biz sizning barcha shartlaringizni bajardik. Endi bizga ham Namanganacha yor-yor aytib bering.

"Yor-yor" qo'shig'i ijro etiladi.

Kuyov tomon

E, quda bobo, bir duo qiling endi. Bizga ruhsat bering.
Yor-yor ijro etiladi.

Qani bir duo qiling kelinni olib ketamiz.

- Ilohi omin, farzandlarimiz baxtli-saodatli bo'lishsin omin, olohu akbar, qo'sha qarib, rohat-farog'atda yashasinlar, yurtimez tunch, yurboshimiz omon bo'lsin.

Yor-yor saatosi ostida hamma qatnashchilar kelinni salom berdirib sahnadan olib chiqib ketadilar.

Dasturimizga xush kelibszilar!

“MEROSIMIZ - FAXRIMIZ” MAVZUIDAGI SENARIY

Sahna milliy ko'rinishda bezatilgan. Karnay-surnay navolari ostida sahnaga uch avlod vakillaridan iborat ishtirokchilar kirib kelishadi.

Boshlovchi: 2012-yil - “Mustahkam oila yili”. Mustahkam oila an'alarini, ma'naviy merosni o'rganish yoshlarni komillikka yetaklaydi. Bobolar merosini o'rganish bugungi kun uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Hamma: - “*Merosingiz-faxrimiz*”.

Qatnashchilar orasidan “*Yor-yor*” qo'shig'ini *Dildora Beknazarova* kuylaydi.

El-yurt hurmatini qozongan pahlavon Alpomish, o'zbek ayolining go'zallikda tengi yo'q, ibo hayoli qo'ng'iroq elining bekasi Barchin haqida qo'shiq ijro etiladi. Qo'shiqda yurt tinchligi va osoyishtaligini ta'minlovchi, o'z vatanini sevuvchi qahramonlar haqida kuylanadi. Qo'shiq davomida Alpomish va Barchin misolidagi yigit va qiz chiqib xalqqa salom berishadi. “O'zbek elim” qo'shig'i ijro etiladi.

“*Alla*” eng qadimgi qo'shiq hisoblanadi. “*Alla*” ning yaratilishi haqida rivoyatni *Mukarram opa* aytadi. *Barcha qatnashchilar o'irib rivoyat tinglaydilar.*

Rivoyat:

Rivoyat qilishtaricha. Odam ato hazratlari Olohd tomonidan yaratilib, yer yuzida hayot kechira boshlabdi. O'zi yolg'iz bo'lgani uchun juda zerikibdi. Shunda Olohd taolga murojat qilib “E Olohim, mening yonimda bir insonni yaratginki, abudul abad u bilan yashab, zuriyod ko'paytirib, yer yuzini go'zallik, mehr-sahovat sahnasiga aylantiray”- debdi. Shunda Olohim Odam Atoning yoniga Momo Havo onamizni yuboribdi. Odam ato bobomiz muhabbat shevasida, Momo havo onamiz nazokat shevasida so'zlashib, umir go'zaronlik qilishibdi. Bir-birlariga ko'ngil qo'yishib muhabbat rishtasini payvand qilishibdi. Vaqt o'tib, egizak farzand ko'rishibdi. Farzandlaridan birining ismini Qobil, ikkinchisining ismini Hobil deb qo'yishibdi. Olohdning marhamatidan Odam Ato va Momo Havoning boshlari osmonga yetibdi. Hammayoqda oyoyshtalik bo'lib, yer yuzidagi jimlikni faqatgina ikki chaqaloqning betoqat yig'lagan ovozi buzard ekan. Shunda qayterdandir “Aldab-aldab qo'shiq ayi”, - deb nido kelibdi. Bu nidoi eshitgan Momo Havoning yuragidan bir sehrli qo'shiq kelibdi. Aytishlaricha, Momo Havo farzandlariga aldab-aldab ayrgan qo'shig'i allaga aylangan emish. Yer yuzida paydo bo'lgan sehrli ohang taratgan birinchi qo'shiq alla ekan. Alla ona mehridan yo'g'rilgan mayin sehrli sado bo'lib, Yer yuzida jamiki qo'shiqlarning ibtidoi sifatida kuylanadi.

Azizlarim - Dunyodagi eng go'zal ayol - o'z farzandini bag'riga bosgan ona, Dunyodagi eng go'zal qo'shiq - ona qalbidan chiqayotgan alla.

Bugungi avlod allasi. **Kamolova Mohira opa** - Men momomdan o'rgangan allani sizlarga aytib bermoqchiman, rozimisizlar.

Hamma: - Rozimiz, marhamat. Aytish sizdan, eshitish bizdan.

Mohira opa qatnashchilar orasida aylanib, doira chertib alla aytadi.

Bismillodan boshlayin jonim bolam, alla

Qodir egam bo'lsin hamdam jonim bolam, alla

Tillo beshik taxting bo'lsin, jonim bolam, alla

Onaginang baxting ko'rsin jonim bolam, alla

Alla bolam beshikdagi oyim bolam, alla

Kishnab turgan beshikdagi toyim bolam, alla

Ikkinchi avlod allasi. **Boymirzayeva Mahfuza** - Mening allamni ham eshitinglar. Men ham o'z onam kuylagan allani aytmoqchiman. Ikkinchi avlod tomonidan “Alla” qo'shig'i ijro etiladi.

Kunduzim desam-da ham oz,

Yulduzim desam-da ham oz.

Orom ol qo'zim alla-yo,

Uxla yulduzim alla.

Uchinchi avlod allasi. **Mahmudova Nilufar** - Men ham alla aytishga harakat qilaman. Ba'zi joylarda noto'g'ri aytisan, kechirasizlar.

Hamma - Marhamat, eshitamiz, Nitufarxon!

Alla aytay o'zingga, alla-yo alla,

Uyqu kelsin ko'zingga-yo, alla-yo alla.

Alla jonning rohati, alla-yo alla,

Uyqu ko'zning quvvati-yo jonim bolam.

Alla-yo alla, uyqu ko'zning quvvati-yo,

Jonim bolam alla.

Dunyoning ko'pchilik xalqlarida o'ziga xos kashtado'zlik hunari mavjud bo'lib, ularda har bir xalqning didi, dunyoqarashi, olam va odam haqidagi mifologik tasavvurlari, go'zallik va nafosatni tasvirovchi mehnati aks etadi. Shuning uchun kashtado'zlik xalq amaliy san'atining eng muhim ko'rinishi sifatida alohida qadrlanadi.

Kashtachilik o'zbek xalqining g'ururi, iftixori bo'lib qadimdan mavjud. Chimildiq va sochiqlar, parda va joynamozlar, zarchopon va do'ppilarga tikilgan bezaklar, gullar, hayratomuz shakllar nozikligi, simmetrik aniqligi va ramziy ma'nolar anglatishi bilan kishini o'ziga maftun etadi. O'rta Osiyo xalqlarida, xususan, o'zbeklarda kashtachilik an'anasining qadimiyligi shakllarning betakrorligi bilan ajralib turadi. Kashtachilar bir nechta turlarga ajratiladi va ular barqaror an'anaviylikka ega.

Ma'lumki, qadimda o'zbek qizlari turli matolarga kashta tikib, o'zlariga sep tayyorlashgan. Ular tikkan kashtalarning go'zal va nafis bo'lishi uchun ko'proq sanama tikishga harakat qilganlar. Biroq ba'zan kashtaning bu og'ir turini tikishga eringanlar. Shunday paytlarda onalari koyib, ularni sanama tikishga da'vat qilganlar. Mana shu kabi hayotiy holatlar ham sanama qo'shiqlarida o'z ifodasini topgan:

Momo: Endi qizlarim qadimdan bizga meros bo'lib qolgan qo'shiqlardan birini aytсалaring. Uning nomi “Kashta tikish” qo'shig'i.

“*Kashta*” qo'shig'i

Momo: - Qizlar kashtaning yana bir turi “Ilma” tikishdir. Qadimda kashtaning ilma turini ham nihoyatda epchil, quntli, did-farosatli tika olganlar. “Ilma” qo'shig'ini aytib beringlar.

Qizlar: - Bu qo'shiqni harakat bilan ijro etamiz
Momo: - Marhamat!

“O'rmak” qo'shig'i ham xotin-qizlar tomonidan ijro etiladi. U mehnat faoliyati bilan bog'liq qo'shiqlardan biridir. Uning tarixi uzoq moziyga borib taqaladi.

O'zbeklar orasida o'rmak o'rish, ya'ni gilam, sholcha to'qish keng tarqalgan bo'lib, yuritiladi. Gilam yoki sholcha to'qish bo'z to'qishdan maxsus qo'shiqlar "o'rmak qo'shiqlari" deb kishidan katta sabot va g'ayrat talab etgan. Gilam yoki sholcha to'qish - bu san'atkorlikni talab etuvchi mehnat turi bo'lib, to'qilayotgan mahsulotning yuqori sifatli hamda chiroyli chiqishi hamma vaqt to'quvchini xavotirga solib turadi. Shuning uchun ham o'rmak qo'shiqlarida to'quvchilarga g'ayrat tilash, ularni tezroq ishlashga da'vat etish motivlari ko'p uchraydi:

Momo: - Muhayo, sen "O'rmak" qo'shig'ini aytib ber. Hamma eshitin.

Barcha ishtirokchilar "O'rmak" qo'shig'ini ijro etadi.

Momo: - O'zbek xalq laparlari folklor san'atining mustaqil janrlaridan biri bo'lib, u o'zining tarixiylik ildizlari bilan ancha qadimiydir. Bu qadimiylik janrning ijro o'rni bevosita marosim bilan aloqadorlikda yaratish va ijro etilish, ijro tarzi - ikki jinsga mansub shaxslar o'rtasida aytishuv shaklida voqe bo'lishi, o'z tarkibida so'z va musiqa uyg'unligi, xoreografik hamda dramatik turga xos xususiyatlarining mavjudligi - folklorga xos sinkretizmning ishtirok etishi bilan to'la tasdiqlanadi.

Xalq laparlari janri o'z boshidan mana shunday tarixiy jarayonlarni kechirayotgan bir paytda ko'plab lapa namunalari yirik san'atkorlar repertuariga o'tib, qaytadan sayqal topib, el orasida kuyiladi. Tamaraxonim, Halima Nosirova, Mehri Abdullayeva, Rahima Mazohidova, Tursunoy Mamedova, Gulshod Otoboyeva kabi ko'plab yirik san'atkorlar repertuaridan mustahkam joy olgan xalq laparlari o'zlarining xalqona asoslarini, mazmunini yo'qotmagan. O'zbek xalq laparlari ikki qismga bo'lib o'rganiladi.

Birinchi - ommaviy xalqona ijroga ega bo'lgan terma laparlar.

Ikkinchi - professional san'atkorlar repertuariga o'tgan laparlar. Ular to'ylar (to'ya san'atkor "taklif etilganda"), bayram va sayillarda ijro etilgan. Xozir ham bu jarayoni davom ettirmoqda.

Xalq o'rtasida lapa aytish an'anasi mustaqillik sharofati bilan qayta tiklanmoqda. Respublikamiz o'zining milliy mustaqilligini qo'lga kiritgach, milliy qadriyatlarimizga bo'lgan munosabatni butunlay o'zgartirib yubordi. Endilikda xalq laparlari eskilik qoldig'i yoki feodal jamiyatan saqlanib qolgan sarqit emas, balki xalqimizning o'z ildizlari bilan qadim-qadimdan beqiyos badiiy dahoga ega ekanligini isbotlovchi nodir asarlar sifatida baholalanmoqda. Davlat ahmiyatiga ega bo'lgan Navro'z va Mustaqillik kuniga bag'ishlagan tantanalarda sevib ijro etilmoqda. Endi lapa aytishni boshlaymiz qizlaring.

Guruhli lapa ijrochiligi boshlanadi:

Qutlug' bo'lsin to'yungiz,
Yuzga kirib umringiz,
Biz ham sizdek bo'laylik,
Nurga to'lsin uyingiz.
Biz yoshlarni baxtiga,
Doim omon bo'lingiz.

Mahfuza Boymirzayeva doira bilan "Anjir" laparini ijro etadi.

Gulsara opa "O'layli" laparini raqsi bilan ijro etadi.

Dildora opa "Xush kelibsiz" laparini doira chalib aytib beradi.

Mohira opa ijrosida "Toshkentning tor ko'chasi" lapari kuyiladi.

Qizlar tomonidan guruhli lapa ayishuvlardan - "Hay, balli" ijro etiladi.

Hay balli do'st yor-yor, labrida mayda xol bor-yey.

Xoichasida mo'miy, tilida novvot bol bor-yey.

Hay yallo yallo, qizgina, jamalagi tillo qizgina.

Qizlar:

"Qizgina" qo'shig'i raqsi bilan ijro etiladi

O'zbek xalq qo'shiqlari mavzu jihatdan rang-barang, mazmunan juda boy va qadimiydir. Mehnat qo'shiqlarida mehnatning oddiy jarayonidan juda murakkab formalari, ko'chmanchilikdan o'troqlik hayotiga o'tish tasvirlanadi, ya'ni yakka turmush kechirishdan birlashib ishlash, mehnatga yangicha munosabatda bo'lish davridagi turli xil holatlar kuyiladi.

Xalq qo'shiqlarining ahamiyatini ko'rsatadigan, belgilaydigan asosiy omillaridan biri - ularning xalqchilligidir. Qo'shiqlarda qo'yilgan masalaning xalq uchun ahamiyati jihatli tasvirlanadi. Xalq turmush tarzida yuz berayotgan voqeani xalq manfaati, umid-istaklari tasvirlagan uchun hayotiy hodisalarni real aks ettiradi. Uning kishilarni eng yaxshi his-tuyg'ularini tarbiyalashdagi ahamiyati kattadir.

Xalq qo'shiqlaridagi u yoki bu obraz turmush hodisa-voqealarining asl mohiyatini ochib ko'rsatadi. O'sha hodisa-voqega baho berilgina qolmasdan, o'sha turmush hodisasiga hayot taraqqiyotining turli bosqichlarida bo'lgan turlicha munosabatlarni ifodalaydi.

Shu tufayli ham xalqimiz qo'shiqlari bir necha yuz yillar davomida shakllanish, rivojlanish, goho tanazzul yo'llarini boshidan kechurgan. Bugungi kunda ijro etilayotgan xalq qo'shiqlari g'oyaviy-badiiy mahorati jihatidan mukammal ijrosi bilan rivojlanmoqda. Bu durdona qo'shiqlarni turli janrlarda ijro etishmoqda.

"Yor aylanay" qo'shig'i ana shu durdona qo'shiqlar sarasiga kiradi

Mahfuza opa xalq qo'shiqlaridan birini ijro etadi. Ansambl qizlari qo'shig' ohangi va mazmuniga mos holda raqs ijro etadilar.

Qatnashchilar "Yor yor" qo'shig'i bilan kelinni olib chiqadilar. Dildora Bektararova kelin salom aytadi. Qizlar kelinni salom qildiradilar

1. Namangan, Farg'ona, Andijon kelin salomi
2. Xorazm kelin salomi
3. Sirdaryo, Jizzaxkelin salomi
4. Surxondaryo, Qashqadaryo kelin salomi
5. Samarqand, Navoiy, Buxoro kelin salomi
6. Toshkent kelin salomi

"Yor-yor" sadosi ostida kelinlar chiqib ketadi.

Yor-yor tugagach barcha qatnashchilar tomoshabinlarga qarata:

Milliy an'analar, qadriyatlar, ko'hna udumlar, qo'shiqlarning umri boqiy bo'lsin!

Tinchlik, osudalik, farovonlik hukm surayotgan elimizda onalar baralla kuyilasin! deydi.

"HIKMATLI SO'Z - BARKAMOLLIK TIMSOLI" MAVZUIDAGI SENARIY

Har bir mamlakatda yashovchi xalqlarning o'zaro munosabatida axloqiy normalar mavjud. Xalq o'g'zaki ijodiyotining janrlaridan biri hikmatlardir. U inson ma'naviy kamolotining barkamollashtiruvchi, ma'naviy-axloqiy xususiyatlarini shakllantirishda tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu axloqiy normalarning asosini milliy tarbiya tashkil etadi. Chunki ajdodlardan bizga meros bo'lib qolgan hikmatlar yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Purma'no hikmatli so'zlar ma'naviy barkamollikdagi asosiy hisoblanadi. Undagi barcha fikrlar qisqa, lekin olam-olam ma'no va mazmun kasb etadi. Ularning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati o'ziga xos xususiyatga ega. Mustaqillik sharofati tufayli barcha janrlar qatori hikmatli so'zlar ham har jihatdan targ'ib

etilib, o'rganilib sahna yuzini ko'rmoqda. Bu esa yoshlar ma'naviy barkamolligini tiklashning eng to'g'ri usullaridan biridir.

Sahna. Sahna milliy urf-odat va an'analrimizga xos va mos tarzda, milliy o'yinlarimiz bo'lib o'tayotganligi munosabati bilan milliy hunarmandchiligidan bo'lgan kashalalar, quroqlar, palaklar bilan bezatilgan, ya'ni devorlar, atrof sahnaning hammasi tomoni shular bilan o'rallib, har xil tumorlar ilinib, kashalarga zeb berib, kishini dilini yayratib ko'zni quvontiradi. Har xil ko'rinishdagi ko'zalar joylashtirilgan.

Sahna pardasi ochiladi. Surxon vohasiga xos kiyim kiygan, sochlari qirqta kokil o'rigan sultuv qiz boshlovchi bo'lib chiqib keladi va mayin tabassum bilan boshlaydi.

Boshlovchi – Qadrlar yaxshilikni,

So'zimiz – oliy himmat.

Tarbiyalar avlodni

Aytilgan har bir hikmat.

“Hikmatli so'z – barkamollik timsoli” nomli ishning ijodiy qismini e'tiboringizga havola etamiz. Marhamat!

Qatnashchilaridan biri Shohjahon sahnaga chiqib keladi. U yoq - bu yoqqa qarab

- Ey, hech kim ko'rilmaydi. Nega kelishmayapti.

Shunda to'satdan Kamol aka doira cha'itib kirib keladi.

Shohjahon – Yigit-qizlarni ko'rmingizmi?

Kamol aka – Yo'q, ko'rmadim.

Shohjahon – Unda bekori kutib o'tirgandan foyda yo'q. Men ularni chaqiraman.

Kamol aka – Men ularni doira usuli orqali chaqiraman.

Shohjahon – Men bitta qo'shiqni aytishni boshlasam, siz doirangizni chalsangiz, shu bahona ularni chortlasak, nima deysiz.

Kamol aka – Xo'p bo'ladi. Boshladik bo'lmasa

Shohjahon chorlov sifatida “Andijon polkasi” qo'shig'ini aytadi. Ushbu qo'shiq orqali qatnashchilar o'yin-kulgular bilan sahnaga chiqib kelishadi.

Andijon polkasi

Qo'shiq tugagach, Gulbahor hikmatli so'zlar aytib, izoh berish shartli xalq o'yinini kim birinchi boshlashini va guruhlarga ajralib o'yin boshlanishini tushuntiradi.

Gulbahor – Demak, qani yigit-qizlar

Jamoa – Labbay.

Gulbahor – Barcha yig'ildimi?

Jamoa – Ha.

Gulbahor – Tayyormisizlar?

Jamoa – Tayyormiz.

Gulbahor – Qani, mana shu teng o'rtadan ikkiga bo'linamiz. Ushbu toshni qo'limga yashiraman. Ikkala jamoa sardorlaridan kim topsa, o'sha o'yinni birinchi bo'lib boshlaydi.

Qo'ldagi toshni yashiradi. Ikkala sardor chiqib kelib bittadan qo'lni ushlaydilar. Yashiringan toshni Husniddin topqani uchun ushbu jamoa o'yinni boshlaydi.

Husniddin – Xo'sh, shartga tayyormisizlar?

Jamoa – Ha, tayyormiz.

Husniddin – Bo'lmasa eshitinglar:

Zamon seni o'qitar,

Tayoq bilan so'qitar.

Sabog'ingni bilmasang,

Do'konda bo'z to'qitar.

O'lmas – Bu hikmatli so'zning ma'nosi ilm bilan bog'liq. Har kim o'z vaqtida ilm olsa, chuqur egallasa qoqilmaydi. Agar o'z vaqtida ilmni egallamasa, hayotda ko'p qoqiladi. Qiyinchiliklarga uchraydi. Ana endi men ham hikmatli so'z aytсам.

Keksaga ko'mak ber.

Suyangan tog'ing.

Buni tushunarkan.

Qarigan chog'ing.

Doira chalinadi. Kamol javob beradi.

Kamol – Ey do'stlar! Haqiqatan ham keksalarga ko'mak berish kerak. Ertaga vaqt o'tib biz ham keksaygan chog' bizlarga ham kimlardir ko'mak beradi. Bu dunyo qaytar dunyo. Nima eksang shuni o'rsan, deydi dono xalqimiz. Ma'qulmi, do'stlar!

Jamoa – Ma'qul, tushunarli.

Kamol – Ana endi men davom ettirсам.

Bilginki, bevafo'dir,

Ko'ngil qo'ymoq xatodir.

Avaz – Men sharhlayman. Ko'chada ko'rgan qizga bilimay muhabbat qo'yma, ko'chada dunyoda bevafo'lar ko'p degan.

Kamol – Hikmatli so'zni to'liq sharhlab bering.

Avaz – Bu hikmatli so'zning asosiy mazmuni vafoli va vafodorlik haqida ketadi. Vafoli haqida gap ketganda aynan sevgi, muhabbat bobida emas, vatanga muhabbat, aka-ukaga, ustoz-shogird o'rtasidagi vafoli haqida ham gap ketadi. Asli bu hikmatning tagidagi ma'nosi shuki, uning bevafo'ligini bila turib unga ishonmang, shu insonga ko'ngil qo'yman va o'sha insonga hech qanday ishonch qolmagan deytishgan. Ma'qulmi, do'stlar!

Kamol – Ma'qul, ma'qul.

Shu payt to'satdan Javohir kirib keladi

Javohir – Ey, bolalar.

Jamoa – Labbay

Javohir – Sizlar bu yerda ekansizlaru, uning ustiga men Kamolaxonni izlab yuribman. Kamolaxon pardoz-andozingizni qilib, sekin ketib qolibsizda-a.

Shunda Kamola yigitlar oldida uyatib, ko'yilgini yengil bilan yuzini yashiradi. Javohir unga qarab “Ro'moling” qo'shig'ini aytadi. Kamola sekin yurib kelib, raqsaga tushadi.

“Ro'moling” qo'shig'i

Qo'shiq tugagach Javohir to'molini bilagidan ushlab sahnaning bir chetida oshiqlar kabi so'zlashib turishadi. Mumo'jat ona dasturxon o'ralgan tog'orani ko'tarib sahnaga chiqib keladi va oshiq'larga ko'zi tushib:

Mumo'jat ona – Voy, hali shumi Xumor xolaning qizi. Qani o'zi. Ko'rdim-ko'rdim, u yigit bilan nima qilib turibdi bolam, deb xafa bo'lib ko'zidan yosh chiqadi. Shunda o'g'li Avaz onasining ko'ngliga qarab “Xumor xolaning qizi” to'g'risida qo'shiq bayot etadi.

“Xumor xolaning qizi” qo'shig'i

So'ng Javohir Kamolaga qarab:

Javohir – Kamolaxon, bu yerda bizga hech tinchlik yo'q ko'rinadi. Yuring, men sizni Andijonga olib ketaman.

Shu payt Abdulvosit Izzatullayevning “Yor ketdi Andijonga” qo'shig'i boshlanadi. Hilola Xo'jayeva raqs ijro etadi.

“Yor ketdi Andijonga” qo'shig'i

Husniddin sahnaga chiqib keladi va Abdulvositga qarab:

Husniddin – Do'stim, nimaga xafa bo'lasan, undan ko'ra kel, jo'ralar bilan o'ynaymiz.

“Jo'rajon” qo'shig'i

“Kelmadi” qo'shig'i

“Dutor” qo'shig'i

“Qaydasan” qo'shig'i

“Yor-yor, yoroney” qo'shig'i

Qo'shiq tugagach karnay-surnay ikki tomondan chiqib, bir-biriga qarab yuqorida tepa qismi birlashtiriladi va doira chalinadi. Qatnashchilar ikkittadan o'yin-kulgub bilan yurib kelib ta'zim qilib, ikki tomonga qarab chiqib ketishadi.

Gulbahor – Hikmatli so'z bizni yaxshilikka, ezgu niyatlarimizni amalga oshishga doimo hamroh bo'lsin!

“TO'QQIZ TOBOQ MAROSIMI” MAVZUIDAGI SENARIY

Surxondaryo udumlaridan biri – **“To'qqiz toboq”** – nikoh to'yida kuyov va uning jo'ralari kelini olib ketish uchun kelishganida bajariladigan odatlardan biri. An'angaga ko'ra, kelinning uyida kuyov va uning jo'ralarini mehmon qilish uchun maxsus xona tayyorlanib, dasturxon to'qqiz xil tansiq taom tortiladi. Surxon voxasida “to'qqiz tovoq” tarkibi palov, chuchvara, sho'rva, shirguruch, lochira, qatlama, yupqa, g'ilvindi, pishgan tuxumdan iborat bo'lgan. Kuyov uchun **“qari ilik”**, ya'ni to'yda so'yilgan qo'yning, molning iliki suvagi alohida tovoqqa tortilgan. Bu ilikni dastlab kuyov qoqib yegan va davradagi kuyovjo'ralari ham “shu kunga yetaylik” deb yaxshi niyat qilib, talashib-tortishib yeganlar. Dasturxondagi taomlar yeb bo'lingach, kuyov va uning jo'ralari bo'shagan tovoqlarga pul tashlashgan. Ba'zi joylarda kelinning yaqin qarindoshlaridan biri katta tovoqni aylantirib pul yig'ib olsa, boshqa joylarda dasturxon yig'ib olingach, o'rtaga ayollar jelagi to'shalgan va kuyovjo'ralar ana shu jelakning ustiga pul tashlaganlar. “To'qqiz toboq” udumi bajarilgach, kelin tomon kuyovga alohida sarpo kiydirgan, jo'ralariga esa belbog' bog'laganlar.

Ayrim joylarda “to'qqiz toboq” kelin tushirib kelingach, kuyov navkarlarga ulashilgan. Kelin bilan kuyov chimildiqqa kirishgach, kuyovning eng yaqin jo'ralaridan bir nechtasi ichkariga chaqirilgan va ularning oldiga dasturxon yozilib, kelimikidan olib kelingan to'qqiz xil taom tortilgan. Kuyovjo'ralar o'zlarini “to'qqiz tovoq” bilan siylagan quda ayollariga “mehmon puli” berganlar.

Bu udum “Alpomish” dostonida shunday tasvirlangan:

Boyvachchalar bekning girdin oladi,

Kuyovnavkar bo'lib bunda turadi,

O'zbekning rasimi shunday bo'ladi:

Qizu juvon bari yig'ilib keladi,

Ayollari to'qqiz tovoq qiladi,

Kuyovning oldiga shunday boradi.

Opborgan taomin navkarlari yeb,

Tovog'iga tangatilla soladi.

“To'qqiz” raqami o'zbek nikoh to'yi marosimining “To'qqiz jo'natish”, “To'qqiz bichar”, “To'qqiz to'y” atamallari bilan yuritilgan udumlarida ham uchraydi. Andijon shahrida kelina atab olib boriladigan har bir sovg'aning to'qqiztadan bo'lishi odati “to'qqizlab” deyiladi. Masalan, ko'yalik olib boriladigan bo'lsa, uning to'qqizta bo'lishi, boshqa barcha to'yonalarning hammasi shunchadan bo'lishiga rioya etilgan. Bu odat

Asakada “to'qqiz qator”, O'sh viloyatida yashovchi o'zbeklar orasida “bir to'qqiz” deyiladi. O'zbek tilining boshqa shevalarida sovg'aning bu turi “to'qqiz”, “to'qqiz-to'qqiz” deb nomlanadi. To'yda mehmonlar oldiga osh qo'yishdan avval non tortish odati “to'qqiz tortdi” deyiladi.

Anjumanlar saroyi milliy ruhda bezatiladi. Surxondaryoning o'ziga xos jihozlari bilan bezatilgan uy. Hayajon bilan qizning otasi yurgan paytda kuyov navkarlarning ovozi eshitiladi. Yigitlar qo'shiq aytib kirib kelishadi, ota ularni kutib oladi.

“Kuyovni yov dermishlar” qo'shig'i

“Checham o'ynar” qo'shig'iga qizning otasi va onasi raqsga tushadi. To'y kursandchiligi boshlanadi. Yigitlar ularga qo'shiladi.

“Checham o'ynar” qo'shig'i

Davrada turgan baxshi “To'qqiz toboqni” olib kelishlari haqida qo'shiq kuylaydi.

“To'qqiz toboq” ayitimi

Hay, yoraaay,

Do'mbiram qo'lgayey ushlayin,

Besh panjani pardasiga tashlayin,

Dasturxonlar tortiladiyey yoronlarey,

To'qqiz toboq udumin aytish boshlaymey.

Aytaymay yurim holini,

O'lloh taolo asrasiney uni,

Dasturxonga tortayotar ey yangalar,

Qator-qator patir hamda nomini.

Aytaymay bu dunyoni ishini,

Aytaymay qarindoshning xeshimi,

Dasturxonga tortayotir ey yoronlarey,

Tandir go'shtu shirbozini ey.

Aytayin bir boshdan chevarin,

Aytayin musafiro vatanin,

Dasturxonga tortayotir ey yoronlarey,

To'la-to'la mevalaru sharbatini.

Aytayin gaplarini matnini,

Aytaymay yuraklarda dardini,

Dasturxonlar tortayotir yoronlar ey,

Qatlama-yu, manti, g'ilimindini.

“To'qqiz toboq”ning masalliqlarini kuyov navkarlar tanovvul qilib bo'lgach, ketishga ruhsat so'raydilar.

Otaxon: “To'qqiz toboqni haqqini bermaysizlarmi?”, – deydi.

Yigitlar: “Aytin, to'qqiz toboqning haqqini beramiz”.

Otaxon: “To'qqiz toboqning xaqqi chiroyli qo'shiq va o'yin kulgida”.

Yigitlardan biri: Otaxon, o'zingiz boshlab bering bo'lmasa, -deydi.

Otaxon: Roziman. Yoshligimda xirgoyi qilib yurgan bir ashula bor, sizlar ham qo'shilasizlar.

“Yallo, yallo” qo'shig'i

Otaxon yigitlardan biriga: “Qani, o'g'lim, sen chiqib ashula ayt. Davrani yenga berdim”, - deydi. Yigit qo'shiq boshlaydi.

“Dutor chalb” qo'shig'i

Otaxon: “O'lmas o'g'lim, sen nima qilib dutor ko'tarib yuribsani?”, - deydi.

O'Imas: "Otaxon, ruhsat bersangiz mana shu dutorim bilan qo'shiq aytib beraman", - deydi va qo'shiqni boshlaydi:

"Dutorida bor bir sado" qo'shig'i

Otaxon: "Kamol o'g'lim, ko'zlarining bejo? Birovni sevib qoldingmi?", deydi.

Kamol: "Men sevgi haqida qo'shiq aytmog'chiman", deydi va qo'shiqni boshlaydi:

"Olmazor" qo'shig'i

Otaxon: "Endi navbat senga o'g'lim", - deb kuyovnavkarlardan biriga murojaat qiladi.

Yigit: "Xo'p" deb qo'shiq boshlaydi.

"Kun bormi" qo'shig'i

Otaxon: "Kampir, seni ham yoshligingda aytib yurgan qo'shiqlaring bor edi. Bir kuylamaysanmi?"

Kampir: "Siz ruhsat bersangiz aytganim bo'lsin", - deydi va qo'shiq boshlaydi:

"Atlasing toblanadi" qo'shig'i

Otaxon: "Zafar o'g'lim, xafaroq ko'rinasanmi?"

Zafar: "Otaxon, nimasini aytay, keliningiz mendan arazlab ketgan. Shu haqida qo'shiq aytaman" - deydi va qo'shiqni boshlaydi:

"Arazladi" qo'shig'i

Nodir: "Otaxon, ruhsat bersangiz bo'lg'usi kelimingizga bag'ishlangan qo'shig'imni aytmog'chiman"

Otaxon: "Marhamat" deydi.

"O'zim yaxshi" qo'shig'i

Husniddin: "Otaxon, bir qizni sevib qolib, har kuni ko'chasidan o'taman. Uning ishqida shoir bo'lib ketdim. Sizlarga shu qo'shiqni aytaman"

"Jo'talib-jo'talib o'taman" qo'shig'i

Zafar yigitlarga qarab, - "Menga ham navbat beringlar. Surxoncha qo'shiq aytib beraman."

"Shaqilladi barnog'im" qo'shig'i

"Choynak piyolaga" qo'shig'i

Hilola davraga chiqib: "Kelinning dugonasiga ham navbat beringlar. Men ham qo'shiq aytoy", - deydi.

Yigitlar: "Marhamat."

"Choy beraman ichsangiz" qo'shig'i

Qosim davradagilarga murojaat qilib: "Kelinning dugonasi sho'x chiqib qoldi. Hozir men Xorazmcha qo'shiq aytaman. Hilolaxon siz raqsqa tushib bering", - deydi va qo'shiq boshlaydi:

"Xurshidu jahon galdi" qo'shig'i

Avaz: Do'stlar, kuyovimizga atalgan nasihat qo'shig'imni aytmog'chiman.

Davradagilar: Marhamat, marhamat.

Avaz kuyovga qarab qo'shiq ijro etadi:

"Kuyovga nasihat" qo'shig'i

Kamol: "Kelimimizning Buxoro va Samarqanddan kelgan dugonalari bor ekan. Men qo'shiq aytaman, ular raqsga hududga xos salom berishadi", deydi va qo'shiqni boshlaydi:

"Boda-boda" qo'shig'i

Javohir: Marosimimiz ham oxiriga yetay deb qoldi. Kelin bilan kuyovni olib chiqinglar. To'y haqida qo'shiq aytaman, hammamiz birgalikda kuyovnikiga boramiz, deydi.

"To'ylar muvohakat" qo'shig'i

Qo'shiq tugagach, kuyov kelinni ko'larib olib chiqib ketadi. Ularning ketkandan kuyovnavkarlar ham qo'shiq sadolari ostida chiqib ketishadi.

"TUSHOV KESDI - BIRINCHI QADAMI" MAVZUIDAGI SENARIY

"Tushov kesdi" - yosh bola yurishni o'rganayotgan paytda oyog'iga solingan tushovni bir keksa kishining kesishi odati. Buxoro viloyatining Qorako'l tumanidagi Jig'achi qishlog'ida bola yurishini o'rganayotganida *"tez yurib ketisin va umr bo'yi rizqi mo'l bo'lsin"* deb oyog'ini orasidan yetti dona kulcha dumatadilar.

Bola oyog' chiqarayotganda "qoqilmasin" uchun, ammasi uning oyog'ini birorta ohorli ip bilan bog'laydi. Keyin ana shu ipni birorta keksa momoga kestiradilar. Bu odat *"dushoq kesdi"*, ya'ni "tushov kesdi" deyiladi.

Bolaning "oyog'i chiqmasa" yetti kulcha yopib, bolaning oyog'i tagidan dumalatadilar va bu kulchalarni ko'chada o'ynab yurgan yetti bolaga tarqatadilar. Bolamiz ham ana shu bolalarday yugurib, o'ynab ketisin deb bu irim bajariladi. Yurishi qiyin bo'lgan bolaning oyog'i ostidan kulcha yumalatadilar va akasi yoki birorta qo'shni bola ana shu kulchani bolaga ko'rsatmasdan orqasiga qaramay olib qochadi.

Xorazm viloyatida bola ilk bor atak-chechak qilib yura boshlaganida oila davrasida *"oyog' to'y"* o'tkazilgan. Ayrim joylarda bola endi yura boshlaganida savalagan paxtadan g'ildirak yasab, bolaning oldidan dumalatib yuborganlar, so'ngra ana shu paxtaning izidan bitta kulchani g'ildiratganlar. Bola oyog' chiqarayotganda ulg'aysa ildam yuradigan bo'lsin degan maqsadda oyog'iga xonqizini surkaydilar.

Olot tumanining Qassabbayot qishlog'ida oyog' chiqqan bola chalishib yura boshlasa, uni bir nechta tut daraxtlari bir-biriga o'rilib, chatishib, tarvaqaylab o'sgan joyga olib borganlar. Bir xotin tutning bu yog'ida turib bolani daraxtlar orasidan uzatgan va boshqa ayol narigi tarafdin turib bolani tortib olgan. Har chorshamba kuni bu irim uch maria qaytarilgan. Uchinchi kuni tutning tagida pilik yoqib, cho'zma chalpak pishirib, "is" chiqarilgan. Shunday qilinsa, bola chalishib yurmaydigan bo'ladi, deb umid qilganlar.

Arijumanlar saroyi salinasi oilaviy jihozlar bilan bezatilgan. Uzoqdan karnay-surnay ovozi eshitiladi. Sahnaga "Tushov kesdi" marosimi qatnashchilari kirib keladi.

Bobo: "Xush kelibsiz mehmonlar! Mana nabiramiz ham yurishga shaylanib turibdi. O'zbek xalqida yurishga shaylangan bolani oyog'iga arqon bog'lab, bobosi qirqib yuborgan, oyog'ini o'rtasidan kulchalar dumalatishgan. Shu kulchalarni olaman deb bolalar qatoriga kirib, u ham yugurib ketgan. Qani, momosi mana bu yerga oq poyondoq soling, nabiramizni olib keling. Unga atalgan sarpolarni kiygizaylik. Udumimizni boshladik bo'lmasa".

Bobo: "Mana, udumimizni ham o'tkazib oldik. Nabiramiz yugurib-yugurib kulchalarni terdi. Endi mehmonlar o'yin-kulgumi boshlasak ham bo'ladi. Qani mehmonlar, to'y bolaga atalgan qo'shiqlaringizni birma-bir eshitamiz".

"To'y bola" qo'shig'i

"O'g'il bola" qo'shig'i

"Toqqa qor yoqqan kabi" qo'shig'i

"Opang qani" qo'shig'i

"Yoy dod" qo'shig'i

"Do'mbiram" qo'shig'i

"Sayyora" qo'shig'i

"Samarqand mavrigi" qo'shig'i

"Asra qizil gulingni" qo'shig'i

"Shirin-shirin" qo'shig'i
 "San garak" qo'shig'i
 "Lazgi" qo'shig'i

"Tushov kesdi" marosimi tugagach, barcha qatnashchilar karmay-surnay sadolari ostida sahnadan chiqib ketadilar.

"GULISURX MAROSIMI AN'ANALARI" MAVZUIDAGI SENARIY

"Guli surx" – qadimda Buxoro, Samapqand atrofidagi qishloqlarda o'tkazilgan an'anaviy qizil gul sayli. Buxoroliklarning "guli surx" sayli Bohovuddin mozarida o'tkazilgan. Bu tantana bir oy davom etgan. Samarqand yaqinidagi bir qishloqda ham "guli surx" sayli haqidagi ma'lumotlar saqlanganligini aniqlagan etnograf N.P.Lobachyovanning yozishicha, yosh yigit va qizlar to'p-to'p bo'lishib lolalig'aldoqlar terish uchun shahar tashqarisiga chiqqanlar. Sayli markazi Cho'ponota mozarida bo'lgan. Bu sayli "guli surx" deb yuritilgan.

"Guli surx" tantanalari Buxoro viloyatining Shofirkon tumani qishloqlarida ham o'tkazilgan. Bu bayram dehqonlarning bahorgi ekitish mavsumi bilan bog'liq bo'lib, hamal oyining avvalida boshlangan va bir oy mobaynida uzluksiz tantana qilingan. Bu bayram atirgulgula emas, balki ko'klamda ochiladigan qizil gulga bag'ishlangan. Bir oy davomida qishloqlarda bozorlar gavjum bo'lgan, sayillar uyushtirilgan (A.X.Hamroyev, 72-73). Shofirkonliklarning "guli surx" sayli yangi dehqonchilik mavsumining boshlanishi bilan bog'liq holda o'tkazilgan.

Bahovuddin Naqshband bozori yonida o'tkazilib kelingan "guli surx" saylining nisbatan to'liq tavsifi buxorolik etnograf G.Qayumova tomonidan yozib olingan. "Qizil gul" saylida yigit va qizlar "Olma otish", "Gul uzatish", "Anor otish" o'yinlarini o'ynaganlar. Yosh kelinchaklar "kelin salom"ni bajaraganlar. "Qizil gul" shodiyonasiga atab o'shiqlar to'qilgan, laparlar aytilgan (G.Qayumova, 6). Bahovuddin mozori yonida har yili bahorda o'tkazilgan "Guli surx" saylida to'rtlik shaklidagi an'anaviy qo'shiqlar aytilgan. Bundan tashqari, "Qizlar bozori qaydadir?", "Olmaning bargi mayda", O'ldirsa, yor o'ldirsin, "Adog'-adog'a dilbar", "Dilbari yagonamiding", "Aka, mana donaysho'raak", "Yomg'ir, yomg'ir, mehribonim yo'lidadir", "Kissaanda kishimshim bor" kabi qo'shiqlar ham ijro etilgan.

Sahna gullar bilan bezatilgan. Ikki chetida bittadan supacha qurilgan.

"Boychechak" qo'shig'i

"Hoy bobo" qo'shig'i

"Olu-voh" qo'shig'i

Sahnaga Hurnatoy opa chiqadi:

Bolalar, men sizlarga bir rivoyat aytib beraman:

Qadimda Xo'ja Taqrovut degan avliyo bobomiz o'lgan ekan. Xo'ja Taqrovut yetti og'a-inimning biri bo'lib, kunlarning birida uarning qishlog'iga dushman hujum qilibdi. Jangda dushmaning qo'li baland kelib, qishloqning kulini ko'kka soviri bdi. Xo'ja Taqrovutni tanasini mayda-mayda qilib, butun yer yuziga sochi b tashlabdi. Xo'ja Taqrovutning qoni tushgan yerlardan qip-qizil lolalar unib chiqibdi. Shundan bo'lsa kerak, o'tmishda ajdodlarimiz lolani Xo'ja Taqrovut avliyo bobomizning qonidan paydo bo'lgan deb taxmin qilishgan.

Xo'sh, biz mana shu daraxtni nima uchun bezatdik? Daraxt novdasiga lolalarni bog'lab chiqish udumi ana shu afsonaviy avliyoning johillar tomonidan bo'lib tashlangan tanasini qayta tiklashning ramziy amaliidir.

Qizlar daraxtga yaxshi niyat qilib qiyiqchalar ham bog'lashadi. Daraxtni esa gul sayli o'tkaziladigan maydonning o'rtasiga o'rnatishadi.

Yigitlar: O'rtaga gul tashladik,

Gul saylini boshladik.

Shoxi atlas keyibsiz, tumorlarni ilibsiz.

Bohovuddin bormoqni, yuraklarga tugibsiz.

Keldilar bog'lar osha, bo'ldi ajib tomosha.

Buxoroda gul sayli, o'z nomiga yarasha.

Ko'z tashlamang shinniga, solib qo'ying chinniga.

Bohovuddin bog'tida, kurashing og'a-iniga.

Yetimga bearing oshlar, egilmasin yosh boshlar.

Sahning ham saylidir, to'kilmasin ko'z yoshlar.

Havosi hakim luqmon, kerak elga soyabon.

Bohovuddin yurtiga, uzilmay kelar mehmon.

Qavmlarga aytngiz, egri yo'ldan qaytingiz.

Bahovuddin yurtida, tugamasin baytingiz.

"Endi mani yor o'ldirsin" qo'shig'i

Odil "Gul" qo'shig'ini ijro etadi:

"Gul" qo'shig'i

O'ylan

Oqsoqol: O'lanlarni bir-biriga solishtiray,

O'lanchi qiz-yigitlarni tanishtiray.

Bu yigit-qiz sizga aytсам mohir cho'pon,

Shuning uchun kiyib olgan qalin cho'pon.

Kampir: Bu yigit-qiz sovuq bo'lsa shunde qotar,

Issiq bo'lsa pishillaydi, terga botar.

Ikki hana o'z uyida yolg'iz yotib,

Narsalarni arzon olib, qimmat sotar.

Oqsoqol va kampir tomoshabinlarga ta'zim qilib, o'lanchilarni qo'llab turgan yigitlar tomonga chol, qizlar tomonga kampir o'tib oladi.

Oqsoqol: O'lanlarni eshatdingiz hoy xaloyiq,

Yigitlarning o'lanlari beshga loyiq.

Kampir: Sho'x qizlarim ayyorona boqib qo'ydi,

Yigitlarni po'stagini qoqib qo'ydi.

Tomoshabin bizlar uchun ulug'a'zim,

Hurmatini bejo aylab qiling ta'zim.

"Xurshidi jahon galdi" qo'shig'i

"Ey yuzi gul yor" qo'shig'i

Sahnaga Bekzod chiqib she'r o'qiydi:

Ko'ngillardan unib chiqar gul,

Yer yuzini egallar butkul.

Gul hidiga bu olam to'lsin,

Gulni suygani salomat bo'lsin.

"Olmanni bargidakkina" qo'shig'i

Dastur so'ngida hamma ishtirokchilar sahnaga chiqib ta'zim qilishadi.

“SANAMA AYTIMLARI” MAVZUIDAGI SENARIY

Sanamalar – shovqin asosida, sanoq ritimida aytiladigan qo‘shiqlar sifilasidir. U o‘tmishda ham, hozir ham bolalar o‘yin faoliyatini boshqarib kelayotgan faol badiha. Ayni zamonda, bolalar ijodkorligi namunalari sifatida keng tarqalgan. Chindan ham sanamalar ko‘p vazifali bo‘lib, bolalarda ohang tuyg‘usini tarbiyalash asosida estetik zavqni oshirsa, yoddan aytish yoki yoshlashga mo‘ljallanganligi bilan xotirasini mustahkamlaydi: og‘izda ijro etish tufayli bolalar nutqini rivojlantirsa, har so‘zga amal va itoat qilishga majburiyat sezdirish tufayli so‘zning ijtimoiy qudratini, demakki, so‘z va ish birligini, ichki intizom tuyg‘usini his qilish, shu asosda majburiyat va burch tuyg‘usini tarbiyalashni ta‘minlaydi. Eng muhimi, ichki intizom tuyg‘usini negizida amal qiluvchi hayot nizomini o‘zlashtirishga yo‘l ochadi. Binobarin, sanamalar xalq pedagogikasida uzoq zamontan davomida bolalarning o‘z-o‘zini tarbiyalash vositasi bo‘lib sinalgan o‘yin va uning poetik debochasi sifatida alohida ahamiyatga ega.

“Sanama” istilohi “sana” – buyruq fe‘li va –ma yasovchi qo‘shimchalaridan iborat grammatik qismlarining o‘zaro qo‘shiluvchidan hosil qilingan. Dastlabki qismi buyruq fe‘li shaklida bo‘lsa-da, aslida, goh oshkora, goh ohang zamirida, goh ma‘nosiz so‘zlar aksida o‘yinga aloqadorlik tartibini ifoda etishni bildirsa, *-ma* affikasi qo‘shilib, hodisa mohiyatini lo‘nda va ixcham, to‘la va teran ifoda etuvchi istilohiy ma‘no kasb etgan.

Odatda, o‘yinda navbatda qoluvchi bolalarni aniqlash vazifasini o‘tovchi sanamalarni aytish tartibi ham o‘zgacha. Shu sababli sanama ijrochiligi g‘oyat mas‘uliyatli sanalib, bunda onaboshi quyidagi talablarni bajarmog‘i:

- 1) bolalar jamoasini uyushitira oladigan darajadagi tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lish;
- 2) o‘yinda tanti va adolati bo‘lish;
- 3) ovoz yorqin, baland, raqam yoki so‘zlarni aniq talaffuz qila oladigan, ulardagi sanoq urg‘usi va ritmini burro, yaqqol ifodalay biladigan va shu faoliyati bilan boshqalarni o‘ziga qaratadigan bo‘lishi shart.

Sahna palak, ko‘za, mis tovoq, tomosha qovoq, milliy anjomlar bilan bezatilgan. Derazada osilgan palakning o‘rtasida bir cheti tishlangan non osilgan. Bahor payti. Daraxtlar gullagan. Bulbulalar sayrab xonish qilmoqda. Uzoqdan karnay-surnay ovozi eshittilmoqda. Davraga doira ohanglari usulida doirachilar chiqib ketadi.

Yigit: “Qani, o‘rtog‘, doirangni berib tur” – deydi.

Ishtirokchilar atrofini aylanib doirani chaladi. Hamma jonlanib ketadi.

Qiz: Doiraning sadosidan kelib chiqib: “Kelinglar sanama o‘yini o‘ynaymiz” deydi.

Hamma: “O‘yinning sharti qanaqa bo‘ladi?”

Qiz: “Sanama o‘yining sharti shuki, oxiri kim chiqsa savollarga shu javob beradi. Kelishdikmi? Birinchi bo‘lib o‘zam sanayman.”

- Bir, ikki, olma dakk, safar oyi, sariq chumchuq tezroq uchib chiq. Sanoq bir bolada to‘xtaydi.

Tuyuqlar.

Yigit: “Qo‘shiqni tugatdim. Eridi men sanayman”, - deb davraga:

Qovun palak otdi,

Palak emas, gurvak otdi

Gurvak qovun shirin ekan,

Safdan chiqsin qo‘lim tekkan,

“Bog‘da uchraidim sani” qo‘shig‘i

Yigit:

O‘n, yigirma, o‘ttiz, qirq
30, 40 deb kim aytdi?
Lola degan qiz aytdi.
Nodir qani? Chodir qani?
Har ishiga qodir qani?
“*Shirim jonim*” qo‘shig‘i
Bir, ikki, uch, uchdan qolgan puch.
Agar bilog‘on bo‘lsang, sen joyingdan ko‘ch.

Yigit:

“*Omonyor*” qo‘shig‘i
“*Chiq, ho chiq*” qo‘shig‘i
O‘ttiz, qirq bolalar.
Bog‘da o‘sgan bolalar.
Guruhimiz soni yigirma,
Chalinganda childirma,
Chiqqanini bildirma.
“*Gulpari*” qo‘shig‘i
O‘ttiz, qirq deb sanaymiz,
Qo‘shiqni kuylaymiz,
Bir, ikki deb o‘ynaymiz,
Yurt madhimi kuylaymiz.
“*Davrimiz davronimiz*” qo‘shig‘i
Bir, ikki, olma dikk.

Qiz:

Safar oyim sariq chumchuq
Boqqa kirmay tezroq uchib chiq.
“*O‘z bugining qizlari*” qo‘shig‘i

Yigit:

Bir, ikki, o‘n olti:
O‘n olti deb kim aytdi?
O‘n olti deb men aytdim,
Ishonmasang sanab boq.
“*Chiqdim tog‘lar boshiga*” qo‘shig‘i
Bom-bom-bom, Nasiba albom.
O‘qituvchi keldi, jurnalni ochdi,
Bir kerakmas, ikki kerakmas, uch kerakmas, to‘rt o‘rtanchi,
Besh molodets, olti karatist, yetti yetalovchi, sakkiz sakrovchi, to‘qqiz
to‘qlovchi, o‘n haykal, qimirtagan kal.
“*Buxoro mavrigi*” qo‘shig‘i

Qiz:

Bir, ikki, olma dukki,
Safar oyi sariq chumchuq,
Uyda turmay tez uchib chiq
“*Ushur uforisi*”

O‘n, yigirma, o‘ttiz, qirq, ellik,
Oltmish, yetmish, sakkson, to‘qson, yuz
Yuzga kirgan oppoq qiz,
Oppoq qizning o‘zisz.

“*Chipradalli*” qo‘shig‘i

Sanadim sanamani

Rosa qiynadi mani

O'rniga olib beray
Sanga harir ro'molni
"Biyu-biy" qo'shig'i
Aziz ko'chaga chiqdi
Aravasi buzildi
"Lolagulim" qo'shig'i

Barcha qatnashchilar sahmada ta'zim qiladilar. Qatnashchilardan biri: "Uy uyiga kapa to'yiga, bir pichog'im bor suyunchiga. Ertangi nura'fshon kunda uchrasinguncha xayr" - deb chiqib ketadi.

"QADRIYAT DURDONALARI" MAVZUIDAGI SENARIY

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan boshlab jamiyatimizning barcha sohalarini qatori ma'naviy hayotimizda ham ulkan o'zgarishlar ro'y bermokda. Biz barpo etayotgan davlat avvalo umumjahon sivilizatsiyasiga, davlat qurilishi sohasida taraqqiy etgan boshqa xalqlar erishgan tajribalariga va o'zimizga xos milliy an'analarga, ijtimoiy qadriyatlarga asoslanmoqda.

Talabalarga milliy qadriyatlar, ma'naviyat asoslarini o'qitish gumanitar va ijtimoiy-siyosiy fanlardan dars beruvchi professor-o'qituvchilar zimmasida ekanligi, ularga bu sohada muntazam uslubiy yordam ko'rsatib turilishi kerakligi bois qo'llanmaga aynan shu mavzudagi bir nechta mavzular kiritildi.

Yoshlarimizni ma'naviy barkamol insonlar qilib tarbiyalashdek mas'uliyatli ishda mazkur qo'llanma yaqindan yordam beradi, degan umiddamiz.

Yoshlarimiz xalqona, umuminsoniy qadriyatlardan necho'g'lik ko'p saboq olsalar, ularning tafakkurlari boyib, aql-idroklari charxlanib boradi.

Qadriyatlar muayyan jamiyat va sinfga mansub kishilar turmushi va madaniyatining xaqiqiy yoki ideal ne'matlari bo'lgan tabiat va jamiyat hodisalarining mohiyatidir. Bu ne'matlarning qadriyatlar deyilishiga sabab kishilar ularni qadrlaydilar, chunki bu qadriyatlar ularning shaxsiy va ijtimoiy turmushini boyitadi. Shuning uchun ham kishilar o'z tasarrufidagi qadriyatlarni himoya qiladilar va o'zlarini uchun maqsad va ideal bo'lgan qadriyatlarini amalga oshirishga intiladilar.

Qadriyatlar ichida eng birinchi va eng umumiyysi - hayotning o'zidir, chunki hayotdan maxrum bo'lish qolgan barcha qadriyatlardan foydalanishni yo'qqa chiqaradi.

Qadriyatlar o'zining mohiyatiga ko'ra bir necha turga bo'linadi. Inson va uning hayoti eng oliy qadriyat hisoblanadi. Shuning uchun ham inson qadr-qimmatini e'zozlash uning turmushini yaxshilash, bilim va madaniy saviyasini rivojlantirish, sog'lig'ini saqlash, hayotini himoya qilish davlatimiz siyosatining asosiy yo'nalishini tashkil etadi. Jamiyatimizda ro'y berayotgan tub o'zgarishlarning, islohotlarning barchasi - kishilar hayoti to'q, boy, go'zal bo'lishi, inson o'zini chinakam erkin his etishi, o'z mehnati natijasining, o'z taqdirining, o'z mamlakatining egasi bo'lishini ta'minlashga qaratilgandir.

Vatan mehri oliy qadriyatdir. O'z Vatani sevman, millatning qadriga yetmagan kishi o'zganing ham, bashariyatning ham, kurrai zamin obodligining ham qadriga yetmaydi. Vatanga sadoqat - haqiqatga sadoqatning, millatga mehri, ahli basharga mehriyatning ibtidoisidir. Busiz na adolat g'alaba qiladi, na xaqiqat yuzaga chiqadi, na insonning o'z shaxsiga ehtiromi shakllanadi. Chunki Vatan mehri yo'qotgan shaxs oyog'i tagidagi zamini yo'qotadi, go'yo tayanchsiz muallaq qoladi. Vatanga muhabbat ajdodlar merosiga qiziqish, milliy ma'naviyatdan bahramandlik o'z shaxsiy salohiyatiga ishorah, umumbashariyatga hurmat, kelajak oldida mas'ullik tuyg'ularini tarbiyalaydi. Demak,

mustaqillik ma'naviyati ona yurtga muhabbatdan, millat manfaatlariga sadoqatdan boshlanadi, har bir shaxsning o'z ichki imkoniyatlarini Vatan manfaatini yo'lida unumli rivojlantirishi bilan namoyon bo'ladi, unda milliy ma'naviyat merosidan mukammal bahramandlikka intilish, umumbashariy qadriyatlardan og'ishmaslik, ilg'or tajribalarni ijodiy o'zlashtirish ishtiroqchi tug'iladi.

Qadriyat keng qamrovi, ko'p ma'noli hikmatli so'zdir. O'z qadrimni bilgan kishigina boshqalarning qadriga yetadi. O'z milliy qadriyatlarini hurmat qilgan, e'zozlagan insoningina o'sha xalq vakili, degan ulug' unvonga sazovor bo'ladi. Unga ega bo'lishda milliy qadriyatlarimizdan biri - xalq og'zaki ijodining ahamiyati cheksizdir.

Milliy qadriyatlar umuminsoniy qadriyatlar bilan qancha ko'p uyg'unlashgan bo'lsa, ularning taraqqiy etishiga shu qadar keng imqoniyyat ochiladi. Bu hayotiy haqiqatdir. Milliy qadriyatlarimiz, urf-odat va an'analimiz qayta tiklanib yanada rivojlanganidagina jamiyatimizda o'tkaziladigan islohotlar muvaffaqiyatli amalga osha oladi, chunki ma'naviy barkamol, ma'rifatli, ruhan bardam, yangicha tafakkurlash qobiliyatiga ega insoningina ishtiqlol va taraqqiyot yo'lini sharaf bilan o'ta biladi. Shunday ekan, xalqimizning madaniy merosi, yuksak ma'naviy qadriyatlarini chuqur va atroficha o'rganib, ularni respublikamizda yashovchi har bir insonning ongiga singdirib, ayniqsa, yosh avlodni ma'naviy yetuk, fidoyi kishilar etib tarbiyalash hozirgi kunda eng dolzarb muammolardan biridir.

Ajdodlarimiz boshlagan ulug' ishlarni ochiq ko'z, sog'lom aql, davr sharoitlari va imkoniyatlari, ehtiyojlari asosida rivojlantirish, har qanday sharoitda ham milliy manfaatlar ustuvorligini sezish va ularni adoliatli ravishda insonparvarlik do'stlik mezonlaridan chekinmay himoya eta bilish ham kerak.

Ana shu bebaho qadriyatlardan biri - folklor san'ati bo'lib, undagi har bir qo'shiq insonlarni ma'naviy poklikka undaydi. Folklor san'ati qadriyatlar sarchashmasidir. Ulardan ba'zi birlarini e'tiboringizga havola etamiz.

1. Toshkent-Farg'ona yo'nalishi.

"Jonon piyola" qo'shig'i

"Yor aylamay" qo'shig'i

"Rayhon" qo'shig'i

2. Samarqand yo'nalishi.

"Samarqand mavrigisi" qo'shig'i

"Buxoro mavrigisi" qo'shig'i

3. Surxondaryo-Qashqadaryo yo'nalishi.

"Yaqqu yaq" qo'shig'i

"Gulpar" qo'shig'i

"Kelgin yor, o'ynaylik" qo'shig'i

4. Xorazm yo'nalishi.

"Pashmak" qo'shig'i

"Lazgi" qo'shig'i

"SUST XOTIN MAROSIMI" MAVZUIDAGI SENARIY

"Sust xotin" - yil qurg'oq kelganda o'tkaziladigan yomg'ir chaqirish marosimi. Ko'klam kunlari qurg'oq kelib, lalmiga ekladigan bug'doy o'sishidan to'xtasa, o'n-o'n besh chog'li yigit yalanglab yig'ilishib, bir yosh bolani eshakka ters mindirib, qo'lga suv to'ldirgan - kadi (suv qovoqi) tutqazadilar. Ikkita toshbaqani ham tutib olib, oyog'idan boylab, eshak egarining ustidan ositirib tashlab qo'yganlar. Eshakka ters mingan bola suv

qovoqqa solingan nayni aylantirib, g'ur-g'ur etkazib ovoz chiqargan. Yigitlar eshakni yetaklab uy-ma-uy yurishgan va har uyga borganda eshak mingan bola (voy kuydi) deb qichqirgan. Uy egasi bolaning ustidan bir paqir suv quyib, yigitlarga don-dun, qand-qurs chiqarib bergan. Yigitlar esa:

Havo yog'mas bo'lami?

Tomchi tommas bo'lami?

Saksondagi kampirlarni,

Suv oqizmas bo'lami?

Sust xotin, sulton xotin,

Ko'yialklari bo'z xotin, deb qichqirishgan.

Sust xotin marosimi o'tkazilayotganda dehqonlar omochlarining uchini tepaga qaratib qo'yib, bir toshbaqani omochning tagiga oyog'idan solib qo'yishgan va qo'shiq aytishgan.

Dehqonlarni g'am bosdi, sust xotin,

Omochini chang bosdi, sust xotin.

O'lloh bersa obi-rahmat yog'aversin,

Qurg'oqchilik yo'q bo'lsin, sust xotin.

Qashqadaryo vohasida "Sust xotin" deb atalgan qo'g'irchoq yasab, ayollarning ko'yilagini kiygizib, boshiga lachak yoki ro'mol o'raganlar. Momolardan biri ana shu qo'g'irchoqni ko'tarib, ikki yoniga ikkita yosh kelinchakni olib, xonadonna-xonadon yurganlar. Ular:

Yomg'ir yog'sin, sust xotin,

Daryo to'lsin, sust xotin - deb qo'shiq aytganlar.

Ular egalari un, bug'doy, birorta atalgan narsalarni chiqarib, kelinchaklarga berganlar. Ular yig'ilgan narsalardan yetti xil ovqat pishirib, yetti xonadonga ulashganlar. Sust xotin qiyofasidagi qo'g'irchoqni taom pishirgan xonadonning tomiga tikka qo'yib qo'yganlar. Yomg'ir yog'may qurg'oqchilik bo'lsa, oilasida to'ng'ich bola bo'lib tug'ilgan bir ayol-qo'g'irchoq kurakka xoda ko'ndalang qilib belab qo'yiladi. Ayollar bu qo'g'irchoqni ko'tarib, uy-ma-uy yurganlar. Uning yonida yurgan xotinlar har bir xonadonga kirib:

Sust xotin, sulton xotin,

Havo jovsin sebalab, sust xotin,

Bug'doy bo'lsin debalab, sust xotin,

O'ralar to'lsin qanoriab, sust xotin.

Oq-oqqina buzoqlar oqib o'tsin, sust xotin,

Qari-qari momolar,

Javrab o'tsin, sust xotin - deb qo'shiq aytganlar.

Shunday qilib, "Sust xotin" marosimi o'llohdan yomg'ir orqali dehqonchilik ekinlarini o'stirish, mo'l-ko'chilikni ta'minlash asosiga qurilgan.

Institut o'yingohi bayramga xos bezatilgan. O'yingohning o'rtasi qismi, ya'ni markazida badiiy qismlar uchun sahna joylashtirilgan. Sahnaning o'ng va chap tarafida esa xalq o'yinlari uchun ajratilgan kichik sahna joylashtirilgan. O'rtadagi sahna alohida bezatilgan. Uning kiraverishiga kamalaksimon shakldagi sharlardan yasalgan fon o'zgarib berib turibdi. Asosiy sahna gilam to'shalib, har tarafdan bahoriy gullarni shakli berilgan sharlar bilan o'rnatilgan.

Sahnaning orqa tarafiga fakultetning o'tovi tikilgan. O'tovning ichki tarafida Surxondaryo va Qashqadaryo vohasiga xos bo'lgan har xil palaklar, kashlalar osilgan. O'tovning o'rtasida sandal joylashtirilgan. Sandal ustiga ko'rpa to'shalib, dasturxon

yozilgan. Ichkarida o'tirgan baxshi do'mbira chertib, kirgan mehmonlarga xalq dostonlaridan kuyib turibdi. O'tovning tashqi tarafida xalq milliy mehnat asboblardan namunalar: charx, o'g'ir, kuvi, tandir, ko'za va boshqa buyumlar qo'yilgan. O'tov eshigi oldida ikkita qo'riqchi qo'yilgan bo'lib, ular askar libosida qo'lida qilich, dubulg'a, qalqon va shamshir tutgan holda turadilar.

Boshlovchi: "Navbatni Kredit-iqtisod fakultetiga beramiz" deb e'lon qiladi va fakultet chiqishi boshlanadi.

Fonda chanqovuz ovozi chalinadi va "Milodiy 1336 yilning 9 apreli Kesh shahri" degan ovoz yangraydi. Chaqaloq ingasi yangraydi. Oritidan "Sohibqiron Amir Temur dunyoga keldi" degan xabar ketadi. Xabarchi otining ovozi eshitiladi. Karnay ovozi hamina yoqqa Sohobqiron dunyoga kelganidan darak beradi. Nog'oralalar gumburlab unga jo'r bo'ladi. Sahnaga ikki soqchi hamrohligida Amir Temur chiqib keladi va o'zining hikmatli so'zlarini aytadi:

Bizkim, mulki Turon, Amiri Turkistonmiz,

Bizkim, millatlarning eng ulug'i, eng qadimi - Turkning bosh bo'g'inimiz!

Amir Temur sahnadan soqchilar hamrohligida chiqib ketadi. Chanqovuz va do'mbira sadolari yangraydi.

Tomoshabinlar joylashgan joyning qarshi tarafidagi ark orqasidan Alpomish, ikkinchi tarafidan Barchinoy ot mingan holatdan bir-birlarini ismlarini aytib chaqirib chiqib kelishadi.

Alpomish: - Oybarchin!

Barchin: - Alpomish!

Ular bir-birlariga qarab, ya'ni o'yingohning markaziga kelib bir-birlari bilan uchrashadilar. Bir-birlariga termulib qolishadi. Shu payt ikki jilovdor kelib, otlarini ushlaydi. Alpomish otdan tushib, Barchinoyning tushishiga yordam beradi.

Fonda esa do'mbira va chanqovuz sadosi ostida ushbu so'zlar ketadi: "Xalqimizning eng qadimiy ohanglarida abadiy go'zallik va ko'rkamlik bor. Ko'hna navolarda momolarimiz va bobolarimizning ko'ngil ovozlari eshitganday bo'lasiz. Bu qo'shiqlar ko'nglingizning tub-tubida berkitib yotgan so'lim tuyg'ularingizni uyg'otadi. Oybarchinning yurak tepinishi, Alpomishning qalb sadolarini, tarixlarning olis ovozi tinglang".

Shu yerda qalb gaplari yangrashini boshlashi bilan 10 ta qiz qo'llarida bahor taomlarini sahnadan olib chiqib xakamlar o'tirgan stolga olib borishadi. Yuqoridagi gaplar yangrayotgan paytida Alpomish va Barchinoy o'yingoh markazidagi sahna chiqib kelishadi.

Alpomish: "Barchinoy, Surxon vohasiga Navro'zi ayyom kirib keldi, kun bilan tun tenglashdi" - deydi.

Barchin: "Barcha yurtdoshlarimizni ezgulik, mehr-oqibat, poklik timsoli bo'lgan Navro'z ayyomi bilan tabriklaymiz", deydi va sahnaning ikki chetiga o'tishadi.

Sahnaga talabalar jamoasi ishtirokchilari milliy liboslarda, qo'llarida "Sust xotin" qo'g'irchoqini ko'targan holda "Sust xotin" qo'shig'ini aytib chiqib kelishadi.

"Sust xotin" - Surxondaryo va Qashqadaryo vohasiga tegishli bo'lgan yomg'ir chaqiruv marosimi bo'lib, unda dehqonlar qurg'oqchilikning o'ldini olish uchun hosildorlik mo'l bo'lishini so'rab kuyilanadi:

Hamma yomg'ir-yomg'ir, yomg'ir deb jar soladi. Yana qo'shiq davom etadi.

"Sust xotin" qo'shig'i

Yomg'ir yog'di, do'l bo'ldi,
Yoru jahon ko'l bo'ldi,
Shaftofilar barg yozdi,
Dunyo to'la gul bo'ldi,
Sust xotin, suzma xotin.

Qo'shiq yakunida chaqmoq chaqadi va momoqaldiraq gumbirlab, yomg'ir ovozi eshitiladi. Qizlar qo'llaridagi lolalar bilan lola shaklida sahmaning o'rtasiga yig'ilib, egilib joylashadi.

Yigitlar osmonga qarab: Yomg'ir! Yomg'ir! Yomg'ir! deb baqiradilar.

Shunda ulardan biri borib, o'tirgan qizlardan bittasining qo'lidagi lolani oladi va "Yigitlar, qaranglar lola ochilibdi!" deydi va "Lola" qo'shig'ini aytadi.

"Lola" qo'shig'i

Bu paytda fondagi qizlar kelib, jamoaning orqa tarafiga bir qator bo'lib musiqaga mos ravishda raqsga tushishadi.

Qo'shiq paytida qizlar "Lola" raqsga tushadilar. Qo'shiq yakunida esa qo'llaridagi lolalarni Alpomish va Barchinoyga beradilar. Alpomish va Barchinoy lolalarni olib borib hakamlar hay'ati va tomshabinlarga bayram tabrigi sifatida tarqatadilar.

Qo'shiq tugagach davraga kelayotgan "Sirg'ali qizni"ni ko'rgan yigit uning kelayotganini oshiq yigitiga: "Do'stim qara, sirg'ali qiz!" deb ogohlantiradi.

Jamoa yigitlari "Sirg'ali qiz" qo'shig'ini jamoa bilan kuytashadi.

"Sirg'ali qiz" qo'shig'i

Yigitlar qizlar bilan birga oshiq yigit va sirg'ali qiz ham raqsga tushadilar. Qo'shiq tugagach uzoqdan kelayotgan Bibijonga jamoadan bir yigit salom berib qarshi oladi:

Assalomu alaykum, Bibijon!

Bibijon esa qo'lidagi chanqovuzni chalgancha yonida qashqadaryolik kelin va surxondaryolik kuyov bilan sahnga chiqib keladi.

Bibijon jamoa a'zolari va hakamlar hay'ati a'zolari bilan so'rashadi:

Yaxshimisizlar? Tinchmisiz? Uydagilar jurippa, hammalari jurippa? Alisherjon tinchmisan? Uydagilar jurippa? O'g'illar jurippa, kelinlar jurippa? Nevaralar jurippa? Mana shunday ajoyib binolarni qurib, talabalarga sharoit yaratib berib tolmayapsizmi? Nega kulasan, menam bir narsani bilmasam gapirmayman. Senlar bitta tug'ib tovuqday qaqqillaysan, mana men o'n sakkiztasini portillatib-portillatib tuqqanman. Nevaramdan biriga Qashqadaryodan Layloni kelin qilib olib berdim. Hozir o'zim bilan kelin va kuyovni olib keldim. Sizlarga "kelin salom" qildiraman deydi va "kelin salom" aytadi.

Kelin salom

Keyin kelin-kuyovlarni chechajon yetaklab, chimildiq tarafga boshlaydi. Chimildiq oldiga poyonoz solinadi va uni yigitlar tortishadi. Chechajon chimildiq pardasini yopadi. Qo'llarni duoga ochishdan oldin kelin yanga va kuyovjo'rasiga qarab tilaklarning yo'qmi deb so'raydi.

Kelin yanga chiqib salom berib, quyidagi she'rni tabrik sifatida o'qiydi:

Yurak asli muhabbat mulki,
Farzand bersin suyuqli, durkun,
Yurt koriga yarasin bir kun,
Har oila mustahkam bo'lsin!

Kuyov jo'rasi ham chiqib quyidagi she'rni o'qiydi:

Kirib kelding bugun yilboshi,
Qadamingdan chechaklar unsin,

Tarqatilsin har dam to'y oshi,
Har oila mustahkam bo'lsin!
Mangulikka qadam-oila,
Ichilgan ont, qasam-oila,
Vatan ichra vatan-oila,
Har oila mustahkam bo'lsin!

She'rilar tugagach, bibijon duo qiladilar va old qatordagi yigit: "Ey yashang, bibijon! Mana shunday ajoyib Navro'z ayyomida o'zingiz ham o'ynab beringchi!" deydi va qo'shiq boshlaydi.

"Bibijon" qo'shig'i

Qo'shiq yakunlanganida Bibijon o'ynab charchaydi va davrani yoshlarga bo'shatib beradi.

Jamoadan qiz va yigit chiqib qo'shiq boshlaydi:

Kela, kela, kela yor, suygan yorim kela yor.
Go'ja oshga sedona, yo'rg'alosin bedona.
Oqini olay dedim, nimamga sotay dedim.
Suyganim o'zing tanho dardingni olay dedim.
Kela kela kela yor, suygan yorim kela yor.
Navro'z keldi jahona bahordan bir nishona.
Do'stlar diydor g'animat, deydi navro'z bahona.
Kela kela kela yor, suygan yorim kela yor.

Qo'shiq tugashi bilan mehmon san'atkor hammani Navro'z bayrami bilan tabriklab, qo'shiq kuylaydi:

"Ko'pkari" qo'shig'i

Dastur oxirida yana "Sust xotin" qo'shig'i ijro etilib qo'shiq hamrohligida barcha qatnashchilar sahnadan chiqib ketadilar.

"SURXON HUDUDI MAROSIMLARI" TADBIRINING SENARIYSI

Beshik to'yi – chaqaloqni beshikka belash marosimi. Xalqimiz orasida shakllangan an'anaga ko'ra, beshik asosan tut, jyvda, o'rik kabi mevali daraxtlarning yog'ochidan tayyorlanadi. Mevali daraxtlar qadimgi ajdodlarimiz tasavvurida hosildorlik, qut-baraka timsoli sifatida qaralganligi uchun ham yaxshi niyat bilan ularning yog'ochidan beshik tayyorlangan. Ajdodlarimiz mevali daraxtlarga xos sermevalik, ya'ni hosildorlik xususiyati beshik orqali ham bolaga o'tadi, deb ishtonganlar.

Chaqaloq tug'ilgan xonadonga olib kelinadigan anjomlarining tarkibi beshik, sumak, sopolidan yasalgan tuvak, gavrapo'sh, arzondona, ya'ni chaqaloqning umri archadek uzun bo'lsin, degan niyatda ichiga archa barglari solib tikilgan maxsus ko'rpa, bola rizq-ro'zli, uvali-juvali bo'lsin degan niyatda ichiga tariq solib tikilgan uzun ko'rpa, qo'lboq, oyoqboq, pichoq, kichkina kulcha nonda iborat bo'lgan. An'anaga ko'ra chaqaloqning kindigi tushgandan keyin, ya'ni bola uch, besh, yetti, to'qqiz kunlik bo'lganda beshikka belash marosimi o'tkazilgan. Surxon vohasida bolani beshikka belash marosimida hovlida o'ti yoqilgan va kayvoni yoki qushnoch momo beshikni ko'tarib, olov ustidan uch marta o'tkazib olgan. Bu udum "**beshikni tozalash**" yoki "**beshikni xaloslash**" deb atalgan. Beshikni uyga olib kirayotganda esa bola yotgan xona ham beshikka ziyon-zahmatlar yetmasin degan maqsadda istiriq tutatilgan. Momolardan biri: "Xesh darvesh, so'zanada

Kiy chalinadi. Xonadonga Surxon hududi udumlaridan biri bo'lgan chaqaloqni beshikka solish va alla marosimi boshlanadi. Bobo beshik olib kirib, uni momoning oldiga qo'yadi.

Kayvoni ona: Xush kelibsizlar, aziz mehmonlar, qadamlaringga durlar to'kilsin, chaqaloqlarni tabriklab kelganlarning uyida ham bola yig'itari yangrasin. Omin! Yanagi yil, yanagi shu kunlarga elu-yurtimiz, mahalla-ko'yimiz, qarindosh-urug'larimiz bilan eson-omon yetib kelaylik. To'y deb kelganlarning uyida to'y bo'lsin. Qatorimizdan xato bo'lmaylik. Yurtimiz tinch, oilalarimiz mustahkam, farzandlarimiz iymon-e'tiqodli bo'lsin, ollohu akbar.

Chaqaloqni erkash udumi

Bo'yimdagi marjonim,
Shugina jonim, shu jonim,
Xudo berdi sevsin deb,
Shu beshikka kirsin deb.
Beshik bolasi, bek bolasi,
Beklar jotgan beshigida jotsin-a,
Egajoni keldi-ya,
O'igmi, chapmi? - deb chaqaloqni erkalaydilar.

Xonadon soxtbasi: Momojon, kun kech bo'lmay turib nabiraginamni beshikka belab bersangiz

Momo: Xo'p bo'ladi, aylanay, olib keling nabiraginamni (*Beshikka solish udumlari ko'rsatiladi*). Kelinjon, bolangizni doimo alla aytib uxlatang. Alla eshitgan bola iymonli, e'tiqodli, ota-onasiga, yurtiga sadoqatli bo'ladi. Chaqaloqning onasi tomonidan aytilgan birinchi qo'shiq beshik qo'shig'i, beshik allasi deb aytiladi.

Beshik qo'shig'i

Yigitlarni sardori bo'l allayo-alla,
Yuragimni madori bo'l allayo-alla.
Oq uy ola bargaklardan jonima,
Ko'zginamni nurisan sen allayo-alla.
Tog'lardagi shumqorimey allayo-alla,
Beshikdagi qo'chqorimsen allayo-alla.

Kayvoni ona: Egachi, momosi alla aytmasa nabirasi uxtlamaydi. O'zingiz ham alla aytib bering.

Shirinmikan shu jonim, shakarmikan shu jonim,
Donolar davrasida o'rnimikan shu jonim,
Alla jonim allayo mehribonim allayo,
Alla jonim allayo erkatoym allayo.
Yo'llar yurib kelaqol, gullar terib kelaqol,
Mushtoq avajoningga dillar berib kelaqol.
Erka o'g'il bo'lsin shu aytar so'zim bo'lsin shu,
Elu yurt orasida yorug' yuzli bo'lsin shu.
Alla jonim allayo mehribonim allayo
Alla jonim allayo erkatoym allayo
Bo'yilarning bo'y tumor,

Ko'zlaringga ko'z tumor. - deb kayvoni ona isiriq olib kiradi.

Kayvoni ona: Qani, qizim, bir isiriq tutatib yuboraylik, turli xil ins-jinslar ketadi, beshik poklanadi.

Isiriqning donasi,

tesh, ispanid, chilband, bo'zband tumor bo'lsin!" - deb ko'z-suqlardan saqlash maqsadida chaqaloq xonasiga bir tutam isiriqni osib qo'ygan.

Denov tumanidagi Xayriobod qishlog'ida esa beshikni tozalash uchun uning yetti joyiga paxta piliq yoqib, kulini beshikning tuvagiga solishgan. Qumqo'rg'on tumanidagi Azlarsoy qishlog'ida yashovchi Xolsoat Mamatqulovanning aytishicha, beshikni xaloslayotganda uning yetti joyiga kichkina paxta bo'laklarini qo'yib chiqib, yoqib o'chirigan va "al-as" deb yoqilgan paxta bo'lakchalari suvga tashlangan.

Chaqaloqni beshikka solish tantanalarida avval beshikni ho'l novdalar bilan qoqib, "al-as" qilib, chaqaloqni belayotganda "Egalari keldi, kuchuklari, qochi!" deb belaydilar. Bolaning boshiga esa kulcha qo'yadilar.

An'anaga ko'ra, chaqaloq ilk bor beshikka yotqizilayotganda bu amalni o'zidan tinib-tinchigan, serfarzand momo bajaragan. U "Bismillahir raxmonir rahimi!" - deb bolani ikki qo'li bilan ko'tarib, birinchi marta bolaning boshini o'ng emas, balki beshikning oyoq tomoniga qarab, yotqizadi va «*Bu yerga yotqizaymi, o'ngmi, chapmi?*» deb so'raydi. Marosim ishtirokchilari esa baravariga «*yo' q-yo' q-e, momosi qurg'ur, chaqaloqni chap qilib yotqizibiz-dai!*» deb hazil-mutoyiba qilishadi. Shunda momo chaqaloqni beshikning eniga qarab yotqizadi va marosim qatnashchilaridan yana rad javobini oladi. Uchinchi marta esa, bolani to'g'ri, ya'ni o'ng qilib yotqizadi marosim qatnashchilari ham «*o'ng-o'ng!*», -deb buni tasdiqlaydilar.

Shundan so'ng «uyquchi», «qo'ruv-qo'ruv», «sog' bo'lsin» kabi udumlar bajarilgan. Bolani beshikka belagandan keyin marosim qatnashchilarining uyqusini chaqaloqqa olib berganlar. Chaqaloqni beshikka belagan momo oq-qora ipni eshib turib, marosimda ishtirok etayotgan har bir kishining yoniga borib «uyqungizni bering», «uyqungizni shu bolaga berdingizmi?» deydi. Ular «uyqumini berdim» degach uyquni olganday bo'lib, qo'lidagi ipga bitta tugun u tariqa hammaning uyqusini «yig'ib olib», tugilgan ipni beshikning boshiga bog'lab qo'yadi. Denov tumanida esa kayvoni momo tugilgan ipni chaqaloqning tushgan kindigi bilan birga matoga o'rab beshik ko'rpachasining tagiga qo'yadi. Vohaning tojik aholisi orasida esa, beshikning dastasi oq-qora rangdagi ip bilan o'ralgan va ilonning ezilgan ko'zi hamda po'sti matoga o'ralib, tumor qilib beshikka osib quyilgan. Bunday o'xshashlikni turkman urf-odatlarida ham uchratamiz. Bolani uxlatish uchun foydalanadigan belanchak, ya'ni beshik tog'da o'sadigan kamyob, xosiyatli hisoblangan dog'dan daraxtning cho'plaridan tayyorlangan hamda o'sha daraxtdan tayyorlangan tumorlarni osib qo'yishgan.

Ba'zi joylarda «Beshik to'y» marosimida uzun qilib kesilgan ugra oshi pishiriladi. Ugraning uzui qilib kesilishi orqali chaqaloqning umri uzun bo'lsin degan niyat bildiriladi. Shuningdek, beshik to'yida jo'xoridan taom tayyorlash odati ham mavjud bo'lib, uning mohiyati bu o'simlikka xos bo'lgan serhosilik xususiyati bolaga ham o'tib, u kelgusida serfarzand bo'lsin degan ma'noni anglatadi.

Chaqaloq beshikka belangach, kayvoni momo ikkita nonni olib chetidan tishlaydi va onasiga beradi. Ona bu nonlarni tishlab turganida marosimda qatnashayotgap yosh bolalar bu nonni onaning og'zidan yulib olib, qochib ketishadi va bo'lib yeydilar. Bu udum zamirida beshiqdagi chaqaloq ham xuddi shu bolalar kabi rizq-nasibali bo'lib ulg'ayib, chopqillab yugurib yursin, degan tilak mujassamlashgan.

«Beshik to'y» marosimida chaqaloqni beshikka belash amali bajarilayotganda alla aytish mazkur marosimning o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Surxondaryo viloyatining SHo'rchi tumanidagi Yangibozor qishlog'ida yashovchi 80 yashar Xadicha Alimardonovan yozib olingan quyidagi alla chaqaloqni beshikka belayotganda uning momosi tomonidan ijro etilgan.

Shu qizimning shomasi.
Isiriq dona-yu, dona,
Tutunidan to'lsin xona.
Kuya qolsin hasadli ko'z,
Ko'chada qolsin g'arazli ko'z.
Ko'chsin - ko'chsin gulga ko'chsin,
Oqsin - oqsin suvga oqsin.
Hamмага baxt kulib boqsin.
Isiriq - isiriq chatnasin isiriq,
Isiriq - isiriq portlasin isiriq.
Ming dardga davvo isiriq,
Bemorga shifo isiriq.

Momo allasi

Alla, jonim-yey, bolam>yey, alla,
Jilamasang bo'lami-yey, alla?
Otam-bolam uxlagin, alla,
Qo'rg'on solsin to'dag'a-yey, alla,
Qo'rg'on zardan bitsa-yo, alla,
Momosi sadag'a bo'lsiney, alla.

Xota allasi

Sinli-sinli sinbatlim,
Na'ra sherday haybatlim,
Kunday shunqor ketbatlim,
Ulug' shohday savlatlim.
Alla bolam, alla-yay

Jonim bolam, alla-yay.
Qora qoshim qunduzim,
Ko'zi tongday yulduzim,

To'y-hayitlar bo'lganda,
Kiygan to'ni qirmizim.
Alla bolam, alla-yay,
Jonim bolam, alla-yay.

Momo: Mana, bolani beshikka solish udumini ham o'tkazib oldik. Allalar og'ushida chaqalog'imiz uxlab qoldi. Kelin bolani tinchroq boshqa uyga olib kirib qo'ying. Yosting'ini tagiga non qo'yish, esingizdan chiqmasin. Kelinglar, endi o'yin-kulgu boshlaylik.

“Biyu-biy” qo'shig'i

Charxim g'uv-g'uv etadi,
Surxonimga yetadi.
Surxonimning qizlari,
Bog'da olma ekadi.

Qo'y haydadam qo'rg'onga,
Ot boyladim arqonga.
Surxon eli boy bo'lsin,
Qizlari o'ynab, kulsin.

Nazorati:

Biyu, biyu, biyu biy, oh, oh, oh,
Mumi, mumi, oh, oh, oh.

Andoz qilu, andoz qil,
Qoshu ko'zing pardoz qil,
Akajoning kelganda,
Gap gapirmay araz qil.

Nazorati:

Biyu, biyu, biyu biy, oh, oh, oh,
Mumi, mumi, oh, oh, oh.

“O'ynang checha” qo'shig'i

Momom yuzga kirsina,
Bobonga yuzlashing yursina.
Nevaralar ortidan,
Quvalashib yursinay.
Elimiz obod bo'lsina,
Uyimizga mehmon kelsina.
Bo'ydoqlarim uylansin,
Qizlar kelin bo'lsino.
Momom novvat bersina,
Yurakka quvvat bo'lsina.
Har bir o'zbek farzandi,
Eliga to'yilar bersino, bersino.

Barcha qatnashchilar qo'shiq ohangida chiqib ketadilar.

**“NAVRO'Z YOSHLAR NIGOHIDA”
TOMOSHASINING SENARIYSI**

«Har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, hayotning ma'nosi - qobil farzandlar o'stirish, ularni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko'rish, ota-onasiga, Vatanga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratdir» - deb uqtiradi muxtaram Prezidentimiz.

Insonning ma'naviy, axloqiy kamoloti nihoyatda keng, ko'p qirrali, mazmun-mohiyati jihatdan chuqur tushunchadir. Jamiyatimizda ruy berayotgan ma'naviy yuksalish, insonning axloqiy, g'oyaviy, siyosiy kamoloti mamlakatimizda amalga oshirilayotgan milliy uyg'onish jarayonlari bilan uzviy bog'liqdir.

Ma'naviy barkamol inson o'ziga munosib ko'rmagan biron-bir nojo'ya ishni o'zgalarga ham ravo ko'rmaydi, hech bir kishiga aziyat yetkazmaydi. Vatanga va millatga sodiqlik ham madaniyatlilik, ma'naviy barkamollik, axloqiy poklikning eng yuksak namunasi hisoblanadi.

Jismoniy baquvvat, ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk bo'lmasdan turib shaxs barkamol bo'lolmaydi. Ma'naviy, jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash - bu boradagi ishlarining asosiy mohiyati va yo'nalishini tashkil etadi. Jismoniy sog'lom, baquvvat, lekin ma'naviy qashshoq kishilar insoniyat uchun foydadan ko'ra ko'proq zarar keltiradi. Sog'lom ijtimoiy muhitgina shaxsiy kamolot zaminiga aylana oladi. «Badan tarbiyaning fikr tarbiyasiga ham yordami bordur, - deydi Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» asarida, jism ila ruh ikkisi bir choponning o'ng ila tersi kabidir. Agar jism tozalik ila ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saklanmasa, choponning ustini qo'yib, astarini yuvib ovora bo'lmoq kabidirki, har vaqt ustiga kir chiqadur».

Allomalarimiz asarlarida ta'kidlanganidek insonning ma'naviy kamolotida jismoniy va badan tarbiyasidan tashqari aqliy tarbiya va go'zallik tarbiyasining, shuningdek axloqiy, ruhiy tarbiyasining ham ahamiyati shak-shubhasizdir.

Ma'naviyat tarbiyasining eng ta'sirchan quroli, uning o'zagi - axloqdir. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, o'tmishning buyuk mutafakkirlari va xalq donishmandligining ifodasi bo'lmish hurmatli insonning qiyofasi uning axloqiy sofliyi bilan o'z ichanishini ta'kidlaganlar. Navoiy axloqni, insonning qimmatbaxo libosidir, deb hisoblagan, Abu Ali ibn Sino hayo va iffatni insonda doim saqlanadigan husn va latofat, deb baholagan.

Axloq insonning ma'naviy qiyofasini belgilovchi sifatidir. Axloq ijtimoiy ongning muayyan shakli sifatida kishilarning yurish-turishlari, ularning jamiyat oldidagi burchi, mas'uliyati, o'zaro aloqalari, ijtimoiy mehnatga munosabatlari singari harakatlarini tartibga soluvchi meyoriy qoidalar yig'indisidan iboratdir.

Jamiyat hayotida axloq kishining ma'naviy qiyofasini, uning insoniylik darajasini belgilashning muhim meyor bo'lib yuzaga chiqadi. Ilim insonning zehinini o'z ichanishiradi, axloqiylik uning dilini ravshanlashiradi. Insondagi yaxshi xulqlar, axloqiy fazilatlar ruh va nafs tarbiyasining natijasidir. Shayx Bahovuddin Nakhshband «Adab-xulqni chirovli qilish, so'zni va fe'lni soz qilishdir. Adabni saqlash - muhabbat samarasi, yana muhabbat urug'i hamdir», - deb ta'kidlagani ma'lum. Shuning uchun xudbinlik axloqiy buzuqlik insoniylikka zid bo'lgan illatlar hisoblangan.

Go'zal axloq insonga xos yaxshi fazilat va barkamollikni ifodasi hisoblanadi. Go'zal axloq soxibining barkamolligi jamiyatda boshqa odamlar uchun o'rnatilgan xizmat qiladi, uning amaliy xatti-harakatlari boshqalar uchun ibratdir.

Millat ham go'zal axloqlari, yaxshi fazilatlarini tufayli yuksaladi, axloq buzilgan millat inqirozga uchraydi, tubanlashadi. Har bir millatning sog'lomligi va qudrati uning axloqiy sofligidandir.

Xazrat Alisher Navoiy o'zining «Maxlub-ul qulub»da «odobi inson barcha odamlarning yaxshisidir va barcha xalqlar uchun yoqimlidir», deganlarida insondagi odamiylik va axloqiylik fazilatlarini ardoqlaydi.

Sharqona axloq-odobga zid bo'lgan past saviyadagi asarlar o'rni asrlar osha yashab kelayotgan juda tabarruk urf-odatlarini, milliy axloqiy qadriyatlarimizni e'zozlab yanada ommalashirsak maqsadga muvofiq bo'lardi. Alqissa, buyuk kelajakni mo'ljallab katta yulga chiqqan O'zbekistonning buyuk kelajak poydevorini ko'rmoqchi bo'lsak, komil insonlarni tarbiyalamoqchi bo'lsak, ajdodlar merosi, o'g'ri, odobnomasi, pandnomalari, qo'yingki, barcha ijod namunalari bilan bahramand bo'lgan taqdiridagina, ularni dillarimizga jo qilgandagina ana shunday xayrli kelajak poydevorini qurgan bo'lamiz. Ajdodlar merosini asrast, o'rganish, tahlil etib o'rganish, uning o'ziga xos jihatlarni targ'ib etish bugungi kunning sharafli vazifalaridan biridir.

Mustaqillik har bir jabhaga rivojlanish, tiklanish, yuksalish ne'matlarini ado etib berdi. Jumladan, folklor san'atida ham misli ko'rilmagan muvaffaqiyatlar qo'lga kiritildi. Jumladan, xalq ijodiyoti sohasida ulkan ishlar amalga oshirildi. «Boysun bahori», «Asrlar sadosi», «Kelajak ovozi» kabi folklor festivallari folklor san'atining rivojlanishida yo'lchi yulduz bo'ldi. Surxon changlarini targ'ib qilishdan maqsad - xalqimizning qadimiy qadriyatlarini, urf-odatlarini, udumlarini, folklor san'atini yanada rivojlantirish, kelajagimiz vorislari bo'lgan yoshlarga xalq ijodiyoti zamirida yotgan o'zbekona ma'naviyatni yetkazishdir. Bu esa folklor san'ati durdonalarini yanada taraqqiy etishiga olib ketadi. Dasturimizda Surxon vohasiga xos etnografik xususiyatlarini sahnaga olib chiqish - uning ommalashuviga olib kelishini ko'zda tutdik. Hozirgi zamon yoshlari o'rtasida milliy qadriyatlarini targ'ib qilish orqali ma'naviy tarbiyaning samaradorligi oshadi. Natijada

yoshlarimizning xalqimiz tarixiga, urf-odatlariga ehtiromi kuchayadi. Folklor san'atiga qiziqish uyg'onadi. Yoshlarning folklor san'atiga qiziqishlarini ro'yobga chiqarish orqali ma'naviy tarbiyani ta'lim muassasalarida targ'ib qilish xalqchil, badiiy, musiqliq tadbirlarga omil yaratadi.

Xalqimizning eng qadimgi o'nanglarida abadiy go'zallik va ko'rkamlik bor. Ko'hna navolar - ular da bobolarimiz va momalarimizning dil ohanglarini eshitganday bo'lamiz. Bu qo'shiqlarimiz ko'nglimizning tub-tubida yotgan so'lim tuyg'ularimizni uyg'otadi. Oybarchinning yurak tovushini, Alpomish qalbining sadolarini, tarixlarning olis ovozin tinglaysiz. Ko'hna Surxon navqiron hayotining zavqi va ilhomi bor. Avlodlar-avlodlarga o'tib o'tib kelayotgan go'zal urf-odatlar va ezgu an'analarda esa yurtning betakror qiyofasi bor. Bu qadimiy ohanglarda siz bilan biz bor, o'tmish va kelajak bor. El bor. Vatan bor.

Milliy qadriyatlarimizning bir qismi bo'lgan folklor san'ati - undagi javohirlar, ya'ni allay-u-yor-yorlar, lirik qo'shiqlar, doston va ertaklar, diirabo raqs, katta ashula va boshqa ijrolarda ko'rinishda. Bugungi kungi yoshlarimiz bu qadriyat javohirlarini ko'z qorachig'iday saqlab, keyingi avlodga yetkazadi, degan umiddamiz.

Hamma yoq bayramona bezatilgan. Har fakultetga ajratilgan joyda milliy so'z ana, qadimiy asbob-uskunalar. Navro'z taomlari ko'rgazmasidan namunalari osib qo'yilgan. Milliylik, zamonaviylik bilan uyg'unlashirilgan. Talabalar tabrigi, tilak-istaklari bildiriladi. Baxshi tabrigi orqali hamma jam bo'ladi. Chorlov musiqasi forida boshlovchi chiqib keladi.

Boshlovchi: Assalomu aleykum, aziz yurtdoshlar, mana bugun Navro'z umumxalq bayramiga bag'ishlangan "Surxon - qadriyatlar sarchashmasi" beb nomlangan bayram tadbirligiga xush kelibsiz!

Aziz do'stlar, bugun xalqimizning unutilmas an'analari, milliy merosimiz hamda elimiz suygan san'atkorlar san'atidan bahramand bo'lasiz!

Ko'ksingda tarixning o'ksik izi bor,

Millatning shukuhli, ashkii yuzi bor.

Xalqim tebrasida sasi so'zi bor,

Qadaming qut bo'lsin, bahorim Navro'z!

San'at borki, ulug'lik bor,

San'at borki, iliqlik bor,

San'at deya jon fido ulqim,

San'atga baxsh etar xalqim,

San'atga baxsh etar xalqim, o'z begim.

Qatnashchilar Yor-yor sadolari ostida hududlarga xos kiyimlar bilan maydonga kirib keladilar.

Yor-yor

Hay-hay, o'lan, jon o'lan, O'lanchi qiz, yor-yor-yey, o'lanchi qiz.

Va dasida turolgan-o, vafoli qiz yor-yor.

Qutlug' bo'lsin to'yulari, yor-yor yoroney.

Mos tushibdi bo'yulari, yor-yor yoroney.

O'ktam ekan pochakamiz, yor-yor yoroney.

Yo'lga gul sochamiz, yor-yor yoroney.

Kelin salom

1. Namangan, Farg'ona, Andijon.

Go'zal vodiy qizlari,

O'lma anor yuzlari.

Barmodir yigitlari,

Salom - salom kelin salom.
Namangandan ko'p salom,
Farg'onadan bir salom.
Salom, salom yor - yor,
Kelin salom yor - yor.
Qabul kiling yaxshilar,
Andijondan ko'p salom.

2. Xorazm

Ko'rganlarga baxt vosil,
Urganch Xivasi asil.
Sanamlari-chi asal,
Ko'hna Xorazmdan salom.
Qabul kiling yaxshilar
Amu elidan salom,
Ko'hna vohadan salom.

3. Sirdaryo, Jizzax

Zilol, zilol suvlari,
BOLDAN shirin so'zlari.
Obod bugun cho'llari
Sirdaryodan ko'p salom,
Jizzax elidan salom.

4. Surxondaryo, Qashkadaryo.

Yaylovlari bepoyon,
Zamini boylikka kon.
Eilari mardo maydon,
Qashqadaryodan salom.
Surxandaryodan salom,
Salom salom yor - yor.
Kelin salom yor - yor

5. Samarqand, Navoiy, Buxoro

Ruyi zamin sayqali,
Ailomalar vatani.
Go'zallarning maskani,
Samarqanddan ko'p salom.
Navoiydan ham salom.
Salom salom yor - yor
Kelin salom yor - yor
Qabul aylang yaxshilar
Buxorodan ko'p salom.

6. Toshkent

Ona yurtim poytaxti,
Elimning sodiq ahdi.
Har bir o'zbekning baxti,
Azim Toshkentdan salom.
Tinchlik, do'stlik shiori,
O'zbekistondan salom.

"Sust xotin" qo'shig'i

Sust xotin, suzma xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.
Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'lsin,
Yeru jahon ko'l bo'lsin.
Sutu-qatiq mo'l bo'lsin.

Hamma yomg'ir-yomg'ir, yomg'ir deb jar soladi. Yana qo'shiq davom etadi.

Yomg'ir yog'dir, ho'l bo'lsin,
Biz ham senga jo'r bo'laylik.
Ko'klamda o'ynab - kulib,
Ham sho'xu, ham zo'r bo'laylik.
Yomg'ir yog'di, do'l bo'ldi,
Yeru jahon ko'l bo'ldi.
Shafqatli barg yozdi,
Dunyo to'la gul bo'ldi,
Sust xotin, suzma xotin.

"Boychechak" qo'shig'i, raqsi bilan

Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan,
Hamma bir-biriga jigar so'z ekan,
Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,
Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan.
Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy bobo.
Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy momo.
Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy ona.
Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan.

"Lola gulim" qo'shig'i, raqsi bilan

Ochildingmi lola gulim,
Bag'ring bo'lib tilim-tilim,
Senga yetib olmoq uchun,
Ado bo'ldi mening dilim-yey.
O'zig'onadi tog'lar seni,
Maysalarga bog'lar seni,
Tush ko'radi uzun tunlar,
Qancha dili dog'lar seni.
Ochildingmi lola gulim,
Bag'ring bo'lib tilim-tilim,
Senga yetib olmoq uchun,
Ado bo'ldi mening dilim-yey.

"Hamal" qo'shig'i

Hamal, hamal derlaro, labida asal derlaro,
Azaldan azal derlaro, hamaloy go'zal derlaro.
Hamal qizi hur qizoy, qoshi qaro qunduzoy,
Yanoqlari qirmizoy, tezroq jamol kirgizoy.

Hamal, hamal derlaro, labida asal derlaro,
Azaldan azal derlaro, hamaloy go'zal derlaro.
Hamal qizi hurqizoy, labginasi qirmizoy,
Kelgin kecha kunduzoy, tezroq xabar bergizoy.
Hamal, hamal derlaro, labida asal derlaro,
Azaldan azal derlaro, hamaloy go'zal derlaro.

"Alla" haqida she'r

O'g'il bo'lsin, qiz bo'lsin,
Chinor bo'lsin, gul bo'lsin.
Makoni beshik bo'lsin,
Yotog'i beshik bo'lsin.
Alla aytisin onalar,
Tinch uxlasin bolalar.
Yashnasin kamol topsin,
Bo'lib gulu-lolalar.

"Alla" qo'shig'i

Oltin beshik oldiray, alla,
Kumush beshik oldiray, alla.
Beshigingni yasatib, alla,
Baxmal to'shak soldiray, alla.
Alla bolam allayo,
Jonim bolam alla.

"Sumalak" qo'shig'i

Tayyor bo'ldi doshqozon,
Xohlagan odam kelsin.
Sumalakni kovlashga
Kapkirini ob kelsin.

Naqorat:

Vax-vaxa sumalak, vaq vaqa,
Vax-vaxa sumalak, vaq vaqa.

Sumalagim pishadi,
Qozonga yopishadi.
Saratonda urushgan
Navro'zda yarashadi.

"Ko'pkari" qo'shig'i

Boychibor o'rtanib kishnadi,
So'lig'in chidolmay tishladi.
Qo'raga kirgin or uchun,
Ko'nglingda mendayin yor uchun,
Bu yolg'onchi dunyoda
O'tkinchi erur bari.
Hayot maydoni bilsang,
Asli o'zi ko'pkari.

Naqorat:

Bos, bos, qamolni bos,
Ot choptir yigitga bos.
Ey jigiti boshing ko'tar,
Yashagin jigitga xos.
Chavog'on boshing ko'tar,
Yashagin jigitga xos.

"Jo'rajon" qo'shig'i

Ko'ylaklari burmali qiz jo'rajon,
Qoshu ko'zi surmali qiz jo'rajon.
Kelinoi tushmagir jo'rajon,
Qalpoqlari yurmali qiz jo'rajon.
Jo'rman mehru-vafoga jo'rajon,
Xushnor bo'ldim chindanam jo'rajon.
Kelinoyday donoga jo'rajon.

Naqorat:

Aylanib o'yna, o'rgilib o'yna,
Buralib o'yna, eshilib o'yna, qo'shilib o'yna.
Surmali qiz jo'rajon.

O'smali qiz jo'rajon.

Kuylaklari burmali qiz jo'rajon,
Mingan otim bo'z edi jo'rajon,
Shirin-shirin so'z edi jo'rajon.
Olamani deb yurganim jo'rajon,
Kelinoyday qiz edi jo'rajon.

"O'zbekiston" qo'shig'i

Oymomonim hulla,
Quloqlarida tilla,
Subhonolho yor siz,
Umr bersin bizga
Alpomish o'g'lonlaring,
Barchinoydek qizlaring.
Yurtim baxtin kuylaydi
Xushovoz bulbullaring.
Gulgun ekan ko'ylaging,
Guldek nozik bilaging.
Navro'z keldi, gul keldi,
Aytgin, bo'lsa tilaging.
Qozon to'la moy bo'lsin,
O'zbekiston boy bo'lsin.
Mustaqil zamon bergan
Yurboshim omon bo'lsin.

Boshlovchi:

Sen kelsang yurtimga nazm taralgay,
Har novda bahrida olam yaralgay.

Istiqlol tongida ko'ngil yayragay,
Rizqimz but bo'lsin bahorim Navro'zi!

"SURXON VOHASI DOSTONCHILIK AN'ANALARI" MAVZUIDAGI TADBIR SENARIYSI

Yangi asr bo'sag'asida mustaqil davlat maqomiga erishgan O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyatida o'z o'rnini, nufuzli mavqega ega bo'lmoqda. Zero mamlakatimizda boshlangan demokratik o'zgarishlar ijtimoiy hayotning barcha sohalarida, shu jumladan, ma'naviy hayotimizda ham yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Olib borilayotgan odilona siyosat natijasida ko'p asrlik milliy qadriyatlarimiz qad rostlay boshladi. "Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridanoq", — deb yozadi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov, — ajdodlarimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratib kelingan goyati ulkan, bebaho ma'naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan nihoyatda muhim vazifa bo'lib qoldi".

Xalqimizning bebaho ma'naviy boyligi hisoblanmish folklor namunalarini orasida xalq dostonlari alohida o'rin tutadi. Doston kuyilash, ya'ni baxshichilik san'ati esa o'zining qadimiy ildiziga egaligi bilan uning xalq og'zaki ijodida muhim o'rin tutadi. Bu san'at ustozdan shogirdga avloddan-avlodga bevosita jonli ijro orqali o'tib kelgan.

Folklorshunoslarimizning XXI asrdagi kuzatishlari respublikamizda bir qator dostonchilik markazlari, o'nlab dostonchilik maktablari borligini ko'rsatadi. Respublikamizning turli viloyatlarida, jumladan, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xorazm, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlaridagi dostonchilik maktablari buning yorqin dalilidir. Keyingi paytlarda ilmiy-texnikaviy rivojlanish, globallashtirish, axborot almashinishning tezlashganligi, xalqimizning ommaviy savodxonlik darajasining oshganligi, xalq madaniy hayotining yuksak darajada rivojlanib borayotganligi bizning milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni rivojlanib borishiga o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bu borada, ya'ni dostonchilik san'atida Qashqadaryo dostonchiligi ham o'ziga yarasha muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini, jumladan, doston va dostonchilikning yuzaga kelishi, tarixiy taraqqiyoti, yashovchanligini o'rganish har doim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Shu jihatdan Janubiy O'zbekiston, xususan, Qashqadaryo vohasi dostonchilik san'atining yuzaga kelishi, rivoji, an'analarning saqlanishi va boshqa hududlarga epik ijodiyot bilan o'xshash va farqli jihatlarni qiyosiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, dostonchilik san'atini asrash, ularni kelgusi avlodlarga yetkazishda baxshi shaxsiyati, uning iqtidori, talanti, epik bilimi va dunyoqarashining qanday ahamiyatga ega ekanligi kabi bir qator masalalarni bir voha dostonchilik san'ati orqali tahlil etish folklorshunoslikdagi umumnazariy muammolarni hal etish uchun ham muhimdir.

Mamlakatimiz istiqloqla erishgandan keyin ko'p asrlik ijodiy an'analarga ega bo'lgan xalq dostonchiligi va baxshichilik san'ati taraqqiyotida ham tub burilish ro'y berdi. Bu o'zgarishlar avvalo xalq baxshulari repertuarlarida istiqloqni tarannum etuvchi terma va dostonlarning paydo bo'lishi, ayrim joylarda unutilish arafasiga kelib qolgan baxshichilik san'atining yangidan kuch olib rivojlana boshlashi, baxshi shoirlar, oqin va jirovlar ijodining hukumatimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlanishi, ular ijodiy faoliyati radio va televideniye orqali keng targ'ib etilishi, dostonlar to'la matnlarining nashr etilishida ko'rinadi.

Xalq hayotini, orzu-umidlarini, kurash va intilishlarini, mehnat, quvonch va tashvishlarini badiiy ifodalash an'anasi ko'p ming yillik tarixga egadir. Bu borada

Yurtbostimizning quyidagi fikrlarini alohida ta'kidlash muhim ahamiyat kasb etadi. YA'ni "Tarixiy xotirasiz — kelajak yo'q" degan fikrlariga asoslangan holda biz ham biroq bo'lsa-da dostonchilik tarixiga alohida o'xtalib o'tishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Do'mbira degan sehdri sozning jarangi baland-baland tog'lar, bahor nafasidan sarmast bepoyon kengliklar, quru adirlar, osmon toqiga yetgudek purviqor tog'larda yangramoqda, Belini mahkam bog'lagan, o'zini zo'r ishga chog'lagan baxshining shirali ovozi do'mbira jarangiga jo'r bo'lib dillarni sel qiladi. Baxshi dilidan quyilib kelayotgan sarif tinglovchilar tasavvurida ezgu va boqiy qadriyatlarini jonlantiradi: yurt ishq, yor vasfi, adolat va hurlik tantanasi... Xalqimizning musiqa madaniyati ko'p asrlik tarixga ega. Arxeologiya ma'lumotlari, tasviriy san'at asarlari, o'rta asrda yashagan o'limlarning musiqa o'ld risolalari o'zbek xalqi musiqa madaniyati taraqqiyotining tarixiy jarayonidan dalolat beradi.

Doston o'zbek folklorining keng tarqalgan yirik janrlaridir. Uning yaratilishi xalqimizning ma'naviy qiyofasi, axloqiy, estetik tarbiya, adolat va haqqoniyat, ozodlik va tenglik, qahramonlik va vatanparvarlik haqidagi orzu-o'yilari bilan chambarchas bog'liq.

Manbalarda qayd etilishicha, "baxshi" so'zi "ustod", "ma'rifatchi" ma'nolarini anglatadi. Istiqloq yillarida barcha jabhalarda bo'lgani singari mamlakatimizning ma'naviy-madaniy hayotida ham ulkan yangilanishlar yuz berdi.

O'lgan yillarda xalqimiz orasida alohida hurmat va e'tiborga sazovor bo'lgan bir qator baxshilar mazkur unvon bilan taqdirlandi. Ular orasida Shomurod Tog'ayev, Abduqahhor Rahimov, Qahhor Normatov, Abdunazar Poyonov, Bobaraim Mamaturodov, Ziyodulla Islomov, Shoberdi baxshi singarilar bor.

Doston ijrochiligi yurtimizning turli hududlarida turlicha ko'rinishga ega. Aytaylik, Farg'ona vodiysida dostonlar hikoyago'ylik ustubda aytilsa, vohamizning turli go'shalarida, Samarqand, Qashqadaryo tomonlarda tomoq bilan kuyiladi. Bu maktabning baxshi-shoirlari o'zlari to'qigan baytlar bilan doston mazmunini va ijrosini boyitadilar. Xorazmda esa dostonlar muayyan kuyga solingan holda ochiq ovozda ijro etiladi.

Yurtimizda dostonchilik an'analari miloddan avvalgi oltmichi-beshinchi asrlardayoq keng taraqqiy topganligiga oid ma'lumotlar mavjud. Milodiy 7-8 asrda turli mavzulardagi qissalar, doston va nomalar keng tarqalgan. "Me'rojnom", "Bobo Ravshan", "Payg'ambarlar hikoyati", "Sultonboyning me'roji", "Yusuf va Zulayho", "Kiyiknoma" singari dostonlar ana shular sirasiga kiradi.

Bugun yurtimizda baxshichilik an'analari davom ettirib, uni boyitib, o'ziga xos yangi ijro maktabi yaratish ustida ish olib borayotgan baxshilar ko'p. Baxshichilik san'ati xalqimiz dahosining ulkan madaniy salohiyatiga xos bo'lgan ajralmas badiiy tarixidir.

Xalqimizning asriy orzu-umidlari, porloq kelajak haqidagi o'y-fikrlari o'z ifodasini topgan, uning ma'naviy kamolotiga xizmat qiladigan bu san'at yurtimizda yildan-yilga rivoj topib bormoqda. Donolar aytganidek, baxshisi bor yurtning botiri ko'p bo'ladi. Zero go'zallik, jismoniy va ma'naviy kamolot, ma'dlik, jasurlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, sadoqat, muhabbat, muruvvat, yaxshilik singari insoniy fazilatlar madh etilgan dostonlar ruhiya tarbiya topgan avlod qabi hamisha ana shunday ezguliklarga oshyon bo'ladi.

"Doston" so'zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy termin sifatida bu atama xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotidagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Biroq yozma va og'zaki adabiyotdagi dostonlar hayotni tasvirlash vositalari va usullari jihatidan bir-birlardan jiddiy farq qiladi.

Dostonlarda tarixiy voqealik xalq fantazyasi asosida umumlashgan obrazlarda o'z ifodasini topadi. Binobarin, ularda epik umumlashtirish hukmronlik qiladi. Xalq dostonlarining tematik haunda janr xususiyatlari uning o'ziga xos uslubi va formasini

belgilaydi, ya'ni kuy va ijro bilan mahkam bog'liq bo'lgan yirik hajmli va keng ko'lamli dostonlarning poetik bayoniga ko'tarinkilik, tantanavorlik, an'anaviylik, she'riy va prozak qismlarning davomiy almashib kelinishi xosdir.

O'zbek xalq dostonlari juda uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tdi. Lekin shuni aytish joizki, dostonchilikning eng qadimgi namunalarini saqlanib qolmagan. Xalq og'zaki ijodining yuksak professional san'at turi - doston va dostonchilikning paydo bo'lishi, taraqqiyoti baxshilar nomi bog'liqdir. Xalq ommasi madaniy siyosiy hayotida ulkan o'rin tutgan baxshilar mehmatkash xalq o'rtasida juda katta hurmat va e'tiborga sazovor bo'lganlar.

O'zbeklarda **baxshi** keng ma'noda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasidan nasliga o'tkazuvchi san'atkor bo'lib hisoblanadi. Xalq dostonchilarini O'zbekistonning ayrim yerlarida **baxshi** so'zidan boshqa nomlar bilan ham yuritiladi. Masalan, Surxondaryo va Qashqadaryoning ayrim joylarida yuzboshi, Janubiy Tojikiston o'zbeklari orasida soqi, Surxondaryo va Janubiy Tojikistonning ayrim joylarida sozanda, Farg'ona vodiysida sanovchi, ayrim joylarda jirov, jirchi, oqin, oxun va h.k.

O'zbeklarda xalq baxshisini *shoir* deb atash ham keng tarqalgan. Shoir arabcha so'z bo'lib, poetik asarlar ijodkori bo'lgan yozma va og'zaki adabiyot vakillariga nisbatan qo'llaniladi. Masalan, Ergash shoir, Fozil shoir, Islom shoir, Po'lkani shoir va boshqa bir nechta el sevgan baxshilarni aytib o'tish maqsadga muvofiqdir. Baxshilar xalq dostonlarini ko'p yerlarda do'mbira, ayrim joylarda qo'biz yoki dutorda kuylaydilar. Shundan kelib chiqqan holda shularni aytish joizki, ma'naviy merosimiz javohirlarining bir qismini, shubhasiz, xalq dostonchiligi, baxshichilik san'ati tashkil etadi. Bu borada, yuqorida aytib o'tganimizdek, Qashqadaryo dostonchilik san'ati o'zining jozibadorligi bilan, qolaversa, mazmun-mohiyati bilan alohida g'irallab turadi.

O'zbek xalqining dostonchilik san'ati haqida so'z boranda Surxondaryo-Qashqadaryo, Samarqand - Buxoro, Xorazm dostonchilik musiqiy uslublari haqida so'z yuritish joiz bo'ladi. Surxondaryo-Qashqadaryo dostonlari adabiy-musiqiy asar sifatida talqin qilinadi. Ular nasriy va nazmiy qismlarga bo'linib, o'zaro bir-biriga bog'langan.

Doston ijrochilarini *baxshi*, *shoir*, *yuzboshi* deb ataydilar. Dostonlar asosan do'mbira cholg'usi jo'rtligida bo'g'liq ovozda kuylanadi. Bo'g'liq ovozni hosil qilish va ishlatish alohida mashqlar natijasida amalga oshiriladi. Ushbu malakani oshirishda ustoz-shogird an'analarga rioya qilinadi. Natijada shogirdlar ushbu vohalarda mashhur bo'lgan «Alpomish», «Avaxxon», «Go'ro'g'li», «Kuntug'mish» dostonlarini yod oladilar va ko'rikdan o'tadilar. Baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini qo'shiq shaklida kuylaydilar.

Qashqadaryo-Surxondaryo dostonchilik san'atida Shahrisabz va Sherobod maktablari asosiy markaz sanaladi. Abdulla Nurati o'g'li va Islom Nazar o'g'li kabi baxshi shoirlari Shahrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyandalari bo'lsa, Shernazar Beknazar o'g'li, Mardonqul Avliyov o'g'li, Umar Safar o'g'li, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashhur ijrochilari hisoblanadilar.

Dostonlarni ijro etish ham asosan mavsumiy bo'lib, kech kuzda dehqonlar hosillarini yig'ishtirib bo'lganlardan so'ng boshlanib, erta bahorgacha davom etadi. Dostonchi baxshilar xonadonlarda uyushtirilgan dostonchilik kechalarga taklif qilinadilar va mahalla, qo'ni-qo'shni yig'ilish, dostonlar tinglashadi. Bu azaldan odat tusini olgan bo'lib, baxshilarni oilaviy bayramlarga, to'y-tomoshalarga, hosil bayramlariga ham taklif etganlar. Ya'ni dostonchi baxshi o'z dostonlarini qisqacha aytim yo'li bilan ta'rifi lab beradi va eshituvchilarning xohishiga ko'ra bir dostonni boshlaydi. Dostonchi baxshilar doston ijrolaridan tashqari bag'ishlov ijrolariga ham juda usta bo'lib, biron yaxshi kunga, marosimga, mashhur odamlarning ismlariga monand bag'ishlovlarini nasriy va she'riy

yo'llarda ham ijro etadilar. Bu ijro baxshilardan o'ta zukkolikni talab qiladi. O'zbek dostonchilik san'atida an'anaviy doston kuylash tartibi mavjud. Odatda, dostonchilik kech kuzdan erta bahorgacha ko'pincha kechqurumlari uyushtirilgan. Baxshi taklif qilingan joyga barcha eshituvchilar uning atrofiga qator qo'r tashlab o'tirishgan. Baxshini esa eng to'riga o'tqazishgan. Doston kuylash esa kichik bir ziyofatdan keyin boshlangan. Qashqadaryo dostonchilik san'atida doston aytuvchi baxshi ko'p hollarda "Nima aytay?" ("Doston terish") termasi bilan auditoriyaga murojaat etiladi. Bunda baxshi o'zida va eshituvchilarda jiddiy mavzulardagi poetik asarlarni kuylash va tinglash uchun kayfiyat hosil qiladi. So'ngra tinglovchilarning xohishi yoki baxshining tanlashiga ko'ra biror doston ijro etiladi. Odatda, dostonchilik o'tirishlari tonggacha davom etgan. O'zbek xalq dostonlarining ko'pchiligi bir kun kuylashga mo'ljallangan. Baxshi ijro davomida dostondagi har bir tasvirga mos so'z va kuy topib avjga chiqqan boradi, o'zlarining ta'бири bilan aytganda, "qaynaydi". Ba'zi-ba'zida eshituvchilarga murojaat etib, ularning diqqatini o'zida saqlab turadi. Avj nuqtalariga yetganda baxshining gavda harakatlari, boshini sarak-sarak qilishi, do'mbiraning bir muvozanatda borib kelishi kuy va so'zga qo'shilib yaxlit ritmik holat yuzaga keladi. Bunday paytlarda to'rdagi baxshi poygakka, tomoshabin esa to'rga chiqib qolganligini hech kim payqamay qoladi. Shu tariqa qo'r tashlab o'tirganlar davrini bir necha marta aylantib chiqishlari mumkin.

O'zbek baxshilari Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Abdulla shoir, Muhammad Xolmurod o'g'li, Islom Nazar o'g'li, Mardonqul Yuzboshi singari o'nlab dostonchilarning milliy madaniyatimiz oldida ko'rsatgan xizmatlari o'zbek xalq dostonining ko'p asriik an'analarni saqlab qolish, kelgusi avlodga yetkazish bilan bir qatorda bu an'anani boyitishda o'zlarining munosib hissalarini qo'shdilar. Ular nafaqat o'zbek xalq dostonchiligi rivojlanishiga o'zlarining munosib xissalarini qo'shdilar, balki xalqning ma'naviy va estetik ruhida tarbiyalashga ko'mak berdilar.

Dostonlardagi demokratik g'oyalar, barcha xalqlar va millatlar tengligiga chuqur hurmat, e'tibor, ularni e'zozlash asosiy masalalardan biri deb ta'kidlaydilar. Bunga misol tariqisida "Go'ro'g'li" dostonining boshlang'ich qismlaridan birini misol keltirish mumkin:

Turkmanda, o'zbekda, qozoqda, qirg'izda,

El suyg'an bir nomdor edi Go'ro'g'li...

To'g'rimi suyardi, egriga dushman,

Zolimlarda xunxur edi Go'ro'g'li.

Doim qo'rib taqa-Yovmit elini,

Eli ko'p minnatdor edi Go'ro'g'li...

Shul sababdan o'zbek, turkman, ellari,

Jonu didan ko'rar edi Go'ro'g'li.

Do'mbira baxshilar va dostonchilar avvalgi yillarda biror bir maxsus klubda yoki konsert zalarda ijrochilik qilish yo'li bilan o'z san'atlarini namoyish qilish imkoniyatiga ega emasdilar. Ular o'z mahoratlarini o'zlarini yashaydigan qishloqlardagi tor doirada ko'rsatdilar, xolos. Ammo xalq ommasi do'mbira baxshilar va dostonchilar ijro etgan asarlarini jon-dili bilan eshitir, ularni eshitishga doim oshiqar, ma'naviy, estetik zavq olar edi. Endilikda ham Qashqadaryo dostonchilik san'atida ham yuqorida nomlari ko'rsatib o'tilgan ustozlardan ta'lim olgan shogirdlari musiqa san'atining o'ziga xos bu janrini ijro etmoqda va kelgusi avlodlarga qoldirmoqda.

O'tmish baxshi shoirlarimizning qishloqqa-qishloq yurib, davr, el-yurt oldidagi fuqarolik burchlarini chuqur anglab, xalq hayotida sodir bo'layotgan voqealarga o'z munosabatlarini bildirib, qadimiy va barqaror epik janrlardan cheklanmagan holda zamonaviy mavzularda asarlar yaratishlari chinakam mahorat maktabi vazifasini o'tagan

edi. Afsuski, keyinchalik ustoz baxshi-shoirlarning ana shu an'analari baxshilarimiz tomonidan davom ettirilmadi. O'lgan asrning 50-60 yillarida ham, 70-80 yillarida ham hayotda sodir bo'lgan buyuk voqealar, hodisalar, kishilarimizning ozodlik va hurlikka bo'lgan va boshqa jasoratlarini aks ettiruvchi yirikroq asarlar yaratilmadi. Shu kamchiliklarga qaramay, xalq baxshi-shoirlarning an'anaviy dasturlari, shaxsiy ijodlari madaniy-ma'rifiy muassasalar, badiiy havaskorlar faoliyatlari uchun boy manba bo'lib xizmat qilishi shubhasizdir. Xususan, folklor bayramlarida o'zbek xalq qahramonlik, tarixiy va ishqiy romantik dostonlari, ya'ni "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Rustamxon", "Kuntug'imish" va boshqalardan, hozirda yoshi keksa baxshi-shoirlarning jonli ijrolari va asarlaridan maqsadli hamda o'rinli foydalana olish tadbirining go'zal va mazmunli bo'lib chiqishi ta'minlaydi.

O'zbek xalqining bebaho durdonalaridan bo'lmish dostonchilik san'ati folklor janrlari orasida muhim ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik sharofigi bilan barcha sohalar qatori dostonchilik san'atiga ham alohida e'tibor bilan qaralmoqda. Bu o'zgarishlar avvalo xalq baxshilari repertuarlarida istiqlolni tarannum etuvchi terma va dostonlarning paydo bo'lishiga, ayrim joylarda unutilish arafasiga kelib qolgan baxshichilik san'atining yangidan kuch olib rivojlana boshlashi, baxshi-shoirlar, oqin va jirovlar ijodining hukumatimiz tomonidan keng qo'llab-quvvatlashi, ular ijodiy faoliyatining O'zbekiston Respublikasi teleradiokompaniyasi orqali keng targ'ib etilishi, dostonlar matnini to'la nashr etilishida ko'rinadi.

Ayniqsa dostonchilik san'ati borasida Qashqadaryo dostonchiligi o'zining jozibadorligi bilan, mazmun-mohiyati bilan, milliy qadriyatlarimizni uyg'unlashtirilganligi bilan albatta boshqa viloyatlar dostonchiligi san'atidan ajralib turadi. Mazkur voha dostonchilik san'ati ham o'z tarixiga ega.

Parda ochiladi. Sahnaning hamma tarafi kashkachilik san'atidan namunalar bilan bezatilgan. So'zanalarning har biriga tumorlar bilan bezatilgan savatlar osilgan bo'lib, va so'zanalari ruhini berib turibdi. Sahnaning oldi qismida qo'lda tikilgan quroq anjomlar, misdan yasalgan ko'zalar qo'yilgan. Sahnaga qo'yilgan qovoq idishlar, ko'za va qum'onlar sahnaga yanada chiroy qo'shib turibdi.

1. Baxshular nima aytay termasini kuylaydi.

2. Do'mbira ta'rifi mavzusida aytishuv.

3. Dostonlardan parchalar ijro etiladi.

Shodmon Xo'jamberdiyev:

Salom deymen xaloyiq,

So'zga ta'rif berayiq,

Do'mbiramni olvolib,

Rashid Ustanov (Shibit baxshi):

Nima kuylab berayik.

Do'mbiram kuyla xil bilan,

Boqsam besh parda qul bilan,

Bugun madhingni kuylayin,

O'zbekona til bilan.

Gulmurod baxshi:

Boysun tog'da qamish bor,

Bog'da gulim so'lmaydi,

Oltin, kumush, zumratim bor,

Nonim burda bo'lmaydi.

Alpomishdek yurtboshim bor,
Yukim yerda qolmaydi.

Dunyoga yo'l ochilar,

Yursam dilim sochilar,

Mening O'zbekistonim,

Madhing kuyular baxshilar.

Ilhom baxshi:

Samarqandim bo'stonim,

Qashqa, Surxon dostonim,

Namangan gullistonim.

Gulla yashina hur vatan,

Onam O'zbekistonim.

Abduqodir baxshi:

Gapiar gapga porisin,

Tog'da qorlar erisin,

Har bir inson uyiga,

Xizir bobom dorisin.

El ichinda so'zlayin,

Behayo bo'lib o'sgan qizni.

Nima jomon shul jomon,

Aqlsiz o'sgan qiz jomon.

Dolg'ob kelgan soy jomon,

Bermas katta qorin boy jomon.

Nima jomon, shul jomon,

Suvsiz qurigan joy jomon.

Zahar tomgan til jomon.

Qurisin dunyoda pul jomon.

Nima jomon, shul jomon,

Chuqur bo'g'on ul jomon.

Egri bo'lgan qo'l jomon,

Aytganni qilmagan ul jomon,

Yoshi saksonda bo'lib,

Kampimi quvgan chol jomon.

Surxon baxshichiligida ot ta'rifi:

Shodmon Xo'jamberdiyev:

Bir yoshingda chilton bergan g'itotim

Badvlatga davlat bergan bedovsan.

Seni minsam g'azov bo'lar niyatim,

Befarzandga farzand bo'lgan bedovsan.

Rashid Ustanov (Shibit baxshi):

Bir yoshingda suvlab sumbul tog'ini,

Ikki yoshda ko'rding eram bog'ini,

Eram bog'da sanamning chorbog'ini,

Qizlar yetib, pari mingan bedovsan.

Gulmurod baxshi:

Cho'v deganda qator toldan xezlagan,

Shamoliga oqqan daryo muzlagan.

Chirgiligin chirgan bobom so'zlagan,

Falaka yashinday engan bedovsan.

Ilkom baxshi:

Cho' deganda qushdan o'tgan bedovsan,
Dog' istonga ketgan bedovsan,
Choganda shunqorga yetgan bedovsan,
Dushmanlarni yakson etgan bedovsan.

Zafur baxshi:

Arzimni eshitgin hayvon g'ir ko'k ot,
Meni yulduz yerga yetkaz xonazot.
To'rt oyog'ing qoqqan qoziq,
Badanlaring qizdan nozik.
O'nganlaring fidan yoziq,
Otim g'iro't jonim g'iro't,
Yemishing kishmish, to'rvang g'anot.

Dostondan parchalar

Shodnon Xo'jamberdiyev:

O'lis yuridan oshgan tortar xo'rligni,
Uzoq yurgan yigit qilar zo'rligni,
Beliga bog'laydi belboq qamichni,
Zo'rlarning zo'ri bo'lib yurgan yigitsan.

Rashid Ustanov (Shibit baxshi):

Nasihah aylayin quloq solinglar,
Ikkoving Avazga vazir bo'linglar,
Biring tog'am, biring Xoldorxon mahram
Avazxonni ikking yo'lga solinglar.

Ilkom baxshi:

Eshting ikkoving ayigan so'zinni,
Xizmat qilib oqlang bergan tuzimni,
Hali yoshda, Avaz nondon bilmaydi,
Si'zlarga topshirdim Avaz qo'zinni.

Zafar baxshi shogirdlari bilan o'tirgan mehmonlarga bag'ishlab termalar ijro etadi.

Qoshi kamalak Oybarchin

Asli o'zbekdir eliatim,

Alpomish, barchin avlodim,

Faxrlansam arziydiyo,

O'zbekistondek davlatim.

Qoshi kamalak Oybarchin,

Sochi jamalak Oybarchin.

Ishq o'tida Hakimbekka

Vafodor bo'lgan Oybarchin.

O'ng tomonda Bobotog'

Qaynab yotar Oybulog',

Chap tomonda Hisor tog'

Barq uradi so'lim bog'.

Qizlariyo Barchinoydek,

Yigitlari lochindek.

Kayvonidir momolari,

Misli toydir momolari.

**“BOLALIK DAVRI MAROSIMLARI (TOPISHMOQLAR)”
ASOSIGA QURILGAN TADBIR SENARIYSI**

Topishmoq tarixi haqida tushuncha

Xalq orasida topishmoq, jumboq, ba'zan mataf, topar cho'pchak kabi terminlar bilan yuritilib kelingan topishmoq janri o'zbek folklorida kadim zamonlardan hozirgacha yashab kelmoqda va rivojlanmoqda. Uzoq o'tmish davrlarda topishmoq insonni o'rab olgan muhit va tabiatning turli-tuman hodisalar haqidagi tushunchalarining badiiy ifodasi sifatida maydonga kelgan. Tog' va o'rmonlar, daryo va ko'llar, cho'l va biyobon, yer va osmon, quyosh va oy, yulduz va fasillar zulmat va yorug'lik, toshqinlar, chaqmoq va momoqaldiroq, hayvonot olami, oila-ro'zg'or jihozlari, dov-daraxt, mehnat qurollari va boshqalar haqida kollektiv ijodning mahsuli bo'lib to'qilgan topishmoqlar avlodidan-avlodga o'tib, katta va kichikka hayot, tabiat sirlari haqida o'ylashni, bilishni o'rgatib kelganligi bilan g'oyat ahamiyatlidir.

«Topishmoq» so'zi «top» buyruq fe'lga «ish-moq» yasovchilari qo'shilishi bilan chugal, murakkab, belgi-xususiyati yashirin berilgan biror noma'lum narsani topish mazmunini ifodalaydigan yasama otga aylangan. Tabiat va jamiyat hodisalari kishilar oldiga ko'p murakkab jumboqlar, muammolar qo'ygan. Insonning o'sha masalalarni topishi, siri bo'lib ko'ringan narsalarning tub, haqiqiy mohiyatini ochishi uchun aql idrok va o'tkir did talab qilingan.

Tabiatning sirli hodisalari inson taqdirini asossiz, taxminiy farzlar, turli e'tiqod vositasida passiv anglash, folbinlik, astrologiya kabi og'zaki ijodning g'ayritilmiy shakllarini ham maydonga keltirgan. Topishmoqlar bo'lsa, xalq og'zaki ijodida eshituvchilardan ong'li ravishda yashirilgan, berkitilgan narsa, hodisalarning asosiy mazmunini topish, yechishning o'ziga xos poetik formasidir. Shuning uchun topishmoqni eshituvchilar uni tabiat yoki turmush siri deb emas, yashirilgan muayyan, aniq bir narsa deb biladilar, shunday tushumadilar.

Topishmoqlar og'zaki ijodning ommaviy va maxsus janrlaridan biri. Ularning uslubi metafora (istora), ko'chim, kinoya, qochiriq yo'li bilan so'zlarni ko'chma ma'noda ishlatib, yashirilgan narsa, hodisalarning belgilariga ikkinchi bir narsa, hodisalarning belgilarini qiyoslash, imo-ishora qilishdan iboratdir. Topishmoqlarning shu xususiyati haqida qadimgi yunon faylasufi Aristoteinning: «Juda yaxshi metafora tuzish yo'li», deyishi bejiz emas.

Topishmoq aytish qadimgi zamonlardan boshlab turli xalqlarning hayoti, ijtimoiy shart-sharoitlari, dunyoqarashlari, urf-odatlari, mifologik tasavvurlari bilan bog'liq bo'lgan. Rus xalqi orasida dekabr, yanvar oylarida, udmurtlarda yig'im-terim tugallangach, bahor boshlanguncha, turkmanlarda Navro'z bayrami oqshomlarida topishmoq aytish rasm bo'lgan. O'zbek xalqi ham boshqa qardosh xalqlar kabi kuz va qish kechalari g'o'za chuvishi, charx yigirishi, olacha to'qish kabi qo'l mehmati bilan bajariladigan turli-tuman ishlar davomida topishmoq aytishgan. Topishmoq aytish qaysi bir xalqda bo'lmasin, u aql-ziyraklik musobaqasi, ko'ngil ochish, o'yin-kulgu vositasi hisoblangan. Topishmoq aytish, asosan, yoshlarning so'z boyligini oshirish, hayot va uning hodisalari haqidagi bilim tushunchasi, idrok va mulohazalarini kengaytirish uchun zarur tarbiya vositalaridan biri bo'lgani tufayli ular soddadan murakkabga, osondan qiyonga borish usulida yaratilgan. Topishmoqlar orasida maktab yoshgacha bo'lgan bolalar osonlik bilan topa oladiganlari bo'lgani kabi katta yoshdagi bolalar, hatto turmush tajribasi ko'p kishilarning ham boshini qotirib, o'ylashga majbur qiladiganlari ham bor. Masalan, «O'ndan baland, itdan past», «Qoziq ustida qor turmas» kabi egar, tuxum haqidagi topishmoqlar xalq orasida keng tarqalganligidan topishmoq aytib bo'linmay, eshituvchilar uning javobini topa oladilar.

Ammo «Uzundan uzoq, havoga tuzoq» (tutun) kabi topishmoqlar ancha o'ylantirib qo'yadi. Topishmoqni hamma – kattadan kichik aytadi, uni topishda ham ko'pchilik ishtirok etadi. Xalq orasida nisbatan ko'p topishmoq biladigan kishilar topishmoqchi, jumboqchi ham deb yuritiladi.

Topishmoq aytishning muayyan tartib-qoidalar mavjud. Topishmoq javobi topilishi bilan ketma-ket aytila beriladi. Agar topishmoqning javobini topa olmasa, o'timishda «shahar» talab qilinadi. Topishmoq aytuvchi topishmoq javobini topa olmagan, «shahar bergan» kishini ma'lum vazifasini bajarishga majbur qilardi. So'ng «Sen topmasang, men topay, uning o'zi ...» deb javobini aytardi. Bunda topishmoq aytuvchi bilan topuvchi o'rtasidagi «sotdim-oldim» tipidagi savol-javob xarakterlidir. Topishmoq javobini topa olmagan shaxsni izza qilishdan iborat «sotdim-oldim» dialogida, xuddi topishmoqdagidek, predmetlarning bir-biriga ma'lum tomonlari o'xshatiladi. «Sotdim-oldim» da kishilarning obrazil fikrlashi topishmoqning uzviy bir qismi bo'lib davom ettiriladi.

- Sotdim.
- Oldim.
- Nimani?
- Qo'lingni.
- Nima qilasan?
- Panshaxa qilib xirmon sovuraman.

Topishmoq aytish orqali davrada ajoyib xushchaqchaqlik, ruhiy ko'tarinkilik paydo bo'ladi. Topishmoqlarni yaxshi biladigan keksalarning guvohlik berishicha, topishmoq aytish kechalari juda maroqli o'lgan, ayniqsa yoshlarga tarbiyaviy-talimiy jihatdan katta foyda yetkazgan.

Topishmoqlar tuzilishi jihatdan ba'zan nasriy, ko'pchilik hollarda sha'riy shaklda bo'lib, ularda noma'lum bir musiqiylik, zarb, turoq, vazn, qo'fiya kabi she'riyatning shakl talablariga amal qilingan.

Qo'fiya, vazn topishmoqning silliq, ixcham, ohangdor, esda qolishini ta'minlashga xizmat etadi. Masalan:

To'rt oyoqli,
Temir tuyoqli. (Ot).

Topishmoqlarning bir nechasi nazm ipiga tizilgandek bo'ladi va ularning javoblari ham shu tarzda bo'lishi talab etiladi:

Qamish uchi qaltiroq, uni toping, dilbarim,
Igna uchi yiltiroq, uni toping, dilbarim.
Sassi ko'lda it hurar, uni toping, dilbarim,
Taqir-tuqur taqirvon, uni toping, dilbarim,
Ichidagi mehribon, uni toping, dilbarim.

Bu topishmoqning javobi, she'riy shaklda quyidagicha bo'lishi kerak:

Qamish uchi qaltiroq - shamol degan emasmi,
Igna uchi yaltiroq - o't degani emasmi,
Sassi ko'lda it hurar - suv baqasi emasmi,
Taqir-tuqur taqirvon - beshik degan emasmi,
Ichidagi mehribon - bola degan emasmi...

Ko'pchilik topishmoqlarda yashiringan predmetga o'xshatilgan, imo-ishoralar qilingan narsa yoki predmet belgilarining tavsifi sodda, sanimiy, beg'araz kulgi, hazil-mutoyiba, masxara, mazax vositasi bo'lib xizmat qiladi:

To'rti - lop-lop, egri sop-sop,
Ikki - dingilding, bir - shipilding.

Boradi luk-luk, keladi luk-luk,
Hamisha luk-luk, tomosha luk-luk.

Tuya haqidagi bu ikki topishmoqda tuyaning yurishi, beso'naqay, qo'pol gavda tuzilishi, dumi, yurishining ta'rifi berilib, asosiy predmet - tuya yashirilgan. Bunday tavsif hazil-mutoyiba, kulgiga sabab bo'ladi.

Ayrim doston va ertak qahramonlari orasidagi dialoglarda topishmoq janri qo'llanadi. Jumboqli savolga asar kahrmonining javobi tarzida beriladi. Savol-javobli topishmoqlar dostonlarda qahramonlarning aql-farosatini sinash, ba'zi bir shartlarni bajarishda qobiliyatini sinashda ishlatiladi:

U nimadir, havodagi do'langan?

U nimadir, yer yuzini suv olgan?

U nimadir orqasida og'zi bor?

U nimadir o'rtasida mag'zi bor?

U nimadir suv ichida joni bor?

- Bulut bo'lar havodagi do'langan.

- Yomg'ir bo'lar yer yuzini suv olgan,

- Tegirmondir orqasida og'zi bor.

- Bug'doy bo'lar o'rtasida mag'zi bor,

- Baliq bo'lar suv ichida joni bor.

Bu turdagi savol-javobli topishmoqlar «Oshiq Oydim», «Oshiq Alvand», «Xirmon dalli», «Yozi bilan Zebo» dostonlarida, Maxtunquli va Durdil Qilich aytishuvlarida tez-tez uchray turadi. «Alpomish» dostonining Po'likan shoir aytgan variantida Barchinning jumboq'iga Alpomishning bergan chiroyli javobi mavjud.

XX asrda fan va texnikaning rivojlanishi ulkan yutuqlar, kashfiyotlar va boshqa o'zgarishlar topishmoq janrida ham o'z aksini topdi.

Kechasi oftobdek, kunduzi koptoqdek. (lampochka).

Gapirsa Moskvadan, eshtiasiz Quvadan. (radio).

Tovuq desan pat yuq,

Oyoq-qo'li, qanoti yuq,

Ming-minglab ochar jo'ja,

Buni toping, Xolxo'ja. (inkubator).

Topishmoqlarning mohiyati, ma'rifiy-tarbiyaviy ahamiyati olam sirlaridan kishilarni voqif qilish, bilishga undash bilan birga, insoniyatning tabiat va hayvonot dunyosi bilan qadimdan uzviy bog'liqligini ta'kidlash, ularni sevish, ardoqlash tuyg'usi ham yashiringanidir.

Topishmoqlar xalq og'zaki badiiy ijodining qadimgi turi sifatida yozma adabiyotga barakali ta'sir ko'rsatdi. Sharq adabiyoti, jumladan, o'zbek adabiyotida chiston, tarix, muammo, muvashshax kabi lirik janrlarning paydo bo'lishida lirik topishmoqlar muhim rol uynaydi. O'z navbatida yozma adabiyot ham juda ko'p topishmoqlarning paydo bo'lishi va el orasida keng tarqalishiga sabab bo'ldi.

Topishmoqlar bugungi kunda ham yoshlar zehni o'tkirlashtirishda, muhokama doirasini oshirishda muhim ma'rifiy-talimiy, tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Mustaqil respublikamizda ma'naviy merosimizni rivojlantirishda ajdodlar merosini, an'ana va marosimlarini tiklash, milliy qadriyatlarini yoshlar ongiga sindirish muhim ahamiyatga ega. Istiqbol sharofiga tufayli ma'naviy, milliy qadriyatlarimizni qayta tiklash, yangi jihatlarini o'ylab topishga keng imkoniyatlar yaratildi.

Bolalik davri bilan bog'liq bo'lgan turfa xil o'yinlar ichida topishmoqlar ham mavjud. Ular bolalar aqlini charxlab, dunyoqarashini kengaytiradi.

Xalq hayotini badiiy idro etish shakllaridan biri bo'lgan topishmoqlar o'zbek xalq og'zaki ijodining ommalashgan janrlaridan biridir. Topishmoq xalq hayotining ifodachisi sifatida, ayniqsa, bolalar dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Topishmoq respublikamizning turli hududlarida o'sha joylarning o'z xususiyatlari va shevasiga ko'ra, "topishmoq", "jumboq", "ushuk", "top-top" singari turfa xil so'zlar bilan ifodalanaadi. Hozirgi kunda "topishmoq" so'zi yagona ilmiy-adabiy atama sifatida qo'llanilmoqda.

Topishmoq ijrosi yoki uni sahnaga olib chiqish uchun kamida ikki kishi yoki ikki guruh: topishmoq ayuvchi va uni yechuvchilar, javobini topuvchilar bo'lishi kerak.

Topishmoqdan bolalar o'yin faoliyatini sahnada ko'rsatishda ham foydalanish mumkin. Bu o'yinda bir necha bolalar ishtirok etib, topishmoq aytilishi bilan uning javobini topishgach, ketma-ket navbatdagi davom ettiraveradi. Agar topishmoqning javobi topilmasa, davradagi bola biror shartni bajarishi kerak bo'ladi.

Topishmoq aytish uning javobini topish, aslida, har bir bolaning dunyoqarashini shakllantiradi. U aql-zakovat, ziyaraklik musobaqasi, o'yin-kulg'u, ko'ngil ochish vositasi sifatida qo'llaniladi.

Bugungi kunda topishmoqlar juda katta ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ular bolalar va yoshlarimizning fikr doirasini kengaytirish, topqirligini oshirish va muhokama qobiliyatini o'stirishning ma'naviy-tarbiyaviy vositasi sifatida qo'llanilmoqda.

Qadimiy kashchilik namunalari bilan bezatilgan sahna. Sahnadagi gullar, qadimiy an'analarni eslatadi. Doira sedosi ostida bolalarning "Ketdik, o'ynaymiz, yuringlar", degan ovozlari keladi va sahnaga bir guruh bolalar kuy - qo'shiq jo'rligida chiqib kelishadi.

Olis o'tmishlardan so'zlar bu kuylar
Bizlardan kutadi muruvvat, najot.
Ajdodlar merosi bizning faxrimiz,
An'analar bo'lgay doim barhayot.

Assalomu alaykum, aziz ustozlar va hurmatli talaba yoshlar. Bugun biz sizlar bilan o'zbek milliy bolalar o'yinlaridan bo'limish "topishmoq" aytish o'yimini o'ynaymiz. Topishmoqlar insonda ziyaraklikni, chaqonlikni, uddaburonlikni, zehm o'tkirligini va aqliy tafakkurni rivojlantiradi.

Atrofimizdagi moddiy va nomoddiy predmetlarga bo'lgan munosabatimizni shakllantiradi. Qani bo'lmasa o'yinimizni boshlaymizmi?

Istirokchilar: Boshlaymiz! Boshlaymiz... lekin sharti qanaqa?

Boshlovchi: Sharti shuki, kimdir topishmoq aytadi, qolganlar esa uni topadi. Topishmoqning javobini topsangiz, topishmoq aytgan kishi shartni bajaradi ya'ni qo'shiq ayub beradi yoki raqsga tushadi. Rozimisiz?

Istirokchilar: Rozimiz, boshladik!

Jo'riyeva Mohinur: Topishmoq

Uzun-uzun iz ketdi,

Uzun bo'yli qiz ketdi.

Toqqa borib taq etdi,

Sing'alari yarq etdi. (Chaqmoq)

"Karima ko'ylak kiyodi" qo'shig'i

Karima ko'ylak kiyodi,

Eltngi yerga tegodi.

Shu zamonning qizlariyo,

O'ynab-o'ynab yurodiyo.

Naqorat:

Ertalab o'tsang erkalab o't,

Erkalab o'tsang ertalab o't.

Ko'cha boshida fonar,

Fonar yonsa yor yonar.

Shu zamonning qizlariyo

Fonardan yorug' yonar.

Naqorat:

Pobedaning eshigi

Ochilisa yopilmaydi.

Shu zamonning qizlariyo

Sotilmaydi chervonga.

Naqorat:

Ertalab o'tsang erkalab o't,

Erkalab o'tsang ertalab o't.

Ro'ziyev Namoz: Topishmoq

Sovuq edi turganda,

Issiq chiqdi olganda,

Tushga borib ko'rsan,

Kechga yaqin ko'rsan,

Havo desam havomas,

Hayt desam ravomas,

Yosh qariga kerak u,

Ayting nima ekan u? (Non)

"Yalili bobo" qo'shig'i

Ko'zada oltin g'oz,

Suvdan ko'tardim ko'za,

Yalili bobo yalla.

Ko'zayu-g'oz qo'lmda.

Shinni qoriladi chinni,

Uzumzorlada shinni,

Ko'zayu g'oz qo'lmda.

Shimniyu-chimniyu,

Yalili bobo yalla

Soatga oldim zanjir,

Bog'lardan terdim anjir,

Shimniyu-chimniyu,

Zanjiru-anjiru,

Yalili bobo yalla.

Ko'zayu g'oz qo'lmda,

To'quvchi qizdan gazmol,

Sotuvchi qizdan dazmol,

Gazmolu-dazmolu,

CHO'ponlardan ayron,

Gulzorddan rayhon,

Ayronu-rayhonu.

Archayu-parchayu,
Guzmolu-dazmolu.
Haydarova Surayyo: **Topishmoq**

Hoy biz edik, biz edik,
O'ttiz ikkita qiz edik.
Bir taxtaga tizildik.
Borib-borib uzildik. (Tish)

"Kashita" qo'shig'i

Erta bilai turaman nahori nashta yo,
O'ng qo'linda ignayu, tizzamda kashta yo.
Borib ayting o'sha qalami qoshga yo,
Borovuradi, kelavuradi va dasi boshqa yo.

Naqorat:

Ey nozli yorim, ko'zi xumorim,
Mehr bilan menga qarang vafoli yorim.
O'yinga tushgan qizlarning nozi chiroyli yo,
O'ng yuziga yarashgan xoli chiroyli yo.
O'ng yuziga yarashgan xol bo'lsa-chi,
Savlatiga yarashgan yori bo'lsa-chi.

Sulaymon Azizbek: Topishmoq

U bor senda va menda,
Qo'yehi, har bir insonda.
Eng yaxshisi asal qand,
Yomoni-chi berar pand. (Til)

"Dilbari yagonayiman" qo'shig'i

Dilbari yagonayiman
Ofati zabonayiman
Yomaro bubar baxonet
YO biyo baxonayiman.
Zulfi siyoh balo kun dilbari yagonayiman
Gashita baman nigoh kun ofati zamonayiman
Dardi dilam davo kun dilbari yagonayiman
Biyo-biyo nozuk badan ofati zomonayiman.

Naqorat:

Ey, duxtar yo rat shavash dilbari yagonayiman
Oshuqi ki zorat shavash ofati zamonayiman
Vaqt ki choy merzi dilbari yayunayiman
Man piyola doram shavash ofati zamonayiman.

Naqorat:

Yo, maro burar bahoniy
Yo biyo bahoniyman.

Fayzullayev X: Chiston

Ikki mahbubni ko'rdim bir-birisin ko'rmagay,
Hatto do'stlar orasida, bitta qil ham o'tmagay.

"Qipillama" qo'shig'i

Qoshing o'smadakkina qipillama,
Beling tasmadakkina qipillama.

Men seni kampir desam kilpillama,
Qilig'ing qizdakkina qipillama.
Sholi soldim keliga qipillama,
Tegirmonning do'lga qipillama.
Shoyi qiyiq yarashar qipillama.
Cholg'inamning beliga qipillama.
Ro'moling uchi sochiq qipillama.
Kelsam darvozung ochiq qipillama,
Jon sadaquq bo'yinga qipillama.
Bo'lgan man chindaqoshiq qipillama.
Belbog'inning firog'i qipillama,
Shirin yorning firog'i qipillama.
Qo'sha qarib yurganing qipillama,
O'chmas sira chirog'ing qipillama.
Shoyimardonov Zokir: Topishmoq
Zar-zar to'ni bor,
Zardan panohi bor.
Urdu bobom pichoqni,
Uning ne gunohi bor? (Qovun)

"Ohu voh" qo'shig'i

Chiqdim tog'lar boshiga,
To'ydim shirboz go'shuga,
Gullar terib kelgandim,
Yorginamning qoshiga.

Naqorat:

Ohu voh-ey, ohu voh.
Ohu voh, ohu voh,
Surxonimning jamoli,
G'irillaydi shamoli,
Olti oy qo'linda turdi,
Yorginamning to'moli.
Qo'y haydadim soy bilan,
Qo'limdagi nay bilan,
Bir armonim bor edi,
O'ynolmadim san bilan.
Ergashev Zohidjon: Topishmoq
Yerga ko'milmaydi,
Kosaga quyilmaydi,
Dunyoda hamma odam
Ichnay qo'ymaydi. (Qasam)

"Yuquq-yoq" qo'shig'i

Aylansin yor aylansin,
Qoshlari qaro aylansin.
Shaftolizor ichinda
Bodom qovoq aylansin

Yaqqu yaqqu yaqqu yaq
Yaqqu yaqqu yaqqu yaq

Devor ustida devor.

Devona bo'lsin akang.

Boshingda balxi ro'mol,

Ishqingda o'lsin akang.

Naqorat:

Tog'lar boshi qurama,

Kiyik shoxi burama.

Boy qizini bermasa

Boyni xudo urama.

Sunnatullayev Asadulla: Topishmoq

Olti tegirmon toshi,

Oltin egovning qoshi,

Uni topgan kishining.

Yuz yigirmada yoshi. (Tish)

"Checham o'ynar" qo'shig'i

Bobom to'yin boshladi,

Momom qadam tashladi,

Bobom qadam tashladi,

Sevinch ko'zin yoshladi.

Momom o'ynar davrada,

Bobom o'ynar davrada.

Chimildig'i qoshida,

Shirin to'ylar oshida,

Bugun yetmish yoshida,

Momom o'ynar davrada,

Bobom o'ynar davrada.

Ilhom baxshi kuylasa,

Yurtim gullab, yashnasa,

Go'zal qizlar o'ynasa,

Momom o'ynar davrada,

Bobom o'ynar davrada.

Sulaymonov Jahongir: "Qizgina" qo'shig'i

Qizgina, qirmizgina,

Ko'zimdagi yulduzgina.

Sog'inib kelar bo'lsang.

Tosh kechalar kunduzgina.

Tunlar boradi qizgina.

Gullar teradi qizgina.

Otun oladi qizgina.

Naqorat:

Anov tog'ning chinori bor,

Bo'yungizni tumori bor.

Jonim sensiz yasholmadim,

Sog'inching bir xumori bor.

Turg'unov Olimjon: Topishmoq

Uzoqdan qarasang yaltur-yultur,

Oldiga borsang qulfu-zanjir. (Eshik)

"Hay-yor-yor" qo'shig'i

Hay yor-yor yoringman, kelgin yor o'ynaylik.

Man sani sevgan yoringman, kelgin yor o'ynaylik.

Eshik oldi moshpoya, kelgin yor o'ynaylik.

Bargi boshingga soya, kelgin yor o'ynaylik.

O'yna, o'yna man ko'ray, kelgin yor o'ynaylik.

Boshingga gullar o'ray, kelgin yor o'ynaylik.

Polyonov Abbosbek: Topishmoq

Boshi boru sochi yo'q.

Ko'zi boru qoshi yo'q.

Tangasi boru puli yo'q.

Qanoti boru uquvi yo'q. (Baliq)

"Go'rdim-go'rdim" qo'shig'i

Ta'rif etay bir yor vaslin,

Man shu kun Ra'noni go'rdim.

Orzu etib oning vaslin,

Qoshlari qaroni go'rdim.

Go'rdim - go'rdim nani go'rdim doday

Man shu kun Ra'noni go'rdim.

Qoshlari qaroni go'rdim.

Ra'no degan bog'da gazar,

Yaqsina duyma duzar.

Oshiqlarni bag'in azar.

Man shu kun Ra'noni go'rdim.

Qoshlari qaroni go'rdim.

Ra'no degan sochi sori,

Sochlari sunbulini tori,

Ko'rgan aytar kimni yori.

Abduraimov Yunusjon: Topishmoq

Marjon-marjon yumaloq,

Yaproqlari shapaloq.

Qora ko'zli sariq, oq,

Yeb ko'rmasdan o'ylab boq. (Uzum)

"Xorazmning navolari" qo'shig'i

Xorazmning kuy navosi boshqacha,

Jimbirdatar oyoqdan to boshgacha.

Bu vohada tug'ilgan har qora ko'z

San atkor yettidan yetmish yoshgacha

Hava ahey hava deymaney hava.

Xorazm qizlari maysal malaka,

Go'rsang qaraimisan shundan bo'laka

Chappidan chopilgan ijondan bukib,

Galsangiz to'ydirar go'mma baraka.
 So'rashganda nichiksiz, jollimi deb,
 Jonsizga jon berar mushi va bu gal.
 Xava xava og'a bika arkalab,
 Gatsangiz qolib ketasiz haftalab.
 Xava ahey xava deymaney xava,
 Xorazm sozina hach to'yib bo'lmas,
 Raqsina, nozina hech ko'ngil to'ymas.
 Xorazm lazgisina shaydo bo'lgan
 Boshqa el sozina hech quloq qo'ymas.
 Xava ahey xava deymaney xava.
Mutamadiyev Umidjon: Topishmoq
 Topishmoqni nomini top shirali,
 Yesang juda mazali,
 O'zi polizda pishar.
 Bosh har'ni o'zgartirsang.
 Kirtog'oraga tushar. (Qovun)

"Gal gal yorim" qo'shig'i

Olna galdi nor galibdi deydilar,
 Va'dasida bor galibdi deydilar,
 Yangi bog'da birga davron surali,
 Bizni istab yor galibdi deydilar,
 Gal gal yorim man o'rgilay joningdan,
 Aslo getim kelmas sani yoningdan,
 Qotti yerdan chiqan chechak so'nmasin,
 Hech biroshig' ikkimizdin bo'lmasin,
 Ikkimizam bir vadaga galganda
 Oramiza dushman girib buzmasin.

Naqorat:

Qo'limda uzugim uch aylanadi,
 Yorim mani go'rsa xiyallanadi,
 Xiyallanma janim o'zim baraman,
 Dushmani janina o'tlar salaman.

Boshlovchi: Mana sayil ham yakunlab qoldi, sayilga kelganlar rosa dam oldi.
 Yuzingizdan kulgu, labingizdan tabassum arimasin deb Sizlar bilan xayrlashamiz.

Hamma: Biz barkamol, o'ktam avlodimiz, kelajagi buyuk davlatimiz!

"GULDIR-GUP O'YINLARI" MAVZUIDAGI TADBIR SENARIYSI

O'zbek bolalarining poeziya bilan bog'liq o'yin repertuarida guldur-guplar ham keng tarqalgan. Toshkent vohasi va Farg'ona vodiysidagi bolalar "guldur gup" deydigan bu janr Buxoro vohasidagi bolalar orasida "jildir-jip" nomi bilan ma'lum. Jo'sh shevasida so'zlashuvchi bolalar uni "xapina" deb yuritishadi.
 Jildir-jip, xapina terminlarining qo'llanishi nisbatan lokalroq xarakterga ega. Binobarin, guldur gup termini ilmiy iste'mol uchun qulay bo'lib, rus bolalar folkloridagi shunday hodisani ifodalovchi "molchanka" istilohiga teng ekvivalent bo'la oladi.

G' Jahongirov guldur guplarni cheklashmashoqning bir turi tarzida qaraydi. Bizningcha, ularni mustaqil janr sifatida o'rganish zarurga o'xshaydi. Chunki ularning poetik funksiyalari xilma-xil bo'lib, cheklashmashoq bolalarni ikki tarafga ajratsa, gupir guplar o'yinchilar oldiga konkret shart qo'yadi:

Dim-dim dim,

O'ra qum dim.

Gapirganing og'ziga,

Bir shapatoq urdim.

Ba'zida bunday shartlar behad og'ir va shafqatsiz bo'lishi mumkin:

Mushuk o'ldi,

Dumi kuldi.

Kim gapirsa,

Uni yeydi.

Ko'rinadiki, shart bolalarni guruhlarga ajratishni mo'ljallagan yo'q, bil'aks hamma o'yinchilarga taalluqli, binobarin, uni bajarish barchaga majburiy. Kim shu shartni bajarishga bardoshi yetmasa, beqarorlik qilib shivirlasa yoki gapirsa, kulib yuborsa, yutqizgan hisoblanadi. Yutqizgan bola shartdagi taqirga loyiq sanalib, onaboshi yoki boshqa o'yinchilar qanday xohish bildirishsa, topshiriq bersa, o'shani so'zsiz bajarishi lozim bo'ladi. Xohish yoki topshiriqlar, asosan, ertak, topishmoq, ayim, qo'shiq kuylash, raqsga tushish, muallaq vaziyatda belgilangan muddatda tik turish, belgilangan masofaga chopib yoki yotib bonib kelish, biror o'yinchini (ayniylik, onaboshini) ustiga ko'targan holda borib qaytish va shunga o'xshashlardan iborat bo'lishi mumkin.

Tabiatan quvnoqroq, sho'xroq yo bardoshsizroq bolalar guldur gup shartini tez-tez buzib turadilar. Goho birdaniga ikki-uch o'yinchi shivirlasbi, kulib yuborishi mumkin. Bunday sharoitda ularni nazorat qilish onaboshi zimmasiga qo'shimcha hushyorlik yuklaydi. Qay darajada bo'lmasin, eng oldin shivirlagan yoki kulib yuborganini g'oyat aniqlik bilan belgilash zarurata aylanadi. Ana shunday zarurat taqozosiga ko'ra onaboshi ayrim hollarda o'zini guldur gupdagi shartni bajarishdan ozod etadi. Biroq shu niyatini guldur gup shartiga ilova qilib, e'lon qilmog'i darkor. Ana shundaygina niyati qonuniy xolislik kasb etadi. Bunday "kim gapirsa" satri "mendani oldin" iborasi hisobiga to'ldirilib, onaboshining shartni bajarishdan ozod etilishi ta'minlanadi:

Otini-yo otini,

Qo'ya turgin toshini,

Mendan oldin kim gapirsa,

Ko'r gadoyning xotini.

Ayrim guldur guplardagi shart o'xshash vositasida ifodalaniadi. Shunda guldur gup ohang o'xshatilgan narsaning harakatiga mos ritmga muvofiqlashadi:

Jim-jim, jima-jim,

Og'izchangni darrov yum,

Nikolayning poyezdiday,

Qilma taka-tuk, bum-bum.

Poyezdning bir zaylidagi taka-tuk, bum-bum butun guldur gup ohangiga aylangan. Bu ohangda kesatq ham bor. Nikolayning poyezdi eskirganq, shalag'i chiqqanligidan taka-tuk yoki bum-bumi ko'proq. Binobarin, ogohlantirishda shu holat nazarda tutilayotir. Boshqa bir qator guldur guplarda harakat shiddati shartni bajarish sifatiga aylangan. Chunonchi:

O'raga sichqon tildi,

Guldur gup.

Shartni ifodalovchi oxirgi soʻzning intonatsiyasi ham shiddatli. Shu lahzadan eʼtiboran shart kuchga kirgan hisoblanadi va oʻyin ishtirokchilari ogʻizlari talqon solganday jim turishlari lozim. Guldirlar jim turish muddati belgilanmaydi, uning qanchalik choʻziqligi yoki qisqaligi oʻyin ishtirokchilarining bardoshiga bogʻliq. Ular qancha jim tura olsalar, jimgilik muddati shuncha boʻladi.

Shu tariqa, guldirlar bolalarga soʻzlarning qudratini, insoniy munosabatlardagi masʼulligini, soʻz va harakatning uygʻunligini anglashlariga yordam beradi. Soʻzda ifodalangan shartni bajarish jarayonida ularni bardoshlilik ruhiida tarbiyalab, irodalarini tobilantiradi.

Sahna oʻzbek milliy hunarmandchiligiga xos kashkalar, tumorlar, koʻzalar, savatlar, joy poʻsh, taqinchoqlari bilan bezatilgan.

Palaklar sahna oʻrtasida ikki chetida joypushlar kichik joylar ustidan tushlab qoʻyilgan. Sahna oldi goʻzal rangli quroqlar bilan toʻsilgan. Sahna oldining ikki tomonida koʻzalar, pastrogʻida savatlar maxsus oʻrnatib qoʻyilgan. Tumorlar bilan bezab, gullar terib chiqilgan. Tadbirni boshlovchi boshlab beradi. Undan oldin milliy kuy chatinadi va sahna pardasi ochiladi. Boshlovchi mayin tabassum bilan kirib keladi.

Assalomu alaykum, aziz mehmonlar.

Mehri daryo qalbi quyosh ummonlar.

Koʻnglingizni etaylik togʻdayin bunyod.

Tark etmasin shundayin sharafi onlar.

Aziz ustozlari institutimizning bilimga chanoq hurmatli talabalari. Mana bugun «Xalq ijodiyoti» fakul'teti «Folklor-etnografik jamoalarga raxbarlik» 2-kurs talabalarining «Marosim va udumlarini sahnalashtirish» fanidan «Guldirlar» mavzusidagi ochiq ijodiy darsimizga xush kelibsizlar.

Fargʻona - Toshkent

Boburiylar yurti vodi koʻpdir shaydosi,

Koʻzni olgan Choʻlpon shoir jilosi,

Jahonda yoʻqdir tengiyu hatto uning bahosi,

Navqiron Margʻilonning shoyi-atlas matosi.

Tanga rohat, jonlarga jon sening soʻlim joylaring,

Zilodayin tiniq-toshqin daryo hamda soylaring.

Ona zamin makonida jannatning quchogʻisan,

Ona yurtim-jon Fargʻonam jannatning oʻchogʻisan.

Kim bilmaydi "Daryo toshqin", "Omoniyor" ni,

Kim bilmaydi oʻsha mashhur "Tanovar" ni,

Raqsga tushib ketar raqs bilmagan ham,

Gar doʻstlarim kuylaganda bogʻim botni.

Samarqand - Buxoro

Sensan sharqning durdonasi koʻhna jahon darvozasi,

Sensan buyuk eng qadimiy diyorlarning bir donasi.

Ey Samarqand, ey Buxoro, boʻying dunyoga boʻylashar,

Bugun sening madhingni yosh avlodlar kuylashar.

Taʼrifingga soʻzlar ojiz minoradan soʻylaymiz,

Samarqandcha, Buxorocha baralla shoʻx kuylaymiz.

Surxoncha

Bahor sendan boshlangusi ey Surxonim,

Sen alplarning yurtisan boir polvonim.

Alpomishu Barchinoylar beshigidursan,

Qadimiylik dunyosining eshigidursan.

Baxshilar polvonlar zamini Surxon,

Vatan qoʻrgʻonida yengilmas qoʻrgʻon.

Doʻstlikda, sanʼatda hayot maʼnosi,

Boysun bahoridan sururda jahon.

Bedilu Dehlaviy, yuzlab Nasafiy,

Qoniga qon bergan Qashqadaryo,

Temurbek Vatani - yurtning gʻururi,

Dunyolar ichida oʻzga dunyo bu.

Xorazmcha

Xorazmning osmon oʻpar minoroti bor,

Diini oʻrtar "Lazgisi"yu "Guliyor"i bor.

"Lazgi" siga oʻynaganni dili rozi bor,

Komiljondek piru komil ustozu bor.

Xorazmcha qoʻshiqqa yuragi bor oʻynasin,

Yuragida oydan oq tilagi bor oʻynasin.

«Galadi yor galadi» deb kuylasa yorolar,

Mana oʻynayman degan bilagi bor oʻynasin.

Guldirlar gup:

Mot qilaman soʻz talashsang,

Och qoʻyaman tuz talashsang,

Yalang qolasan Ilxombek,

Gar men bilan soʻz talashsang.

"Yorijon" qoʻshigʻi

Tol qamishday boʻyingga yor banda boʻlay yori-jon,

Nima boʻlsam ham faqat sanda boʻlay yori-jon,

Sendan oʻzga tomonga ketsa agar xayolim,

Bu boshim quzgʻun boʻlib kanda boʻlay yori-jon.

Yori-jon yori-jon, yori-jon yori-jon,

Yori-jon yori-jon, yoring boʻlay yori jon,

Shoyi koʻylak olib bersam kiyarmisan yori-jon,

Sevib suyib menga koʻngil qoʻyarmisan yori-jon,

Yoʻllaringga qizil gul toʻshab oʻtay yori-jon,

Qoʻsha qarib sening bilan yashab oʻtay yori-jon.

Naqorai:

Qoshlarigini qoqib-qoqib oʻtar boʻlsang yori-jon,

Bir yuragim ming pora etar boʻlsang yori-jon,

Tiriklayin oʻlganim shu boʻlar bu jahona,

Man qolib oʻzga bilan ketar boʻlsang yori-jon.

Guldirlar gup:

Kez qoling! Olib qoling!

Bozorda olma sotarman.

Karimjon olmadan olmasang,

Chirik olma otarman.

"Bogʻim bor" qoʻshigʻi

Bogʻim boru bogʻim bor,

Bogʻimda anorim bor.

Armoni yoʻq yigitman-yey,

"Ohu voh " qo'shig'i

Chiqdim tog'lar boshiga,
To'ydim shirboz go'shtiga,
Gullar terib kelgandim,
Yorginamning qoshiga.

Naqorat:

Ohu voh, ohu voh,
Ohu voh-ey, ohu voh.

Surxonimning jamoli,
G'irillaydi shamoli,
Olti oy qo'limda turdi,
Yorginamning ro'moli.

Naqorat:

Ohu voh, ohuvoh,
Ohu voh-ey, ohu voh.

Guldir gup:

Nog'orayu nog'ora, har joyda bor zog'ora,
Husan qo'shiq aytmasang, seni deyman teshik tog'ora.

"Chechajon" qo'shig'i

Axaya debam aytaymi, vaxaya debam aytaymi?

Chechalarni o'ynatiba vaxaya debam aytaymi?

Boy buvasi tushmagir uxlamaydi kechalar,

Uluv-suluv qizlardan qizg'onadi chechalar.

Ko'yaklari burmali, qirq kokilli o'rmali?

Kecha tushgan kelinday qosh ko'zlari surmali.

Axaya debam aytaymi, vaxaya debam aytaymi?

Chechalarni o'ynatiba vaxaya debam aytaymi?

Oydan oydin kechalar yo'l poylaydi nechalar.

O'zbeqinning to'ylarida eshilib o'ynar chechalar.

Axaya debam aytaymi, vaxaya debam aytaymi?

Chechalarni o'ynatiba vaxaya debam aytaymi?

"Chiq ho'chiq" qo'shig'i

Darvozang ochiq ekan, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Umidvor bo'lib keldim, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Shakar lab dudog'ingda, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Tashnazor bo'lib keldim, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Ko'ngil olmoq osonmas, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Sendek dildor topilmas, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Devoringdan oshayim, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Origa qaygan yigitmas, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Jonim taqay joningga, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Qalbim ochay nozingga, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Labingandan bir o'ptirang, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Ming yil bo'lay yoningda, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Kuydirma jon kuydirma, chiq xo'chiq, yorim chiq,

Yigit ko'nglin cho'kirma, chiq xo'chiq, yorim chiq.

Gir yoningda aylanaman, chiq xo'chiq, yorim chiq,
Suydirsangda kuydirma, chiq xo'chiq, yorim chiq.

Guldir gup:

Samovaru samovar, samovarning suvi bor,

Lobarxon choy damlaydi qizg'onchiq, u hech kimga bermaydi

"Galadi yor galadi" qo'shig'i

Mujda geidi jonu ko'ngil,

Bu oqshom dildor galadi.

Bazmin ravshan etmakka,

Bizni toza yor galadi.

Naqorat:

Qomatlari go'zal uni,

So'zlari bol, asal uni.

O'zi qo'shiq, g'azal uni,

Va dasida bor galadi.

Oshiq Erkin bag'ringni och,

Yo'llariga atringni soch.

Qirq kokili quloq-quloq,

Bir quyosh ruxsor galadi.

Galadi yor galadi,

Va dasida bor galadi.

Galadi yor galadi,

Bizni toza yor galadi.

Guldir gup:

To'pim to'p-to'p etadi, tepsam qochib ketadi.

Xalilillo oynani sindirib, hammani hayron etadi.

"Qoshi qaro qaro ko'z" qo'shig'i

Qoshi qaro qaro ko'z biz tomona qiyo boq,

Ko'zing suzib noz bilan man tomona qiyo boq.

Boqqa g'irasim galdi yor, gullar terasim galdi,

Gulni bahona qilib ey sizni go'rasim galdi.

Qoshi qaro qaro ko'z biz tomona qiyo boq,

Ko'zing suzib noz bilan man tomona qiyo boq.

"Erkalab-erkalab" qo'shig'i

Tun kechasi temir otda o'rmalab,

Xoraznga yetib bordik ertalab.

Qo'lona qarshisida ul go'zal,

Jonlimi deb qarshi oldi erkalab,

Erkalab-erkalab, "jonlimi" deb erkalab.

Ertalab-ertalab, Xorazmda ertalab.

Oydan tiniq yuzlarida gard yo'g'yey,

Xava-xava deyishiga gap yo'g'yey,

Endi xasta yuragimda dard yo'g'yey,

Dardim oldi erkalab-erkalab,

Erkalab-erkalab, "jonlimi" deb erkalab,

Ertalab-ertalab, Xorazmda ertalab.

"Olma pishganda galing" qo'shig'i

Olma pishganda galing, teyina tushganda galing,
Agar xiyol atsangiz ko'ngila tushganda galing,
Suv galadi mo'ridan, mo'ridanam naridan,
Akagimang aylansin go'zginangni zoridan,
Naqorat:

Olma pishganda galing, teyina tushganda galing,
Agar xiyol atsangiz ko'ngila dushganda galing,
Esadi bog'ning shamoli, go'rindi yorning jamoli,
Aqlu hushini olgan oq yuzinda dona xoli.

"OMONYOR QO'SHIQ JIROCHILIGI AN'ANALARI" NOMLI TADBIRNING SENARIYSI

Kelajagimiz posbonlari bo'lgan yosh avlodga ta'lim va tarbiya berish murakkab hamda ko'p qirrali jarayon. Shu kunning dolzarb vazifalaridan biri - ularni jismonan sog'lom, aqlan barkamol, ma'naviy jihatdan yetuk qilib kamol toptirishdan iborat. Tiklangan urf-odatlarimiz, an'ana va marosimlarimiz, milliy qadriyatlarimizni o'rganish orqali folklor san'ati yanada rivojlanib kelmoqda.

Har bir millat, elat va etnik guruhning o'ziga xos udumlari, urf-odatlari, an'ana va marosimlari bor. U avloddan avlodga, davrdan davrga meros bo'lib o'tadigan, muayyan ijtimoiy guruh tomonidan qabul qilingan xulq-atvor usullaridir. Bu boy merosimiz o'zining mazmundorligi, tarbiyaviyligi, umrboqiyli bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Hayot kishilarda euzu niyat, maqsadga intilish, e'tiqod va barcha orzu-armonlarni, toza ruh va xotirani, jamiyatning yaxshi niyatlarini, qadimiy an'analarni o'zida jamuljam etgani uchun ham kishilar hayotiga singib ketadi.

Milliy qadriyatlarimiz tiklanishi ma'naviy yuksalishning muhim omillaridan biridir. Folklor-etnografik jamoalar xalq ruhiyati, milliy o'ziga xosligi, mentalitetni aks ettiruvchi badiiy qadriyatdir.

Folklor-etnografik jamoalarini har bir oliy o'quv yurtlarida joriy etish unutilib borilayotgan milliy qadriyatlarimiz tiklanishiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi, degan umiddamiz. Chunki u yosh avlodning orzu-armonlari, yomon-e'tiqodini, toza ruhi va xotirasini, euzu niyatlarini o'zida mujassamlashtirgan qadimiy an'analarni ifodalovchi tarbiyaviy vositadir. Ular milliy ma'naviy tarbiyada qudratli qurol, yoshlarni ma'naviy jipslikka birlashtiruvchi omil hisoblanib, o'zbek millatining ma'naviy dunyosini ifoda etadi. Folklor-etnografik jamoalari xalqimizning e'tiqodi va umuminsoniy qadriyatlarini namoyon etadi. Ular dasturiy mujassamlangan xalq ijodi namunalarini folklorizmning sahnaviy ko'rinishi sifatida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hozirgi kunda mavjud folklor-etnografik jamoalari qalbning oymasi bo'lgan xalq ijodiyoti namunalarini, turfa xil marosim, an'analari, rasmlar va udumlarimizni o'z dasturlarida namoyish etish orqali milliy qadriyatlarimiz, qadimiy an'ana va marosimlarimizni tiklab, kelajak avlodga qoldirish uchun harakat qilmoqdalar.

O'zining qadimiy boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimiz xilma-xil janrlardan iborat boy folklor an'analari yaratishgan. Asrlar davomida ezuqlik tarannum etib kelgan tafakkur durdonalarida xalqimizning eng oliyjanob, ulug'vor maqsadlari o'z ifodasini topgan. Zero g'oyat yuksak bo'lgan ajdodlarimiz poetik iqtidorini o'zida mujassamlashtirgan xalq og'zaki badiiy ijodiyoti durdonalari asrlar davomida bitmas-tuganmas ruhiy quvvat manbai bo'lib xizmat qilgan.

Ijodkor xalqimiz tomonidan ko'p asrlar mobaynida yaratilib, chechan ijrochilar mahorati tufayli avlodlardan-avlodlarga yetkazib kelingan folklor asarlari milliy mentalitetimizning o'ziga xos jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan bebaho va nodir ma'naviy meros san'atidir. Asrlar osha olijanob g'oyalarni betakror badiiy shakllarda ifodalab kelgan folklor asarlari hamisha inson qalbi ezuqlik nuri bilan nuratishon etishga, ko'ngillarini poklashga, odamlarni ulug'vor maqsadlarga yo'naltirish vazifasini bajarib kelgan. Shuning uchun ham folklor durdonalari - xalq qo'shiqlari, ertak, afsona, rivoyat, doston va boshqa janrlarda yaratilgan xalq og'zaki badiiy ijodi asarlari ma'naviyatimizning teran idizlari batira olgan tafakkur sarchashmasi hisoblanadi. Xalq badiiy tafakkurining ko'p asrlik taraqqiyoti mahsuli o'laroq vujudga kelgan folklor asarlari kishilarda vatanga muhabbat, el-yurga sodiqlik tuyg'ularini tarbiyalaydigan, odamlarning yomon-e'tiqodini mustahkamlaydigan, milliy hurlik g'oyalarni yoshlar ongiga chuqur singdiradigan manba hamdir.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin ma'naviy qadriyatlarini, milliy mentalitetimizni belgilaydigan folklor an'analarni tiklash va rivojlantirishga alohida ahamiyat berila boshlandi. Folklor san'atini rivojlantirish va xalqimizning ko'p asrlik ijodiy an'analarni izohil davom etirish mamlakatimizda kechayotgan keng ko'lami ma'naviy-ruhiy tiklanish jarayoni bilan bevosita bog'liqdir. Xalqimiz badiiy salohiyatining nodir qatlami hisoblangan folklor san'atini rivojlantirish bilan bog'liq tadbirlar O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi qayta tashkil etilgandan so'ng ayniqsa keng ko'lamda davom ettirilmogda.

Xalq og'zaki ijodi namunalarini keng ommalashtirish, har bir hududga xos udumlar, qadimiy urf-odatlar, marosimlar hamda an'analarni tiklash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarimizda yuzdan ortiq folklor-etnografik ansambllari faol ish olib bormogda. O'ziga xos repertuuri va ijro mahorati bilan el orasida shuhrat qozongan jamoalarning o'ttizdan ortig'i "Xalq havaskorlik jamoasi" unvoniga egadir. Bu jamoalar folklor san'atini namoyish etishga qolmay, balki joylarda asrlar davomida yaratilib, badiiy savqat berib kelingan xalq ijodiyoti an'analarni saqlab qolish va rivojlantirish, shuningdek, hali nomlari ko'pchilikka tanish bo'lmagan yosh iqtidorlarni kashf etish hamda ularning ijodini keng targ'ib etish borasida ham samarali faoliyat ko'rsatishmogda. Ko'plab viloyatlarimizda yangidan yangi folklor-etnografik jamoalar tashkil etilmogda. Bu esa xalq ijodiyoti o'zining yangi taraqqiyot bosqichiga kirganligini ko'rsatadi. Chunki folklor san'ati xalqimizning o'z ijodiy salohiyatini yorqin namoyish etish vositasigina emas, balki odamlarning dunyoqarashini boyitib, ko'ngillardagi hotiniy quvvatni namoyon etadigan, kishilar e'tiqodini mustahkamlab, euzu g'oyalarni ulug'lashga o'rgatadigan qadriyatlar silsilasi hamdir.

Mamlakatimizda folklor san'atini yanada keng tarqatqiy ettirishda o'zbek xalq badiiy ijodiyotining turli-tuman janrlariga oid materiallarni yozib olib, nashr etish muhim amaliy ahamiyat kasb yetadi. Bunda, birinchidan, xalqimiz tomonidan asrlar mobaynida yaratilib, tilidan-tiliga, dildan-dilga o'tib sayqallashgan holda bizgacha yetib kelgan eng yaxshi folklor namunalaridan bugungi kun uchun qimmatli manbadir.

Ana shunday salohiyatga ega bo'lib, folklor san'ati chamanzoridan o'trin olgan ansambllaridan biri, O'zbekiston xalq artisti Rahima Mazohidova tomonidan tashkil etilgan "Omonyor" ansambllidir. Opa umr bo'yi ijro etgan xalq qo'shiqlari marosim va an'analardan iborat bo'lgan. Rahima Mazohidova o'z qo'shiqlarida folklor san'atini rivojlantirib o'ziga abadiy haykal qo'yib ketti. San'atkor tomonidan ijro etilgan qo'shiqlarning 350 dan ortiqrog'i O'ztele-radio xazinasiidan joy olgan. Bu benazir merosni o'rganish biz yoshlar uchun katta baxt. Qo'shiqda mardlik, jasorat, halollik, vatan madhini

ta'riflovchi, millat ma'naviy salohiyatini, ijrochilik san'atini oshirishga undovchi asarlar mavjud.

Rahima opa 90-yillarga kelib, Qo'qon shahridagi I-madaniyat uyi qoshida "Omonyor" folklor dastasini tashkil qiladi. Dasta o'zining qiziqarli chiqishlari bilan jumhuriyat ko'rik-tanlovlariida sovrinli o'rlnlar oladi. Ansanbi haqida telefilm yaratildi. Rahima Mizohidova o'nlab iste'dodli shogirdlar yetishtirdi. Maqsuda Toshmatova, Muborak Akromova, Salomat Isroilova, Xursanoy Qodirova, To'raqul Tursunov kabi ko'nlab talant sohiblari opaning ustozligida iste'dodli san'atkorlar bo'lib yetishdilar. Rahima Mazohidova butun vujudi bilan kuylab, tomoshabillarni lol qilayotgan "Omonyor"dir. U qo'lda doira bilan sevimli ashulasi — "Qo'qon yor-yori" ni yonib kuylayapti:

Bog'imizning to'rida bir tup anjir yor-yor,
Anjirning taglarida tilla zanjir yor-yor.
Tillo zanjir iplari uzilmasin yor-yor,

Kelin- kuyov taqdiri buzilmasin yor-yor.

Doira chertib yurak-yurakdan kuylayotgan bu ayolning ovozi eshitishimiz bilan Abdulla Kodiriyning "O'tkan kunlar" romani asosida yaratilgan filmdagi to'y manzarasi ko'z oldimizga keladi.

Hoy ukam, qo'qonlik ukam, omon yor
Yuzingdagi xolingdan, omon yor.

Radio to'lqini orqali berilayotgan bu qo'shiq muxlislar yuragiga bir shirin, to'liqindek urilib, uning yoshligini esga tushirib, ularga ma'naviy zavq bag'ishlaydi.

Sahnada mahallaning guzari aks etgan. Ikki tomonda supachalar. Devorlar so'zanalar bilan, chor atrof esa gu'llar bilan bezatilgan. Gu'llar oldidagi maydonchada bolalar besh-tosh, lanka, yong'oq o'yinlarini o'ynashmoqda. Bir guruh bolalar sahnaning markaziga chiqib, sopolmay, sibizg'a va chanqovuzda kuy ijro etishadi. Sekin-sekin guzar mahallaning odamlari bilan to'ladi. Uzoqdan nayda ijro etilgan "Chorgoh" kuyi eshitiladi. Supachada o'tirgan shu mahallaning oqsoqoli bu go'zal manzarani ko'rib zavqlanib, bolalarga vatandan so'z ochadi va she'r o'qiladi.

"Tangridan tortiq yurtim"

Oqsoqol:

Zarautoy g'oyasi to'rt ming yillik kitobing,

"Avesto"ning g'oyasi ezgulikka xitobing.

Dunyo tavalludidan boshlanadi hisobing,

Koinot ayvomida quyoshga tengdosh yurtim,

Oftobdayin qadimiy, oftobdayin yosh yurtim.

Nabira:

Tuprog'ing jannatlardan olingani rost ekan,

Anjirning lazza'i bihishtlarga xos ekan,

Juchuk tili jig'alar kavsarga qiyos ekan,

Baxti butun o'zbekka Tangridan tortiq yurtim,

Bir siqim tuprog'ing hamma olangga tortiq yurtim.

Ona:

Zamin qaynoq ko'ksidan mehri bermoish, qara —

Sutdek tiniq buloqlar qo'shig'ing inimas sira.

Dunyo tomi Himolay — Bobotoqqa nabira,

O'rkach-o'rkach qirlari tog'dek ulug'vor yurtim,

Tog'lariga tikilgan qutlug' tug'i bor yurtim.

Qizi:

Parcha atlasing olib, ko'kka uchar kamalak,

Yomg'irlarda sing'alib yerga tushar kamalak.

Sanodan qaytib yana bag'ring quchar kamalak,

Mehring ohanrabodek o'ziga chorlar yurtim,

Quchog'ingda chechaklar yulduzdek porlar yurtim.

Yigit:

Bobo, desam, Farg'oniy Nil bo'yida sas berar,

Al Xorazmiy Bag'dodda "Al-jabrdan dars berar,

Jahongashta Buxoriy muhiblag'a dast berar,

Jahonda ilm-u urfon ulashgan ustoz yurtim,

Navoiy navosidek mukammal, mumtoz yurtim.

Oqsoqol:

Ey muhabbat maskani, ey oqibat qo'rg'oni,

Ey valiyalar Vatani, ulug'pirilar makoni.

Muborak bo'lsin mangu mustaqillik davroni,

Jonfido bir bolangman, jonim, jonajon yurtim,

Kamolimni ko'rgaysan, munis onajon yurtim.

She'r so'zlaridan zavqlangan mahalla yigitlari Vatanni kuylab "Omon yor I"ni ijro etishadi.

Omon yor I

Silkina majnuntol,

Sho'xlarni egib ol.

Shunday erkin zamonda

Yaxshi ish ko'rsatib qol.

Rama aka yo'l bo'lsin,

Do'ppingiz qutlug' bo'lsin.

Suyib ekan paxtangiz

Chekkingizga gul bo'lsin.

Mahallaning sho'x qizlari yigitlarga qo'shilishib yalla va ayitishuvlar ijro etishadi:

Omon yor II

Osmondagi uch o'rdak,

Uchalasi ham birdak.

Zamonamiz qizlari

Ochilgan qizil guldak.

Men kelay ko'cha bilan,

Terakzor ichi bilan.

Yigit qo'li bog'lansin

Qizlarning sochi bilan.

Ariq borib soy bo'lar,

Hafta o'tib oy bo'lar.

Hosilingiz mo'l bo'lsa,

Kuzga borib to'y bo'lar.

Omon yor III

Omon yor aylansangchi, omon yor,

Belingni bog'lasangchi, omon yor.
Suygan yoring kelibdi, omon yor
Ochilib o'ynasangchi, omon yor.

Omon yor IV

Sochim uchi qo'ng'iroq, omon yor,
Yozilguncha o'ynayman, omon yor.
O'n gulimdan bir gulim, omon yor,
Ochilguncha o'ynayman, omon yor.
Taxta-taxta ko'prik, omon yor,
Taqillatib o'taman, omon yor.
Gerdaymang ko'p yigitga,
Laqillatib o'taman, omon yor.
Chiroqqa soldim pilik, omon yor,
Yorginam o'zi xunik, omon yor.
Xunik xunik demanglar, omon yor,
Xunik yorim mard yigit, omon yor.

Omonyor V

Koshing asli qarodur,
O'sma qo'yganing yolg'on.
Saning uchun man kuygan,
Sani kuyganing yolg'on.
Ro'molimni yuvdirdim,
Olib dorga yoydirdim,
Qaro dorlari qursin
Karoqchiga topshirdim,
Ro'molim bor xilladan, omon yor,
Gajimlari tildodan, omon yor.
Ko'zga yaqin qiz bo'libsiz, omon yor,
Tumor oling mulloдан, omon yor.
Qashqar baldoq taqaman, omon yor,
Feruza ko'zi bqlsa, omon yor.
Sizga singil bo'laman, omon yor,
Ko'nglingiz to'g'ri bo'lsa, omon yor.

Omonyor VI

Qo'qon ko'chasi tor ekan, omon yor,
Sayroqi qush darkor ekan, omon yor.
Ilmu hunarga boy ekan, omon yor,
Ketmang Qo'qon xo'p joy ekan, omon yor.
Shunda bordim chorsi tomon, omon yor,
Ko'ring qanday erk in zamon, omon yor.
O'g'il qizi shodi-xandon, omon yor,
Ketman Qo'qon xo'p joy ekan, omon yor.
Gar kelsangiz shalri Qo'qon, omon yor,
Ko'rib keting Rahimaxon, omon yor.
San'at shuncha boy ekan, omon yor,
Ketmang Qo'qon xo'p joy ekan, omon yor.
Qo'qonni obod aylagan,

Cho'lni guliston aylagan, omon yor,
Rahbarlari dono ekan, omon yor,
Ketmang Qo'qon xo'p joy ekan, omon yor.

"SURXON FOLKLOR AYTIMLARI" TOMOSHASINING SENARIYSI

Folklor an'analari xalqning turmush tarzi, hayoti, dunyoqarashi, ruhiy-estetik olami va ichki kechinmalarini yuksak badiiy ifoda ettirgan qadriyatdir. O'zbekistonda sobiq tuzum yillarida xalq ijodiyoti o'zining qadimiy ijrochilik an'analarini va badiiy merosini muayyan darajada saqlab qolgan bo'lsa-da, o'sha davrning siyosiy qatag'onlari va mafkuraviy tazyiqlari bunday an'anaviy qadriyatlar tizimining ko'pgina uzvlarining poetik tabiatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Oqibatda, o'zbek xalq og'zaki badiiy ijodiyotining ko'pgina qadimiy janrlari, e'tiqodiy qarashlari, tasavvurlari, marosim folklori namunalarini, xalq an'analari, sayil va bayramlari bilan aloqador udum va qo'shiqlar, afsona, rivoyat, naqillar unutilayozdi.

XX asrgacha yaratilgan o'zbek marosim folklori janrlari o'zining qadimiy an'analari hamda poetik tabiatini mukammal holda saqlab qolgan edi. Biroq sobiq tuzumning mafkuraviy qatag'onlari natijasida xalqimiz oilaviy-maishiy marosimlar folklorining ko'pgina ko'hna janrlari, masalan, so'z sehriga asoslangan badiha, kinna, olqish kabi janrlari, yil fasllariga aloqador Navro'z, qizil gul sayli, boychechtak, "guli surx", birinchi qo'sh chiqarish bilan bog'liq "shoh moylar", shuningdek, "yo ramazon", "barot keldi", yomg'ir chaqirish, shamol chaqirish va uni to'xtatish maqsadida ijro etilgan qadimiy ayrim va qo'shiqlarning matnlari xalq xotirasidan ko'tarildi.

O'zbekistonning istiqlolga erishishi esa benazir iste'dod sohibi bo'lgan ajdodlarimizning og'zaki badiiy ijodi an'alarini tiklash, folklor asarlarini keng ommalashtirish, ularning tarixiy kelib chiqishi, janr xususiyatlari, badiiyati va ma'naviy hayotimiz takomilida tutgan muhim o'rini keng ko'lamda o'rganish uchun yetarli imkoniyatlarni yaratdi.

Mustaqillik tufayli yuzaga kelgan ijodiy erkinklik, ruhiy yangilanish jarayoni folklor asarlarini keng targ'ib qilishga imkon yaratdi. Ayniqsa, marosim folklori, dostonchilik, xalq udumlarini tiklash, shuningdek, xalqning havaskorlik ijodiyotini taraqqiy ettirishga keng yo'l ochildi. Unutilgan qadriyatlarini tiklashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Masalan, xalqimiz badiiy salohiyatining eng go'zal namunalarini o'zida mujassamlashtirgan umumxalq shodiyonasi - Navro'zi olam qo'shiqlari, udumlari qayta tiklandi. Navro'z bayramining kelib chiqish tarixi, taraqqiyot bosqichlari, uning tarkibidagi folklor asarlarining badiiy xususiyatlari, bu bayramning o'tkazilishi bilan bog'liq lokal belgilar, Navro'z bayrami tarkibida qadimdan mavjud bo'lgan ko'pgina asriy udumlar, xusususan, "yilboshi", "qozon to'ldi", "navro'z go'ja tayyorlash", "sumalak pishirish", "hashar uyushtirish", "arg'imchoq uchish", "gul sayil"lari kabi qadimiy qadriyatlar yana hayotga qaytdi. Surxon folklor ayimlari xilma-xilligi bilan ajralib turadi. Ularning ichida Navro'z sevib ijro etilmoqda.

Odamlar, hoy odamlar,
Eshitmading demanglar,
Bog'da bitgan bodomlar,
Bugun bayram yilboshi,
Saylga, ho saylga!

Ho'kiz shoxi moylandi,
Dehqon dala aylandi.
Dehqonbobo shaylandi.
Omoq, mola, cho'nka tish,
El-u yurtga sochilsin.
Gul-lolalar ochilsin,
El-u yurt omon bo'lsin!
Doim tinch zamon bo'lsin!
Omborlarga don to'lsin,
Yangi yilda qut bo'lsin,
Qozon to'la sut bo'lsin!
Omad bizga jo'r bo'ldi,
Noz-u ne'mat mo'l bo'ldi,
Baxtimizga tinch zamon,
Davru davron zo'r bo'ldi.

Qadimda ushbu misralarni bahor kelishi bilan, kuzda hosil mo'l bo'lishini umid qilib, ezgu niyatda dalaga don sepgan bobodehqonlarimiz elu yurtga omonlik, tinchlik, farovonlik tilab kuylaganlar. Bu qo'shiqlar navro'z-yilboshi tantanalarining eng nafis qo'shiqlaridan biri bo'lgan. Qo'shiq misralarida el dasturxoniga baraka yog'ilishi, halol mehnatni ulug'lash, ezgu umidlarining mayسالanishi, to'kin-sochinlik, oilalar xotirjamligi yurt boyligi ekanligi g'oyasi yetakchilik qiladi.

Turna keldi, g'oz keldi,
Navro'z keldi, yoz keldi.
Bulbulday ovoz keldi.
Yam-yashil chorbog'lardan.
Pishiring navro'z go'ja,
Navro'z keldi bu kecha.
Beraylik bir juft jo'ja,
Go'jasi shirin momoga.
Qanolin yoyib uchar,
Qaldirg'och qayib uchar.
El-u yurtni baxt quchar,
Navro'zda qozon to'lsa,

Xalq ijodiyotining yorqin namunasi bo'lgan folklor-etnografik ansambllarining ijodiy izlanishlari natijasida juda ko'p marosim qo'shiqlari tiklandi. Ma'naviyatimiz xazinasini qayta boyitishda Navro'z va sumalak sayii bilan bog'liq xalq qo'shiqlarining tiklanishi juda muhimdir.

Ma'luraki, Navro'z keng omma tomonidan nishonlanadigan umumxalq bayramidir. Shu bois bu bayramning ko'p qo'shiqlari ommaviy ijrochilikka mo'ljalangan. Navro'z bilan bog'liq qo'shiqlarda yurt ozodligi, ma'naviy qadriyatlarimizning elga qaytishi g'oyasi tarannum etiladi:

Navro'z keldi, qut keldi, doshqozonlar osildi,
Navro'z go'ja, ko'k somsa, sumalaklar suzildi.
Boshlarida oq ro'mol, elga tilab omonlik,
Momo'lari diti shodon - murodi hosil bo'ldi.

Milliy istiqlol xalq badiiy ijodiyotining barcha tur va janrlari qatori marosim folklori, xususan, navro'z turkumi qo'shiqlarining tiklanishi uchun katta imkoniyat yaratadi. Bu imkoniyatlar tufayli asriy qadriyatlar tizimi, bosqichma-bosqich tiklanib, hayotga

qaytmoqda. Bu mustaqil diyorimizda kechayotgan hozirgi tarixiy-folklor jarayonining muhim qirralaridan biridir.

Surxondaryo vohasining betakror qo'shiqlari "Bibigul" nomi bilan bog'liq. Bibigul ajoyib iqtidorga ega bo'lgan xalq qo'shiqlarini mohirona ijro etgan iste'dod sohibasi bo'lgan. Shuning uchun ham avlodlan-avlodga o'tib bizgacha yetib kelgan juda ko'p marosim qo'shiqlari "Bibigul" ijrochiligining namunasi sifatida qaraladi.

Surxondaryo ayollarining ziyoraligi, zukkoligi, hayotdagi voqealarga munosabati aynan "Bibigul" qo'shiqlarida ifodalangan.

Sahna Surxondaryo viloyati udumlari va marosimlariga mos ravishda bezatilgan. Palaklar, so'zana va turli shakldagi naqqoshlar osilgan. Sahnaga chanqovuz chalib Bibigul opa chiqib keladi.

Erka kuylargandan yayraydi dilim,
Zabardast tog'larning bobo makonim.
Vatan sururidan jo'sh urar qonim,
Sen mening g'ururim, aziz Surxonim.

Sahnaga bolalar yugurib chiqishadi:

- Surxondaryodan mehmonlar kelai, baxshilar keldi. Ona mehmonlarni kutib, ularga she'r o'qib beradi:

Qadim o'tgan zamonda,
Surxon yurti tomonda.
Omon-omon zamonda,
Baxtiyor el bor ekan,
Shodlik unga yor ekan.
Ariqlarda oqib bol,
Har uyda kulib iqbol.
Adolat podsho ekan,
Armonlari yo'q ekan.
Mehnatda topib kamol,
Omad ko'rsatib jamol,
Bu xalqni siylar ekan.

Zafar baxshi shogirdlari bilan o'tirgan mehmonlarga bag'ishlab termalar ijro etadi. Bahshining termalaridan zavqlangan yigitlar Surxondaryoning sho'x qo'shiqlarini ijro etib, raqsga tushadilar.

Qoshi kamalak Oybarchin,
Asli o'zbekdir ellatim,
Alpomish, barchin avlodim,
Faxrlansam arziydiyo,
O'zbekistondek davlatim.
Sochi jamalak Oybarchin.
Ishq o'tida Hakimbekka
Vafodor bo'lgan Oybarchin.
O'ng tomonda Bobotog'
Qaynab yotar Oybulog',
Chap tomonda Hisor tog',
Barq uradi so'lim bog'.
Qizlariyo Barchinoydek,
Yigitlari lochindek.

Kayvonidir momolari,
Misli toydir momolari.

"Gulpari" qo'shig'i

Soching sochima tormidi,
Qanotning qaddima zormidi.
Biram qayrilib boqmayсан,
Menga bu azob ham bormidi.
O'yna-o'yna gulpari,
Yana o'yna gulpari
Akajoningni kuydurib,
Yana o'yna gulpari.
Kechasi uxlashga bormagan,
Osmonda oymidi porlagan,
Ko'nglingni yo'lidan qolmagan,
O'zimman ko'nglingni chorlagan.
Boshima davron yeladi,
Yor desam shamoling keladi,
Tog'lardan bu baland boshimni,
Sog'inchi qorlarda beladi.
Bu dunyo turguncha yor desam,
Sen bilan bu dunyo bor desam,
Bir boqsang bu umr behishtdur,
Boqmasang boshima dor desam.

"O'ynang, bibijon" qo'shig'i

O'ynang, o'ynang bibijon,
Suzilib o'ynang bibijon.
Bobom ketdi bozorgayo,
To'yib o'ynang bibijon.
Oy bo'lib o'ynang,
Soy bo'lib o'ynang,
El bo'lib o'ynang,
Sel bo'lib o'ynang.
Yugurib o'ynang, bibijon,
Suzilib o'ynang, bibijon
Bobom ketdi bozorgayo,
To'yib o'ynang bibijon.

"Chiqdim tog'lar boshiga" qo'shig'i

Chiqdim tog'lar boshiga,
To'ydim shirboz go'shtiga,
Gullar terib kelgandim,
Yorginamning qoshiga.
Naqorat:
Ohu voh, ohu voh,
Ohu voh-ey, ohu voh.
Surxonimning jamoli,

G'irillaydi shamoli,
Olti oy qo'limda turdi,
Yorginamning ro'moli.

"Yaqqu yaq" qo'shig'i

Aylansin yor aylansin,
Qoshlari qaro aylansin.
Shaftolizor ichinda,
Bodom qovoq aylansin.
Yaqqu-yaqqu, yaqqu-yaq,
Yaqqu-yaqqu, yaqqu-yaq.

"Hay yor-yor yoringman" qo'shig'i

Hay yor-yor yoringman,
Kelgin yor o'ynaylik.
Men sevgan yoringman,
Kelgin yor o'ynaylik.
O'yna, o'yna man ko'ray,
Kelgin yor o'ynaylik.
Boshingni gulga o'ray,
Kelgin yor o'ynaylik.
Senga kelgan baloga,
O'zim ko'ndolang bo'lay.
Eshik oldi mosh poya,
Bargi boshingga soya,
Kelgin yor o'ynaylik.

"Biyu-biy" qo'shig'i

Charxim g'uv-g'uv etadi,
Surxonninga yetadi.
Surxonimning qizlari,
Bog'da olma ekadi.
Qo'y haydadim qo'rg'onga,
Ot boyladim arqonga.
Surxon eli boy bo'lsin,
Qizlari o'ynab, kulsin.
Naqorat:
Biyu, biyu, biyu biy, oh, oh, oh,
Mumi, mumi, oh, oh, oh.
Andoz qilu, andoz qil,
Qoshu ko'zing pardoz qil,
Akajoning kelganda,
Gap gapirmay araz qil.

"Shaqilladi barmog'im" qo'shig'i

Xiqqiladi tomog'im, shaqilladi barmog'im,
Ishqida mast bo'loyin-ey, jamolingga o'loyin.
Naqorat:

Ha, o'yna, o'yna, o'yna gajak, gajakka o'yna,
Tizzani yerga tirab-o, ufu jaquga o'yna.
Shabbosga mos toshlagin, burgutdek qanot qoqqin,
Gajak qo'shig'in aytib, g'ayratni ko'zin ochgin.
Naqorat:

Ha, o'yna, o'yna, o'yna, gajak, gajakka o'yna,
Tizzani yerga tirab-o, ufu jaquga o'yna.

"BAXSHI XAYRLASHUVI"

Hayaryo-yyyyyyyyyyy.

Do'mbiram kuylar soz bilan,

Bütün bir ovoz bilan.

Bugun madhingni kuylayin,

O'zbekistonim dil bilan.

Bir maydon kuyla do'mbiram,

O'zbekona til bilan.

"BOYSUNDA NAVRO-Z SAYLI" TOMOSHASINING SENARIYSI

Mustaqil O'zbekiston san'ati rivojlanishi milliy madaniyat an'analari bilan chambarchas bog'liqdir. O'zbekistonda milliy an'analari o'zining qaytarilmas dastlabki qiyofasini saqlab qolgan ko'plab noyob joylar mavjud. Qadimgi madaniyat markazlaridan, o'ziga xos taqdir va o'ziga yarasha tarixiy rivojlanishiga ega bo'lgan Surxondaryo shular qatoriga kiradi. Surxondaryo san'ati o'ika tabiatining chiroyi, uning hayot tarzi, urf-odatlari bilan chambarchas bog'liqdir. Zamonaviy kiyim dizaynini folklor-etnografik yo'nalishsiz tasavvur etish qiyin. Unda minglab yillar mobaynida kundalik va bayramlarda kiyiladigan kiyim haqida ma'lumotlar berilgan. Dizaynlarning boshqalarga o'xshamas qaytarilmas uslub izlanishlarida, aynan Surxondaryo uslubini milliy urf-odatlar, betakror an'analari namoyon bo'lgan. Surxondaryo viloyati ichida Boysun o'zining an'anaviy madaniyatiga sadoqatini xozirgi zamon bilan uyg'unlashtirishi bilan ajralib turadi. Boysun deganda ko'z oldimizga osmono'par yuksak Boysun tog'lariyu, mag'rur va o'ktam yigitlari, lo'bar qiz-juvontlari namoyon bo'ladi. Bu jihatlarni biz "Boysun" folklor-etnografik jamoasida ko'rishimiz mumkin. "Boysun" folklor-etnografik jamoasi deganda, bir necha yillardan buyon muxlislarni xushnud etib kelayotgan serjillo, mafunkor san'at guruhi g'aydalanadi. Boysun tog' etaklarida yashab ijod etayotgan jamoa Surxon vohasining udumtlari, urf-odatlarini, marosimlarini nisbatan buzilmagan holda o'z ijrosi orqali saqlab qolmoqda. Ansambli kiyimlarining milliyatini, etnografik xususiyatlarini saqlagan erlar olacha cho'pon, oyoqlarida mo'kki yoki choriq, boshlarida esa quyosh ramzi ifodalagan Boysun do'ppisi bilan sahnada paydo bo'ladi. Qadimgi jelak yoki qizil rangli matodan guldor keng ko'ylak, ayollar husniga husn qo'shib turadi. Ular boshidagi qasaba yoki Boysuniy do'ppi, zebu-gardon, sochpopuklar butun elning iftixori hisoblanadi.

Boysun ijrolarining tashqi ko'rinishidan tortib ijro tomoshalarigacha barcha-barcha muxlislarining manaviy dunyosini boyitishda, qadimgi urf-odat, marosim va ananalariga nisbatan hurmat, e'tiborini kuchaytirishda tarbiyaviy ahamiyatga ega. "Boysun" ansamblining respublikadagi boshqa jamoalar orasida tanilishining sababi shunda edi, jamoa Boysun tumanida saqlanib kelayotgan qadimgi ananalarni qanday bo'lsa, shundayligicha sahnaga olib chiqib tomoshabinlar diqqatiga havola qila oladi. Uning dasturi

boyligi, rang-barangligi bilan ko'pchilikni mamnun eidi. Jamoa azolari mahorati tufayli O'zbekistonning janubiy tumani bo'lmish Boysunning qadimgi bahor mavsumiga oid marosim folklori o'zining to'liq ifodasini topdi. Boysun o'zining an'anaviy madaniyatiga sadoqatligi, hozirgi zamon bilan bog'lash qobiliyati bilan noyobdir. Shuning uchun aynan shu yerda shahar madaniyati doirasida tarbiyalangan dizaynerlar ijodini tomosha qilish juda qiziqarli bo'ladi.

Darxaqiqat, birgina Boysunni o'zida 20 xildan ortiqroq do'ppi shakllari mavjud. Masalan, lolagul, to'ldirma va boshqalar. Ularning har birida quyoshning ramziy manosi o'z aksini topgan. Ayollar esa jelak, karkasi ro'mol o'rashadi. Karkasi ro'molini asosan o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'iga mansub bo'lgan ayollar o'rashadi. 16 xil ro'molning barchasini o'rab chiqqanda esa kamalak jilosi hosil bo'ladi. Bundan tashqari ayollar jelakli ko'ylak, yo'l-yo'l cho'pon kiyadilar. Qizlarning ko'ylagi iloji boricha qizil, pushti, sariq, to'q qizil matolardan tikiladi. Chunki qizlar kiygan ko'ylak lolaning uforini namoyon etish kerak. Kelinchaklar oq gijim yoki qizil shoyi ro'mol o'rashadi. Bu liboslar albatta o'tkazilayotgan marosimga, aytilayotgan qo'shiqqa, ijro etilayotgan raqsqa monand ravishda kiyiladi. Shu liboslar moslashtirilgan holda turli xil taqinchoqlar taqiladi. Masalan, tillaqosh, buloqi, haykal, chordon, turli shakldagi qimmatbaho toshlar va zarjirlar taqish ko'proq Boysunliklarga xos urfu-odatdir. Zarurat bo'lsa, qiz va juvontlarni yanada ko'rkamroq ko'rsatish uchun sochlariga turli shakldagi sochpopuk jamalaklar taqilgan. Boysunliklarning o'zlariga jamalakning turli xillarini qora ipdan yasashadi. Bu xususiyatlar jamoaning o'ziga xos libosining betakror namunasidir. Badiiy bezak namunasi bo'lmish tillaqosh, buloqi, haykalgardon, turli shakldagi ziraklar albatta qadimgiyatdan darak beradi. Bu holat ansambling etnografik koloritini yanada boyitmoqda.

Darxaqiqat, folklor jamoalarining nufuzini oshirishda mazkur hududga xos kiyimlar, zebu ziynatlardan foydalanish alohida kasb etadi. Boysun jamoasi kiyimlari esa udumga mos xosligi, qadimgi bilan ajralib turadi. Bu ham tog'lik hududimizning etnografik tarixidan dalolatdir.

Ana shuning uchun ham aynan Boysun tumanida "Boysun bahori" ochiq festivalini o'tkazilishi e'tiborga molikdir. 2001-yil 18-may kuni ilk marotaba insoniyatning og'zaki va nomoddiy merosi durdonalari ro'yxati Parijdagi Yuneskonning bosh qarorgohida e'lon qilindi. YUNESKO bosh direktori janob Koichiro Matsura tomonidan nufuzli xalqaro hay'at tavsiyasiga binoan butun insoniyat buniyodkorligi, ijodkorligi va serqirraligi mahsuli bo'lgan 19 madaniy yodgorlik durdonalar deb e'lon qilindi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ilk marotaba e'lon qilingan durdonalar ro'yxati orasidan O'zbekistonning Boysun tumani xalq madaniy an'analari ham o'rin olgan.

O'zbekistonning janubida joylashgan Boysun tumanida qadimgi madaniy an'analari va bir qancha dinlar, an'anaviy marosimlar, afsonaviy dostonlar hamda milliy kuy va raqslar yaxshi saqlanib qolgan. Shunisi diqqatga sazovoriki, Boysun tumanining insoniyat durdonalari qatoridan o'rin olishi mahalliy tashkilot va uyushmalarni folklor festivallari, iltimoiy anjumanlar kabi bir qator yangi tadbirlarni o'tkazishga undamoqda. Ushbu tadbirlar, shubhasiz, Boysun tumani madaniy an'analarni o'rganish va rivojlantirishga muhim hissa qo'shadi. Ishonchimiz komilki, "Boysun bahori" ochiq folklor festivali va festival doirasida o'tkazilayotgan dizayner va an'anaviy liboslar tanlovlari insoniyat madaniy turfa xilligini saqlab qolishga munosib hissa qo'shadi.

Boysun tog' etaklari bahor ayyomida afsonalardagidek go'zal bo'ladi. Qor suvlar shaloladay oqib tabiatni uyg'otadi, atrof gulab-yashmaydi. Shu suvlarining jildirashini, jilg'alarning mayin ohanglariga quloq solsangiz xuddi shu shaloladay jilg'alardan mayin ohanglarni, o'ynoqi kuylar taralib turganiga guvoh bo'lamiz.

Parda ochiladi. Sahnaning hamma tarafi kashiachilik san'ati namunalari bilan bezatilgan. So'zanalarning har biriga tumorlar bilan bezatilgan savatlar osilgan bo'lib, va so'zanalari tashlangan. Quroqlar ustidan esa naqsh o'ymakorlik san'ati bilan bog'liq qumg'onlar sahnaga yanada chiroy qo'shib turibdi. Sahna ortidan doira va nay jo'rligida sho'xchan kuy chalinadi. Kuy sadolari ostida sahnaga ishtirokchilar chiqib kelishadi.

Chaqiriq

Chiroy ochib bahor kelar mayin navolar yangrar,
Dil so'ziga chamanga sayil tomosho chorlar,
Qaldirg'och uchib kelar, Boysunlik chopib kelar,
Boysunning bahoriga bayram sayilga chorlar.

«Arg'amchi» qo'shig'i

Arg'amchi gilamchi, arg'amchi gilamchi,
Arg'amchi gilamchi, arg'amchi gilamchi,
Turna bo'ylik borar yor ko'kalamga gilamchi,
Turna bo'ylik borar yor ko'kalamga gilamchi,
Naqorat:

Turna desam turumli keng dalaga qurumli,
Turnalar uchsa pastlab rizqing kelar unumli,
Turna o'zi ko'rimli, usti qora, bo'yini oq,Turna uchsa balandlab yil keladi qurumsqoq,Turna tillo tarozi obi-havoga qozi,Turna uchsa yurtingga salqin keladi yozi.

Arg'amchi gilamchi, arg'amchi gilamchi,
Arg'amchi gilamchi, arg'amchi gilamchi.

«Lolajon» qo'shig'i

Lola, lola, lolajon o'sar joying dalada,
Lola, lola, lolajon chidadingmu jalaga,
Jala yog'sa qo'rqmagin,
Sellar oqsa qo'rqmagin,
Chiroyingni ochay deb,
Qizlar taqsa qo'rqmagin.

Naqorat:

Lola, lola, lolajon o'sar joying dalada,
Lola, lola, lolajon chidadingmu jalaga,
Sayilimiz sho'x bo'lsin,
Dardu alam yo'q bo'lsin.
Sen qip-qizil yashnagin,
Oq ko'ngillar to'q bo'lsin.

«Sumalak» qo'shig'i

Tayyor bo'ldi doshoqozon,
Xohlagan odam kelsin.
Sumalakni kovlashga
Kabkirimni ob kelsin,
Naqorat:

Vax vaxa sumalak vaq vaqa,

Vax vaxa sumalak vaq vaqa.

Sumalagim pishadi,

Qozonga yopishadi.

Saratonda urushgan

Navro'zda yarashadi.

Qozon vaq-vaq qaynaydi,

Uy egasi uxlaydi.

Sumalakni kovlagan yurt

Tinchligin so'raydi.

«Boy bola» qo'shig'i

Axa-axa aylanayin bo'yindan-ey boy bola,
Axa-axa aylanayin bo'yindan-ey boy bola,
Boysun tog'da qolama – ey boy bola,
Qora sochi ulama – ey boy bola,
Boysun eli boy bo'lsina – ey boy bola,
Yomonlikni tilama – ey boy bola.

Naqorat:

Axa-axa aylanayin bo'yindan-ey boy bola,
Axa-axa aylanayin bo'yindan-ey boy bola,
Ketmon chopit polvoni – ey boy bola,
Dadasini chaqoniya boy bola,
Etak – etak ko'paysin – ey boy bola,
Arimasin xirmoni – ey boy bola,
Axa-axa aylanayin bo'yindan-ey boy bola,
Axa-axa aylanayin bo'yindan-ey boy bola.

«Yaqqu yaqu» qo'shig'i

Yaqqu yaqu yaqu yaqu yaq, yaqa yaqa yaqu yaqu yaq,
Aylansin yor aylansin, qoshlari qaro aylansin,
Shaftolizor ichinda, bodom qovoq aylansin.

Naqorat:

Yaqqu yaqu yaqu yaq, yaqa yaqa yaqu yaqu yaq
Devor ustida devor, devona bo'lsin akang,
Boshingda balhi ro'mol, ishqingda o'lsin akang.

Naqorat:

Yaqqu yaqu yaqu yaq, yaqa yaqa yaqu yaqu yaq

«O zan-zan» qo'shig'i

O zan – zan ey zan – zan, qizlar kelodi zan – zan,
Ro'molini yopinib, jonon kelodi zan – zan.
Jonim deding, jonona, ishqingda men hayrona,
Seni o'ylab doimo, yo'lingda men devona.

Naqorat:

O zan – zan ey zan – zan, qizlar kelodi zan – zan,
Ro'molini yopinib, jonon kelodi zan – zan.
Qoshingni qarolatay, o'smani sarolatay,
Atlas ko'ylik kiygizib, Boysunni oralatay.

"Oh, jo'rajon" qo'shig'i

Boysun tog'da chashma bor. Oh jo'rajon o'ynaylik,
Chashma bo'yida bir yor, kel jo'rajon o'ynaylik,
Suv bo'yida o'tirib, aytadi yalla yor yor.
Oh jo'rajon o'ynaylik, kel jo'rajon o'ynaylik.
Boysun tog'ning shamoli, yilpir kimning ro'moli,
Ko'moliga yarashgan, oyday husni jamoli.
Oh jo'rajon o'ynaylik, kel jo'rajon o'ynaylik,
Boysun tog'ning toshini, ko'rmayin ko'z yoshini,
Tillolarga alishmam Boysunning bir toshini,
Oh jo'rajon o'ynaylik, kel jo'rajon o'ynaylik.

"Gajak" qo'shig'i

Hiqqiladi tomog'im, shaqqiladi barmog'im,
May bergin mast bo'loyin, jamolingga o'loyin.
Ha, o'yna, o'yna, o'yna, gajak gajakka o'yna,
Yelka uchurib o'yna, oyoq ko'chirib o'yna.
Boshingni yonga burabo, sarak - sarakka o'yna,
Belingni burab o'yna, qo'lingni burab o'yna,
Tizzani yerga tirabo, o'zingni burab o'yna.
Ha, o'yna, o'yna, o'yna, gajak gajakka o'yna,
Tizzani yerga tirabo, ufu jaqquga o'yna.

"Ko'pkari" qo'shig'i

Boychibor o'rtaqib kishnadi,
So'lig'in chidolmay tishladi.
Qo'taga kirgin or uchun,
Ko'nglingda mendayin yor uchun,
Bu yolg'onchi dunyoda
O'tkinchi erur bari.
Hayot maydoni bilsang,
Asli o'zi ko'pkari.

Naqorat:

Bos, bos, qamchi bos
Ot chopqir yigiga bos.
Ey jigir boshing ko'tar,
Yashagin jigiga xos.
Chavog'on boshing ko'tar,
Yashagin jigiga xos.

"Navro'z keldi" qo'shig'i

Navro'z keldi boz bilan,
Qizlar kelar noz bilan.
Gajakka o'yna jo'rajon
Qo'lingdagi soz bilan.
Oy bo'lib o'yna, soy bo'lib o'yna,
El bo'lib o'yna, sel bo'lib o'yna.
Qo'lingdagi sozindan,

Eshilib qo'ygan bozindan.
Akaginang aylansin,
Senday jo'ra boringdan.
Surxon eida to'y bugun.
Navro'z keldi do'stlarim.
Qardosh ellardan bugun
Mehmon kelar do'stlarim.
Do'mbiramni chalayin,
Diyorimni kuylayin.
Ona vatan ishqini
Yuragimga joylayin.

"Do'mbiram" qo'shig'i

Mening ona yurtimni
O'zbekiston deydilar.
Uni butun jahonda
Nurli bo'ston deydilar.
Ko'z tegmasin husniga,
Tumor bo'lay ko'ksiga.
Do'mbiram qo'lga olayin,
Madhingni kuyga solayin.
Bugun yurakdan jo'shib,
Vatanimni kuylayin.

Amudaryo bo'yida

Termiziy bobom yurti bor.
Bobomizning hamisha
Ruhi bizga madadkor.
Ko'z tegmasin husniga,
Tumor bo'lay ko'ksiga.
Do'mbiram qo'lga olayin,
Madhingni kuyga solayin.
Bugun yurakdan jo'shib,
Vatanimni kuylayin.

Qo'shiq tugagach qatnashchilar tomoshabinlarga bit-bir salom berib sahnadan chiqib ketishadi.

"SURXON NAVRO'ZI TARONALARI" DEB NOMLANGAN TOMOSHA SENARIYSI

O'zbekistonning o'ziga xos tarixiy, etnografik, madaniy va badiiy-estetik an'analariga ega bo'lgan hududlaridan biri Surxon vohasi hisoblanadi. Vohada isqomat qilayotgan aholining turmush tarzi, xo'jalik faoliyati va madaniy qadriyatlari tizimining boshqa hududlardan farqlanib turadigan jihatlari unda turli etnoslarning moddiy va ma'naviy madaniyati an'analari o'z ifodasini topganligi, shuningdek, bu yerda shakllangan folklor an'analari, xususan, qadimiy qo'shiq va aytilar o'zining jonli ijro holati hamda hayotiy-maishiy funksiyasini nisbatan tugal saqlab qolganligi bilan belgilanadi. Xususan, Surxon vohasida xalqimizning qadimdan shakllanib, takomillashib kelgan taqvimiy

marosimlari hamda mavsum bilan aloqador qo'shiq va aytmilari hozirgi kunda ham (garchi postfolklor tarzida yoki an'anaviy marosimning sahnaviy talqini holati ko'rinishida bo'lsa-da) ijro etilishi jarayoni kuzatiladi.

Surxon vohasi aholisining kalendar marosimlari folklori o'zining mavsumiy xarakter kasb etishi va funksional-tarkibiy tuzilishiga ko'ra bahorgi, yozgi, kuzgi va qishki marosimlar folkloriga bo'linadi. Mavsumiy marosimlar folklori janrlari o'zbek xalqining qadimgi kosmogonik tasavvurlari hamda vaqt hisobini yuritish bilan aloqador an'anaviy kalendar asosida yuzaga kelgan.

Vo'ha bo'ylab olib borilgan etnofolkloristik tadqiqotlardan shu narsa ma'lum bo'ladi, bu hududda mavsum bilan bog'liq quyidagi folklor janrlari va marosimlar mavjud:

1. bahor fasli bilan bog'liq; urf-odat va marosimlar folklori - «Navro'z», «sumalak sayli», «sumalak bazmi», «yilboshi oshini», «yil aylitish oshini», «loy tutish», «qo'sh oshini», «shox moylar», «darvishona», «sust xotin», «tola sayli»;
2. yoz fasli bilan bog'liq urf-odat va marosimlar folklori - «xayri xudoyi», «tulki qochdi», «shog'ol qochdi», «quyon qochdi», «baraka urug'i», «obilo baraka», «suv sayli», «qovun sayli»;
3. kuz fasli bilan bog'liq urf-odat va marosimlar folklori - «Mehrijon bayrami», «shinni pishirish», «anor sayli», «hosil hayrami» («hosil to'yi»);
4. qish fasli bilan bog'liq urf-odat va marosimlar folklori - «birinchi qor» («qorxat»), «sherdar» («gap-gashak»), «dangana», «to'kma».

Biz ushbu maqolada Surxon vohasi aholisining folklor-etnografik ansambli tomonidan talqin kilingan yilboshi sayli va bahorgi marosimlar bilan aloqador mavsum-marosim qo'shiqlarining postfolklor namunasi sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z yuritamiz.

An'anaga ko'ra, Surxon vohasining chorvachilik bilan shug'ullanuvchi aholisi orasida qo'llanilgan «chorva hisobi» taqvimiga ko'ra, qo'y-qo'zilar qishki qo'tondan chiqarib, bahor mavsumining boshlanishi fevralning oxiri - martning boshlariga to'g'ri kelsa-da, dehqonchilik va chorvachilik mavsumi bilan bog'liq mehnat faoliyatining boshlanish muddati yilboshi tantanalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Navro'z bayramining nishonlanishi munosabati bilan Surxon vohasida «yilboshi oshini», «yil aylitish oshini», «loy tutish», «qush oshini», «shox moylar», «darvishona» singari mavsumiy marosimlar o'tkazilgan. Dehqonlar oy va quyosh harakati, yulduzlarning osmon gumbazidagi joylashuviga qarab mavsumiy marosimlar muddatini, shuningdek, dala ishlarini bajarish vaqtini aniqlaganlar. Yangi oy chiqqanda uning holatiga qarab yaqin vaqt ob-havosi qanday bo'lishini taxmin qilishgan. Shu bois, xalq orasida yangi oy chiqqanda aytiladigan turli xil aytmilari yaratilgan. Surxondaryo viloyatining SHo'rchi tumanidagi «Bulbuliguyo» folklor-etnografik ansambli repertuarida ana shunday aytmilari o'z ifodasini topgan bo'lib, jamoa o'z tomosha dasturining ekspozitsiya qismida doira usullari vositasidagi chorlovdan keyin:

Oyni ko'rdik omon qurdik,

Oxirida imon ko'rdik,

Oyni ko'rdik - oy bo'ldik,

Qo'shiqlarga boy bo'ldik, aytimni ijro etish orqali sayil boshlanganini elga ma'lum qilishgan.

Bu aytimning xalq orasida ommalashgan an'anaviy namunasida oxirgi misraning «Kelasi oygacha boy bo'ldik», «Bu yilgacha boy bo'ldik» kabi variantlari ijro etilgan bo'lib, folklor-etnografik jamoasi repertuariga ko'chgan matn dasturining mohiyatidan kelib

chiqqan holda «Qo'shiqlarga boy bo'ldik» tarzida o'zgartirilgan. Ba'zi joylarda esa mazkur aytim «Og'iriligim yerga, yengilligim o'zimga, men tinch, oy notinch» shaklida ifodalovchi ritual yakunlanma bilan qo'shib ijro etiladi. Chunki yangi oy chiqqanda aytiladigan bunday aytmilari muayyan magik-ritual ahamiyat kasb etgan va odamlar shu matni ijro etish orqali oy bo'yi o'zlariga sihat-salomatlik, uy-ro'zg'origa baraka ato etilishiga ishonishgan. Xalq orasida bu kabi aytmilarning magik ta'sir etishi haqidagi tasavvurlar unutila borishi tufayli mazkur matn va uning ijro holatida «derituallashish» jarayoni yuz bergan. Natijada, an'anaviy ijro o'rni va hayotiy-maishiy funksiyasiga ko'ra ritual mohiyatga ega bo'lgan ushbu aytim tomosha dasturi elementiga aylangan.

Postfolklorning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda xalq og'zaki badiiy ijodining turli janrlariga oid matnlarning ijro o'rni va hayotiy-maishiy qamrovi muayyan o'zgarishga uchrashi holati kuzatiladi. Ayni hodisani taqvim bilan bog'liq maqol hamda to'y marosimiga oid olqish matni yagona poetik kontekstda ijro etilishida ham ko'ramiz. Hijriy-shamsiy taqvimga ko'ra, hut oyi ob-havosining qanday kelishi chorvachilik va dehqonchilikka muayyan ta'sir o'tkazgan. Shuning uchun xalq orasida «Yaxshi kelsa hutni ko'ring, kadi-kadi sutni ko'ring. Yomon kelsa hutni ko'ring, serrayib qolgan putni ko'ring» tarzidagi ko'plab maqollar mavjud. «Bulbuliguyo» folklor-etnografik jamoasining tomosha dasturida xalq taqvimi bo'yicha yilning boshi hamal o'yidan boshlab hut oyida tugashi va hut oyi yaxshi kelsa, yil bo'yi to'kin-sochimlik bo'ladi degan qarashlar quyidagi aytim-qo'shiq orqali ifoda etilgan:

Yaxshi kelsa hut,

Kadi to'la sut,

Yomon kelsa hut,

Iyri-iyri put

Ko'rinadiki, maqol asosida yaratilgan aytimda xalq maqolining variantlardan biri qo'llangan. Bu aytimni ijro etish orqali ijrochilar yilboshi arafasidagi hut oyining sifatlarini bayon etishga va shu orqali hutning yaxshi kelishi - yilning barakasidan nishona ekanligi tarannum qilish g'oyasi mujassamlashgan. Ushbu maqol-aytim xalqni yilboshi sayliga chaqiruvchi jarchi tilidan bayon etilgan bo'lib, aytimning davomida ijro etilgan chorlov matnida janubiy Tojikistonda istiqomat qiluvchi o'zbek-laqaqlar, shuningdek, Surxon vohasida yashovchi qo'ng'irotlarning nikoh to'yi marosimida aytiladigan an'anaviy olqish misralari qo'llanilgan:

Elim-elim elimsiz,

Chor tarafdin kelibsiz,

Chamanning bulbulisiz,

Oltob, suygan qulisiz,

Hey...yey...yey.....hey!

Chorlov matnidagi misralar to'y olqishining boshlama qismiga mansub bo'lib, bu o'rinda ham janrning an'anaviy ijro o'rni va funksional tabiati o'zgarishga uchraganligi kuzatiladi.

Xalq taqvimiga ko'ra, damal oyi - amal oyi, ya'ni dehqonchilik ishlari qizg'in boshlab yuboriladigan davr deb qaraladi. Shuning uchun ham dasturdagi dalaga ilk bor baraka urug'i qadash marosimi - «Shox moylar» marosimining sahnaviy talqimida jarchi yilning o'n ikki oyiga bag'ishlangan chaqiriq-qo'shiqni kuyilganida dehqonlarning yerga urug' sochishi tasviri namoyish etiladi. Bunda mavsumiy marosimning barcha uzvlari - etnografik konteksti (dehqonning dalaga urug' sochishi), marosimning ijtimoiy-maishiy funksiyasi (odamlarning «Shox moylar» marosimida faol ishtiroki), marosimning o'ziga xos tabiiy dekoratsiyasi (marosimning o'tishi bilan aloqador atributlar) hamda verbal

komponent (ijro etilgan qo'shiq va aytmalar) yaxlit holda ifodalinishi natijasida an'anaviy marosim folklorining o'ziga xos salmaviy talqini yuzaga kelgan.

Surxon vohasiga xos mahalliy andozada tikilgan liboslarni kiygan yigit va qizlar raqs harakatlari bilan bahoriy yangilanish, yasharish va yaratuvchilik mohiyatini ifodalayotgan paytda kayvoni momolar "Hamal" qo'shig'ini ijro etishgan. Hamal oyi bilan bog'liq qo'shiq garchi bevosita xalq orasida og'zaki tarzda ommalashganligini ko'rsatuvchi dalil mavjud bo'lmas-da, unda hijriy-shamsiy yilning har bir oyiغا xos xususiyatlar maqollar, shakllar va fonologik kuzatuvlar asosida yaratilgan xalq ta'birli vositasida bayon etilishi uning postfolklor namunasi ekanligidan dalolat beradi:

Yilning boshli hamal-o,
Dehqonlarga amal-o,
Savr, savr, savr kirar,
Ekinlarga davr kirar,
Javzoda jugdek ekan,
Hosilga ko'zin tikkan,
Saratonda suv quygin-o,
Asad oyida tek qo'ygin.
Asad oyida oralay,
Sumbulada saralay,
Sumbulada suv sovur,
Mezon oyida kun sovur.
Aqrab kelar hayqirib,
Ayoqlarini chaqirib,
Qavs mahol ekkuncha,
Qovumoch qil ulim-o.
Dalv yilni cho't qilar,
Jadda rejang but qilar,
Yaxshi kelsa hut agar,
Kadi-kadi sut qilar.

Ko'rinadiki, yuqoridagi qo'shiqning har bir misrasi xalq orasida yilning u yoki bu oyi bilan bog'liq maqol tarzida aytilib kelingan poetik konstruksiyalardir. Bizning nazarimizda, xalq maqollari asosida yaratilgan bu sheriyy matn an'anaviy folklor, aniqrog'i, paramaning salmaviy folklorizatsiya sifatida qayta badiiy ifoda etilgan shekili hisoblanadi.

Har yili yilboshi saytida yoki Navro'z bayrami tantanalari davomida «Darveshon» marosimi o'tkazish va qishloq ahli, maxalla-kuydan yig'ilgan don-dundan go'ja oshi pishirib, elga tarqatish Surxon vohasi mavsumiy marosimlari tizimida alohida o'rin tutgan. Chunki bu marosim yil barakali kelishini, odamlar orasida o'lim karn bo'lishini va qishloq ahli sihat-salomat bo'lishini, shuningdek, ayrim holatlarda yil qurg'oq kelsa, yog'in-sochin ko'p bo'lishini tilab o'tkazilgan. Bu marosimda ko'pincha go'ja oshi pishirilgan. «Go'ja oshi» (yoki «ko'cha oshi») pishirish an'anasi ba'zi qishloqlarda «qo'sh oshi» deb ham yuritilgan. Ammo buning «darveshon»dan farqi shundaki, «darveshon» taomini erkaklar pishirishsa, «qo'sh oshi» dalaga birinchi marta qo'sh chiqarilgan kuni momolar tomonidan tayyorlangan.

«Bulbuliguyo» folklor-etnografik jamoasi rahbari Rahmatilla Mo'minov SHo'rchi, Sariyosho, Boysun, Qumqo'rg'on, Denov tumanlarida yashovchi aholi orasida qadimdan urf bo'lib kelgan «go'ja oshi» pishirish udumiga doir etnografik materiallar hamda folklor asarlarini to'plab, shu asosda o'ziga xos salmaviy talqin yaratgan. Bu dasturda «go'ja oshi» marosimi aks etgan bo'lib, bir-birlariga ko'ngil qo'ygan yigit bilan qiz qo'llarida tol, toboq

hamda kadi bilan sahnaga chiqishadi. Chunki kadimda to'zg'orda tol yog'ochidan yo'nib ishlangan toboq - korson va suvqovoqdan tayyorlangan turli shakldagi qoboqlar qo'llanilgan. Surxon vohasi aholisi turmush tarzini ifoda etuvchi bu atributlar orqali har yili bahorda an'anaviy tarzda o'tkazilgan «go'ja oshi» marosimi manzarasi tomoshabin ko'z o'ngida to'la namoyish etiladi. Marosimning salmaviy talqini chanoqovuz, nay, doira, do'mbira kabi milliy cholg'u kuydari, qo'shiq va raqslar orqali ifodalangan bo'lib, yigit bilan qiz go'ja solingan tol toboq bilan kadini ko'targancha, quyidagi qo'shiqni ijro etib, raqs tushadilar:

Osh bo'lsa, go'ja bo'lsa,
Ichida mosh bo'lsa,
Hap kimning sevgan yori,
Yonida qo'shni bo'lsa,
Hay yori-yorim o'ynasin,
Kelib suvganim o'ynasin!
Ro'molimning uchini
To'ymaganga to'ydiray,
Qo'stimga o'sma ko'yib,
Kuymaganni kuydiray,
Hay yori-yorim o'ynasin,
Kelib suvganim o'ynasin.

Bu qo'shiq «go'ja oshi»da ijro etilgan marosim qo'shig'ining an'anaviy matni bo'lmas-da, postfolklor namunasi sifatida dasturga kiritilgan. Uning birinchi bandi bevosita mazkur marosimga daxldor mazmuni bilan xarakterlanadi. Ikkinchi bandi esa xalq orasida keng ijro etiladigan lirik qo'shiq - to'rtlik asosiga qurilgan bo'lib, naqorat qo'shib aytilishi natijasida «go'ja oshi» marosimi qo'shig'i tarkibiga singib ketgan.

Surxon vohasi aholisi pazandachilik bilan bog'liq an'anaviy madaniyatida erta ko'klamda «ko'k somsa» tayyorlash odati ham mavjud. Bahor mavsumi boshlanishi bilan bolalar qir-adirlarga chiqib turli-uman ko'katlarni teradilar. Ana shu jarayon bilan bog'liq turli-tuman aytmalar, qo'shiqlar ham yaratilganki, tarixiy-folkloriy jarayon rivoji natijasida ularning aksariyati unutilib ketgan. «Bulbuliguyo» folklor-etnografik jamoasi repertuarida erta bahorda ko'k somsa uchun har xil shifobaxsh o'tlarni terish paytida ijro etilgan an'anaviy aytmalarning poetik konstruksiyasi asosiga qurilgan qo'shiq ham kiritilgan.

«Bulbuligo'yo» folklor ansambli repertuarida qayd qilingan yuqoridagi mavsumiy marosim qo'shig'ida naqorat o'mida qo'llanilgan «Chimma, chimma chiralay, qoshu ko'zing quralay» misralari bevosita chuchmoma terish paytida ijro etilgan an'anaviy matnga tegishlidir. Qo'shiqning asosiy matni esa yor vastiga oid lirik qo'shiqlarning kontaminatsiyasi asosiga qurilgan. Qo'shida xalq lirikasining an'anaviy badiiy unsurlaridan biri - alliteratsiya san'ati qo'llanilgan: «ch» (chimma - chiralay), «q» (qosh - quralay), «j» (jamalak - jopillab) va «b» (badan - bilqilab) harflari bilan boshlanuvchi so'zlardagi bosh tovushlarning o'zaro mos kelishi asnosida musiqiy ohangdoshlik keltirib chiqarilishi matn badiiy teranligini ta'minlagan.

Surxon vohasi aholisining yilboshi saytida chorvachilik bilan bog'liq o'ziga xos bir marosim - tajribali cho'ponlarning o'z shogirlariga tayog' toptirish marosimi ham o'tkazilgan. Tishunos olim A.Omonturdiyevning ma'lumot berishicha, Surxondaryo cho'ponlari har yili bahorda «tayog' toptirish» degan marosimini o'tkazishgan. Uzoq yillar mobaynida qo'y boqib, el orasida obro'-e'tibor topgan keksa cho'ponlarni «tayog' ko'targan» deb atashgan. Ana shunday qut-barakali cho'pon o'z o'g'li yoki shogirdiga tayog'ini topshirgan paytda:

Irg' aydan kesdim tayoq,
Yo'ling to'g'ri bo'lsin deb,
Zarangtan yo'ndim tayoq,
Boshing toshdan bo'lsin deb,¹⁶
deb fofitla bergan.

Ota-bobalarimiz udumiga ko'ra, keksha cho'pon o'g'illarini chaqirib o'zining merosi
– moyli cho'pon tayog'ini qoldirishi kerak. Bolalardan birortasi o'z roziligi va xohishi bilan
meros tayog'ini olib, cho'ponlik kasbini avloddan-avlodga davom ettiradi.

Irg' aydan yo'nib yasalgan cho'pon tayog'ini topshirish marosimining sahnaviy
talqimida ham daraxt kulti va o'rovadorlar piri Cho'pon ota obrazini bog'liq mifologik
tasavvurlar o'z aksini topgan. Folklor-etnografik ansambli repertuaridan o'rin olgan «Tayoq
topshira» marosim qo'shig'ining poetik qurilishida Surxon vohasi cho'ponlari tomonidan
an'anaviy tarzda o'tkazib kelingan qadimiy marosim aytimlarida qoldiq holda yetib kelgan
rudimentlar o'z ifodasini topgan.

To'badan o'choq o'ydiray,
To'bal qo'yni suydiray,
To'bal qo'yning jilgiman,
Boboylardi to'ydiray,
Bir suruv mol bo'lama,
Bersam ko'ngling to'lama,
Irg'ay tayoq qo'lingga,
Ushlasang, bolam bo'lama.

Surxon vohasi aholisining an'anaviy mavsum – marosim qo'shiqlari bu hududda
istiqomat qiluvchi kishilarning o'ziga xos turmush tarzi, kundalik mashg'uloti va vaqt
hisobining muayyan davrlari bilan aloqador urf-odat hamda rasn-rusumlarini o'zida aks
ettirganligi bilan ajralib turadi. Mavsum-marosim bilan aloqador ko'pgina qo'shiqlar va
aytimlarning an'anaviy matnlari hozirga qadar postfolklor namunasini sifatida o'zining jonli
ijro holatini saqlab qolgan. Keyingi yillarda Surxondaryo viloyatida ko'plab folklor-
etnografik ansambllar tuzilganligi va hududga xos folklor an'analarini saqlab qolish va
yangicha badiiy shaklda sahnaviy talqin qilish, bunday jamoalar faoliyatining ustuvor
yo'nalishiga aylanganligi mavsum-marosim folklori materiallarining badiiy jihatdan «qayta
ishlangan», ya'ni «qayta poetik idrok etilgan» sahnaviy folklorizm tarzidagi talqinlari
yuzaga keldi.

Xalqimizning eng qadimgi ohanglarida abadiy go'zallik va ko'rkamlilik bor. Ko'hna
navolarda bobolarimiz va momolarimizning dil ohanglarini eshitganday bo'lamiz. Bu
qo'shiqlar ko'nglimizning tub-tubida yotgan so'lim tuyg'ularimizni uyg'otadi.
Oybarchinning yurak tovushini, Alpomish qalbining sadolarini tarixlarning olis ovozin
tinglaysiz. Ko'hna Surxon navqiron hayotining zavqi va iohomi bor. Avlodlar-avlodlarga
o'tib o'tib kelayotgan go'zal urf-odatlar va ezgu an'analarda esa yurtning betakror qiyofasi
bor. Bu qadimiy ohanglarda siz bilan biz bor, o'timish va kelajak bor. El bor. Vatan bor.

Baxshi og'am navosi,
Taraladi olamga,
Surxon elim navosi,
Taraladi olamga,
Bu elning san'ati zo'r,
Insonlari undan-da,
Qo'shiq aytib o'ynaydi,

Soy ham adir, qirlarda,
Qirda gilam to'qir momo,
Qo'y suruvi yonida,
Ot choptirar alp bobom,
Bobotog'ning yonida,
Barchinoylar o'sma qo'yar,
Alpomishlar yonida,
Alpomishlar alpni yiqar,
Barchinoyning ishqida,
Shamol bo'lib yelayin,
Surxon eldan kelayin,
Bu o'tirgan jamoatga,
Terma qilib berayin.
Bugun Surxon to'lib-toshib qo'shiq aytsin,
Vatan ishqin qo'shig'iga qo'shib aytsin.
Qizlar kuyga kokillarini eshib aytsin,
Bo'z o'g'lonlar baxshi bo'lib, jo'shib aytsin.
Bunda yashar kuch-qudraiga oshufta el,
Duch kelganda yo kurashar, yo olar bel.
Boshlar endi hosil xirmon kuy raqsini,
Qadim Surxon san'atini ko'rgan kel.

Tomoshabnalar joylashgan joyning qarshi tarafidagi ark orqasidan Alpomish,
ikkinchi tarafidan Barchinoy ot mingan holatdan bir-birlarini ismlarini aytib chaqirib chiqib
kelishadi.

Alpomish: - Oybarchin!

Barchin: - Alpomish!

Ular bir-birlariga qarab, ya'ni o'yingohning markaziga kelib bir-birlari bilan
uchrashadilar. Bir-birlariga termulib qolishadi. Shu payt ikki jilovdor kelib, otlarini
ushlaydi. Alpomish otdan tushib, Barchinoyning tushishiga yordam beradi.

Fonda esa do'mbira va chanqovuz sadosi ostida ushbu so'zlar ketadi: "Xalqimizning
eng qadimiy ohanglarida abadiy go'zallik va ko'rkamlilik bor. Ko'hna navolarda
momolarimiz va bobolarimizning ko'ngil ovozlari eshitganday bo'lasiz. Bu qo'shiqlar
ko'nglingizning tub-tubida berkitib yotgan so'lim tuyg'ularingizni uyg'otadi.
Oybarchinning yurak tepinishi, Alpomishning qalb sadolari tarixlarning olis ovozin
tinglang". Shu yerdan qalb gaplari yangrashi boshlashi bilan 10 ta qiz qo'llarida bahor
taomlarini sahmadan olib chiqib hakamlar o'tirgan stolga olib borishadi.

Yuqoridagi gaplar yangrayotgan paytda Alpomish va Barchinoy o'yingoh
markazidagi sahмага chiqib kelishadi.

Alpomish: "Barchinoy, Surxon vohasiga Navro'zi ayyom kirib keldi, kun bilan tun
tenglashdi" – deydi.

Barchin: "Barcha yurtdoshlarimizni ezgulik, mehr-oqibat, poklik timsoli bo'lgan
Navro'z ayyomi bilan tabriklaymiz" – deydi va sahnaning ikki chetiga o'tishadi.

Surxoncha yor-yor

Qo'ng'iro't elning bekasi,
Boysarining erkasi,
Qayga ketding bekachim,
Bey bobomning suluvi.

O'zbek elim sultoni,
Boysunday yurt makoni.
Xudoy o'chsin yo'lini,
Boybo'ring o'g'loni.
Bobotog'ning bekasi,
Barchin checham yor-yor.
Oydin-oydin osmonlar,
Oydin kecham yor-yor.
Boysun yurtning egasi,
Tilla bekam yor-yor.
Yor-yor aygim keladi-yey,
Hamda desam yor-yor.
O'zbek elim yor-yor,
Jonu dilim yor-yor.
Boychibomning beliday,
Bardam elim yor-yor.
Alpomishning o'g'lida-ye,
Hamda menam yor-yor.
O'zbek ning chin botiri,
Biyron tilchim yor-yor.
Endi qayga uzatsam-ye,
Yetar qo'lim yor-yor.
O'zbek elim yor-yor,
Jonu dilim yor-yor.

Sahnaga ketilalik libosida Barchinoy va yangalari chiqib kelishadi va kelin salomni boshlashadi.

Yaylovlari bepoyon, zamini boylikka kon,
Ellari mardo maydon, Qashqadaryodan salom.
Surxondaryodan salom, salom salom yor - yor.
Kelin salom yor - yor
Qabul aylang yaxshilar, Temur yurtidan salom.

"Sust xotin" qo'shig'i
Sust xotin, suzma xotin,
Ko'lankasi maydon xotin.
Yomg'ir yog'dir ho'l bo'lsin,
Yeru jahon ko'l bo'lsin.
Sutu-qatig mo'l bo'lsin.
Yomg'ir yog'dir ho'l bo'lsin,
Biz ham senga jo'r bo'laylik.
Ko'klamda o'ynab-kulib,
Ham sho'xu, ham zo'r bo'laylik.
Yomg'ir yog'di, do'l bo'ldi,
Yoru jahon ko'l bo'ldi.
Shaftolilar barg yozdi,
Dunyo lo'la gul bo'ldi,
Sust xotin, suzma xotin.

"Boychechak" qo'shig'i

Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan,
Hamma bir-biriga jigar so'z ekan,
Olam ham barobar kecha-kunduz ekan,
Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan.
Hoy, bog'bon bobo, niholga bersin baraka.
Hoy, dehqon bobo, dalangga bersin baraka.
Hoy, cho'pon bobo, qo'rangga bersin baraka.
Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan.

"Lolajon" qo'shig'i

Lola, lola, lolajon,
O'sar joying dalada
Lola, lola, lolajon,
Chidadingmi jalada.
Jala yog'sa qo'rqmagin,
Sellar yog'sa qo'rqmagin.
Chiroyni ochay deb,
Qizlar taqsa qo'rqmagin.
Saylimiz sho'x bo'lsin,
Dardu olam yo'q bo'lsin.
Sen qip-qizil yashmagin,
Oq ko'ngillar to'q bo'lsin.

"Hamal" qo'shig'i

Hamal hamal derlaro, labida asal derlaro,
Azaldan azal derlaro, hamaloy go'zal derlaro.
Hamal qizi hur qizoy, qoshi qaro qunduzoy,
Yanoqlari qirmizoy, tezroq jamol kirgizoy.
Hamal hamal derlaro, labida asal derlaro,
Azaldan azal derlaro, hamaloy go'zal derlaro.

"Sumalak" qo'shig'i

Tayyor bo'ldi doshqozon,
Xohlagan odam kelsin.
Sumalakni kovlashga
Kabkirini ob kelsin.
Nagorat:
Vax vaxa sumalak, vaq vaqqa.
Vax vaxa sumalak, vaq vaqqa.
Qozon vaq-vaq qaynaydi,
Uy egasi uxlaydi.
Sumalakni kovlagan yurt
Tinchligin so'raydi.
"Ko'pkari" qo'shig'i
Boychibor o'rtanib kishnadi,
So'lig'in chidolmay tishladi.
Qo'raga kirgin or uchun,

Ko'ngingda mendayin yor uchun,
Bu yolg' onchi dunyoda
O'tkinchi erur bari.
Hayot maydoni bilsang,
Asli o'zi ko'pkari.

"Navro'z" qo'shig'i
Navro'z keladi shoshib,
Boysun tog'lardan oshib,
Boychechaklar bosh urdi,
Ifor bilan taloshib.
Navro'z bahona bo'lsin,
Baxtdan nishona bo'lsin,
Dunyo bulbulga aйлandi,
Yuraklar ozib saylandi.
Navro'zda quvnoq o'ynaylik,
Ko'ngil-ko'ngilga boylansin.
Oq bug' doy olay dedim,
Keliga sotay dedim.
Suyganim o'zing tanho,
Dardingni olay dedim.
Kela, kela, kela yor,
Suygan yorim kela yor.
Navro'z keldi jahona,
Bahordan bir nishona.
Do'stlar diydor g'animat,
Deydi navro'z bahona.

"O'zbekiston" qo'shig'i
Gulgun ekan ko'yilaging,
Guldek nozik bilaging.
Navro'z keldi, gul keldi,
Ayting bo'lsa tilaging.
Qozon to'la moy bo'lsin,
O'zbekiston boy bo'lsin.
Mustaqil zamon bergan
Yurtboшим omon bo'lsin.

Qo'shig' tugagach, qatnashchilar chanqovuz sadosi ostida salom berib chiqib ketadilar.

"OYOQ BOSDI UDUMI" MAVZUIDAGI TADBIR SENARIYSI

Ota-bobolarimiz uzoq tarix davomida necha-necha xil urf-odat va an'analarni, hayot taqozasi tufayli yuzaga kelgan marosimlarni ko'rmadi. Bularni birma-bir sanab chiqish yoki tahlil etish mavzumuz doirasiga kirmaydi. Biroq shuni aytish kerakki, ularning har biri alohida davr, zamona talabiga mos holda yuzaga kelgan.

Xalq urf-odat va an'analar xalq psixologiyasining muhim tomonlaridan bo'lib, keng ma'noda olganda axloq kategoriyasiga kiradi. Ular kishilar orasidagi mustahkam, barqaror

odatlarni tashkil etadi, u davlat va huquq tomonidan boshqarilmay jamoatchilikning fikri bilan boshqarilgan. Jamoatchilik u yoki bu shaxsdan ma'lum odat-an'anaga amal qilishni talab qiladi, amal qilmaganlarni esa yomon odat deb hisoblagan.

Ammo bu narsalar uzoq vaqt davomida takrorlanish va unga amal qilish natijasida vujudga keladi. Biroq urf-odat va an'analar ham jamiyat taraqqiyoti tufayli o'zgarib, ularning ayrim qismlari xalq iste'molidan chiqib ketadi. Turmushga zamon taqozasi bilan yangi-yangi urf-odat va marosimlar kirib, takomillashib boradi. Ayni vaqtda xalq tomonidan sevib qolingan, eng xalqchil odatlar esa zamonlar osha yashab, avlodlar-avlodga o'tib keladi.

Qachonlardir turmush taqozasi bilan vujudga kelgan, lekin amalda o'z umrini yashab bo'lgan va bugungi kunda jamiyat taraqqiyotiga to'sqinlik qilayotgan turli urf-odat, marosimlar eskilik qoldiqlari hisoblanadi.

Xalqchil, xalq ommasi tomonidan sevib qolingan, asrlar osha yashab kelayotgan urf-odat va marosimlarga davr sinovlariga bardosh berib, xalqqa manzur va maqbul bo'lgan, hozirgi turmushimiz uchun foydali ekanligi isbotlangan urf-odat va marosimlar kiradi.

Milliy istiqlol ijtimoiy hayotimiz tarixida yangi davr o'chdi. Istiqlolning dastlabki villaridayoq yangi-yangi urf-odat va an'analar paydo bo'ldi. Ayni vaqtda asrlar osha xalqimiz turmushidan chuqur o'rin olgan hayotiy urf-odat va marosimlar yangicha mazmun kasb etdi.

Milliy an'analar va urf-odatlar har bir xalqning tarixan tarkib topgan ijtimoiy munosabatlari mahsuli o'laroq, yashash sharoiti, muhiti va birgalashishi natijasida vujudga keladi. Demak, har bir xalqning an'ana va urf-odatlarida murakkab ijtimoiy munosabatlarning natijasidir. Shu bilan birga, urf-odat va an'analarda ham umumiylik va xususiylik, ijobiy va salbiy, yaxshilik va yomonlik tomonlari mavjud.

Uzoq asrlar davomida birgalikda, bir hududda qo'shimi, qarindosh bo'lib yashash tufayli u yoki bu xalq urf-odati, an'analari tarkibida boshqa xalqlarga xos xususiyatlar ham uchraydi. Shuning uchun ham ba'zi xalq an'ana va urf-odatlarida umumiy tomonlarni uchratish mumkin. Juda qadimdan bir-biri bilan chatishib ketgan O'rta Osiyo xalqlarining barcha urf-odat va marosimlarida o'xshashliklar ko'p uchraydi.

Ma'lumki, har bir xalqda boshqa xalqlar bilan umumiylikka ega bo'lishi bilan birga uning tarixan tarkib topgan va sevilib qolgan o'ziga xos urf-odat, rasm-rusmlari ham mavjud. Xalq eng yaxshi urf-odat va rasm-rusmlarni e'zozlaydi, hurmat qiladi, ularni avlodlar-avlodga qoldiradi. Bunday xalq urf-odat va an'analarining ko'pchiligi juda katta ijtimoiy, tarbiyaviy ahamiyatga molik bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, har qanday urf-odat, rasm-rusmlarni xalqning an'anaviy marosimi deb ko'tarib chiqish, uni tantanavor nishonlashga harakat qilaverish ham to'g'ri kelmaydi. Shaklan milliy, mazmunan ma'naviy madaniyatimiz barq urib yashnayotgan bir vaqtda Vatanimizdagi barcha xalqlar uchun muhtarak bo'lgan yangicha odatlarga keng yo'l ochib berish, ularni kundalik hayotimizga joriy qilish ayni muddaodir. Ayni paytda respublikamiz matbuotida, radio, televideniyesida atoliq adiblar, tanqidi kishilar, olimlar bu borada juda ko'plab yozdilar, subhatlar o'tkazdilar. Respublika jamoatchiligi tashabbusi bilan yangi urf-odat va marosimlarni xalqimiz turmushiga yanada kengroq singdirish ishlarni yaxshilash maqsadida turli xil tadbirlar o'tkazilmoqda. Bularning hammasi zamona taqozasi, turmush tarzining tez o'sishi, xalq moddiy farovonligining oshishi, turmush madaniyatining misilsiz rivojlanib borayotganligidan kelib chiqayotgan hayotiy masalalardir.

Ma'lumki, urf-odat va marosimlarni hamisha xalqning o'zi nazorat ostiga olib kelgan, uning yaxshi tomonlarini olib, turmushdan orqada qolgan tomonlarini esa siqib

chiqargan. Holbuki, bizning bugungi kunimizda ham jamoatchilik xalq urf-odatlari va marosimlarini nazorat etmoqda, ularni yanada zamonaviy, takomillashgan holda tavsiya etishga harakat qilmoqda.

Xalqimiz tomonidan bajarib kelinayotgan qadimiy va yangi urf-odat, an'analarda ularning turmushi jamiyat va tabiat bilan mustahkam aloqada bo'lganligini ko'ramiz. Xalqimizning tabiat bilan aloqadorligi uning Navro'z bayramida o'z aksini topgan. *Navro'z o'lam, guli barra* kabi nomlar bilan mashhur bo'lgan bu an'anaviy bayram xalqning qishdan chiqib, navbahorga o'tishi, yangi fasl, yangi yil, yangi hayotning boshlanishini bildirgan. Qadimda mart o'ynining oxiri apreling boshlarida dala ishlarining boshlanishi munosabati bilan «qo'sh oshi» deb nomlangan marosimni o'tkazish odat bo'lgan. Bunda osh-non tortilib, qo'shga qo'shiladigan ho'kizlarning shoxlari yog'lanib, qo'shlar yer haydash uchun tayyor qilingan. Dehqon ahli uchun bu mavsum tantanasi alohida ma'no kasb etib, uning butun orzu-umidi shu bahorgi ishning puxta bajarilishiga qaratilgan. Shu boisdan ham bunga katta tayyorgarlik ko'rganlar, uni xursandchilik bilan o'tkazganlar.

Mazkur marosim hozirgi kunda yangicha shakl va mazmun kasb etib, rivoj topmoqda. Xalqimiz bahorda ekib, yozi bilan parvarishlab, xosil pishgan vaqtni intizorlik bilan kungan. Pishqichilikni alohida marosimlar bilan kutib olishni odat qilgan. Nihoyat hosil yig'ib-terib olingach, hosil to'yi o'tkazgailar. Hozirda ham bu marosimlar rivojlanib yangi mazmun kasb etib bormoqda.

Ko'pchilik xalqlar qatori o'zbek xalqida ham qish faslimi kutib olish an'anasi bo'lgan. Birinchi qor yoqqanda qorxat yuborish, uning shartlarini bajori keltirish, qish faslida jo'ralarning gap-gashtaklari, ulqo, poyga o'yinlari ana shular jumlasidandir.

Xalq ijtimoiy hayotida, oila - turmush bilan bog'liq bo'lgan an'analari ham ancha-muncha uchraydi.

Jamiyag va tabiat taraqqiyoti zamirida barcha narsalar o'sish, o'zgarish jarayonlarini boshidan kechirar ekan xalq an'analari ham bu jarayondan ortda qolmaydi. Ular ham o'sadi, o'zgaradi. Qishlar ana shunday taraqqiyot jarayonini boshidan kechirayotgan barcha narsalar bilan birga yangi-yangi urf-odatlarining yuzaga kelayotganligini hisobga oladilar, ularni avaylab, turmushga jori qiladilar. Ayni vaqtda kishilar qadimdan qo'llanib kelingan urf-odat va marosimlarning eng yaxshilardan foydalanib boradilar. Bu ikki usulning takomillashuvi tufayli eskirib qolgan, turmushning hozirgi bosqichiga javob bermaydigan urf-odat va marosimlar sekin-astalik bilan siqib chiqariladi.

Xalq an'anasi deb hisoblanmish urf-odat va marosimlar qanday voqea, hodisa bilan nishonlanmasin, ular kishilarning jamoa bo'lib uyushishlariga, bir-birlari bilan do'st, o'rtloqlik aloqalarini o'rnatishlari va bu aloqalarni mustahkamlashlariga yordam beradi. Bino'barin, an'analarning kishilarga, xususan, yoshlarga o'tkazadigan ta'siri juda kuchli bo'ladi.

Xalq an'analarni tekshirgan va ular haqida fikr yuritgan kishilar ularni tarixan tarkib topgan va urf-odatlar, rasm-rusmlar, dasturlar tarzida bir avloddan ikkinchi avlodga qoldiriladigan o'ziga xos ma'naviy meros deb ataydilar. An'analari stunchalik rang-barangki, ular iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, ilmiy, madaniy, harbiy, maishiy, kasb-hunarga va boshqa sohalariga oid bo'lib, kishilar ijtimoiy hayotining turli tomonlariga mansubdir.

Xalq an'analarning har bir turini muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sharoit yuzaga keltiradi. Ular xalqning ana shu muayyan ijtimoiy turmush talablari asosida vujudga keladi. Dastlab, ma'lum bir guruh kishilarga, so'ng ko'pchilikka xizmat qila boshlaydi. Biroq shu xizmat jarayonida ular bir joyda turib qolmay, o'zgaradi, rivojlanadi, ya'ni mazmun kasb etadi.

Xalq e'zozlagan va murakkab turmush sharoitlaridan o'tgan urf-odat va marosimlarni avlodlan-avlodga qoldirish ham o'z holicha bo'lmay, balki bu sohada ham mafkuraning

barcha sohalarida bo'lgani kabi eskilari bilan yangilari o'rtasida, progressivlari bilan reaksionlari o'rtasida keskin kurash ketadi. Shuning uchun ham har qanday xalq an'analarni sarqit deb qaralash yaramaydi. Xalq tomonidan qo'llab-quvvatlangan, e'zozlangan urf-odat va marosimlarni yangi turmushga tabiiq etish katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Kezi kelganda shuni ham qayd qilish kerakki, hozirgi to'y-larimizdagi ortiqcha dahmazalar, ular bilan bog'liq bo'lgan, ammo xalq qoralayotgan ayrim urf-odat va marosimlar ham turmushimizdan siqib chiqarilmog'i darkor.

Hozirgi kunlarda to'y-tantanalarda bajarilayotgan ayrim rasm-rusmlarni «milliy an'anamiz» deb emas, balki bugungi kunda haqiqatan kerakligi yoki kerak emasligi, zamon talabi, turmush madaniyati taraqqiyoti o'rtaga qo'yayotgan mushtarak vazifalar nuqtai nazaridan qarab baho bermoq kerak.

Xalqimiz azaldan to'yni yaxshi ko'radi. Keksalar birovni duo qilsalar, bola-chaqaning to'yiga yet, topgan-tuganing to'yingga buyursin, deydi. To'y-tantanani, quvonchni kim ham orzu qilmaydi. Elimiz farovon, yurtimiz tinch ekan, to'y-lar bo'laveradi. Bu to'qchilik nishonasi, farovonlik belgisidir. To'y, eng avvalo, tinchlik va ma'murchilik belgisi. To'y - xassilikka qarshi o'laroq saxiylik va mehmondo'stlik ramzi.

To'y har doim hayotdagi quvonchli bir daqiqaning ifodasi bo'lgan. Shuning uchun ham mehmatkash xalqning orzu-umid va istaklari to'y marosimlarida mujassamlashgan. To'y bir-biriga muhabbat qo'ygan ikki yoshning katta orzu va umidlar bilan mustaqil hayot sari tashlangan birinchi qadamidir. To'y jamiyatimizning tarkibiy bir qismi bo'lgan yangi, farovon oylaning paydo bo'lishi demakdir. Shuning uchun ham xalqimiz hamma vaqt to'y marosimlariga muhabbat bilan qaraganlar, uni xursandchilik bilan yor-do'stlar davrasida o'tkazishga, yangi paydo bo'layotgan oilaning mustahkam bo'lishiga harakat qilib kelganlar.

To'y kuni har bir kishining yodida bir umr saqlanib qoladi. Ayniqsa, ota-ona, qavmu-qarindosh hamkasblar, qo'ni-qo'shnilar shohidligida yoshlar zimmasiga oila oldidagi burchni, mas'uliyatni his etishni yuklaydi. Ana shuning uchun to'yning abadiy davom etishi shubhasizdir. To'yda ikki yosh ahd-paymon qilib, bir-biriga qo'l beradi, murod-maqsadiga yetadigina emas, u keksa avlodlar bilan bo'lajak avlodimizni bir-biriga bog'laydigan olin halqa. Shuning uchun to'y nihoyatda ulug'vor, nihoyatda go'zal marosim bo'lmog'i kerak.

Nikoh to'y-lari va uning rasm-rusmlari tarixan nihoyatda xilma-xil bo'lib, uning zamirida hamjihatlik, tinch-osuda hayot, ma'naviy barkamollik orzu-talablari ifodalanadi.

Oyoq bosdi - kelin bilan kuyov chimildiqqa kirganidan keyin bir-birining oyoq'ini bosishi odati. Xalq qarashlariga ko'ra, chimildiqqa kelin bilan kuyovdan qay biri avval shertingim oyoq'ini bosishga ulgursa, hayotda o'shaning o'zi o'tadigan bo'lar emish, deb tasavvur qilinadi. Shuning uchun kelin bilan kuyov chimildiq ichiga kirganlarida bir-birining oyoq'ini bosishga harakat qiladilar, kuyov qancha harakat qilmasin, kelin avvaliga oyoq'ini bositirishga yo'l bermaydi. Ammo biroq fursatdan keyin kuyov kelinning oyoq'ini ohista bosib qo'yadi.

Kamay-surnay sadolari ostida kuyov navkarlar kirib kelishadi. Baxshi "oyoq bosdi" va "kim suluv" udumi haqida ma'lumot beradi. Yor-yor sadolari ostida kelin sahnaga kirib keladi.

Keling deymen, do'stlarim,
Terma aytaylik bir maydon.

Kim suluv udumini aytib beray sizga ham,
Oyoq bosdi udumin baxshi so'zlar bir maydon,

Ko'rib tomosha qiling ostonasi tildan.

Qizlar qurshovida "Yor-yor" sadolari bilan sahnaga kelin chiqib keladi.

"Yor-yor"

Hay-hay o'lan-o, jon o'lan, qizlar kelar yor-yor,
Yig'lama qiz, yig'lama, to'y seniki yor-yor,
Ostonasi tillo dan uy seniki yor yor,
Ko'rpachasi shoxidan to'rt seniki yor-yor,
Qomatlari qilichdek yor seniki yor-yor.
Bizlar yor-yor aytaylik birday bo'lib yor-yor,
Tong saharda ochilgay gulday bo'lib yor-yor.

Xalqimiz tomonidan yaratilgan marosimlar nihoyatda ko'p va xilma-xildir. Ular ichida nikoh to'yi kuni o'tkaziladigan "Kim suluv" udumi ham alohida abamiyaga ega. Kuyov jo'ralar va kelinning dugonalari nikoh kechasi "Kim suluv" udumini o'tkazishadi. Ya'ni kelin o'tirganlarga ta'zim qilib bo'lgach, boboga qarab kelinning dugonasi: "Bobojon, "Kim suluv" udumini o'tkazaylik", - deb murojaat qiladi. Bobo: "Marhamat, boshlanglar", - deydi. Shundan so'ng kelinning dugonasi to'y qatnashchilariga qarab: "Kelin suluvmi, kuyovmi?", - deb savol beradi. Qizlar kelin suluv deyshadi, yigitlar kuyov suluv deyshadi. Bu holat uch marta qaytarilgach yigit va qizlar birgalikda kelin bilan kuyov suluv deb javob berishadi. Udum o'tkazib bo'lingach, yigit bilan qiz aytishuvi boshlanadi.

Qiz:

Assalom deng, jon qizlar, g'am bo'lmasin yor-yor,
Kelinyoim dunyoda kam bo'lmasin yor-yor.
Kuyov jo'ra bo'lib kelibsiz, tanishaylik yor-yor,
Keling kuyov ta'rifi aytilaylik yor-yor.

Yigit:

Kuyov bola ta'rifi etay bayon yor-yor,
Yigitlarning ichida soxibqiron yor-yor.

Qiz:

Kelin oyim qoshlari qiyg'os qalam yor-yor,
O'zi bo'lsa Barchinoydek go'zal ko'rkanm yor-yor.

Yigit:

Barchinoy deb atadingiz otlaringiz yor-yor
Shoshning qaysi urug'idan zotlaringiz yor-yor
Birgalikda.

Hay, hay o'lan, jon o'lan Layli misol yor-yor

Kuyov qaylik ikkisi qandu asal yor-yor

Sahmadan yigit-qizlar joy olishgach, baxshi otaxonni chaqiradi. "Qani otaxon to'yni

boshlaylik, boshqa ishini tashlaylik, duo bering biz ham sizdek yoshlaylik"

Otaxonning duosi:

Ikki yosh qo'sha qarisin, tup qo'yib palak yozsin
Tuproq olsa oltin bo'lmasin, oltin boshi omon bo'lmasin.
Kelinimiz epli-sepli bo'lmasin, qadami qutlug' bo'lib, ostonasi tillo dan bo'lmasin.
Ekkani archa bo'lmasin, tikkanlari parcha bo'lmasin.
O'chog'i to'la kul bo'lmasin, uyi to'la o'g'il bo'lmasin.
To'y deb kelganlarning boshi to'ydan chiqmasin.
Allohu akbar. Yigitlar, sizlarga ruxsat yo'q. Faqat kelin-kuyovga ruxsat.
To'y to'ydek bo'lmasin. Kelinning dugonalari ham kutib turishadi. Birgalikda to'y bazmimi boshlaymiz.
Qani, sozanda bolam, sozating sozmi? Sozatingni chal, men ham nabiraginamning to'yida xumordan chiqqunimcha bir o'ynay. Kampirim qani? Kel kampirjon!

Hofiz "Oshnalar" qo'shig'ini aytadi. Yigit-qizlar jo'ra bo'lishadi.

Shohjahon Xolbekov:

"Oshnalar" qo'shig'i

Davra oling oshnalar,

Endi bazm boshlanar.

Yuragida o'ti borey,

Barcha ko'ngil xushlanar.

Tinchligi bor elatda

Ko'p bo'lar to'yxonalar.

Farzandlardan ko'ngli to'q

Xotirjamdir onalar.

El duosin ol do'stim,

Elga sodiq qol do'stim.

SHo'x o'ynasin oshnalar,

Childirimgalni chal do'stim.

Davra oling oshnalar,

Endi bazm boshlanar.

Yuragida o'ti borey,

Barcha ko'ngil xushlanar.

Javohir Tojiboyev:

"Qutlug' bo'lsin" qo'shig'i

Uylanding deb unuvormang jo'ralarni,

Choyxonayu yog'li palov to'ralarni,

Endi tepib o'tmang paqir qo'ralarni.

Naqorat:

Qutlug' bo'lsin, kuyov bola qutlug' bo'lsin,

Qutlug' bo'lsin, kuyov bola qutlug' bo'lsin.

G'ozlar uchar Andijonning soylarida,

To'yalar bo'lsin har bo'ydoqni uyjarida,

Xizmat qilaylik o'g'imgizni to'yjarida.

Naqorat:

Qutlug' bo'lsin, kuyov bola qutlug' bo'lsin,

Qutlug' bo'lsin, kuyov bola qutlug' bo'lsin.

O'tajonim, endi siz ham qaynotasiz,

Kuyov to'ra uxlab qo'lsa uyg'otasiz,

Yelkangizda nabiralar o'ynatasiz.

Naqorat:

Qutlug' bo'lsin, kuyov bola qutlug' bo'lsin,

Qutlug' bo'lsin, kuyov bola qutlug' bo'lsin.

Onajonim armonlariz ketti uchib,

Kir yuvmay'siz kuyov to'ra quvlab so'kib,

O'tirasiz supachada savlat to'kib.

Naqorat:

Qutlug' bo'lsin, kuyov bola qutlug' bo'lsin,

Qutlug' bo'lsin, kuyov bola qutlug' bo'lsin.

Qorong'u ham tushmay buncha imillaydi,

Kuyov bola yuraklari jimillaydi,

Chimildiqni pardalari qimirlaydi.

Naqorat:

Qutlug' bo'lsin, kuyov bola qutlug' bo'lsin,
Qutlug' bo'lsin, kuyov bola qutlug' bo'lsin.

Avazbek Nasritidinov:

"Ajab bo'pti" qo'shig'i
Ko'changizdan endi o'tmam,
Sizga atab qo'shiq bitmam.
Baxtim topdim, tashlab ketman,
Kuyib keting, yonib keting,
Pushaymonda qolib keting.
Ajab bo'lsina, ajab bo'lsin,
Qadrim endi bilindimi,
Menga havas qilindimi,
Yuragingiz ilindimi.
Kuyib keting, yonib keting,
Pushaymonda qolib keting.
Ajab bo'lsina, ajab bo'lsin.

Sirojiddin Topvoldiyev:

"To'tijon" qo'shig'i
Bog'da uchratdim sani,
Gulbog'da uchratdim sani.
Har zamonda bir qarab,
O'zingga o'rgatdim mani.
Olimani oqi bilan,
Yonida yaprog'i bilan,
Mani yorim xat yozadi,
Kichkina barmog'i bilan.
Naqorat:
Olmani ayirdilar,
Shoxlarin qayirdilar,
Ko'ngil bergan yorimdan,
Nomardlar ayirdilar.

Avazbek Nasritidinov:

"Dar shahri Buxoro" qo'shig'i
Setora dar xavo, mebinam inshab,
Zamirozerupo mebinam inshab,
Buxoroyu zebogar inshab,
Be goxi mar astuman gat inshab.

Dar shahri Buxoroyu inshab,
Be gohi murod ast magar inshab,
Sitora dar xava, mebinam inshab,
Be gohi murar ast magar inshab,
Biyo duxtar turo mebinam inshab,
Be gohi murod ast magar inshab.

Zehiniso zerupo mebinam inshab,
Begohi murod ast magar inshab,
Dar shahri buxoroyat inshab,
Be goxi: murod ast magar inshab,
Biyo duxtar turo mebinam inshab,
Begohi murod ast magar inshab.

Kamoliddin Toshboyev:

"O zam-zam" qo'shig'i
O zam-zam, e zam-zam, qizlar keladi zam-zam.
Ko'molini yopinib, jonon keladi zam-zam.
Jonim dedim jonona, husningda men hayrona,
Menga kulib boqmasang, ko'nglim bo'lar vayrona.
Qoshingni qoralatay, o'smani surolatay.
Atlas ko'yalak kiydirib, Boysunni oralatay.

Mir'iyos Miryunusov:

"Polvon" qo'shig'i
O'zbek elim polvoni, shu yurtimning o'g'loni,
Kuragi yerga tegmas, o'zbek o'g'li polvoni.
Naqorat:

Ha polvon, ha polvon, citorlar maydonga polvon,
Elim suygan o'g'loni. botir bo'l sen polvon.
Hammani chortlar doim, o'zbek o'g'li polvoni,
O'zbegimning ishongar, polvoni bo'lg'in doim,
Kuragi yerga tegmas, mard bo'lg'in, polvon bo'lg'in.

Husniddin Eshdavlato:

"Jo'rajon" qo'shig'i
Boysun tog'da chashma bor, chashma bo'yida bir yor,
Suv bo'yida o'tirib, aytadi yalla yor-yor.
Naqorat:

Oh jo'rajon o'ynaylik,
Kel jo'rajon o'ynaylik.
Boysun tog'ning toshini,
Ko'rmayin ko'z yoshini.
Tillolarga alishmam
Boysunning bir toshini.

Zafar Mahamatov:

"Zuva-zuva" qo'shig'i
Zuva-zuva ziyoda,
Qaydan kelar piyoda.
Boyvachchasi kerilib kelar,
Orda yoki tuyada.
Boyning qizi bo'rsildoq,
Ikki beti tirsildoq,
Tushlariga har kuni
Kuyov kirar gursillab.

Tush ta' biri tasqara,
Qizni qilar masxara,
Qasdini mendan olib,
Ko'nglimni qildi yara.
Bilagidan bir tutsam,
Qochdi yuzi larsillab,
SHo'xligimdan boshga qamchi,
Qo'nar bo'ldi qarsillab.

Hadiullo G'oiyov:

"Qoshi qaro qaroko'z" qo'shig'i

Qoshi qaro qaroko'z, biz tomona qiyo boq,
Ko'zing suzib noz bilan, man tomona qiyo boq,
Boqqa girasim galdi yor, gullar terasim galdi,
Gulni bahona qilib, ey sizni go'rasim galdi,
Qoshi qaro qaroko'z, biz tomona qiyo boq.

Abbos Polvonov:

"Olma pishganda galing»» qo'shig'i

Olma pishganda galing, teyina tushganda galing,
Agar xiyol atsangiz, ko'ngila tushganda galing,
Suv galadi mo'ridan, mo'ridanam naridan,
Akaginang aylansin go'zginangni zoridan.

Naqorai:

Esadi bog'ning shamoli, go'rindi yorning jamoli,
Aqlu hushini olgan oq yuzinda dona xoli.

Naqorai:

Suv galadi Oqtoshdan, sherozi dushdi boshdan,
Sherozi tushsa tushsin, ayrima qalam qoshdan.

Hilola Xo'jayeva:

"Galmadi" qo'shig'i

Oqcha sana sirim bayon aylayin, aylayin,
Yorning guli galdi, o'zi galmadi, yor galmadi.
Boshimdan o'tganin bayon aylayin, aylayin,
Yorning guli galdi, o'zi galmadi, yor galmadi.
Chik cheta, chik arvachi,
Bo'l, cheta chik arvachi.

Chert sunnayni sunmaychi,
O't yak tunchaga chavchi.

Sarki lazgi bu kizmang,
Kizishmang birdam-birdam.

Lazgimi lazgidek o'ynang,
Qars o'rib hardam-hardam.

Har kima birdan-birdan,
Axa-axa-axa, voxa-voxaxa-voxaxa.

Qistamang bu bir jodu,
Laylara birdam amas bu.

Lakirda kishtak amas bu,
Qars o'rib hardam-hardam.

Har kima birdan-birdan.

Axa-axa-axa, voxa-voxaxa-voxaxa.

Lazgi lazgat degani,

Joning rohat degani,

Joning hazad degani,

Qars urib hardam-hardam,

Har kima birdan-birdan.

Axa-axa-axa, voxa-voxaxa-voxaxa.

Palvon yopdan o't dadilar, o'tmadim,

Suvlaridan ich dadilar, ichmadim.

Bo'yinima soldilar qilich xanjarin,

Shu bo'ladan gech dadilar, gechmadim.

Axa-axa-axa, voxa-voxaxa-voxaxa.

Barcha qatnashchilar karmay-surnay sadolari ostida raqsqa tushadilar.

Boshlovchi: Shuning bilan "Oyoq bosdi" mavzuidagi ijodiy dasturimiz nihoyasiga yetdi. E'tiboringiz uchun rahmat!

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, loyihda doirasida o'zbek milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlarini haqida fikr yuritilgan ekan, O'zbekistonning turli tarixiy etnografik mintaqalarida yashovchi o'zbeklarning tarixiy tajribasini ilmiy tahlil etishda ijtimoiy tafakkurning rivojlanishi natijasida milliy an'analarning yosh avlodga yuksak ma'naviy tarbiya berish, bilim berishda amaliy ahamiyati beqiyos ekanligi ko'rsatib berildi.

O'zbek xalqining boy va rang-barang folklor merosiga ega bo'lgan etnik tarkibining serqatlamligi va tarixiy taraqqiyot yo'lining dunyo tamadduni o'choqlaridan bo'lmish Markaziy Osiyodagi ikki daryo oralig'ida kechganligi bilan ham chambarchas bog'liqdir. Chunki Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hudud qadim-qadimdan xalqlarning buyuk ko'chishlari hamda turli siyosiy, madaniy, iqtisodiy munosabatlardagi yuksalish va tushishlarda bir chorraha vazifasini o'tagan. Bu borada birgina Buyuk Ipak yo'lining ushbu hududini deyarli to'liq kesib o'tganligini eslashning o'zi kifoya. O'z navbatida, qaysi yerdan savdo yo'llari o'tsa, o'sha joyda iqtisodiy-siyosiy va madaniy yuksalish jarayonlari kechganligi tabiiydir.

O'zbek xalqi tom ma'noda boy madaniy meros yaratgan. Jumladan, uning folklori hajm va badiiyati bilan ham alohida e'tiborga loyiq. Uning kelajak avlodni har tomonlama g'oyaviy-estetik jihatdan tarbiyalashdagi ahamiyati beqiyosdir. O'zbek xalq poetik ijodi uzoq asrlar davomida shakllanib, rivojlanib bugungi kungacha yetib kelgan. Folklor asarlarining asosiy xususiyatlaridan biri-yaratuvchi va ijro jarayonlarning o'ziga xos ko'rinishlarga ega bo'lganidir.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qisq muddatda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha tarixiy, madaniy, adabiy va san'at yodgorliklari, jumladan, xalq og'zaki ijodi namunalari chuqur o'rganish, tahlil qilish, ulardagi umumboshariy va milliy g'oyalarning zamon talablariga mos ravishda yosh avlodni komil inson sifatida tarbiyalash yo'lida ushbu merosdan foydalanish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Istiqloq tufayli xalq og'zaki poetik ijodini rivojlantirishga, xalq yaratgan ma'naviy-madaniy merosni avvalgidek sinfiylik nuqtai nazaridan emas chinakamiga san'at namunalari sifatida chop etish va tahlil etishga imkoniyati yaratildi. Xalq donoligining nodir namunalari bo'lmish folklor asarlari mag'zidagi ezgu g'oyalar haqida Prezidentimiz shunday yozgan: "Qadimgi ajdodlarimiz komil inson haqida butun bir axloqiy talablar majmuasini, zamonaviy til bilan aytib, sharqona axloq kodeksini ishlab chiqqanlar. Kishi qalbidan haromdan hazar, nopokka, adolatsizlikka nisbatan murossasiz isyon bo'lishi kerak», deganlarida hozir o'sib kelayotgan yosh avlod uchun nihoyatda kerakli bo'lgan ma'naviy tarbiya masalasi ko'zda tutilgan edi. Shunday ekan, komil inson tarbiyasida xalq donishmandligining manbai hisoblangan xalq og'zaki ijodi namunalari eng muhim ma'naviy boylik hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi - mehnatkash xalq ijodi. Xalq badiiy faoliyatining tarkibiy qismi bo'lmish folklor asarlari xalq san'atining boshqa turlaridan: musiqa, teatr, raqs, tasviriy va amaliy san'at hamda boshqalardan og'zaki so'z san'ati ekanligi bilan ajralib turadi. U og'izdan-og'izga, avlodlardan-avlodga, davrdan-davrga o'tib, xalqning iste'dodli vakillari ijrosida sayqal topadi. Folklor asarlari dastlab qanday yaratilgan bo'lsa, o'sha holicha saqlanib qolmay, ijod va ijroda nimalardir o'zgaradi, qayta ishlab tashlanib qilinadi, yangi-yangi ma'lumotlar bilan boyitilib, tarixiy sharoitga moslashib, shu bilan birga yozma adabiyotga ijobiy ta'sir etadi.

Folklor asarlarida musiqa, raqs, teatr san'ati elementlari qo'shilib ketganligi sababli folklori sinkretik (aralash) san'at deyishimiz mumkin. Ayni paytda folklor asarlari san'atning boshqa turlaridan o'ziga xos tomonlari bilan farqlanadi. Folklorida so'z, kuy va

ijro birligi doimo saqlanadi. Folklor asarlari mehnatkash xalqning hayotini aks ettiradi. Xalqning olam haqidagi tushunchalarini ijtimoiy-tarixiy, siyosiy, falsafiy va badiiy-estetik qarashlarini o'zida mujassamlashtiradi. Bu narsalar folklor asarlari mazmuni va g'oyasining chuqur xalqchilligini ko'rsatadi. Folkloridagi xalqchilikning asosini uning progressiv mohiyati tashkil qiladi. Tarixiy-ijtimoiy voqealar folklor asarlarida xalqning munosabatlari nuqtai nazaridan qaraladi.

Ilova: Multimedia, o'quv diski va fotolavhalaridan namunalalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ma'naviy yuksalish yo'lida: tarix, ma'rifat, ma'naviyat. – Toshkent: O'zbekiston, 1988.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Karimov I.A. Istiqloq va ma'naviyat. Toshkent: O'zbekiston, 1994.
4. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
5. Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2000.
6. Abashin S.N. Kalim i maxr v Sredney Azii: pravo ili ritual? // Otechestvenniye zapiski. 2007. № 2.S.428-435.
7. Abdullayev U.S. Farg'ona vodiysidagi etnoslararo jarayonlar. – Toshkent, 2005.
8. Abdullayev R.S. Obryad i muzika v kontekste kulturi Uzbekistana i Sentralnoy Azii. – Toshkent, 2006.
9. Yo'ldosheva S. Barhayot an'analar. – Toshkent: 1999.
10. Yo'ldosheva S. Folklor-etnografik jamoalar uslubiyoti. Toshkent, 1999.
11. Yo'ldosheva S. Xalq urf-odatlari va an'analari. – Toshkent: Ijod dunyosi. 2003.
12. Mirzayev T., Safarov O., O'rayeva D. O'zbek xalq ijodi xrestomatiyasi. – Toshkent, 2008.
13. Toshmatov O'. Navro'z qo'shiqlari. – Toshkent, 1998.
14. Ashirov A. «Avesto» dan meros marosimlar. – Toshkent, 2001.
15. Ashirov A.A., Sarimsoqov A.A. Farg'ona vodiysi o'zbeklarining dehqonchilik bilan bog'liq marosimlari va urf-odatlari. //O'zbekiston hududida dehqonchilik madaniyatining tarixiy ildizlari va zamonaviy jarayonlar. – Toshkent, 2006. B. 98-105.
16. Ashirov A.A. O'zbek xalqining kadimiy e'tiqod va marosimlari. – Toshkent, 2007.
17. Safarov O. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1986.
18. Jo'rayev M. O'zbek xalq qahramonlik eposi. Fan, 1999.
19. Alpomish-o'zbek xalq qahramonlik eposlari. – Toshkent: Fan, 1995.
20. Alaviya M. O'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Fan, 1974.
21. Yo'ldosheva S., Davlatova S., Sattorova G. Folklor kiyimlari va bezaklari. – Toshkent: Talqin, 2007.
22. Yo'ldosheva S., Sattorova G. Folklor-etnografik ansambllari. – Toshkent: O'qituvchi, 2007.
23. Borozna N.G. Materialnaya kultura uzbekov Babataga i Kafirmigana. // Materialnaya kultura narodov Sredney Azii i Kazaxstana. M., 1966. S. 91 – 110.
24. Bo'riyev O. Navro'z tarixidan lavhalar. – Toshkent, 1990.
25. Bo'riyev O. O'zbek xalqining boqiy qadriyatlari. – Qarshi, 2005.
26. Davlatova S.T. O'zbek milliy kiyimlari: an'anaviylik va zamonaviylik. – Toshkent, 2006.
27. Djabbatov I.M. Uzbeki: (Etnokulturniye traditsii, bit i obraz jizni). – Toshkent, 2007.
28. Donyorov X. O'zbek xalqining shajara va shevalari. – Toshkent, 1968.
29. Ismoilov H. An'anaviy o'zbek kiyimlari (XIX asr oxiri - XX asr boshi). – Toshkent, 1979.
30. Korog'i X.G. Oguzskiy geroicheskiy epos. –M., 1976.
31. Koshg'ariy M. Devonu lug'atit turk. 3 jild. –Toshkent, 1963.
32. Lobacheva N.P. Formirovaniye novoy obryadnosti uzbekov. –M., 1975.
33. Mavlonov O'. Markaziy Osiyoning qadimgi yo'llari. –Toshkent, 2008.

34. Pesherova Ye.M. Prazdnik tyulpana (tola) v selenii Isfara Kokandskogo uезда // V.V.Bartoldu – turkestanskiye druzya, ucheniki i pochitateli. –Tashkent, 1927. S. 374 – 384
35. Riveladze E.V. Navruz – prazdnik schastya i blagodenstviya // Exo istorii. 2003. № 1. S. 14 – 17.
36. Sarimsoqov B., Turdimov SH. Eilimzining qadimiy bayrami // Yoshiik. 1990. № 3. B. 34–35.
37. Snesarev G.P. K voprosu o proisxojdenii prazdnestva summat toy v yego sredneaziatiskom variante // Zanyatiya i bit narodov Sredney Azii. L., 1971. T. III. S. 256 – 273.
38. Sovremenniy etnokulturniye protsessi v maxallyax Tashkenta. –Tashkent, 2005.
39. Sovremenniy etnosotsialniye protsessi na sele. –M., 1986.
40. Sodiqova N. O'zbek milliy kiyimlari XIX - XX asrlar. –Toshkent, 2006.
41. T oshkent mahallalari: an'analar va zamonaviylik. –Toshkent, 2002.
42. Hamrayev A.X. Prazdnik «krasnoy rozi» u uzbekov // ONU. –Tashkent, 1958. № 6. S. 72 – 73.
43. Shoniyoov K.Sh. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. –Toshkent, 2001.
44. O'zbekiston Respublikasi. Ensiklopediy. –Toshkent, 1997.
45. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. –Toshkent, 2006-2008.
46. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Toshkent, 2005. T. 10.
47. Qoraboyev U. O'zbek xalqi bayramlari. Toshkent, 2002.
48. Sayfullayev B. Tomosha san'ati tarixi va nazariyasi, Toshkent, 2014.
49. Yo'ldosheva S. Folklor-etnografik jamoalari uslubiyoti, Toshkent, 2014.
50. Abduraxmonov I. O'zbek xalq o'yinlari va tomosha madaniyati, Toshkent, 2009.
51. Yo'ldosheva S. Marosim va udumlarini sahnalashtirish. Toshkent, 2008.
52. Davlatov S. An'ana va marosim. Toshkent, 2009.
53. Toshmatov O'. Badiy jamoalar bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent, 2006.
54. Qodirov M., Qodirova S. Qo'g'iroqchoq teatri tarixi. Toshkent, 2006.
55. Qosimov N. Musiqa folklor ijrochiligi. Toshkent, 2003.
56. Qosimov N. Folklor musiqa ijrochiligi. Toshkent, 2008.
57. Asitirov A. Etnologiy. Toshkent, 2007.
58. Xayitova O. Xorazm qo'shiq ijrochilik an'analari. Toshkent, 2006.
59. "Boysun bahori" Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Boysun, 2002.
60. Jo'rayev M., Xudoyqulova L. Marosimnoma. Toshkent, 2008.
61. Jo'rayev M., Toxirov O'. Ostonasi tilidan. Toshkent, 2003.
62. "O'zbek xalqining milliy folklor san'ati va etnomadaniy qadriyatlari" Ilmiy to'plam. Toshkent, 2013.
63. "Nomoddiy madaniy meros va etnomadaniy qadriyatlar" Ilmiy seminar materiallari. Toshkent, 2014.

MUNDARIJA

So'zboshi.....	3
M.Jo'rayev. O'zbek folklor san'ati va folklorshunosligi tarixi.....	6
B.Sayfullayev. An'anaviy tomosha san'ati va ommaviy bayramlar.....	13
S.Yo'ldosheva. Mustaqillik davri folklor san'atining taraqqiyot bosqichlari.....	21
A.Ashirov. O'zbeklarining etnomadaniy qadriyatlari va an'anasi.....	36
N.Qosimov "Lapar va o'lan ijrochiligining o'ziga hos xususiyatlari.....	45
O'.Toshmatov. Noyob musiqiy cholg'ulari.....	57
G.Ro'ziyeva. Ommaviy tadbirlarni tashkil etishda folklor-etnografik jamoalari dasturlaridan foydalanish usullari.....	67
Yo'ldosheva S., Ro'ziyeva G. Folklor-etnografik jamoalari repertuaridagi asarlarning senariysi, ijrochilik mahorati va badiiyati.....	75
XULOSA.....	170
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	172

ЎЗЎБЕК ҲАҚИ

KBK: 80.12(50'zb) 8
M 85
UO'K: 162(55+2)3.7

ISBN 978-9943-381-47-6

O'ZBEK MILLIY FOLKLOR SAN'ATI VA ETNOMADANIY QADRIYATLAR

O'QUV QO'LLANMA

Muharrir Zuhra Keldiboyeva

Texnik muharrir Ilhom Qosimov

Musahhih Ozoda Qo'ldosheva

«NAVRO'Z» nashriyoti
Nashriyot litsenziyasi AI № 170. 23.12.2009.
Toshkent, Amir Temur ko'chasi 19 uy.

Adadi 100 nusxa. 11 b/t. Bichimi 60x84 ¹/₁₆
«Times New Roman» garniturasida. Ofset usulida bosildi.
«BROK CLASS SERVIS» bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahar Zargarlik ko'chasi, Segizboeva 10a.



ISBN 978-99-43-381-47-6
9 789943 138147 6